

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ХАЛҚ ТАЪЛИМИ ВАЗИРЛИГИ

АЖИНИЁЗ НОМИДАГИ
НУКУС ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА ИНСТИТУТИ

2017 йил «Халқ билан мулоқот ва инсон манфаатлари» йили
Давлат дастури доирасида ўтказилаётган «Ўзбек
филологиясининг илмий назарий масалалари ва ўқитиш
технологиялари»

мавзусидаги Республика
илмий-назарий анжуман

МАТЕРИАЛЛАРИ

Нукус - 2017

«Ўзбек филологиясининг илмий-назарий масалалари ва ўқитиш технологиялари» мавзусидаги Республика илмий-назарий анжумани материаллари тўплами. Нукус НМПИ бнашриёти 2017 йил. 172 бет

«Ўзбек филологиясининг илмий-назарий масалалари ва ўқитиш технологиялари» мавзусидаги Республика илмий-назарий анжумани материалларига Республикамизнинг олий ва ўрта махсус ўқув юртлари педагог-ходимлари, илмий ходимлар, изланувчи-тадқиқотчилар, магистрантлар, талабалар ҳамда мактаб ўқитувчиларининг тилшунослик ва адабиётшуносликнинг илмий назарий ва методик масалаларга бағишланган маърузаларининг тезислари киритилган.

Анжуман материалларининг мазмуни ва унда келтирилган манбаларнинг тўғрилигига муаллифлар шахсан масъулдир

Таҳрир хайъати аъзолари:

- Г.Курбаниязов – ф.ф.н. Ўзбек тили ва адабиёти факультети декани,
таҳрир хайъати раиси, ф.ф.н., доцент
- К.Курамбаев – ф.ф.д. Ўзбек адабиёти кафедраси мудир,
таҳрир хайъати раиси ўринбосари, ф.ф.д., профессор
- Ш.Юлдашева – Ўзбек тили кафедраси мудир, п.ф.н., доцент
- С.Матякупов – Ўзбек адабиёти кафедраси, ф.ф.н., доцент
- М.Худаярова – Ўзбек тили кафедраси катта ўқитувчиси, ф.ф.н.
- Ш.Бўронова – Ўзбек тили кафедраси катта ўқитувчиси, п.ф.н.
- С.Жалилов – Ўзбек тили кафедраси катта ўқитувчиси
- А.Султонова – Ўзбек тили кафедраси катта ўқитувчиси

СЎЗ БОШИ

Таълим тизимида тил ва адабиёт ўқитишдан бош мақсад таълим олувчиларни мантиқли ва тўғри сўзлаш, саводли ёзиш, аниқ тафаккур қилиш малакасини юқори босқичга кўтаришдир. Бунда, шубҳасиз, ўзбек тилининг фонетик, лексик, грамматик хусусиятларини пухта эгаллаш, оғзаки ва ёзма нутқ талабларига қатъий риоя қилиш, шунингдек, халқ оғзаки ижоди, мумтоз ва замонавий адабиёт намуналаридан, халқимизнинг бой миллий-маънавий қадриятлари билан яқиндан танишиши ҳамда ўқитишнинг илғор усуллари ва ахборот коммуникацион технологияларидан мақсадли фойдаланиш малакаларини эгаллаш алоҳида аҳамиятга эга.

Ўзбекистон Республикасининг Биринчи Президенти И.Каримов «Юксак маънавият – енгилмас куч» китобида миллий маънавият, миллий қадрият, миллий тил ва адабиётимизнинг ривожини учун жонбозлик кўрсатиш ҳар биримизнинг кундалик бурчимиз эканлигини қайта-қайта таъкидлаб ўтган эдилар. Чунки ҳар қандай миллатнинг ривожини ва тараққий топишида она тили ва адабиётнинг ўрни муҳимлиги азал-азалдан аён ҳақиқатдир.

Гуманитар йўналишдаги тилшунослик ва адабиётшунослик бугунги кунда мислсиз ривожланиб, ижтимоий турмушнинг барча жабҳаларига дадил кириб бормоқда. Натижада кишиларнинг фикрлаш доираси кенгайиб, оламни кенг мушоҳада орқали билишга, воқеа-ҳодисаларга онгли муносабатда бўлишга интилиш жараёни яққол сезилмоқда.

Табиийки, тилшунослик ва адабиётшунослик турли фан тармоқлари билан алоқадорликка эга. Натижада тилшуносликнинг этнолингвистика, социоллингвистика, психоллингвистика, математик лингвистика, компьютер лингвистикаси, гендероллингвистика каби йўналишлари майдонга кела бошлади. Мазкур тўпламда ана шу йўналишларда майдонга келган фикрлар ва қарашларга муносабат, унинг ўзбек тилшунослиги ва адабиётшунослигидаги талқини масалаларига кенг ўрин берилган.

Бугунги глобалашув даврида таълимнинг дунё тан олган умумметодологик жиҳатларига, яъни чет эл тажрибалари асосида замонавий

ўқитиш усулларида, ахборот коммуникацион технологияларида фойдаланиш масалаларига бағишланган, қардош ва ноқардош тиллар билан ўзбек тили ва адабиятини муқояса қилиб ўрганиш масалаларига бағишланган ишлар ҳам ўрин олган.

Тўпلامга биринчи қадам сифатида талабаларининг ҳам қораламаларини киритиш маъқул деб топилди. Уларнинг изланишларида ҳали маромига етмаган, таҳрир талаб ўринлар учраши табиий. Зеро, катта кашфиётлар ва тадқиқотлар майда ёндашувлар замирида пайдо бўлади. Ана шу жиҳатларни ҳисобга олиб, таҳрир ҳайъати уларни ҳам чоп этишни маъқулладилар.

Ташкилий қўмита

1-СЕКЦИЯ

ЎЗБЕК ТИЛШУНОСЛИГИ: ТИЛ ЎҚИТИШ НАЗАРИЯСИ ВА МЕТОДИКАСИ

ЎЗБЕК ТИЛШУНОСЛИГИДА ПРЕСУППОЗИЦИЯ ХОДИСАСИ ХУСУСИДА

Ибрагимов Ю.М. – Нукус ДПИ Ўзбек тили кафедраси профессори

Ўзбек тилшунослигида пресуппозиция ҳодисасини ўрганиш энди-энди бошланди. Бу ҳодисанинг айрим қирраларини ёритувчи учта мақоланинг чиқиши (3:1986; 4:1990:23; 5:1986:28-42) ҳам ўзбек тилшунослигида бу ҳодисани ҳали атрофлича ўрганилмаганлиги ва долзарблигини кўрсатади. Бугунги кунда аниқ бўлиб қолдики, синтаксис, семантика, прагматика ўзаро диалектик боғлиқдир. Чунки мазмуний синтаксис йўналишидаги ҳар қандай тадқиқот, агар у ана шу уч тушунчага асосланмас экан, ҳеч қачон ҳолис ва илмий ҳулосага кела олмайди (4:1990:25)

Ю.С.Степановнинг таъкидлашича, семантика, синтактика, прагматика ҳозирги тилшуносликда кенг маънодаги тузилиш сифатида ўрганилмоқда.

Номинация _____ семантика _____ номинатив вазифа;

Предикация _____ семантика _____ синтактик вазифа;

Перформация _____ прагматика _____ прагматик вазифа;

Тилнинг юқорида кўрсатилган вазифалари ҳар бир тил учун умумий ҳисобланади. (4:1990:25) Лекин ҳар бир тилда мавжуд бўлган грамматик шакллар турлича мазмуний хусусият касб этади. Шунинг учун ҳар бир тилнинг прагматик вазифасини шу тил материаллари асосида изоҳлаш керак. **Тилнинг прагматик вазифасини кўрсатувчи ҳодисалардан бири пресуппозициядир.**

Пресуппозиция ҳодисаси ҳозирги замон лингвистикаси билан мантииқий семантика ўртасидаги кўприк ҳисобланади. Бу ҳодиса гапнинг тўғри англаниши учун энг зарур компонентдир. Чунки пресуппозиция гапнинг вазият, контекст ҳамда сўзловчи ва тингловчиларнинг олдиндан маълум бўлган умумий билимлари каби элементларни ўз ичига олувчи ҳодисадир. Шунинг учун ҳар қандай гап пресуппозицияси ҳодисаси асосида таҳлил этилмаса, тўғри баҳоланмайди. Пресуппозиция ҳодисаси прагматиканинг асосий узвларидан биридир. Чунки пресуппозиция сўзловчи ва тингловчи ўртасидаги ўзаро шартнома сифатида юзага келади. Шартнома эса тил бирликлари асосида тузилади. Шунинг учун прагматик сатҳда пресуппозиция ҳодисаси алоҳида аҳамиятга эга.

Н.Маҳмудовнинг фикрича, тил бирликлари ва шу тил эгаси ўртасидаги муносабат масаласи ҳозирги кунгача бўлган ўзбек тилшунослигида эътибордан четда қолиб келди (4:1990:25). Шу жиҳатдан пресуппозиция ҳодисасининг тадқиқи ҳозирги кунгача бўлган ўзбек тилшунослигида кемтик жойни тўлдириш мумкин.

Мазмуний синтаксисда синтактик, семантик ва прагматик маънолар фаркланади. **Прагматик маъно** сўз ёки гапнинг муайян нутқ вазиятида англатадиган маъносидир (4:1998:5). **Прагматикага кўра, тилдаги лексик маънога эга бўлмаган сўзлар, мавҳум маъноли олмошлар, атоқли отлар турли пресуппозициялар англатиб келади. Шунинг учун ҳозирги ўзбек тилшунослигида лексик маънога эга бўлмаган турли бирликларнинг, жумладан,**

олмошларнинг, атоқли отларнинг, ёрдамчи сўзлар (боғловчи, кўмакчи ва юклама)ларнинг прагматикага кўра англатадиган пресуппозицияларини тадқиқ этиш шу тил бирликлари хусусида айтилган чалкаш фикрларни тўғрилашга имкон беради.

Прагматикага кўра, тил бирликлари муайян нутқ шароитида умуман бошқа маъно англатиши ёки лексик маънога эга бўлмаган бирликлар ҳам маълум маънога эга бўлиши мумкин. Масалан, *фақат, ҳам, холос* каби сўзлар лексик маънога эга бўлмаса ҳам, муайян нутқ шароитида битта содда гапга тенг бўлган фикр англатиб кела олади. *«Фақат китоб олдим»* (Бошқа нарсаларни олмадим); *Китоб ҳам олдим* (Бошқа нарсаларни ҳам олдим); *Китоб олдим холос* (Бошқа нарсалар олишим керак эди, олмадим). Ёки Теша олиб келди гапини икки хил мазмунда тушунамиз. Шу гапни тўғри тушунишимиз учун бизга пресуппозиция ёрдам беради. Чунки бу гапни сўзловчи ва тингловчи учун маълум бўлган умумий билимга кўра фарқлаш мумкин. Агар муайн нутқ шароитида сўзловчи ва тингловчида қурилишда ишлатиладиган меҳнат куроли – теша олиб келиш ҳақидаги ёки Теша исмли кишининг бирор нарса олиб келиши ҳақидаги олдиндан маълум бўлган билим мавжуд бўлсагина юқоридаги гапдан бирор нарсани тушуниш мумкин.

Ҳар қандай текст пресуппозицияга кўра шакл жиҳатдан соддалашиб, қисқариб боради. Ҳар қандай содда гапда пресуппозицияга ишора қилувчи воситалар, айниқса лексик маънога эга бўлмаган ёрдамчи сўзлар, олмошлар, равишлар, ўхшатишли қурилмалар иштирок этадиган бўлса, ўша гап мазмуний жиҳатдан мураккаб бўлади. М.:

1. Китоб ҳам олдим. (Бошқа нарсалар ҳам олдим)
2. Фақат китоб олдим (Бошқа нарсалар олмадим)
3. Мен олган нарса китоб эмас (Китоб деб ўйланган)
4. Ўша гапдан ҳафа бўлма (Аввал қандайдир гап айтилган)
5. Китобнинг охири яхши (Бошланиши яхши эмас).

Юқоридаги гаплар пресуппозицияга кўра мазмуний жиҳатдан мураккаблашган.

Гапларнинг коммуникатив типларини тадқиқ этишда ҳам пресуппозицияга мурожаат қилмасликнинг иложи йўқ. Маълумки, сўроқ гапларда ҳукмнинг ифодаланиши ҳақидаги фикрлар ҳозирги кунгача мунозарали бўлиб келмоқда. *Баъзилар ҳукм ифодаланмайди. - деса, баъзилари ҳукм яширин ифодаланади Айрим сўроқ гапларда ҳукм ўта хусусий кўринишга эга, - деб изоҳласа, айримлар сўроқ гапда ҳукм ифодаланмайди (2:1979:56), ҳақиқий ҳукм сўроққа берилган жавобдан англашилади, дейди. Бизнингча, юқорида айтилган фикрларни пресуппозицион таҳлил асосида умумлаштириши зарур. Чунки –ми, -чи, -а, -я каби сўроқ мазмун ҳосил қилувчи гапнинг мазмун аспекти ясовчи қўшимчалар (2:1979:57) (биз –ми, -чи, -а, -я кабиларнинг турли хусусиятларидан ва юкламаларнинг мазмуний грамматик талқинидан ҳамда сўроқ гапларнинг махсус гапнинг коммуникатив тури эканлигидан келиб чиқиб юклама демадик) орқали ҳосил қилинган сўроқ гапларда ҳукм ифодаланмайди. Ҳукм сўроққа берилган жавоб орқали ифодаланади. Лекин пресуппозицион таҳлил этилса, айрим ўринларда ҳукмнинг яширин ифодаланиши кўзга ташланади. М.: Шўх, қизиққон, беодоб бола эди-а? гапидан «Ҳозир сипо, босиқ, одобли бўлиб қолганлиги» тўғрисидаги ҳукм яширин ифодаланмоқда. Бундай ҳукмни пресуппозицияга кўра тушунишимиз мумкин.*

Сўроқ олмошлари ёрдамида тузилган «аслий сўроқ гаплар» да ҳукм хусусий тарзда яширин англашилади. М.: Ким кеч қолди? (Кимдир кеч қолган).

«Нисбий сўроқ гаплар» да ҳам ҳукм пресуппозицияга кўра яширин ифодаланади, лекин хусусий кўринишда эмас.

Демак, гапнинг коммуникатив турларининг ўзига хос хусусиятларини ойдинлаштиришда пресуппозицион таҳлил алоҳида аҳамият касб этар экан. Чунки ҳар қандай гапда бирдан ортиқ импликация мавжуд бўлиши мумкин. Бу импликациялар хусусий ва нутқий ҳисобланади. Худди шу импликациялар асосида текст ичидаги гаплар ўзаро боғланиб, маълум мазмунга эга бўлади: М.: Аҳмаднинг тўнғич ўғли Карим Андижондан Тошкентга ўқишга кетди» типдаги гаплардан турли импликацияларни тушуниш мумкин.

1. Аҳмаднинг фарзандлари бир нечта.
2. Карим Аҳмаднинг энг катта ўғли
3. Аҳмаднинг Каримдан бошқа ўғиллари ҳам бор
4. Карим ўрта мактабни тугатган
5. Карим талаба
6. Карим шу кунгача Андижонда бўлган
7. Карим ҳозир Тошкентда
8. Аҳмад – ота, эркак
9. Карим – ўғил, эркак.

Кўринадики, бир гап орқали бир қанча пресуппозициялар англаниши мумкин. Бу пресуппозициялар дедуктив ва индуктив жиҳатдан чиқарилган ҳукмлар асосида тушунилади. Демак, текст қурилишида диалектив боғланишни ҳосил қилувчи ҳодиса сифатида муҳимдир.

Тилда мавжуд бўлган омонимия, синонимия, антонимия ҳодисаларини ҳам пресуппозицион таҳлил этилса, айрим ўзига хос қирралари очилган бўлар эди. Бу ҳодисаларнинг турли хил сатҳларида мавжуд эканлиги ва ҳар бир сатҳда ўзига хос восита орқали рўёбга чиқишини пресуппозицион таҳлил орқали тушунтириш мумкин.

Н.Д.Арутюнова кури́тмоқ (сушить) феълидан «хўллик» (мокро) маъносини уқиб олишимиз мумкин², - дейди. Лекин «хўллик» маъноси «кури́тмоқ» сўзининг гап ичида турли хил сўзлар доирасидаги муносабати асосида англашилади. Гапда «хўллик» маъноси шаклан ифодаланмаса ҳам «кури́тмоқ» сўзининг мазмуний боғланишидан англашилиб туради. М.: Жуман кўцлагини кумга ёйиб кури́тди (А.Муҳтор) гапидан «Жуманнинг кўйлаги хўл эди» пресуппозицияси антонимия ҳодисаси орқали англашилмоқда.

Халқ мақоллари, маталлари ва ибораларини ҳам мазмуний грамматик хусусиятларини аниқлаштиришда, уларнинг тўлиқ бадий кийматини белгилашда пресуппозицион таҳлил кўл келади. Чунки кўпгина халқ мақоллари, маталлари ва иборалари тўла шаклланмаган ҳолда берилади. Бундай ҳолат уларнинг мазмуний грамматик ва стилистик хусусиятидан келиб чиқилган ҳолда юзага келган. Уларнинг тўла шаклан ифодаланмаса ҳам тушунарли бўлишлиги пресуппозицияга кўрадир. М.: Ҳақиқат эгилади, букилади, лекин синмайди (х.м.). Бу халқ мақолидан «Ёлғон эгилганда, букилганда синади» тарзидаги пресуппозиция англашилмоқда. Бу халқ мақолининг бадий қимматини, стилистик хусусиятини пресуппозиция

² Арутюнова Н.Д. Предложение и его смысл. М., 1976. стр.115

аниқлаштирган. Агар биз ёлгоннинг умри қисқалиги, синуши, ўлиши ҳақидаги умумий билимга эга бўлмасак, юқоридаги халқ мақолининг бадиий қимматини тушунмаган бўлар эдик.

Хуллас, пресуппозиция прагматиканинг ўзига хос серқирра узвларидан бири бўлиб, унинг юзага чиқиши ва ишора воситалари ҳар бир тил материаллари асосида ўрганилиши керак.

Бу ҳодиса гапнинг тўғри англаниши учун зарур бўлган элемент ҳисобланади ва лингвистика билан мантикий семантика ўртасидаги кўприк вазифасини бажаради.

Пресуппозиция гапнинг вазият, контекст ва сўзловчи ҳамда тингловчига олдиндан маълум бўлган билимлар хазинаси каби мураккаб узвларни ўз ичига олади. Шунинг учун ҳар қандай гап пресуппозицион таҳлил этилмаса, тўғри баҳоланмайди.

Пресуппозиция ҳодисасининг ўрганилиши содда гапларнинг мазмуний мураккаблашуви ҳақидаги илмий тадқиқотларга йўл очади, гап коммуникатив типларининг янги-янги қирраларини ёритишга ёрдам беради.

Тилнинг философик, психологик, социологик томонлари пресуппозицияга кўра «**инсон – олам**» умумий қурилма-системада бирлашади.

Умуман, ўзбек тилшунослигидаги бир қанча муаммоларни ҳал этишда янги ҳодиса сифатида актуаллик касб этади.

А д а б и ё т л а р:

1. Арутюнова Н.Д. Типы языковых значений. Оценка события. Факт. М., 1988.
2. Ахмедов А. Ўзбек тилида гапнинг коммуникатив турлари. Тошкент, 1979.
3. Махмудов Н. Пресуппозиция ва гап. «Ўзбек тили ва адабиёти». 1985.5-сон,
4. Махмудов Н. Ўзбек тили синтаксисининг долзарб масалалари. «Ўзбек тили ва адабиёти». 1990 й, 2-сон.
5. Нурмонов А. Кўмакчилик конструкциялар пресуппозицияси. «Ўзбек тили ва адабиёти». 1986 й. 6-сон, 28-42 бетлар.

СОМАТИК ИБОРАЛАРДА ПАРТОНИМИЯ

Қурбаниязов Г.А. - Нукус ДПИ, ф.ф.н, доц.

Маълумки, фразеологик бирлик ифода плани билан мазмун планининг ўзига хос қарама-қаршилиги ва бирлиги асосида юзага келади. Иборалар лексемалардан ва эркин сўз бирикмаларидан бир қанча хусусиятлари билан фарқланишини ҳисобга олиб, уларга алоҳида ёндашиш ва ўрганиш талаб қилинади.

Соматик иборалар фраземалар орасида салмоқли ўрин эгаллайди. Бу тур ибораларни ўрганиш тилшуносликда анча вақтдан буён мавжуд. А.Исаевнинг “Ўзбек тилида соматик фразеологизмлар” номли номзодлик диссертацияси кишининг тана аъзолари номи (соматизм) билан боғлиқ фраземаларни диахрон ва синхрон ўрганишга бағишланганлиги билан диққатга сазовордир.

Ишда соматик фраземаларнинг энг қадимги умумтуркий қатламини аниқлашга ҳаракат қилинган [1].

Фразеологик бирликларнинг нутқда қўлланиш жараёнини, матндаги фаолиятини илмий ва амалий ўрганиш унинг функционал хусусиятини юзага

чиқаради. Матн эса тингловчига кичик бўлса-да, яхлит маълумот беради. Матнлар сўзловчи ёки ўқувчининг луғат бойлигини оширади. Матнларда тил бирликларини, хусусан, фразеологик бирликларни моҳирона қўллаш ўзбек адабий тилининг бойи фоида воситаларини, ўзига хос жиҳатларини англаб олишга имкон яратади, фикрни лўнда, образли, услубий бўёқдор фойдалаш даражасини оширишга хизмат қилади.

Партонимия – лексемаларнинг маъно гуруҳларида бутун-бўлак муносабатларининг фойдаланиши. Лексеманинг маъносида борлиқдаги нарса-ҳодисаларнинг инсон онгидаги инъикоси фойдаланади, демак, маънолар тизимидаги бўлак-бутун муносабати негизида ҳам, аслида, борлиқдаги бутун-бўлак муносабатларини тилда фойдалаш зарурияти ётади.

Партонимия ҳодисасини ўрганиш луғат бойлиги тизимининг “сир”ларини очиш, сўз маъноларини аниқ ва тўғри изоҳлаш нуқтаи назаридан аҳамиятлидир [3,187]. Партонимия ҳодисаси фразеологик иборалар, жумладан, соматик иборалар орасида ҳам учрайди.

Боши айланди ибораси 1 беҳуд бўлмоқ, мувозанатини йўқотмоқ, (организмнинг касалланган ҳолати, бунда гўё атрофдаги ҳамма нарса айланиб кетаётгандек туюлади). 2 эсанкирамоқ маъноларини фойдалайди: ...мулойим қараб қўйишларини... жилмайиб гапиришларини сезардим, бунинг ҳаммасидан бошим айланарди (О.Ёкубов).

Бошига келмоқ – миясига келмоқ маъносини фойдалаши кўрсатилган [2,44].

Ақлини емоқ - мияси ишламай қолмоқ, фикрлаш қобилиятини йўқотмоқ. Варианти миясини емоқ, эсини емоқ эканлиги кўрсатилган [2,24].

Бош сўзи инсон танасининг бўйиндан юқори қисмини англатиши маълум. Иборалар таркибида қатнашганда турли-туман маъноларни фойдалаб, ҳар хил услубий семаларга эга бўлади. Юқоридаги мисолларга эътибор қиладиган бўлсак, бош сўзи иштирок этган ибораларда мия маъносида ишлатилган. Бош бутун маъносини, мия эса қисм маъносини билдиради. Мия бошда жойлашган бўлиб, унинг фаолияти, меҳнати, ҳаракати маҳсули ақл, эс деб аталади. Тилимиздаги миясини емоқ, ақлини емоқ, эсини емоқ иборалари бир хил денотатив маънони фойдалайди. Лекин улар коннотатив маъносида фарқланади.

Беш бармоқдай ибораси батафсил, атрофлича, майда-чуйдасигача деган маъноларни фойдалайди. Мас.: Бутун район пахтасининг паст-баланди сизга беш бармоқдай маълум (Ойбек). Оҳ-оҳ, қиз бечоранинг ички дунёсини беш қўлдай билар экансиз-ку?! (А.Мухтор).

Шунингдек, беш панжасини оғзига тикмоқ, беш қўлини оғзига тикмоқ иборалари ҳам бир хил маънода ишлатилиши луғатда кўрсатилган [2,34]. Қўл сўзи инсон аъзоларининг елкадан бармоғининг учигача бўлган қисмини билдиради. Панжа сўзи қўлнинг бир қисми бўлиб, у бешта бармоқнинг бирлашган жойи маъносини билдиради. Бармоқ сўзи қўлнинг бир қисми бўлиб, у панжага бирлашади. Инсонда қўл ва панжа (қўлнинг панжаси) иккита бўлиши маълум. Беш бармоғини оғзига тикмоқ иборасидан англашиладиган маънони юқоридаги икки ибора ҳам билдиради. Буларда ҳам коннотатив семаларда фарқ сезилиб туради.

Ичи ачимоқ, юраги ачимоқ, жони ачимоқ иборалари аямоқ, аяб куйинмоқ маъноларини билдиради. Мисоллар: Агар менга ичлари ачимаса, ўша гапларни

гапирмас эдилар (А.Қаҳҳор). Коля бир ёқдан янги уйга хурсанд бўлса, иккинчи ёқдан экинларнинг қаровсиз қолганига юраги ачиб кетди (Ҳ.Назир). Ўз отасининг жони ачимаганидан кейин, мен нима дердим (С.Зуннунова).

Мисоллардаги ич сўзи инсоннинг ички қурилиши, бутун маъносини, юрак сўзи ички аъзолардан бири - қисм маъносини, жон сўзи эса мавҳум маънони ифодаласа ҳам уларни айтиб бир маъно бирлаштириб туради. Коннотатив семаларда фарқ сезилади.

Иборалардаги маъно муносабатлари, вариантлик, грамматик хусусиятлари уларни бир-биридан фарқлаб турадиган белгилардан ҳисобланади. Ҳар бир соматик гуруҳни, ҳар бир иборани синчиклаб, ҳар томонлама пухта илмий тадқиқ қилиш тилшунослик учун, айтиб, услубият учун қимматли маълумотлар беради.

Адабиётлар:

1. Исаев А. Ўзбек тилида соматик фразеологизмлар. Кандидатлик диссертация. -Т.: 1976.
2. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. -Т.: Қомуслар бош таҳририяти, 1992.
3. Жамолхонов Ҳ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. -Т.: Талқин, 2005.

ФИЛОЛОГИК ТАЪЛИМДА АКТИВ ҚЎЛЛАШДА МЕТОД МАСАЛАСИ

Юлдашева Ш.Ш. – Нукус ДПИ, п.ф.н.

Мультимедияли дарс атамасининг оммалашиб, “урф”га айланиб улгурганига анча бўлса ҳам бундай дарсларни яратиш ва ташкил этишнинг аниқ бир андозаси мавжуд эмаслиги кўпинча АКТИВ қўллашда методнинг бузилишига сабаб бўлмоқда. Мультимедия дарсларининг аниқ бир андозаси бўлиши зарур деб ҳисоблашга яна бир асос шуки, одатда умумтаълим мактабларида дарслар “Дарс мукаддас” дастури доирасида лойиҳаланмоқда. Бироқ мультимедияли дарслар тузилиши ва қурилиши юзасидан метод андоза мавжуд эмас. Бунга бир нечта сабабларни кўрсатиш мумкин: мультимедия дарсларини методлашга муайян тажриба етишмаслиги, етарли методика, тўғрироғи методологияга эҳтиёж катта бўлаётганлигидир. Шунингдек, ахборот коммуникация воситаларининг узлуксиз янгиланаётганлиги ҳам муҳим сабаблардан биридир. Таълим бозорига кириб келаётган воситалар: интерактив электрон доска, интерактив кўрсаткич таёқчаси ва ҳ.к.

Ўқитувчиларда самарали мультимедия дарсларини ташкил этиш бўйича методик кўрсатмалар, амалий маслаҳатларга эҳтиёж катта.

Мультимедия дарсларининг самарали ўтиши энг аввало, дарс мақсадини тўғри белгилаб олишга боғлиқ бўлади.

Дарсда янги мавзунинг ўрганиш зарурми?

Ўрганилган мавзунинг мустақамлашга қаратилганми?

Билим, малака ва кўникмаларни такрорлашга мўлжалланганми?

Мустақамлаш дарси учунми?

Ана шу мақсадга мос тарбиявий ва ривожлантирувчи мақсадлар ҳам назарда тутилади. Шу мақсадлардан келиб чиқиб ўқитувчи дарс шакли ва методларини, ўқитиш технологияларини, педагогик техника усулларини танлайди.

Мультимедияли дарс юқори даражадаги самарага эришиш воситасига айланиши учун ҳар хил слайдларнинг йиғиндисидан эмас, балки бир бутун мажмуага айланиши керак.

Оғзаки, кўргазмали, матнли-ахборотли мажмуа оддий слайдни ўқув эпизодига, яъни дарснинг мустақамловчи қисмига айлантира олади.

Мультимедияли дарсда сон-саноксиз слайдлар талаб қилинмайди. Слайдларнинг миқдори ўқув эпизодларининг режалаштирилишига боғлиқ бўлади.

Дарсни лойиҳаловчи ўқитувчи ҳар бир ўқув эпизодини мустақил дидактик бирликка айлантиришга ҳаракат қилиши зарур.

Эпизодик слайдларда тақдим қилинаётган ўқув материалнинг ихчамлаштирилиши алоҳида аҳамиятга эга.

Энг яхши қурилган ўқув эпизодига маълумотларнинг, ахборотларнинг қуруқ баёни ўз ифодасини топмаслиги керак. Ўқувчида, ўрганувчида фикрлаш пайдо қилиш қачонки, ахборот тўлақонли бўлмаса юзага келади. Ўқитувчи “ақл гимнастикаси”ни ўткази олиши керак.

Педагог ва ўқувчилар, ўқув материаллари, жиҳозлар ва технология каби ресурслар йиғиндисига эга бўлган таълим муҳити ҳақида гап борар экан, ахборот технологиялари билан ишлаш жараёнида ўқувчиларнинг функционал ва психофизиологик имкониятлари инобатга олиниши шарт. Педагогларнинг имкон қадар кўпроқ маълумотларни ёритишга интилиши ўқувчини ортиқча толиқтиришга олиб келиши мумкин. Экранны ортиқча кўргазмалиликка тўлдириш дарс самарадорлигига путур етказади. Маълумотларни узатиш тезлигини ошириш эса маълумотларни ўзлаштириш сифатининг пасайишига, хатолар сонининг ортиб боришига, ўқувчининг ўзини ҳис қилиши ва соғлигига салбий таъсир қилади [2]. Шунинг учун ҳам ўқитувчидан:

кўриш органларига тушадиган юкламани ҳисобга олиш;

янгиликларни қабул қилишда юзага келувчи руҳий кўтаринкилик даражасини эътиборга олиш;

юзага келиши мумкин бўлган ноаниқлик ва хатоликлар туфайли салбий ҳиссиётларнинг тўпланиб боришини инобатга олиш;

катта миқдордаги, ҳажмдаги таълимий ресурсларни қабул қилиш ундан кейинги ахборот ресурсларини фаол ўзлаштиришга тўсқинлик қилишини назарда тутиш тақозо қилинади [1].

Техник воситалардан ақл билан фойдаланиш, муаммоли вазиятларни ўқув топшириғига айлантиришни уddалай олиш АКТдан фойдаланиш меъёрини бузмасликнинг олдини олади.

Ўқитувчиларнинг кўп йиллик тажрибалари шуни кўрсатмоқдаки, ўқувчиларнинг дарсда тартиббузарлиги ўқитувчининг ўзига боғлиқ бўлмоқда. Агар ўқувчи дарсда нима билан банд бўлишни билмаса, у дарсдан узоқлашади, қандайдир кўнгилсизликлар юзага келади. Шунинг назарда тутган ҳолда АКТ асосида дидактик материаллар тайёрлаш ва дарс ташкил қилишда дидактик материални ўзлаштирган ўқувчи нимани бажара олиши кераклиги олдиндан режалаштирилиши зарур. Бажарилиши лозим бўлган топшириқлар учун аниқ шарт, кўрсатма талаб қилинади. Ана шу шарт асосида таълим олувчилар риоя қилиши керак бўлган аниқ талаблардан бири – вақт меъёри ва баҳолаш мезони тақозо қилинади [3].

Ўқув топшириқларини тузишда феъллардан тўғри ва ўринли фойдаланиш зарур: *ёзинг, санаб беринг, ажратинг, танланг, кўрсатинг, мослаштиринг, белгиланг* ва ш.к.

Топшириқлар ўқитувчи томонидан ёки электрон ўқитувчи томонидан оғзаки берилиши ва айна вақтда экранда ёзиб қўйилиши унинг бажарилишини енгилаштириши мумкин.

Муайян бир дарс учун сценарий ёзиш ва уни матн муҳаррири орқали расмийлаштириш тартибида қуйидагиларга амал қилинг:

Сценарий MS Word 95 – 2003, 2007, 2010, 2013, 2016 форматида, v шрифтида, 14 ҳажм катталиқда, 1,5 интервалда ёзилади. Абзац – хатбоши 1,25.

Қоғоз ҳажми А4 (210 x 297 мм), тепадан, пастдан 2 см., чапдан 3 см., ўнгдан 1,5 см. доирасида ёзилади.

Биринчи қаторда мавзунинг номи, саҳифанинг ўртасида бош ва қалин ҳарфларда, 2-қаторда муаллифнинг фамилияси, исми ва отасининг исми, 3-қаторда муаллифнинг иш (ўқиш) жойи ва лавозими, 4-қатордан матн ёзилади.

Сценарий тузилиши қуйидагича бўлиши мумкин:

Назарий қисм. Бу қисмда тақдимот тайёрлаш учун зарур маълумотлар акс этади. Бунда мавзу материални минималлаштиришга интилинг. Репродуктив тарзда, тайёр фактларни беришдан қочинг. “Ақлни чархловчи” топишмоқ характеридаги ёки индуктив усулда мисоллардан қоидага томон йўналтирувчи тушунтириш усулини танлаш самаралироқ. Матн муҳарририда тайёрланаётган сценарийда маълумотларнинг тақдимотда қандай акс этишини ҳисобга олинг.

Экран ортиқча кўргазмалилик, анимация, эффектлар билан тўлиб кетмаслиги зарур. Сценарий яратишда буни албатта ҳисобга олинг. Тақдимотлар тайёрлаш машаққатли иш: слайддаги фаол ўринни белгилаш ва ахборотни жойлаштириш, бошқарувчи тугмаларни жойлаштириш ва б. одатда экраннинг чап томони юқори қисмига эътибор кўпроқ берилиши мумкин. Шунинг учун мутахассислар асосий ахборотни ёки топшириқни ана шу қисмга жойлаштиришни тавсия қилишади.

Амалий қисм. Машқ ва топшириқлар берилади. Машқ тури қайд қилиниши, тўғри жавоблар келтирилиши шарт. Унутманг, машқ шартда бажарилиши лозим бўлган иш қисқа баён қилиниши керак ва бунда буйруқ феълларидан фойдаланинг: (бўш оринга) *ёзинг, белгиланг, мослаштиринг, (рўйхатдан) (жавоблар қутисидан) танланг, (кетма-кетликни) аниқланг, рақам киритинг* ва ҳ.к. феъллар мос келади. Машқ матнида танланган мисолларингизнинг манбасини беришни унутманг.

Тест қисми. Мавзу доирасида 5 – 10 та тест саволи берилади. Жавоблар белгилаб қўйилиши шарт. Тестнинг турини қайд қилиш мақсадга мувофиқ.

Сценарий муаллифи тақдимот ёки машқ ва топшириқлар учун зарур бўладиган тасвир, анимация, видеоматериал, аудиоматн билан боғлиқ ғоясини ҳам акс эттириши мақсадга мувофиқ бўлади. Бу худди драматик асарларда бўлгани каби ремарка вазифасини бажаради.

Матн лингвистик қоидаларга (орфография ва грамматика қоидаларига) амал қилган ҳолда объектив визуал тасаввур (белгилар, форматлар ва ранглар) ҳосил қилиши керак. Грамматик ва орфографик хатолар, имло қоидаларининг бузилиши, стилистик камчиликлар бўлишига йўл қўйиб бўлмайди. Аксарият электрон адабиётларда имло, пунктуацион ва услубий хатоларнинг кўп учраётганлиги ҳар қандай зиёли кишини ташвишлантиради.

Хуллас, мультимедияли дарс яратишда воситаларни танлашга талабчанлик билан ёндашиш зарур. Хусусан, видеолавҳалар, анимациялар оддий матн билан уйғунликда тақдим этилиши керак. Айниқса, суҳандоннинг талаффузи барча талабларга жавоб бериши, яъни тиниқ ва равон, орфоэпия меъёрларига тўлиқ мос тушиши шарт. Графика, расм ва фотосуратлар мақсадга мувофиқ ва етарли ҳажмда бўлиши даркор. Уларнинг кўпайиб кетиши ўқувчининг диққатини бўлади ва асосий мақсадга эришишга ҳалал беради [4].

АДАБИЁТЛАР

1. Электрон педагогика ва педагогнинг шахсий, касбий ахборот майдонини лойиҳалаш” модули бўйича ўқув-услубий мажмуа (тузувчилар: Т.Т.Шоймардонов, В.С.Хамидов, М.Файзиева) – Т.: 2015. – 11-67 б.

2. Трошина А.В. Учебное пособие по дисциплине "Информационные технологии в лингвистике". – СПб.: Изд-во СПбГЭУ, 2013.– 103 с. Размещено на <http://www.allbest.ru/>

3. <http://www.prodlenka.org>. “Использование современных информационных технологий на уроках русского языка”

4. Umarova N. Til ta’limi va ta’limiy-elektron ishlanmalar // Til va adabiyot ta’limi. – Toshkent, 2005. - № 6. - B.75-79.

ТЕРМИНЛАР АНИҚЛИГИ ВА АДАБИЙ МЕЪЁР

С.Жалилов, Нукус ДПИ Ўзбек тили кафедраси катта ўқитувчиси

Терминологияга бағишланган ишларнинг барчасида у ёки бу соҳанинг муайян тушунчаларини англатадиган, дефиницияга эга бўлган ва номинатив функцияни бажарадиган бирликлар термин ҳисобланади деб қаралади. Терминология ҳамиша тилшуносликнинг долзарб масалаларидан бири бўлиб келган. Чунки терминларнинг соҳалар луғавий қатламларидаги ўрни ва вазифасини белгилаш, тушунчанинг мазмун-моҳиятини тўғри англаш имконини беради.

А.Реформатский терминга таъриф берар экан, “... терминлар – бу махсус сўзлардир” деган хулосага келади. А.В.Калинин муайян фанлар ва касбкорликда ишлатиладиган сўзларни “махсус лексика” деб атайди ва уни икки гуруҳга ажратади.

1. Махсус лексикага, биринчи навбатда, терминлар киради.

2. Махсус лексика таркибига терминлардан ташқари профессионализмлар ҳам киради. У ўз фикрини давом эттириб, “Термин билан профессионализмлар ўртасидаги фарқ шуки, термин бу муайян фан, саноат соҳаси, қишлоқ хўжалиги, техникадаги тамомила расмий бўлган, қабул қилинган ва қонунлаштирилган бирор тушунчанинг ифодасидир, номидир, профессионализм эса бирор касб, мутахассислик, кўпинча жонли тилда тарқалган, аслини олганда, тушунчанинг қатъий, илмий тавсифига эга бўлмаган ярим расмий сўздир”,-дейди [Калинин. 135]. Р.Дониёров бу фикрга эътирозан, “Бундай қатъий даъво, аслини олганда, тилни синфий деб ҳисоблаган айрим “олим”ларнинг қарашлари давомидир десак, хатога йўл қўймасмиз” дея муносабат билдиради [Дониёров. 23.]. Қорақалпоқ тилшуноси Е.Бердимуратов: “...термин менен профессионаллық сөз бирлиги ажыралып турады. Профессионаллық сөзлер сол кәсип тараўында тарийхый дәўирлер даўамында пайда болған, сол кәсиптиң талабына хызмет етеди, сол орталықта жийи (кўп; тез-тез-Ж.С.) қолланылады... Ал терминлер болса, белгили турмыс тараўында,

айтайық, илим, техника, мәденият, жәмийетлик-сиясий турмыс, санаат хәм аўыл хожалығы ҳ.т.б бойынша уғымларды (тушунча-Ж.С.) атайды хәм дефинитивлик жақтан анықлайды, яғный уғымды түсиндиреди», -деб ёзади [Бердимуратов.14]

Ҳақиқатан ҳам, терминларга муносабатда соҳа мутахассислари ва терминшунос олимлар тавсия қилаётган жиҳатларга амал қилиб иш олиб борилса, ўзгартирилаётган ёки аламаштирилаётган терминларнинг содда, ихчам, энг муҳими, халққа тушунарли бўлишини таъминлаш ишига бош қўшилган бўларди.

Сўнгги йилларда ўзбек тилида қўлланилиб келаётган русча ва рус тили кириб келган терминларнинг анчаси муваффақиятли янги муқобиллари билан алмаштирила бошланди. Масалан, *абстракт-мавҳум, автограф-дастхат, адаптация-мослашиш, администрация-маъмурият, директива-кўрсатма, проект-лойиҳа, комплекс-мажмуа, анкета-сўровнома, конкурс-танлов, ревизия-тавтиш, презентация-тақдимот, рецензия-тақриз, разряд-тоифа* ва ҳоказо. Аммо шуни ҳам таъкидлаш мумкинки, бу жараёнда русча ва рус тили орқали кириб келган терминларни ўринсиз, сунъий равишда янги ясалмалар ёки араб ва форс-тожикча сўзлар билан алмаштириш ҳоллари ҳам кузатилади. Масалан, *банкрот-синиш, бухгалтер-ҳисобчи, институт-олийгоҳ, (таълимгоҳ), клуб-томашагоҳ (тадбиргоҳ), компенсация-товон, медал–нишон, факультет–куллиёт, курс-босқич, фонетика-товушшунослик, омоним-шаклдош* ва ҳ. Аммо маълум бир терминни ўзгартириш учун унинг кейинги “тақдири”ни ҳам ҳисобга олиш керак. Дейлик, курс терминини босқич деб ўзгартирадиган бўлсак, курс асосидан ҳосил қилинадиган ясалмаларнинг тақдири нима бўлади? Унда курсдошни босқичдош, курс ишини босқич иши дейиш керакми? Ёки омоним термини билан боғлиқ омофон, омограф, омонимия терминларига нима деб ном берамиз. Бундай ҳолнинг Она тили дарсликларида ҳам учраб қолаётганлигини ижобий баҳолаб бўлмайди. У, аввало, таълим олувчиларни ва соҳа ходимларини чалғитади. Охир-оқибат лисоний меъёр бузилади. Шунинг учун ҳам терминларни, айниқса, соҳалар терминологиясини тартибга келтириб бориш, яъни унификация қилиш куннинг долзарб масалаларидан бири бўлиб қолаверади.

Яна шуни ҳам таъкидлаш жоизки, соҳалар терминологиясининг матнини ҳам адабий орфографик, луғавий-услубий мезон талабларига мос ҳолда баён қилинишига алоҳида диққат қаратмоқ лозим. Чунки оммага тақдим қилинаётган матнлар ихчам, содда ва тушунарли баён қилиниши керак. Бу борада биз кўпроқ тўқнаш келадиган соҳалардан бири ижтимоий-сиёсий ҳужжатлар ва бошқа терминологик қатламлардаги турли йўриқномалар ва тавсиялар тилидир. Тўғриси, баъзи бир матнларда баён қилинган ифодаларни биринчи ўқишда уқиб олиш қийин. Уни қайта-қайта ўқиб ўзингизга керакли маълумотни зўрға тушуниб оласиз.

Терминларга муносабатда, терминологик тизимини янгилаш, ўзгартириш ва такомиллаштиришда тилнинг ривожланиш қонуниятларига, унинг луғавий тизимини меъёрлашнинг ўзига хос объектив талабларига, мезон, илмий ўлчов ҳамда тамойилларига амал қилган ҳолда иш тутиш ғоят муҳимдир.

Филология фанлари доктори Ғ.Абдурахмонов шундай ёзади: «Атамаларнинг аниқлиги ва қатъийлашиши шу миллатнинг фани, маорифи, маданияти даражасини кўрсатади. Атамаларнинг ривожланиши, тартибга

солиниши фаннинг ҳар хил соҳаларида турлича бўлиб, маълум фаннинг тараққиётига боғлиқ. Бу тараққиёт тўхтовсиз бўлгани учун янги атамаларнинг келиб чиқиши, тартибга тушиши ҳам узлуксиз бўлади. Умуман, она тилида атамаларнинг пухта ишланиши, тартибга солиниши дарслик ва қўлланмалар тузиш учун ҳам, она тилида дарс олиб бориш учун ҳам зарур бўлган манбадир. Атамаларнинг ишланмаганлиги ва тартибга солинмаганлиги нутқ услубига ҳам таъсир кўрсатади» [Абдурахмонов. 84]. Демак, терминологиянинг тартибга солиниши нафақат илмий соҳада, балки ижтимоий ҳаётда ҳам аҳамияти катта бўлган масаладир.

Адабиётлар

1. Абдурахмонов Ғ., Мамажонов С. Ўзбек тили ва адабиёти. -Т.: 2002.
2. Бердимуратов Е. Қарақалпақ терминологияси. –Нукус, 1989.
3. Бектемиров Ҳ., Бегматов Э. Мустақиллик даври атамалари. -Т.: 2002.
4. Дониёров Р. Ўзбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари. -Т.: 1977.
5. Калинин А.В. Лексика русского языка. -М.: 1971.

NUTQ USLUBLARI MAVZUSINI O‘TISH ORQALI TALABALARDA TO‘G‘RI NUTQ TUZISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

S.Atiyazov, O.Xaytbaev - Nukus DPI O‘zbek tili kafedrası

Insonning ma‘naviy kamolotga erishuvida, jamiyatning madaniy-ma‘rifiy rivojida ona tilining o‘rni favqulodda muhimdir. Til milliy ma‘naviyat, ma‘rifat va madaniyatning eng xolis va xira tortmas ko‘zгusidir. Hadisi shariflarda "Kishining zeb-u ziynati, go‘zalligi uning tilidadir" deyiladi. Qadim-qadim zamonlardan beri har bir millat, har bir qavm o‘z tiliga buyuk hurmat bilan qaraydi. Chunki, til millat degan birlikning tamal toshi, u boy berilsa, millat ham boy beriladi. O‘zbekiston Prezidenti I.Karimovning quyidagi so‘zlarida ulkan ma‘no bor: "Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi... Ona tili — bu millatning ruhidir. O‘z tilini yo‘qotgan har qanday millat o‘zligidan judo bo‘lishi muqarrar." Demakki, millatning borligi va birligining bosh belgisi tildir.

Mamlakatimizda ma‘naviyat jabhasida olib borilayotgan benihoya keng qamrovli islohotlarda til muammolari, xususan, davlat tiliga e‘tibor masalalariga alohida diqqat qilinayotganligi bejiz emas. Respublikamizning "Davlat tili haqida"gi, "Ta‘lim to‘g‘risda"gi Qonunlari, "Kadrlar tayyorlash bo‘yicha milliy dastur" va boshqa juda ko‘plab hujjatlarda bu yo‘nalishdagi ishlarning asosiy jihatlari ko‘rsatib berilgan. Davlatimiz rahbari 1997- yilning iyunida Toshkentda bo‘lib o‘tgan "Kadrlar tayyorlash bo‘yicha milliy dasturni tuzish" komissiyasining yig‘ilishida har bir fuqaro uchun "o‘z davlat tilini bilish, uni o‘rganish yuksak ma‘naviyat, Vatani va xalqiga sadoqat belgisi" ekanligini asosli ravishda ta‘kidlaganlar.

Nutqning to‘g‘riligi, ya‘ni uning adabiy til me‘yorlari (talaffuz, so‘z yasalishi, leksik, morfologik, sintaktik, uslubiy me‘yorlar)ga qat‘iy mosligi madaniy nutqning asosiy, markaziy sifatidir. Ammo har qanday to‘g‘ri nutq madaniy bo‘lavermaydi, u boshqa kommunikativ sifatlarga ham ega bo‘lgandagina chin ma‘nodagi madaniy nutq maqomini olishi mumkin. Yurtboshimiz I.A.Karimov O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida "Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori" mavzusida so‘zlagan nutqida: "Demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o‘rganmasa,

berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. Albatta, bilim kerak. Ammo bilim o'z yo'liga. Mustaqil fikrlash ham katta boylikdir... O'qituvchining bosh vazifasi o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilishdan iboratligini ko'pincha yaxshi tushunamiz, lekin, afsuski, amalda tajribamizda unga rioya qilmaymiz", - deb ta'kidlaydi.

Nutqning mantiqiyligi uning asosiy sifatlari - to'g'rilik va anqlik bilan chambarchas bog'langandir. Chunki grammatik jihatdan to'g'ri tuzilmagan nutq ham, fikrni ifoda etish uchun muvaffaqiyatsiz tanlangan leksik birlik ham mantiqning buzilishiga olib kelishi tabiiydir. Mantiqiy izchillikning buzilishi tinglovchi va o'quvchiga ifodalanayotgan fikrning to'liq borib etmasligiga, ba'zan umuman anglashilmasligiga sabab bo'lishi mumkin. Nutqni shakllantirishdagi e'tiborsizlik oqibatida ba'zan mantiqsizlik ham yuz beradi. Quyidagi misolda diqqat qilaylik: Ferma jonkuyarlari olti oylik davlatga sut sotish planlarini muddatdan oldin bajardilar (Gazetadan). Gapda so'zlarning tartibi to'g'ri bo'lmaganligi, olti oylik birikmasining davlatga so'zidan keyin kelmaganligi tufayli mantiqqa putur etayapti, fikrni bayon qilishda xatolik yuz berayapti.

Demak, mantiqiy nutq deganda yaxlit bir tizim asosida shakllangan, fikrlar rivoji izchil bo'lgan, har bir so'z, ibora aniq, maqsadga muvofiq ravishda yuzaga keladigan nutqni tushunamiz.

Mustaqil fikrlash muloqot madaniyatini, muomala odobini egallash zamirida shakllansa, unda yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatda o'z o'rinlarini topib olishlari oson kechadi. Mazkur muammolarni hal etish, echimlarini ta'lim jarayoniga tadbiq etish uchun ona tili mashg'ulotlarida har bir bo'lim bo'yicha o'rganiladigan mavzularning mazmuni chuqur va puxta bilim berishga qaratibgina qolmay, balki u orqali o'quvchilarning so'z boyligini oshirish, so'z va gap ustida ishlash malakasini shakllantirish, og'zaki va yozma nutqini o'stirish, har bir nazariy qonun-qoida bo'yicha o'zining shaxsiy mulohazalarini bayon qila bilish malakasini xosil qilishga erishish kerak. Chunonchi o'quvchilarning ona tilidan olgan bilim darajalari tilning grammatik qurilishini qanchalik o'zlashtirganliklari bilangina emas, balki ularning o'z fikrlarini adabiy tilning boy ifoda vositalarida o'rinli va to'g'ri foydalangan holda, og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri ifodalashlari hamda muloqot madaniyati doirasida har bir nazariy qonun-qoida yuzasidan o'z shaxsiy mulohazalarini bayon qila olishlari bilan belgilanmog'i lozim.

Qadigmi davrlarda ham nutqning bu jihatlariga alohida e'tibor berib kelishgan. Masalan, rimliklar namunaviy nutqning sifatlarini o'zida aks ettiruvchi qoidalar ishlab chiqishgan Mashhur notiq Siseron fikricha, anqlik va tozalik nutq uchun shunchalik zarurki, ularni asoslab o'tirishning xam hojati yo'k. Ammo notiq tinglovchilarni o'ziga jalb qilishi uchun bu sifatlari hali etarli emas. Buning uchun nutq jozibador bo'lishi ham kerak. Notiq Dionis Galikarnas esa nutqda maqsadga muvofiqlikni muhim deb hisobladi.

Agar nutq ma'lum vaziyat va shart-sharoitlarda amalga oshirilishi nazarga olinsa, bunda joy, vaqt, mavzu va muloqot jarayonining maqsadi kabi omillar katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Demak, nutq madaniyati jamiyatdagi madaniy-ma'rifiy taraqqiyotining. millat ma'naviy kamolotining muhim belgisidir. Haqiqiy ma'nodagi madaniy nutq shaxs umummadaniy saviyasining favqulotda muhim unsurlaridan biridir. Shuning uchun ham mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi deb e'lon qilingan bugungi kunda nutq madaniyati ko'nikmalari va

malakalarini oshirish, ta'lim jarayonlarining barcha bosqichlarida madaniy nutq muammolarini etarli darajada nazarda tutish dolzarblik kasb etganligi bejiz emas.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.- Toshkent: Sharq, 1997
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi // Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent: Sharq, 1997.
3. Ahmedova H. O'kituvchi nutqi madaniyati. (ma'ruzalar matni), Qo'qon, 2003.
4. Begmatov E. Notiqning nodir boyligi. Toshkent, 1980.
5. Ibrahimov I. O'zbek milliy tilining nutq madaniyati masalalari. Toshkent, 1969.
6. Mahmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati. Toshkent, A. Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.

ЎЗБЕК ВА ҚОРАҚАЛПОҚ ТИЛЛАРИДАГИ ГРАММАТИК ТЕРМИНЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

А.Султанова, Ф.Сапаева - Нукус ДПИ Ўзбек тили кафедраси

Таълим бошқа тилларда олиб бориладиган мактабларнинг 5–7-синфлар ўзбек тили дарсларида давлат таълим стандарти талабига кўра ҳам, ўқув дастурида берилишига кўра ҳам муайян миқдордаги лингвистик терминлар тегишли тушунчалар ҳосил қилиш даражасида ўрганилиши керак. Лекин уларни ўқувчиларнинг она тилига таяниш орқали яна ҳам камайтириш мумкин: иккала тилда бир сўзни ифода этадиган (масалан, гап, сўз, равиш каби) грамматик терминларни янги тушунчалар билан танишиш тарзида ўргатиш учун зарурият йўқ. Таълим мазмунига бундай ёндашувни амалга ошириш учун эса ўзбек тилидаги лингвистик терминларнинг 5–7-синфлардаги тил таълими ҳажмида қорақалпоқ тилида ифодаланиши ҳақида аниқ қиёсий маълумотларга эга бўлиш керак эди. Бошқача айтганда, ўқитувчини керакли маълумотлар билан таъминлаш мақсадида дастлаб ўзбек ва қорақалпоқ тилларидаги лингвистик терминларни ўзаро таққослаб чиқиш керак бўлди. Шу мақсадда ТҚТдаги мактабларнинг 5–7-синфлари учун она тилидан яратилган дарсликларда ўрганиладиган лингвистик тушунчалардан келиб чиққан ҳолда қиёслаш ишларини амалга оширдик ва олинган натижаларга кўра иккала тилдаги терминларнинг мос келиш ва фарқланиш жиҳатларини қуйидаги каби таснифлашга муваффақ бўлдик:

Ўзбек ва қорақалпоқ тилларида айтилиши бир хил ёки бир-бирига яқин сўзлар билан ифодаланиб, бир хил тушунчаларни англатадиган лингвистик терминлар: Leksikologiya, leksikografiya, bir ma'noli so'z - bir ma'noli so'z, ko'p ma'noli so'z – ko'p ma'noli so'z, qo'shma so'z – qospa so'z, so'z yasash usullari – so'z jasaluw usillari, juft so'zlar – jup so'zler, qisqartma so'zlar – qisqarg'an so'zler, so'z yasash – so'z jasaliw, antonimlar (zid ma'noli so'zlar) – antonimler, omonimlar (shakldosh so'zlar) – omonimler, paronimlar – paronimler, sinonimlar (ma'nodosh so'zlar) – sinonimler, bosh so'z – bas so'z, frazeologizm, frazeologik sinonimlar – frazeologiyaliq (turaqli so'z dizbekleri) sinonimler, leksik sinonimlar – leksikalıq sinonimler, unumli – o'nimli, morfologik sinonimlar – morfologiyaliq sinonimler, sinonimiya, so'roq – soraw, defis, chiziqcha – defis, nuqta – noqat, imlo – imla, grafika, harf – ha'rip, orfografiya, orfogramma, imlo qoidalari – imla qag'iydalari, fonetika, alifbe – alipbe, alfavit – alfawit, bosh harf – bas ha'rip,

ko'chish belgisi – ko'shiw belgisi, orfoepiya, tovush almashinishi – dawis almasiwı, bo'g'in – buwin, ochiq bo'g'in – ashiq buwin, qo'shimcha – qosımta, so'z yasovchi qo'shimcha – so'z jasawshı qosımta, tushuncha – tu'sinik, otlar – atlıq (so'zler), ko'plik qo'shimchasi – ko'plik qo'simtalar, o'rin bildiruvchi otlarni yasovchi qo'shimchalar – orın atların jasawshı qosımtalar, kasb bildiruvchi otlarni yasovchi qo'shimchalar – ka'sip atların jasawshı qosımtalar, ko'p ma'noli otlar – ko'p ma'nili atlıqlar, sinonim otlar – sinonim atlıqlar, birlik – birlik san, ko'plik – ko'plik san, son – sanlıq, qo'shma son – qospa sanlıq, juft sonlar – jup sanlıq, sanoq son – sanaq san, chama son – shamalıq san, olmosh – almasıq, o'zlik olmoshi – o'zlik almasıg'ı, so'roq olmoshi – soraw almasıg'ı, belgilash olmoshi – belgilew almasıg'ı, bo'lishsizlik olmoshi – bolımsızlıq almasıg'ı, fe'l – feyil (so'zler), harakat ma'nosi – ha'reket ma'nisi, bo'lishsizlik qo'shimchasi – bolımsız qosımta, bo'lishli fe'l – bolımlı feyil, ko'makchi fe'llar – ko'mekshi feyiller, qo'shma fe'l – qospa feyil, otlashuv – atlıqlasuw, aniq mayl – anıqlıq meyil, buyruq-istak mayl – buyrıq meyil, shart mayl – sha'rt meyil, ravish – ra'wish, qo'shma ravish – qospa ra'wish, ravishlarda daraja – ra'wishtin' da'rejeleri, orttirma daraja – ra'wishtin' arttırıw da'rejesi, o'rin ravishi – orın ra'wishi, miqdor-daraja ravishi – mug'dar-da'reje ra'wishi, sabab ravishi – sebep ra'wishi, maqsad ravishi – maqset ra'wishi, lug'at – so'zlik, sintaksis, gap – ga'p, so'roq gap – soraw ga'p, undov gap – u'ndew ga'p, aniqlovchi – anıqlawısh, to'ldiruvchi – tolıqlawısh, fe'lli birikma – feyilli birikpe, o'tli birikma – atlı birikpe, qo'shma gap – qospa ga'p, sintaktik vazifa – sintaktik wazıypa, odatdagi tartib – a'detdegi ta'rtip, o'zgargan tartib – o'zgergen ta'ptip, to'liqsiz gap – to'liq emes ga'p, to'liq gap – toliq ga'p, boshlama – baslama (kirisıw), referat, ariza – arza, tilxat, telegramma.

Ўзбек тили ўқитиш амалиётида грамматик терминларнинг икки тилда юқоридаги каби ифодаланиш ҳолатидан қандай фойдаланилаётганини билиш, ўқитувчиларнинг иш тажрибаларидаги ютуқ ва камчиликларни ўрганиш мақсадида мактабларда 50 ўқув соатига яқин дарслар кузатдик.

Нутқ ўстиришга доир тадбирларни амалга оширишда матнларнинг таълимий ва тарбиявий имкониятларини рўёбга чиқариш керак. Масалан,

6-синфда «Феъл» мавзусини ўтиш жараёнида дарсликда кўрсатилган уч замон шаклидан ташқари, ўтган замоннинг узоқ ўтган замон, аниқ ўтган замон, ўтган замон давом феъли шакллари жадвал асосида тушунтириб ўқувчиларнинг диққатини замон ва шахс-сон қўшимчаларига қаратиш, талаффузи ва имлоси устида иш олиб бориш мақсадга мувофиқдир.

Adabiyotlar

1. Karimov I. A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: Sharq, 1990.

2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. G'G' Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: SHarq, 1998. 4-229 - b.

3. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili to'g'risida"gi qonuni. G'G' Til va adabiyot ta'limi, 1996 yil 1-son.

4. Umumiy o'rta ta'limning DTS. O'zbekiston Respublikasi. Xalq ta'limi vazirligining axborotnomasi, 1-maxsus son. «SHarq», 1999.

5. Umumiy o'rta ta'limning ona tili dasturi. Mualliflar: H.G'N'matov, A.Q.G'ulomov, N.M.Mahmudov, M.Abduraimov. DTS.1-maxsus son. 1999.53-104-b.

6. Abdurahmonov M, o'zbek tili o'qitish metodikasi. Samarqand, 1969. 29-b. (grammatik razbor)

УМУМТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИНИНГ 5-9-СИНФЛАРИ УЧУН ЎЗБЕК ТИЛИДАН ТУЗИЛГАН ЎҚУВ ДАСТУРИ БЎЙИЧА МУЛОҲАЗАЛАР

А.Султанова, Д.Кабулова - Нукус ДПИ Ўзбек тили кафедраси

Таълим қорақалпоқ тилидаги мактабларнинг 5–9-синф ўзбек тили дарсларида грамматик материалларни ўрганишнинг ташкилий-методик жиҳатлари давлат тилини ўқитишдан кўзланадиган мақсадларга боғлиқ. Айнан шу мақсадларга қараб таълим мазмуни, метод ва усуллари танланиши лозим. «Давлат тили ҳақида»ги Қонунга мувофиқ ўзга миллат вакиллари ўзбек тилини, асосан, нутқ ўстириш, нутқ маданиятини ривожлантириш мақсади билан ўрганадилар.

5-9- синф учун мўлжалланган ўқув дастурининг айрим мавзулари соати тақсимоотида чалкашликларга йўл қўйилган. Жумладан: 6-синф синфлар учун режалаштирилган “Обод ўлкам” мавзусига 2 соат берилган, лекин 3 соатга тақсимланган.

7-синф “Ўзбекистоннинг сув ҳавзалари” мавзусидаги Грамматика қисмида керак, зарур, шарт модал сўзлари 1 соат, уларнинг қўлланиши 1 соат, тарзида берилган. Аслида эса улар модал сўзлар эмас.

5-синфда “Янги фанларни ўрганамиз” мавзусида

Муомала одоби: Телефонда сўзлашиш одоби. “Ўзтозга раҳмат” мавзусида ҳам такрор ишлатилган. *Муомала одоби:* Телефонда ўзаро мулоқот қилиш.

Дастурда ўзбек тилининг Лексикология (Фразеология), Нутқ услублари бўлимларига оид мавзулар умуман киритилмаган. Ваҳоланки, бу бўлимлардаги мавзулар ўқувчиларнинг нутқини ўстириш, луғат бойлигини бойитишида асосий вазифани бажаради.

8-синфдаги Ёзиш қисмида

- тилхат, тавсиянома, таржимаи ҳол матнларини ёзиш.

9-синфдаги Ёзиш қисмида - ариза, илтимоснома, баённомадан кўчирма матнларини ёзишни ўргатиш назарда тутилган, лекин айнан қайси мавзу доирасида ўргатиш аниқ кўрсатилмаган.

8-синфдаги “Мустақил Ўзбекистон”, “Ҳосил байрами”, “Бугдой – ризқ - рўзимиз”, “Буюк алломалар” мавзуларида Феъл нисбатлари бўйича кетма-кетлик сақланмаган, орттирма нисбат мавзуси такрор берилган.

11. Ўзбек олимлари (3 соат)

Лексика: Олимлар, янгиликлар, тадқиқотлар, илмий, тажриба, техника, математика, турли соҳа, ҳисса қўшмоқ каби таянч сўзлар ва бирикмалар.

Грамматика: Қувончни билдирувчи модал сўзлар 1 соат, ачинишни билдирувчи модал сўзлар 1 соат, уларнинг қўлланиши ва имлоси 1 соат.

Ўзбекистоннинг табиий бойликлари (3 соат)

Лексика: табиий бойликлар, мис, қўرғошин, рух, волфрам, ёнувчи газ ва бошқа фойдали қазилмалар заҳираси, туз, алюминий, пардозлаш тошлари ва қимматбаҳо тошлар, айрим нодир элементлар, пахта, пилла, қорақўл тери каби таянч сўзлар ва бирикмалар.

Грамматика: Фикрнинг тартибини билдирувчи модал сўзлар 1 соат, уларнинг қўлланиши 1 соат ва имлоси 1 соат.

Тежамкор бўлайлик (3 соат)

Лексика: сув, газ, электр энергияси, тежамоқ, сарфламоқ, исроф қилмаслик, фойдаланмоқ каби таянч сўзлар ва бирикмалар.

Грамматика: Фикрнинг кимга қарашлилигини билдирувчи модал сўзлар 1соат, уларнинг қўлланиши 1 соат ва имлоси 1соат.

16. Ҳашар (3 соат)

Лексика: ҳашар, меҳнат байрами, айтишлари, қадимда, кишилар, удум, айланган, ёрдам берганлар, бунёдга келган, бог-роғлар, яратган каби таянч сўзлар ва бирикмалар.

Грамматика: Гумон маъносини билдирувчи сўзлар 1соат, тахмин маъносини билдирувчи сўзлар 1соат, уларнинг қўлланиши ва имлоси 1соат.

Мардлик - мангулик (3 соат)

Лексика: мардлик, муҳаббат, садоқат, вафо, вафодорлик, ватанпарварлик, миллий ифтихор, Ватанни ҳимоя қилиш, фидокорлик каби таянч сўзлар ва бирикмалар.

Грамматика: Фикрни хулосалашда ишлатиладиган сўз ва бирикмалар 1соат уларнинг қўлланиши 1соат ва имлоси 1соат.

шаклида берилиб, анчагина такрорга йўл қўйилган. Ҳамда жами 6 соат ажратилган. Бу эса жудаям кўп.

9-синфдаги “Яхшилик унутилмайди” мавзусида

Грамматика: Модал сўзлар 1соат, уларнинг ифодаланиши 1соат, гапда қўлланиши 1соат. Шундай берилган бўлиб, бу мавзуга яна мурожаат қилинган.

9-синф “Аёл – оила кўрки” (3 соат)

Грамматика: Ўрин ҳоли, гапдаги ўрни 1соат. Ўрин ҳолининг ўрин равишлари 1соат, келишиқ қўшимчали ва кўмакчили отлар билан ифодаланиши 1соат, тарзида берилиб, чалкашликка йўл қўйилган. “Ўрин ҳолининг ўрин равишлари” булар иккиси икки бўлимда ўрганилади.

Дастур Ўзбекистон Республикасида иккинчи тил сифатида ўқитиш учун режалаштирилган бўлиб, айнан рус гуруҳи назарда тутилган. Ўзбекистон ҳудудида рус миллатидан ташқари тожик, қорақалпоқ, қозоқ, туркман ва бошқа туркий халқлар ҳам ўзбек тилини ўрганадилар. Айнан Қорақалпоғистон Республикаси ҳудудида қорақалпоқ тилидаги мактаблар сони 347 та бўлиб, шундан 85711 ўқувчи, қозоқ тилида 173та мактаб бўлиб, шундан 18682та ўқувчи, туркман тилида эса 42 та мактаб бўлиб, 7764та ўқувчи ўзбек тилини давлат тили сифатида ўрганадилар. Шундай экан, дастурда уларнинг ҳам эҳтиёж ва имкониятларини ҳам ҳисобга олиниши зарур. Чунки улар ўзлари хоҳлаган Олий ўқув юртларига ҳужжат топшириб, тест синовларини ўзбек тилида топширишлари мумкин.

Кўчиш (‘) белгиси дастурда умуман берилмаган, ўқувчилар бу белгининг муҳим белги эканлигидан беҳабар қолишади. Кузатишларимиз натижасида маълум бўлдики, ўқувчилар шу белгилар мавжуд сўзларни ёзишда кўпгина хатоликка йўл қўймоқдалар. Кўчиш (‘) ва Тутуқ (‘) белгилари бир мавзу доирасида қиёслаб ўргатилса, ўқувчиларнинг саводхонлиги ошади, чалкашликларнинг олди олинган бўларди.

Дастурга ўзбек тилининг ажралмас бўлимлари ҳисобланган Фонетика, Лексикология (Фразеология), Пунктуация, Нутқ услублари ҳақидаги мавзулар ҳам киритилиши лозим деб ҳисоблаймиз.

9-синфда «Кўшма гаплар» мавзусига ҳам соат ажратилса мақсадга мувофиқ бўлар эди. Чунки ўқувчиларнинг нутқ савияларини ривожлантириш, матнлар яратиш, оғзаки ва ёзма саводхонлигини оширишда бу мавзунинг ўрни

алоҳида. Бундан ташқари ўқитувчи икки тил қиёсига доир маълумотларга эга бўлиши, ушбу маълумотлардан самарали фойдаланиши даркор.

Adabiyotlar

1.Y.G'ulomov, I.Rasulov, X.Rustamo, B.Mirzahmedov. O'zbek tili o'qitish metodikasi. -T. «O'qituvchi»; 1975.y.

2.Olmoxonova M., Abdullaeva Y. va boshqalar. 7-8-sinflarida ona tili darslari. (metodik qo'llama) T. «O'qituvchi», 1983 y.11-12-b..

3.Roziqov O.O'zbek tilidan dars tiplari (metodik qo'llama) - T.«O'qituvchi»,1976 y.

4.Xojieva R. 4-sinfda So'z tarkibi mavzusini o'tish. To'plam. «Ona tili o'qitish samaradorligini oshirish», T. «O'qituvchi», 1973, y. 90-97-b.

5.G'ulomov. A. Ne'matov H. «Induktiv» O'zbek tili dasturi, -T. 1992 y.

XALQ DOSTONLARIDA SHEVAGA XOS FE'L SHAKLLARINING QO'LLANISHI

S.Atiyazov - O'zbek tili kafedrası assistenti

S.Jumamuratova - O'zbek tili va adabiyoti

1-kurs bakalabr ta'lim yo'nalishi talabasi

„Til har bir so'z, uning har bir shakli inson tafakkuri va tuyg'usining natijasidir, o'sha tafakkur va tuyg'ular orqali so'z yordamida mamlakat tabiati va xalqi tarixi ifoda etilgan“, – degan edi Ushinskiy. Darhaqiqat, tilimizdagi har bir so'z insonlarning hayotiy tajribalari xulosasi hisoblanadi. Inson faoliyatida til borliqni bilish va fikr almashish vositasi vazifasini bajaradi. Til vositasida insoniyat tomonidan o'rganilgan bilimlar nafaqat qayd etiladi va saqlanadi, balki avloddan avlodga ham yetkaziladi. Xususan, dostonlarda o'tmishda yashagan ajdodlarimizning o'y-fikri, dunyoqarashi, his-tuyg'ulari aks etgan so'zlar tizimini juda ko'p kuzatamiz.

Dostonlarda qo'llangan fe'llar uning badiiy qimmatini oshiribgina qolmay, mazmunni ifodalash jihatidan salmoqli o'ringa ham ega. Shuni ham hisobga olish zarurki, o'zbek xalq dostonlarida fe'l turkumiga oid birliklar ko'pincha shevaga xos so'zlar orqali ifodalanib, xalq hayotidan olinganligi, xalqqa tushunarlıligi bilan o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ushbu o'rinda xalq dostonlariga murojaat etishni lozim topdik.

Alpomish dostonidan:

Ko'zimga ko'rinmas balandman pastı,

Bir nechuk so'zlarning tegar shikasti.

Hazillab aytaman, to'ramning do'sti,

Shundayin yigitning bormikan esi

Yoki:

Ko'ngliga og'irolib qolmasin,

Men sho'rlidan ko'ngli cho'rchib yurmasin.

Yoki:

Ustima kiyganim yashil ko'k edi,

O'z elinda shohning g'amin yeb edi.

Qurisin Alpomis, ko'nglim yo'q edi,

Yaxshimasdir, qursin ko'zi ko'k edi.

Yuqoridagi qo'llangan fe'llar orasidagi „hazillab“ fe'li shevaga xos so'z bo'lib, adabiy tilimizda „hazillashib“ tarzida ishlatiladi va bu so'z nutqiy faoliyat fe'liga

kiritiladi. Ikkinchi parchadagi inson ruhiy faoliyati natijasini ifodalovchi „cho‘rchib“ yetakchi fe‘li bugungi kunda „cho‘chib“ shaklida qo‘llaniladi. Keyingi misoldagi „qurisin“ so‘zi ham shevaga xos so‘z bo‘lib, „yo‘q bo‘lsin“ ma‘nosida ishlatiladi.

To‘g‘ri ushbu fe‘l shakllarini yuqoridagi kabi tahlil qilish orqali biron yangilik kashf qilinayotgani yo‘q. Ammo bu o‘rinda, eng asosiysi, biz tarixiy taraqqiyot natijasida lug‘aviy birliklar shakllarida yuz berayotgan o‘zgarishlarga ham diqqat qaratmoqchimiz. Jumladan, yuqorida tahlilga tortilgan „hazillab“ so‘zi tarkibida -ish birgalik nisbat shaklining yo‘qligi mazkur grammatik shaklning turkiy tillar taraqqiyot bosqichida nisbatan keyin paydo bo‘lganligiga ishora qilsa ajab emas. Cho‘rchib so‘zida qo‘llanilgan „r“ tovushi ham alohida tadqiqotlab masalalardandir.

Kuntug‘mish dostonidan:

„Mohiboy aytadi: E arvoh urgan, nega yig‘laysan? Sen yig‘lay yuriyoq meni kuydirding. Shunda Gurkiboy bechora nima **derini** bilmay: – E Mohijon, yetimligi qursin, rangingga qaragam, za‘faronday sarg‘ayibsan“.

Ushbu keltirilgan misolda „yig‘lay yuriyoq“ so‘zi shevada qo‘llanilishidan tashqari, ko‘makchi fe‘llar orqali ifodanlan. **Dorini** so‘zi ham shevaga xos so‘z bo‘lib, adabiy tilda deyishini tarzida ishlatiladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta‘kidlash mumkinki, ona tiliga hurmat va uning bebaho so‘z xazinasidan o‘rinli foydalanish, til vositasida ravshan va ta‘sirchan so‘zlash hamda yoza olish, nutqiy savodxonlikka erishish – til vakili bo‘lgan har bir insonning burchidir. Shu ma‘noda, xalq dostonlarida qo‘llangan fe‘l shakllarining o‘ziga xos jihatlari tadqiq etish, uni ommaga tushunarli shkllda sharhlash va ma‘nolarini tahlil qilish yosh avlod oldidagi asosiy vazifalardan biridir.

Adabiyotlar

1. Rafiyev A., G‘ulomova N. Ona tili va adabiyoti. -Toshkent, „Sharq“, 2006.
2. Nurmonov A. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. -Toshkent, „Ilm Ziyo“, 2013.
3. Kuntug‘mish. -Toshkent, „Sharq“, 2011
4. Alpomish. -Toshkent, „O‘qituvchi“, 1987.

O‘ZBEKONA MULOQOTDA TANISHUV BOSQICHI

Bobojonov F. - QQDU dotsenti, f.f.n.

Kamalova G. - 2-bosqich magistranti

Tanishuv muloqotning salomlasuv va murojaatdan keyingi ikkinchi bosqichi bo‘lib, o‘ziga xos etiketlar doirasida amalga oshiriladigan jarayondir¹.

Kishilar bir-birlari, ayniqsa, notanish kishilar bilan muloqotga kirishar ekan, suhbatdoshlarini atroflicha o‘rganib olishga harakat qiladilar. Bu, avvalo, kommunikantlar o‘rtasida o‘zaro umumiylik bor-yo‘qligini aniqlab olish uchun kerak bo‘ladi. Bu umumiylik tildan, hayotiy tajribalardan, nihoyat, o‘zida millat, kasb, jins, oilaviy ahvol, qiziqish kabilarni birlashtiruvchi ijtimoiy holatlardan qidiriladi.

Shuning uchun ham biror kishi bilan suhbat qurishga chog‘langan odam, shubhasiz, suhbatdoshining shaxsiyati bilan qiziqadi. Bu unga bo‘lajak suhbat mavzusi, uslub va mezonini belgilash uchun kerak bo‘ladi.

Tanishuvning millat, yosh, jins, kasb, mijoz kabilar bilan bog‘liq jihatlari borki, biz ularning ayrimlari haqida to‘xtalib o‘tamiz.

¹ S. Mo‘minov Maruzalar matni. Farg‘ona Davlat universiteti o‘zbek tilshunosigi kafedrasining 2002 yil 7-yanvardagi yig‘ilishida muhokama qilinib ma‘qullangan. Farg‘ona-2002.

Muloqot tarzining milliylik xususiyatiga ega ekanligini tanishuv bosqichida kuzatish mumkin. Jumladan, yevropalik kishilarning suhbat boshidayoq o'zlarini ism-familiyalarini aytib tanishtirishlari odat tusini olgan bo'lsa, musulmon xalqlari, jumladan, o'zbeklar suhbatdoshlarining ism-familiyalarini bilishga unchalik shoshilmaydilar.

Bolalikdagi tanishish juda oddiy bo'ladi. Ya'ni, bolalar bir-birlarining otlarini, nari borsa, qayerlik ekanliklarini bilsalar bo'ldi. Bunday tanishish odatda o'n ikki yoshgacha davom etadi².

O'smir yigitlar o'rtasida begona qizlar bilan tanishish maqsadida "gap otish" hollari kuzatiladi. Bu madaniyatsizlikning bir ko'rinishi bo'lib, ayrim mamlakatlarda bunga qarshi ma'muriy choralar ham belgilangan. Jumladan, Angliyada bugungi kunda begona kishilar bilan tanishish maqsadida unga xira pashshadek yopishib olish nafaqat madaniyatsizlik sanaladi, balki jinoiy javobgarlikka ham tortiladi³.

Katta yoshdagi kishilar o'z-o'zini tanishtirishni notabiiy deb hisoblaydilar, yoshlar esa erkin va oson til topishadilar.

Tanishuv jarayoni kishilar mijoziga ham bog'liqdir. Ya'ni, **ekstrovortlar** (muomalaga tez kirishib ketadigan shaxslar) bilan tanishish ancha oson bo'lsa, **intravortlar** (og'ir tabiatli, muomalaga qiyin kirishadigan, "ichimdagini top" qabilidagi kishilar⁴) bilan tanishish ancha qiyin kechadi. Tanishuv yoki tanishtiruv paytida shaxsning ijtimoiy mavqeyi, joy, o'rin, vaziyat kabilar bilan bog'liq holda o'zgarib turishligi inobatga olinadi. Masalan, tashkilot direktori o'z ishxonasida, o'qituvchi maktabda, sotuvchi magazinda va hokazo. Uyida ularning har biri kimgadir ota, aka, uka va hokazo mavqelar pozitsiyasini oladilar.

Tanishuvning oliymaqom davralarda qabul qilingan shakli bir-biriga tanishtirishdir.

Tor doirada hamma bir-birini bilishi muloqotda juda muhim. Ayniqsa, bu odamlar kelajakda ham tez-tez uchrashib turadigan bo'lishsa, yangi mehmonni albatta tanishtirish zarur. Bu mezbonlar yoki ularning yaqinlarining vazifasidir. Odatda, uy bekasi ayollarni, xo'jayin erkaklarni tanishtirishi kerak. Ammo katta qabullarda yangi kelgan kishini mexmonlarning hammasiga tanishtirish imkonsiz. Bunaqa paytda uni uy egasi, uning turmush o'rtog'i, yaqin qarindoshlari, e'tiborli mehmonlari, stolda birga o'tiradigan qo'shnilar bilan tanishtirish kifoya.

Ko'chada jamoatchilik joylarida transportda hamrohingizni uchratib qolgan odamlarga tanishtirishingiz shart emas. Ammo ular suhbatlashib ketishsa, albatta tanishtiring. Ishxonangizga biror tanish yoki oila azoingiz kelsa, uni hamkasblaringizga tanishtirish shart emas, albatta hamkasblararo shaxsiy munosabatlar bo'lmasa.

Ikki kishi tanishishi uchun o'rtada umumiy tanish kishi vositachilik qilishi lozim. Unga tanishishni istaganlardan biri murojaat etadi. Agar sizga shunday iltimos bilan yuzlanishsa, avval narigi odamning bu tanishtiruvga munosabatini oldindan aniqlab, shunga qarab ish tuting.

Tanishishni xohlamayotgan odam bilan zinhor borib tanishmang yoki birovga tanishtirmang. Yoki yangi tanishingiz bilan darhol sirlashib ketmang – bunday "yelim"lik nazokatli raddiyagasabab bo'ladi.

² Безруких М. Я и другие я или правила поведения для всех. -М., Издательство политической литературы, 1991, с. 93.

³ Безруких М. Я и другие я или правила поведения для всех. 93-bet.

⁴ Nutq madaniyati masalalari (ilmiy to'plam) - Toshkent, 1993, 72-bet.

Erkak kishini ayolga, kichik odamni yoshi kattaga, xodimni rahbarga tanishtirish kerak. Kishining yoshi va mavqeyi alohida ustunlikga ega. Hamisha mavqeyi yoki Yoshi katta odam birinchi tanishtiriladi.

Tengdosh yoki mavqeyi bir xil odamlarni tanishtirish zarurat tug'lsa, buni o'zingizga yaqin kishidan boshlagan ma'qul (masalan, singlingizni kursdoshingizga). Ota-onangizda esa, aksincha, avval tanishingiz, so'ng ota-onangiztanishtiriladi.

Tanishtiruvni ***"Mumkin bo'lsa sizga tanishtirmoqchi edim"*** yoki norasmiyroq shaklda ***"Marhamat tanishinglar"*** jumalari vositasida amalga oshirish maqsadga muvofiq. So'ng ism, familiya, va otasining ismi to'g'ri, aniq, dona-dona talaffuz qilinadi. Zarurat tug'lsa tanishtirilayotganlarning ijtimoiy mavqeyi (muxandis, shifokor, o'qituvchi kabi) qisqacha izohlanadi. Juda mashhur atoqli shaxslar-yozuvchi, xonanda, olim kabilar bundan mustasno. Ular haqida deyarli hamma qay darajadadir ma'lumotga ega bo'ladi. Shu bois tanishtirilayotgan kishining faqat ismi aytiladi.

Davruga yangi odam barcha yig'ilib bo'lgandan so'ng kelib qo'shilsa, uning familiyasi baland ovozda e'lon qilinadi, qolganlar unga qo'l berayotib o'zlarini tanishtiradi.

Tanishtirayotib, sizga yaqin tomonning kasbi va oradagi munosabatlarni bildirib o'tish mumkin. Masalan, "Yaqin do'stim Ergash – shifokor, bu esa kursdoshim Nigora – o'qituvchi" kabi. Turmush o'rtoq va farzandlaringizga nisbatan ***"Mening ayolim... Xo'jayinim... Qizim... O'g'lim..."*** deyiladi. ***"Sarvar mashhur xonanda Zulayhoning ukalaridir tarzida"*** aniqlashtirish odobsizlik sanaladi va do'stingizning ham dilini og'ritadi.

Tengqurlar va yosh yigit-qizlar tanishuvda faqat ism bilan kifoyalanishlari mumkin.

Agar tanishtirishingiz kerak bo'lgan odamlarning ismi-shariflari yodingizdan chiqqan bo'lsa, ***"Marhamat, tanishinglar..."*** deya qolganini o'zlariga havola qilishingiz mumkin. Tanishtirishning bunday usulini bemol qo'llayverish mumkin. Hech iloji qolmagan taqdirda ***"Kechirasiz, familiyangiz yodimdan ko'tarilibdi..."*** deya tan olish va biror hazilomuz gap bilan vaziyatni yumshatish maqsadga muvofiq.

Tanishtirilayotgan kishi erkak bo'lsa, albatta o'rnidan turishi kerak. Ayol faqat yoshi o'zidan katta ayol va keksa kishi bilan tanishtirilayotgandagina shunday qiladi. O'n sakkizga kirmagan qizlar esa kattalar bilan tanishtirilayotganda hamisha o'rinlaridan turishadi.

Agar sizni boshqa birovga tanishtirayotgan kishi familiyangizni aytgan bo'lsa, qo'l berayotib, uni takrorlashga hojat yo'q. Qo'lni birinchi bo'lib tanishayotgan tamon uzatadi, ya'ni rahbar tanishtirilayotgan yangi xodimga, erkak tanishtirilayotgan ayolga va h.k. Taqdim etilgamtamon qo'l uzatishga tayyor holda sabr bilan kutib turadi va uzatilgan qo'lga faqat javob beradi.

Qo'l uzatish paytida biroz egilish va yengil tabassum qilish odat tusini olgan. Hissiz yuz ifodasi bilan quruq ohangda ***"Bag'oyat mamnunman..."*** yoki ***"Juda xursandman..."*** deyish yaramaydi. Undan ko'ra yangi tanishingizga u haqida avvaldan eshitganingiz, nihoyat o'zi bilan shaxsan tanishish sharafiga muyassar bo'lganingizdan xursandligingizni ayting.

Qiyofalarni yaxshi eslab qolmaslik illati tufayli bir kishi bilan ikki martadan tanishishingiz mumkin. Bunday hollarda "biz tanishmiz" javobini eshitgandan ko'ra, tanishmagan bo'lsangiz-da, familiyangizni umuman aytmaganingiz ma'qul

Shu bilan birga eski tanishingiz sizni esidan chiqargan bo'lsa: ***“Tanimading-a?”*** deb ijkilab o'tirish kerak emas. Bu savol uni noqulay ahvolga solib qo'yadi. Yaxshisi gap orasida ***“Biz Nazarnikida uchrashgan edik...”*** deb keting. Bunday ko'mak suhbatdoshingizga kim bilan gaplashayotganini tezroq bilish imkonini beradi.

Ba'zan sizda kim bilandir tanishish zarurati tug'ulib qolganida, aksiga olib, tanishtiradigan odam topilmaydi. Bunda kishi o'zini o'zi tanishtirishi mumkin. Albatta me'yor va chegarani unutmagan holda (harholda, injener odam Tashqi ishlar vaziri bilan darhol osh-qatiq bo'lib ketsa, ancha g'alati ko'rinadi) o'zinivositachisiz tanishtirayotgan erkak oldin uzr so'rab, so'ng ism-sharifi, lavozimi yokasbini aytishi. Tanishishga undagan sababni qisqacha izohlab o'tishi kerak.

Axloq qoidalariga ko'ra, ayol faqat o'z jinsdoshi bilangina vositachilarsiz tanishishi mumkin. Ammobu hozir imkonsiz. Ishga joylashish uchun kadrlar bo'limiga kelgan kasbi, deylik, jurnalist yoki vrach bo'lgan, majlisdan so'ng hamkasbi bilan suhbtlashishni istagan ayol tabiiy ravishda ismini birinchi aytib erkakka o'zini tanitadi.

Ko'chada, avtobusda yo tramvayda tanishib, gaplashib ketish aslida axloq qoidalariga to'g'ri kelmaydi, lekin bunda ham ba'zi istisnalar bor. Siz har kuni avtobusda ko'radigan kishiga “xayrli tong” tilab, dastlabki qadamni qo'ying: agar u qovog'ini ochmay, o'zini sovuq tutsa, ahdingizdan qayting. Siz bilan tanishishga qarshi emasligini bildirsagina, muloqotga bimalol kirishishingiz mumkin.⁵

Demak, tanishuv faqatgina ismi-sharifni aniqlash emas, balki shaxs haqida muayyan tasavvurlar hosil qilishdir. Yani uning shajarasi, yasash hududi, kasb-kori, mashg'uloti oilaviy ahvoli, qiziqishlari kabilarni aniqlab olishdir. Umuman olganda, tanishuv muloqotning birmuncha erkin va samimiy tarzda amalga oshishiga yordam beradi.

ҚАРАҚАЛПАҚСТАННЫҢ АРҚА РАЙОНЛАРЫ ЗООГИДРОНИМЛЕРИ

Г.Мамбетова – Нөкис мәмлекетлик педагогикалық институты

Қарақалпақ тили кафедрасының үлкен илимий хызметкер-излениўшиси

Қарақалпақстанның арқа районлары зоогидронимлериниң аталыўында ең дәслеп халықтың сол суў объектине байланыслы ҳәм сол объекттиң белгили ҳайўанат атамасы менен аталыўында, ҳайўанаттың кийели деп есапланыўы болса, екиншиден сол суў объектине аталған ҳайўанатлардың тиккелей қатнаслы екенлиги нәзерде туғылады.

Биз Қарақалпақстанның арқа районларындағы зоогидронимлерди 4 топарға бөлип қарастырдық.

1. Балық, суў ҳайўанлары атамалары менен келген зоогидронимлер;
2. Қус атамалары менен келген зоогидронимлер;
3. Дүз ҳайўанлары атамалары менен келген зоогидронимлер;
4. Үй ҳайўанлары атамалары менен келген зоогидронимлер.

1. *Қарақалпақстанның арқа районларында жайласқан суў объектлеринен бири бул – балық, суў ҳайўан атамалары менен келетугын зоогидронимлер. Мысалы: Сазан жап, Сүўенли канал (Хожели районы, Қанлыкөл районы). Сазан – балықтың түри. Сүўен – балықтың хасыл, семиз түри [1.237].*

Сүўенли каналы Хожели, Қанлыкөл аймақларынан ағып өтеди. Бул канал атамасы бойынша халық аўзында еки түрли пикир бар. Бириншиден, Сүўен

⁵Muvaffaqiyat kaliti etiket. Yosh kuch sovg'asi.10-11-bedlar

балығының каналда көп болыуына, мол екенлигине байланыссыз ұсылай аталса, екіншіден каналда суы еңлеп, кең болып ағыуына, каналдың еңлі болыуына байланыссыз қойылған деген пікірді билдиреді информаторлар. Яғни 1. Сүйенлі – балығы көп. 2. Сүйенлі – суы еңлі болып ағыуы, каналдың кең екенлигине байланыссыз. Зоогидронимлерден компонентінде балықтың ұлыұмалық атамасы менен қолланылуы жағдайлары да ұшырасады. Мысалы: *Май балық көлі* (Қараөзек районы). *Арық балық көлі* (Мойнақ районы, Нөкіс районы). *Бақалы салма* зоогидроними арқалы сол суы объекінде құрбақа, оның киші түрі ийтбалықтардың, ұлыұма бақаның көпшілігі менен байланыссыз.

2. *Қус аты менен байланыссыз зоогидронимдер*. Қарақалпақстанның арқа районларында қус атамасы менен келетугын бір қатар суы объектілері бар. Мысалы: *Бірқазан көл* (Кегейлі районы), *Қутан/Қотан көл* (Кегейлі районы), *Тарлан жап* (Қараөзек районы), *Қарабайлы канал* (Шоманай районы) ғ.б. Бул қус атамалары менен аталатугын суы объектілерін лингвистикалық жақтан изерттегенімізде, оның көп дәйірді, ұзақ жылдарды өз ішіне алатуғынлығының гүясы болды.

Бірқазан, қутан, көгершін, тарлан, қарабайлы – булар бизің үлкемізде көлдерге, айдындарға суы түсіуі менен келетугын, тәбиғатымызда ұшырасатугын қус атамалары. Бул жақсында Қарақалпақ тілінің түсіндірме сөзлігінде: «Тарлан – аң аулайтуғын қустың бір түрі» деп түсінік беріледі. [2.280]

3. *Дүз хайуаны атамалары менен келетугын зоогидронимдер*.

Дүз хайуандары атамалары менен келетугын зоогидронимдер жекке сыйрек болса да ұшырасады. Мысалы: *Доңызкеткен жап* (Кегейлі районы), *Қоянлы көл* (Қараөзек районы).

Гидронимдер құрамында жутқан/кеткен т.б. сыяқлы белгілі хәрәкетлік мәнісдер менен келетугын бірліктер бул сол гидронимнің аталуының белгілі уақытқа байланыссыз екенлігінде. Мысалы: Мойнақ сөйлесімі бойынша өз изерттеулерінде Т.Бегжанов белгілі уақыттарға байланыссыз қолланылған зоогидронимдерге төмендегіше түсіндірме береді. *Аткеткен* – суыға бір ат кетіп өлген. Соған байланыссыз аткеткен/аттет ген болып аталған. *Өгізкеткен айдыны* – өгіздің суыға кетіп өлуіне байланыссыз келіп шыққан атама. *Бота (боташүңгіл)* – Мәтен шайыр Бота шүңгіл деген жерде отырған. Жергілікті атамалардың айтуына қарағанда усы шүңгілге бір бота түсіп кеткен. Соған байланыссыз келіп шыққан. [4.64].

Демек көріп өткеніміздей *Доңызкеткен жабының* атамасы да усы суы объектіне доңыз кетіу уақыты менен байланыссыз болса, *Қоянлы көл* атамасы көл әтирапында қояндың көпшілігіне байланыссыз аталған.

4. *Үй хайуандары атамалары менен келетугын зоогидронимдер*

Халқымыз ертеден төрт мүлім мал бағып, шаруашылық пенен шұғылланған. Майда мал, ирі қара мал, түйе, жылқышылық халықтың турмыслық тиришілігі менен тікелей байланыссыз. Мысалы: *Малкеткен көл* (Мойнақ районы). Бул көл атамасы да көлге мал кетіу уақыты, хәдісесіне байланыссыз қойылған. Зоогидронимлерден *Құлынлы көл* (Кегейлі районы) хәм *Ешкілі жап* (Қараөзек районы). Сол аймақта яки көл әтирапында құлын яғни бийенің жаңа туған кішкене алты айға шықпаған баласы [3.187] көп екенлігі, көл дәгерігіне құлындардың бағылуы менен байланыссыз болса,

Ешкили жап сол жаптан аўыл ешкилериниң кешип өтиў ҳарекети, суў ишиўи, этирапында ешкилердиң жайлаўы болыўы т.б. ҳалатлар менен байланысly.

Қарақалпақ тил билиминде зоогидронимлерди изертлеў, әсиресе, оның семантикасы, этимологиясы мәселелери менен шуғылланыў – бул гидронимлерди ҳәр тәрәплеме лексика-семантикалық жақтан үйрениў мәселелери менен тығыз байланысly.

Әдебиятлар

1. Қарақалпақ тилиниң түсиндирме сөзлиги. Нөкис. Қарақалпақстан. 1982. I. 176-239-б. (402 б)
2. Қарақалпақ тилиниң түсиндирме сөзлиги. Нөкис. Қарақалпақстан. 1988. III. 187-190-б. (368 б)
3. Қарақалпақ тилиниң түсиндирме сөзлиги. Нөкис. Қарақалпақстан. 1992. IV. 237-б. (636 б)
4. Бегжанов Т. Қарақалпақ тили диалектологиясының мәселелери. Нөкис. 1971. 64-110-б

КЕНИМЕХ ҚАРАҚАЛПАҚЛАРЫНЫҢ ТИЛЛИК ӨЗГЕШЕЛИКЛЕРИ ҲАҚҚЫНДА МИЙНЕТ

С.Шынназарова - НМПИ, ф.и.к.

Султамуратов Ж - ассистент оқытыўшы

Бүгинги қарақалпақ тил илиминиң раўажланыўында, әсиресе диалектология тараўында жарық көрип атырған мийнетлер бул тараўдың еле де изертлениўи тийис мәселелериниң баршылық екенлигинен дерек береді. Өз гезегинде, диалектологиялық экспедициялар жуўмағы ретинде әмелге асырылып атырған изертлеў жумыслары диалектологияны буннан былай да өз алдына арнаўлы тараў сыпатында үйретиўде салмақлы орынға ийе.

Өзбекстанның Наўайы ўәлаяты Кенимех районындағы қарақалпақлардың сөйлеў тилиниң өзгешеликleri бойынша илимий изертлеўлер жумыслары бир қанша жыллардан берли алып барылмақта. Кенимех районында қарақалпақ миллети ўәкиллери ең тығыз жайласқан Сарыбел, Жаңақазған, Шортөпе елатлы пунктклеринде (жәми үш орында) қарақалпақ мектеплери бар, тәлим қарақалпақ тилинде алып барылады. Сондай-ақ, районлық «Кенимех таңы» газетасының бир бетиндеги материаллар қарақалпақ тилинде жәрияланады. Ўәлаятта ҳәм районда қарақалпақ миллий мәдений орайы хызмет алып бармақта.

Өткен әсиримиздиң 55-60-жылларынан баслап Қарақалпақстаннан тысқарыда жайласқан, Өзбекстанның бир қатарай мақларында жасайтуғын қарақалпақлардың тили, аўызеки әдебиятын үйрениў бойынша илимий экспедициялар шөлкемлестирилип, жоқарғы қарақалпақлардың тили бойынша дәслепки мағлыўматлар жыйнала баслады. Тил илиминде «Бөлекленген», «Изоляцияға ушыраған» деген термин менен жүргизетуғын Қарақалпақстаннан басқа аймақларда жасайтуғын қарақалпақлардың ана тилин үйретиў мәселеси диалектология илиминде актуал машқалалардан бири, бул жоқарыдағы изертлеў жумыслары тил илими, тил тарийхы, диалектология ушын баҳалы мағлыўматлар бериўи анық.

Усы мақсетте Амангүл Пирекеева көп жыллық машақатлы мийнетлериниң, илимий изертлеў жумысларының, диалектологиялық бир қатар экспедициялар жуўмағы ретинде филология илимлериниң докторы, профессор Орақбай

Доспановтың басшылығында 2012-жылы «Кенимех қарақалпақтары сөйлесими» деген темада кандидаттық диссертациясын табыссыз қорғады. Ал, автор тәрәпинен жәрияланған «Қарақалпақ диалектологиясынан шынығыулар жыйнағы» (2017-жыл. Нөкіс. Билим, 5 баспа табақ) деп аталған бул мийнетте жоқары оқыу орынларында, академиялық лицей хәм колледжлерде, улыу ма билим бериу мектеплеринде әдебий тилден, қарақалпақ тилиниң арқа хәм кубла диалекти, бир қатар сөйлесимлерине Кенимех қарақалпақтарының аймақтық тил өзгешеликлерин салыстырып үйретиуде белгили әхмийетке ийе.

Оқыу-методикалық қолланбада Кенимех қарақалпақтары тилиндеги материалларды фонетикалық, грамматикалық, лексикалық, семантикалық, сөз жасалыуындағы хәм басқа да өзгешеликлерин салыстырыу мақсетинде шынығыулар берилген.

Сондай-ақ мийнетте, Кенимех районының картасы, қарақалпақлар тығыз жайласқан елатлы пунктлер, қарақалпақ ауйллары ҳаққында мағлыу мат диалектологиялық сөзлик берилген. Текстлерде хәр бир информатор ҳаққында мағлыу мат анық, ықшам түрде көрсетип өтилген.

А.Пирекеева тәрәпине жәрияланған қарақалпақ диалектологиясынан шынығыулар жыйнағы» қарақалпақ диалектологиясын салыстырмалы түрде анализлеуде, қарақалпақ тилиндеги бөлекленген, изоляцияға ушыраған сөйлесимлерди илимий, әмелий жақтан хәр тәрәплеме үйретиуде қарақалпақ тилиндеги ең туңғыш мәрте жәрияланып атырған мийнет деп бахалауға болады. Бул мийнет қарақалпақ диалектологиясынан көп мағлыу матлар бериу менен бирге, диалектлик сөзлердиң изоглоссасын, изосемасын анықлау менен бирге, оларды лингвогеографиялық аспектте де изертлеуге зәрүрликтин бар екенлигин де көрсетеди.

**ҚАРАҚАЛПАҚСТАН ҚАЗАҚЛАРЫ ТИЛИНДЕГИ
ЖЕРЛЕУ ДӘСТҮРИНЕ БАЙЛАНЫСЛЫ ЭТНОГРАФИЗМЛЕР**
**Адилова Г - ҚМУ, Филология (Қазақ тили, түркмен тили) кафедрасы үлкен
оқытыушы**

Қарақалпақстан республикасында қазақ, қарақалпақ, өзбек, түркмен хәм т.б. миллет уәкиллери аралас отырып, бир-бири менен тығыз қарым-қатнаста жасап киятыр. Бул халықлардың той-мерекелерди өткеру, өлини жерлеуға усаған дәстүрлеринде өз ара тәсир жасау кубылысы көп ушырасады. Қарақалпақстан қазақлары тилинде өлини жерлеу дәстүрлери менен байланыссы пайда болған этнографизмлерди төмендегише топластыруға болады:

Атау кере- адамның өлмесинен алдын ең соңғы мәрте ишетуғын ауқаты. Усы мәниде қазақ әдебий тилинде қолланылады. Бул дәстүрдиң ертедеги ата-бабаларымыздан мийрас болып киятырғаны Қытай дереклеринен байқалатуғынын этнограф Н. Мухаметханулы атап көрсетеди [Н. Мухаметханулы:]. Ол адамға ең соңғы рет дәм татқызыу, яғный атау кересин ишкизиу дәстүри қазақлардың арғы теги болған үйсінлерде бизиң эрамыздан бурынғы дәуирде қәлиплескен дәстүр екенлигин айтады. Бүгинги күнде ем қонбайтуғын науқасларға қәлеген ауқатын бере бериң дейтуғын әдет те усынан қалған болса керек. Жергиликли халықлар тилинде ғарғыс мәнисинде

айтылатуғын «ой, атау керенди ишкыр» деген дизбектің де хәзирге шекем дауам етип киятырғанлығы да тегин болмаса керек.

Ырзаласыу- наўқас адамның өлмесинен алдын тууысқанлары, балашағасы менен хошласып, бир-бири менен ырзаласыуы.

Естиртиу, хабар беруу- Өлген адамның жақын тууысқанларына сол адамның қайтыс болғанлығы тууралы хабарды бирден айтпай, жумбақлап, хәр түрли салыстырыулар менен қосып айтыу. Бул дәстүр түркий халықлардың хәммесинде сақланған. Адамның қайтыс болғаны тууралы хабар айтылғанда, «өлди» деп тууры айтылмай, оның синонимлерин қолланады. Мәселен, өлген адам жасы үлкен, ғарры адам болса, «дүнья салды», «алланың аманатын тапсырды», «жалғаншыдан қайтты» деп айтылады. Егер бахытсыз жағдай болса «жан тапсырды», орта жасар болса «қайтыс болды», «қәте болды», «қайтпас сапарға атланды», жас адам болса «қыршыннан кетти», «қәбир қушты», ал нәресте болса «шетнеди» деген этнографизмлер қолланылады.

Өлик, мүрде, мейит этнографизмлері - қайтыс болған адамның денеси.

Табыт - өлген адамның денеси (мейит) салынатуғын арнаулы тақтай. Жергиликли қазақ тилинде табытты гейде «атағаш» деп те атайды.

Кепин- өлген адамның денесине ылайықлап ақ сүптен тигилетуғын көйлек.

Кеуил айтыу, жубатыу сөз, тоқтау сөз- жақыны өлип, жылап отырған қаралы жанларға басыу айтыу. Бунда «қазаға шүкирлик ет», «өлмейтуғын бенде жоқ» «адам буйрықтан қалмайды» «өзекли жанға бир өлим», «жан ийесине бир қаза бары хақыйқат», «өлимнен хешким қутылмайды», «арты қайырлы болсын», «қалған жасын балаларына берсин», «изи той болсын», «болған иске полаттай беккем бол» т.б. этнографизмлер айтылады.

Көрисиу - қазалы үйге барғанда аза тутып, жылап отырған ҳаяллар менен кушақласып қайғыға ортақ екенлигин билдириу ушын өлген адамды жоқлап жылау.

Жоқлау - түркий халықлардың дерлик хәммесинде қайтыс болған адамға арналған қосық түрінде айтылатуғын жыр. «Жоқ» сөзи ески түркий тилинде «қайғы» мәнин билдирип, өлини жерлеуге байланыслы дәстүр я қайтыс болған адамға берилетуғын ас мәнисинде қолланылған [Қошғорий: 136]. А.Н.Кононов ески түркий тилиндеги *уоq* сөзиниң бир мәниси «қаза, өлим» екенин көрсетеди [А.Н.Кононов:115]. Е.Жанпейисов «жоқлаудың» қазақ тилинде «дауыс айтыу», «ат қойыу» формалары бар екенлигин көрсетип, оған қарақалпақ тилиндеги «дауыс шығарыу» мәнилес екенин келтиреді [Е. Жанпейисов:50]. Бизиңше, бул формалар сырттай қарағанда мәнилес көрингени менен олардың арасында айырмашылық бардай сезиледи. Бириншиден, *жоқлау, дауыс айтыуды* тек ҳаяллар ғана айтады. Екиншиден, «ат қойыу» я «дауыс шығарыу» бул өли жатырған үйге киятырған адамлардың шығаратуғын дауысы. Булар жоқлау айтқан ҳаяллардай бираз уақыт дауыс шығарып отырмайды.

Сүйекке кириу-өлген адамның денесин жууып, кепинин кийгизиу дәстүри. Бул дәстүр жергиликли халықлардың хәммесинде шәртли түрде әмелге асырып, оны орынлаушы арнаулы «жууыушы» адамлар болады.

Шығарып салыу - өликти жерлеуге алып кеткеннен кейин оның жақын тууысқанларының биреуи, я басқа биреуди жаллап жоқлау айтқызыу. Жергиликли халық арасында: «өлиниң табытын алып кеткеннен соң, оның жаны үйдиң дөгерегинде қалып қояды» деген исеним сақланған. Сонлықтан,

сүйек пенен жанды бир-биринен адастырмау үшін шығарып салыу дәстүрі пайда болған. Дәстүр бойынша өлген адамның тири уақытындағы хызметлери, денесиниң қайда қойылатуғыны айтылады. Себеби өлген адамның жаны табыт пенен бирге көмилиуи керек, болмаса «жаны үйде қалып қойып, ийесине барыу үшін сол үйден тағы бир адамды өлтиреди» деген ырым сақланып қалған.

Кийим илиу- қайтыс болған адамның жақынлары жаназада арнайы илип қойылған жипке кийим әкеліп салыу; *Ийис, теберик*- өлген жасы үлкен адам болса, «жасын берсин» деп ырымлап, кийимлерин жақынларына, куда-жекжатларға үлестіріп береді.

Азалап барды- өлген адамның туысқанларына кеуіл айтыу, өлини қайғырыу; *Аза берди, азаға салды* - ески дәстүр бойынша өлген адамға кеуіл айта отырып, қазалы үйге арнап берилетуғын зат. Жергиликли қазақлардың тилинде «азаға салғаным болсын» деп, жақын туысқанлары ири мал апарады; *Аза тутыу* - өлген адамның бала-шағасының, хаялының бир жылға шекем аза тутып жүриуи. *Аза көйлек*- жақынлары өлген адамлар үстилерине қызыл-жасыл жақсы көйлеклер киймей, қара рендеги кийимлер кийип жүреді. Бундай кийимлер «аза көйлек» я «аза кийим» деп аталады. Буны жергиликли қазақлар гейде «кара жамылып отыр» деп те айтады. Буның хәммеси өлген адамға деген хұрметтин белгисин билдиреди.

Намазы- қайтыс болған адамның жаназасы оқылатуғын күни; *Жаназа*- қайтыс болған адамға арнап жерлеу алдында оқылатуғын намаз.

Өликтин артын күтиу- өлген адамға аза тутыу, мал сойып, куран оқытыу; Яғный өлген адамның жетиси, қырқы, жүзи, жыл садақасы сыяқлы мерекелери бериледи; *Пийшембилик бериу* - қырқы өткенше хәр хәптениң төртинши күни (пийшемби) қаза болған адамның денеси жерленген жерине барып, куран оқытыу, үйинде садақа бериу.

Қара тигиу, қаралы байрақ байлау - ертедеги қазақлардың дәстүри бойынша өлген адамның жасына қарай оған тигилген үйдин оң жақ беллеуине найзаға қара рендеги байрақ байлау; Жергиликли халықлар тилинде биреуге урысқанда айтылатуғын «кара тигилсин» деген сөз дизбеги ертедеги қара тигиу салты менен байланысly қәлиплескен болса керек.

Ас бериу - өлген адамның артын күтиу дәстүриниң ең соңғы дәстүрин жасап, хәмме ауыл-аймақты шақырып, ауқат бериу сыяқлы рәсмий жыйын.

Жергиликли халықлардың тилиндеги үрп-әдетке байланысly этнографизмлерди жыйнау, топластырыу, оларға лингвистикалық анализ жасау тек халқымыздың этнографиясын ғана емес, ал түркий тиллердин арғы тегин анықлау хәм жасларға үйретиу үшін үлкен әмелий хәм теориялық әхмийетке ийе деп санаймыз.

ӘДЕБИЯТЛАР:

1. Жанпейисов Е. Этнокультурная лексика казахского языка. Алматы. 1989. 50-б.
2. Кононов А.Н. Грамматика языка тюркских рунических памятников VII-IX вв. Ленинград. 1980. 115-б.
3. Махмуд Қошғорий Девону луғотит турк. 1963. 136-б.
4. Мухаметханулы Н. Атау кере деген не және ол қашан пайда болған? Ана тили. Алматы. 1994. 10-февраль.

БАСЛАҰЫШ ТӘЛИМ АНА ТИЛИН ОҚЫТЫҰДА ГҮРРИҢ МЕТОДДЫНАН НӘТИЙЖЕЛИ ПАЙДАЛАНЫҰ

Утемуратов Б - Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендириу хызметкерлерин қайта таярлау хәм олардың қәнигекигин арттыруу институты Мектепке шекемги, баслауыш хәм арнаулы тәлим кафедрасы баслығы, ф.и.к.

Мектеплерде муғаллимлер өз ислеринине қатты итибар бериуиниң нәтийжесинде заманагөй муғаллимлер хәр бир сабақтың турмыс пенен байланыслы болып, күн талабына жууап бериуине айрықша кеуил бөлинбекте. Оқытуу методына байланыслы көз-қарасларда оқыушылардың билимди турақлы ийелеуине әхмийет берип келинбекте.

Муғаллимниң алдыңғы тәжирийбелерге, илим жетискенликлерине сәйкес жумыс алып барыуы, творсчестволық излениуи дәуир талабы болып отыр. Баслауыш тәлимниң тийкарғы ўазыйпалардың бири оқыушының сөйлеуин раўажландыруу [К.Қасимова, С.Матчонов, Х.Ғуломова, Ш.Юлдашева, Ш.Шариева “Она тили ўқитиш методикаси” 44 бет]. Мектептиң мақсети хәр тәреплеме раўажланған балаларды оқытып тәрбиялап шығыудан ибарат. Муғаллим метод таңлауда, оны қолланыуда алдымыздағы усы мақсет пенен ўазыйпаларды нәзерде тутат отырып, таңлаудан ибарат. Қолланыуын тапсаң хәр бир оқытуу методына да жан енеди. Оқытуудың нәтийжели болыуының гилти де усында.

Хәзирги дәуирде баслауыш классларда ана тилин оқытууда қолланып киятырған хәм қолланыуға тийисли методлар бар. Муғаллимниң сөйлеуин түсиндириуи, гүрриң, өз бетинше ислеу, сабақлық пенен ислесиу, көрсетпелилик, интерактив методлар менен бирге оқыудың барысында оқыушылардың логикалық искерлигин иске қосыушы-аналитикалық, синтетикалық, индуктив, дедуктивлик методлар да нәтийжели пайдаланыу керек.

Бул методларды пайдаланыуда төмендегилерди нәзерде тутыуы шәрт хәм үйренилетуғын тил қубылысының өтилиуе тийисли тарауын үйрениуе қолайлығы менен үйлесимлилиги, ямаса оқытуудың принципи менен методтың сәйкес келиуине итибар қатарыу керек. Соның менен бирге, класста оқытуғын балалардың мүмкиншилигине, жасына, психологиялық өзгешеликлерине, таярлығына, билимине, класс өзгешеликлерин сәйкес келиуине итибар бериледи. Хәр бир баланың мүмкиншилигине, тәжрийбесине, теориялық әмелий таярлығына, жеке өзгешелигине, қолайлылығы тексерип көриледи. Және де, оқытуудың барысында методты қолланыу барысында муғаллимниң алдына хәр қыйлы күтпеген жағдайлар ушырасып қалыуы, өтилген тема үстинде сорау-жууап өткеру барысында оқыушылардың таярланып келмегенлиги анықланады. Соның нәтийжесинде бул жағдайда пайдаланыу ушын қолайлап келген гүрриң методты қолланыуға болмай қалады да, ал енди түсиндириу методы менен ислесип кетиуе туура келеди. Сол ушын методты қолланыуда избе-излилик принципин қолланылады. Баслауыш классларда грамматика менен орфографияны оқытқанда усы жағдайларды еске ала отырып метод қолланыу керек.

Гүрриң методы баслауыш классларда ана тилиниң грамматикасы, орфографиясын оқытқанда көбирек қолланылатуғын методтың түрине жатады. Бул түсиндириу методына қарағанда истиң барысы көбинесе муғаллим

тәрәпинен болатуғын болса, ал гүрриң методында муғаллим менен оқыўшының ямаса еки тәрәптиң қатнасының нәтийжесинде иске асады. Муғаллим сораў береді, ал оқыўшы билгени бойынша қадағалаў, сабақлық, арқалы, карточкалар, кестелер, тахтада ислеў, ойланыў пикир жүритиў нәтийжесине сүйене отырып оған жуўап береді. Гүрриң еки арада еркин пикир алысыў, ашықтан-ашық сөйлесиў тийкарында иске асады. Гүрриң методы сабақтың барлық басқышы – үйге берилген тапсырманы тексеріў, таза материалды түсиндириў, өтилген материалларды беккемлеў барысында иске асады. Тәкирарлаў сабағында көбирек қолланылады. Себеби гүрриң методын қолланыў ушын оқыўшы өтилетуғын материалдың мазмуны менен таныс болыўы тийис. Сондай-ақ, гүрриң методын қолланыў дәўиринде оқыўшы өтилетуғын сабақтың мақсети менен жақсы таныс болыўы шәрт.

Гүрриң методын қолланыў дәўиринде ортаға ямаса жеке оқыўшыға сораў таслаў да жуўапкерли жағдай. Оқыўшылар айтылған мағлыўматларды билмейтуғын яки азы кем билетуғын төменги классларда булл методты қолланыў жүдә қолайлы [Р.Мавлонова, О.Тўраева, К.Холиқбердиев “Педагогика” 262 бет]. Айырым муғаллимлер «Санлық дегенимиз не», «Фейил деп қандай сөз шақабына айтамыз», «Түбирлес сөзлер деп қандай сөзлерге айтамыз» хәм т.б. деп сораўлар таслайды. Бул оқыўшының ойланыў, пикир жүритиў жағдайын келтирип шығармайды. Оқыўшы бул сораўларға догматикалық жуўап берип қоя салады. Негизинде, оқыўшыдан бир сөз шақабының екинши сөз шақабынан айырылып туратуғын белгилерин көрсетип, дәлилlep, бир-биринен айырылытуғын мәнилик грамматикалық белгилерин көрсетип билетуғын сораўлар бериў хәм жуўап талап етиў жақсы нәтийже береді. Мәселен, «Атлық басқа сөз шақабларынан қандай белгилери менен айырылып турады», «Гәп ишинен келбетликти қандай белгилерине сүйенип табасаң», «Суффикс пенен жалғаўдың бир-бирине уқсаслық өзгешелик жақларын айтып бер» хәм т.б.

Оқыўшылар менен өткерилетуғын гүрриңниң тәрбиялық жағы естен шығарылмаўы тийис. Хәр бир өткерилетуғын гүрриңлесиў белгили бир мақсетке байланыслы болып, ондағы тәрбиялық бағдар да сол мақсетке байланыслы болыўы шәрт. Бундай сораўлар қойыў балалардың жас ўақтынан баслап белгили бир жағдайға, өзиниң пикирин билдирип үйрениўге, ойланып сөйлеўге жағдай туўдырады. Соның менен бирге класста оқыўшыға муғаллимниң сораў бериўи, оқыўшының оқыўшыға сораў бериўи усаған жумыслар орын алады. Сонлықтан муғаллим өзи ғана сораў бериўден шекленбей, ал оқыўшылардың да сораў бериўине, сораў бериўдиң жолларын үйрениўге жағдай жасап отырыўымыз керек. Әсиресе, хәзирги оқытыў барысын бирлесип ислесиў педагогикасының ениўи, бул жағдайдың және де нәтийжели болыўына жол ашты.

Әдебийатлар:

1. К.Қасимова, С.Матчонов, Х.Ғуломова, Ш.Юлдашева, Ш.Шариева “Она тили ўқитиш методикаси” Тошкент, Носир, 2009, 351 бет.
2. Р.Мавлонова, О.Тўраева, К.Холиқбердиев “Педагогика” Тошкент, “Ўқитувчи”, 2010 йил, 495 бет .

AFSONA VA MAQOLLARNING BADIY ASARDAGI O'RNI (AHMAD A'ZAM QISSALARI MISOLIDA)

L. Xayitova – Tosh DO‘TAU magistranti

Folklor namunalariidan foydalanish zamonaviy o‘zbek nasrida an’anaga aylanib ulgurgan. Buni ko‘plab yozuvchilar qatori A. A’zam ijodida ham kuzatish mumkin. Ahmad A’zamning “Asqartog’ tomonlarda” qissasida ovchi yigit va ayiq haqida afsona uchraydi. “Afsona- o‘zbek xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy, an’anaviy va keng tarqalgan janrlaridan biri. Hayotiy voqelikni xayoliy uydirmalar orqali bayon etadigan, biror ma’lumot haqida tinglovchiga xabar berish maqsadida hikoya qilinadigan og‘zaki nasriy asarlar afsona deyiladi.”⁶ Yozuvchi o‘z asariga folklor namunasini kiritishdan muayyan maqsadni ko‘zlaydi. Xususan, qissa va romanlar tarkibida ko‘proq uchraydigan afsonalar asar ta’sirchanligini oshirish, qahramonning psixologik holatini tasvirlashga yoki biror g‘oyani ifodalashga xizmat qiladi. Ma’lumki, badiiy asar tarkibidagi folklor namunasi folklorizm deb yuritiladi. B. Sarimsoqov yozadi: “Biror ijodkor asariga biror maqsad bilan kiritilgan folklorga xos barcha materialni folklor deb emas, balki folklorizm atamasi bilan yuritish lozim, chunki unga ijodkor tomonidan muayyan “ishlov” berilgan bo‘ladi”.⁷ Shuningdek, B. Sarimsoqov folklorizmlarning tuzilishiga ko‘ra ikki turini farqlaydi: sodda va murakkab. Afsonalar murakkab folklorizm sanaladi. Folklorizm asar g‘oyasini ifodalashga yoki qahramon xarakterini ochishga va psixologik holatini tasvirlashga xizmat qiladi. “Asqartog’ tomonlarda” qissasidagi afsonadan kelib chiqadigan asosiy xulosa shu afsonani aytib bergan qahramon Shodi aka tilidan aytiladi: “Ana shunaqa, jo‘ralar, sizga yomonlik qilmaganga hargiz yomonlik qilmang- o‘zingizga qaytadi...”⁸. Ammo kursdoshlar davrasidagi odatiy guruhlarda aytilgan bu afsonaning mohiyati shu bilan chegaralanib qolmaydi. Afsona tarkibidagi har bir element sirli tuyuladi. Balki bunda bosh qahramonni ko‘p o‘ylantirgan azaliy masala-taqdirga ishora bordir? Demak, yozuvchi bu afsonani qissaga shunchaki qiziqarli syujeti uchun olib kirmaydi. Adabiyotimizda ayiq haqidagi afsona qatnashgan yana bitta qissa mavjud. Gulnoza Ernazarovanning “Tiyramoh tushlari” qissasidagi afsona qahramon ruhiyatida kechgan o‘zgarishni ortiqcha ta’rif, tafsilotsiz ham o‘quvchi ko‘z oldida yorqin namoyon bo‘lishiga sabab bo‘ladi va qissadan kelib chiqadigan asosiy xulosani ifodalashga xizmat qiladi. “Asqartog’ tomonlarda” qissasida esa xulosalardan birini ochishga xizmat qilgan, deyish mumkin. Chunki bu afsona va uni qissa bilan bog‘liqligi masalasida har bir o‘quvchi o‘z tabiati, dunyoqarashi va saviyasiga ko‘ra turlicha fikr va xulosalarga kelishi mumkin. Asosiy qahramonlari ayiq bo‘lgan bu afsonalarning bajarayotgan funksiyasi, ko‘targan yuki qissalarning mazmun-mohiyati va ko‘lami bilan bog‘liq. Qizig‘i, ayiq haqidagi bu ikki afsonaning syujetida ham ma’lum o‘xshashliklar mavjud. Afsonalarning har ikkalasida ayiq qiz bola qahramonni olib qochadi. “Asqartog’ tomonlarda” qissasida ayiqning kelin bo‘layotgan qizni olib qochishi kuyovning gunohi va bu gunohga berilayotgan jazo sifatida talqin qilinsa, “Tiyramoh tushlarida”gi olib qochish ayol ruhiyatidagi tabiiy jarayon- taqdiriga bitilgan insonning qanday bo‘lishidan qat’iy nazar ayol uchun qadrli bo‘lishi va oilaning muqaddasligiga urg‘u berishga qaratilgan.

⁶ Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. T.: Musiqa, 2010.178-b

⁷ Sarimsoqov B. Folklorizm tipologiyasi masalasiga doir. “O‘zbek tili va adabiyoti” 1980, 4-son

⁸ A. A’zam. Asqartog’ tomonlarda. T.: “Yosh gvardiya” 1989, 43-b

Ahmad A'zam o'z qissalarida folklor namunalariidan faqat afsonadan emas, qator maqollardan ham foydalanadi. "Quroq" nomli qissasida "Mard bo'lsang, Eski Juvada hangra", "Eshak eti go'sht bo'lmas, savdogar hech do'st bo'lmas", "Eshak minganning oyog'i tinmas, ikki xotinlikning qulog'i", "Eshak baxshi bo'lmas, yomon yaxshi bo'lmas" singari maqollar uchraydi. Ko'rinadiki, qissaga eshak obrazi mavjud maqollar kiritilgan. Aynan eshak obrazi ishtirok etgan maqollarning tanlanishi bejizga emas. Chunki, "Quroq" qissasida eshak muhim ramziy obraz hisoblanadi. Muallif bolaligini xotirlar ekan, bu xotiralarning hammasi bir uchi bilan eshakka borib taqalaveradi. Eshak bir o'rinda befarosat, madaniyatsiz, fe'li tor odamlarning ramzi bo'lsa, boshqa o'rinda o'z mansabini suiste'mol qilayotgan mansabdorlarning, yoki har narsadan o'z manfaatini ustun qo'yadigan noinsof savdogarlarning timsoli bo'lib keladi. Yozuvchi yon atofidagi turli xarakterga, tabiatga ega shaxslarga, hayotdagi har xil vaziyatlarga munosabatini maqol vositasida ifodalaydi. Bosh qahramonning lug'at titish jarayonida go'yoki tasodifan ko'zi tushib qolayotgan maqollarning har birida aslida muallif aytmoqchi bo'lgan eng asosiy fikrlar o'z aksini topadi. Muallif har bir maqol vositasida odamlar tabiatidagi qandaydir illatga ishora qiladi va shu bilan bog'liq qiziqarli voqealarni bayon qilib boradi. Natijada maqollar qahramon xarakteri, ruhiyati tasvirida eng muhim vositalardan biriga aylanadi. O'zbekiston xalq shoiri E. Vohidov maqolga quyidagicha ta'rif bergan edi: "Yo'l yurib ketayotgan insofli odam bexosdan chuqurlikka toyib ketsa, o'rnidan turib etak qoqib ketavermaydi. Men yiqildim, boshqalar yiqilmasin, deb chuqurni tekislab qo'yadi, yo bo'lmasa, biror tayoqni suqib belgi qo'yib ketadi. Bu ey, yo'lovchi, ehtiyot bo'l, bu yerda chuqur bor, ko'zingga qara, degan ishora bo'ladi. Bobolar hikmati ana o'sha tayoqdir".⁹ Aytish mumkinki, A. A'zamning "Quroq" qissasida bu xosiyatli "tayoq" o'ziga yuklangan vazifani to'la ado etolgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, A. A'zam qissalaridagi folklor namunalari o'quvchi diqqatini o'ziga tortishi, qissalarning o'qishlilikini oshirishi va asar falsafasini ochishda alohida o'ringa egaligi bilan ahamiyatli.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. A'zam. Asqartog' tomonlarda. T.: "Yosh gvardiya", 1989
2. A. A'zam. Quroq. "Yoshlik" 2013, 1-son
3. B. Sarimsoqov. Folklorizm tipologiyasi masalasiga doir. "O'zbek tili va adabiyoti" 1980, 4-son

QORAQALPOG'ISTONDAGI O'ZBEK SHEVALARIDA SOF KO'MAKCHILARNING QO'LLANILISHI

I. Ibodullayeva - NDPI O'zbek tili va adabiyoti magistratura ta'lim yo'nalishi 1-kurs magistranti

Hozirgi o'zbek adabiy tilida ko'makchilar mavzusi olimlarimiz tomonidan o'rganilgan va bugungi kunda ham o'rganilish obyekti bo'lib kelmoqda. Shunday ekan, biz maqolada Qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalarida sof ko'makchilarning qo'llanilishi, ularning farqli va o'xshash tomonlariga to'xtalmoqchimiz.

Bizga ma'lumki, ko'makchilar ikki guruhga ajratiladi:

1. Sof ko'makchilar
2. Ko'makchi vazifasida qo'llaniluvchi so'zlar.

⁹Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. "Hikmatnoma". – T., 1990. 5-b

Sof ko‘makchilar asl ma‘nosini yo‘qotgan, gapda o‘zidan oldingi so‘z bilan birikib bir xil sintaktik vazifani bajaruvchi so‘zlardir. Ular qo‘llanilishiga ko‘ra kelishik qo‘shimchalariga yaqin turadi, lekin ular kelishiklardan farqli o‘laroq ma‘noni aniq ifodalaydi. Sof ko‘makchilar tobe so‘zni hokim so‘zga bog‘lashga xizmat qiladi. Sof ko‘makchilar qatoriga *bilan, uchun, sayin, sari, uzra, qadar, yanglig‘, kabi, singari* so‘zlari kiradi.

Bilan ko‘makchisi o‘zbek tilida asosan, ko‘makchi, ba‘zan bog‘lovchi vazifasida ishlatiladi. Shuning uchun bu ko‘makchi turi yordamchi so‘zdan birining o‘rnida ikkinchisi qo‘llanilishi nuqtayi nazardan *ko‘makchi-bog‘lovchi* atamasi ostida ham o‘rganilmoqda [R. Sayfullayeva va boshqalar: 269].

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida *bilan* ko‘makchisi birgalik, vosita, payt, sabab, bir harakatning ketidan ikkinchisining tez boshlanishi, maqsad, biror ish-harakatning boshqasi bilan teng sodir bo‘lganlik, umumlashtirish, xulosalash ma‘nolarini ifodalaydi. Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalarida *bilən* ko‘makchisining *vilən: minən: mynan: mən: ən* variantlari mavjud. Shevalarda ham adabiy tildagidek ma‘nolarni ifodalaydi: *Yəndi dayyη mynan gaplaship kelishga barmaysama? (birgalik ma‘nosi). Yenam qəлиндag‘ы tayag‘ы mən: ən yeshikti achыp kirdi (vosita ma‘nosi). Atam üyga kirishi bilən yamg‘ыр тынды (payt ma‘nosi).* Bulardan tashqari *bilən* ko‘makchisi biror ish-harakat tugaganidan keyin darrov ikkinchi ish-harakatning boshlanganligi ma‘nosini ham ifodalaydi: *Akam ketuwi mynan darruv ukam keldi.*

O‘zbek tilining “djlovchi” qipchoq shevalarida “*minän*” ko‘makchisining *pinən: pynan: pan: pən: man* kabi assimilyativ variantlari ham uchraydi.

Uchun ko‘makchisi o‘rganilayotgan shevamizda maqsad, sabab, atash ma‘nolarini bildiradi.

a) maqsad ma‘nosi: *Saparbay atanыη bag‘ы avilimizdag‘ы balalar uchun vəstiriladi.*

b) sabab ma‘nosi: *Bahar kesada salmалarg‘a suw kemagani uchun gullar quridi.*

c) atash m‘nosi: *Bulardi atam uchun aldim.*

Uchun ko‘makchisi jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi bilan sinonim bo‘lib, –ga qo‘shimchasi uchun ko‘makchisining o‘rniga qo‘llanilishi mumkin. Bu qo‘shimcha shevada –a tarzida qo‘shiladi. Masalan: *Bu kitaplardi ukama aldim.*

Səyin ko‘makchisi ish- harakatning takrorlanishini, davomiyligini bildirib keladi: *Kun səyin kasalligi awirlaship baratыр. Saηa uyratgan səyin hammasini unitip baratirсан. Səyin* ko‘makchisi –dan chiqish kelishigi qo‘shimchasi bilan sinonim bo‘la oladi. Masalan: *Nazira kun səyin chiraylilaship baratir – Nazira kunnan kun chiraylilship baratir.* Yuqoridagi misolda *kun səyin* ko‘makchili konstruktsiyaning o‘rnida *kunnan kun* so‘zi qo‘llanilgan, ammo ma‘noga ta’sir etmagan. Shevada –dan qo‘shimchasi fonetik o‘zgarishga uchrab –nan tarzida qo‘shilgan. Ikkalasida ham ish-harakatning davomiyligini bildirib kelgan.

Sari ko‘makchisi shevada deyarli uchramaydi. Uning shevalarda boshqacha variantlari ham yo‘q. Adabiy tildagi *bog‘ sari bordim, maktab sari yo‘l oldim* konstruktsiyalaridagi *sari* ko‘makchisining o‘rnida *qaray, taman, tərəp* kabi ko‘makchilar va *səyin* ko‘makchisi faol qo‘llaniladi.

Uzra, qadar ko‘makchilari ham shevalarda kam qo‘llaniluvchi ko‘makchilar qatoriga kiradi. Bu ko‘makchilar, asosan, adabiy tilda badiiy adabiyotda ko‘p qo‘llaniladi. *Uzra* ko‘makchisi hozirgi zamon o‘zbek tili uchun arxaiik bo‘lib, faqat she’riy asarlarda uchraydi [O‘zbek tili grammatikasi 1-tom morfologiya: 550].

Yangligʻ, kabi, singari koʻmakchilari bir-biriga sinonim munosabatda boʻlib, oʻxshatish, solishtirish, qiyoslash maʼnolarini ifodalaydi. Bu koʻmakchilar shevalarda kam qoʻllanilib, ularga sinonim tarzda *–dek\–day* qoʻshimchalari qoʻllaniladi: *Onin apasi menikinday miyriban yedi.*

Yangligʻ koʻmakchisi esa, asosan, badiiy adabiyotda faol qoʻllaniladi.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, adabiy tilda qoʻllaniladigan sof koʻmakchilar bilan shevalarda ishlatiluvchi sof koʻmakchilarning ifodalanishlarida bir- biriga oʻxshash va farqli tomonlarini kuzatishimiz mumkin. Adabiy tilda qoʻllaniluvchi koʻmakchilarning shevadagi variantlari uchramasligi va ular oʻrniga qoʻshimchalar yordamga kelishi ham mumkinligi jihatidan farqli tomonlarini kuzatdik.

ADABIYOTLAR

1. R. Sayfullayeva va boshqalar. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. T: “Fan va texnologiya”, 2009.
2. Oʻzbek tili grammatikasi 1-tom morfologiya. T: “FAN”, 1975

ONA TILI DARSLARIDA DIKTANTLARNI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Z. Qudanova - Nukus DPI Oʻzbek tili va adabiyoti mutaxassisligi 1- kurs magistranti

Har bir millatning oʻz ona tili uning kelajagi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ona tilining goʻzalli-yu nafosati, rivoji-yu barqarorligi, albatta, yozuvning taraqqiyotiga ham bogʻliq. Tarixga nazar tashlaydigan boʻlsak, ajdodlarimiz turli davrlarda mixxat, soʻgʻd, Oʻrxun-Enasoy, uygʻur, arab, kirill kabi har xil yozuvlardan foydalanib kelganlar. Musttaqillikka erishganimizdan soʻng 1995- yil 24- avgustda birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning oʻzbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida qaroriga muvofiq lotin yozuviga asoslangan yangi oʻzbek yozuvi joriy etildi. Oʻshandan buyon, mana, yigirma ikki yildirki, lotin alifbosi asosidagi oʻzbek yozuvidan foydalanib kelmoqdamiz.

Shuni alohida taʼkidlash joizki, tilimizda hamma soʻzlar ham eshitilishi boʻyicha fonetik tamoyil asosida yozilavermaydi. Masalan, p tovushi talaffuz qilinsa ham b tovushining yozilishi yoki ayrim soʻzlarda t tovushining talaffuzda tushib qolishi, tuʻtuq belgisining qoʻyilish qoʻyilmasligiga bilan bogʻliq holda soʻzlar maʼnolarining oʻzgarishi, shuningdek, soʻzlarni ajratib, qoʻshib hamda chiziqcha bilan yozilishida oʻquvchilarimiz bir qator xatolarga yoʻl qoʻyishlari kundalik faoliyatimizda kuzatilib kelayotgan hodisa. Bu esa oʻquvchining yozma nutqida chalkashliklarni keltirib chiqarishi shubhasiz. Aytilishi nazarda tutilayotgan fikr emas, butunlay boshqa soʻzlar orqali mulohazalar bayon qilinadi. Chunki oʻzbek tilida soʻzlarning maʼno qirralari turli xil boʻlib, hattoki bir tovushni boshqasi bilan almashtirib qoʻysak ham, yangi maʼno yuzaga kelishi mumkin. Demak, yuqoridagi kabi omillarni inobatga olgan holda ona tili fanidan umumtaʼlim maktablarining beshinchi sinf oʻquvchilarining yozma nutqidagi xatolarni bartaraf qilish maqsadida yangicha shakldagi sinov diktant matnini eʼtiboringizga havola etmoqchimiz. Bunday diktant matnini texnik uskunalardan foydalangan holda videoproektorda namoyish etish yoki xattaxtaga yozish orqali koʻrsatib berish ham mumkin.

Oʻrmon ...angomasi

Oʻrmonda ket...yotgan olma...on dara... sho...ida oʻrmon sho...i boʻlgan sh...rning tojini koʻrib qolibdi. Tojni olmoqchi boʻlgan olma...on dara...ga baz...r chiqibdi va balan...a turib qarasa, yoʻlda baz...r kelayotgan tulkini koʻribdi.

Olma...on dar...ol undan yordam so‘rabdi. Dunyo gan...iga ...irs qo‘ygan tulki darrov rozi bo‘libdi. Buni kuzatib turgan ola...qarg‘a hay...haylagancha ularga yordam berishga oshiqibdi. Uchalasi bir...varakayiga harakat qilsa ham natija chiqmagach u... tortib tursa qirg‘iy...ko‘z burgut keli...di. Shu orada yomg‘ir ham shov...llab quya boshlabdi. Buni qarangki dara...ning sho...i dar... ketib turgan ekan sini... yerga tushi...di.

O‘rmon hangomasi

O‘rmonda ketayotgan olmaxon daraxt shoxida o‘rmon shohi bo‘lgan sherning tojini ko‘rib qolibdi. Tojni olmoqchi bo‘lgan olmaxon daraxtga bazo‘r chiqibdi va balandda turib qarasa, yo‘lda bazur kelayotgan tulkini ko‘ribdi. Olmaxon darhol undan yordam so‘rabdi. Dunyo ganjiga hirs qo‘ygan tulki darrov rozi bo‘libdi. Buni kuzatib turgan olaqarg‘a hayhaylagancha ularga yordam berishga oshiqibdi. Uchalasi birvarakayiga harakat qilsa ham, natija chiqmagach ufff tortib tursa, qirg‘iyko‘z burgut kelibdi. Shu orada yomg‘ir ham shovullab quya boshlabdi. Buni qarangki, daraxtning shoxi darz ketib turgan ekan sinib yerga tushibdi.

Biz diktant matnida asosan, h va x, b va p, tovushlari, so‘zlarda qator kelgan undoshlarning yozilishi, tu‘tuq belgisining qo‘llanilish o‘rni, so‘zlarning ajratib, qo‘shib yoki chiziqcha bilan yozilishi hamda tinish belgilari imlosiga diqqat qaratdik. Negaki, o‘quvchilar aynan mana shu kabi belgilarga ega bo‘lgan so‘zlar imlosida ko‘proq xatoga yo‘l qo‘yadilar.

Xulosa qilib aytganda, bu kabi diktant matnlari bir tomondan o‘quvchilarning og‘zaki hamda yozma nutqini o‘stirsa, ikkinchi tomondan o‘quvchilarning matn mazmuniga, uning nima bilan tugashiga qarab, mulohaza yuritishiga, bahs davomida esa o‘z fikrlarini erkin bayon qilish, og‘zaki nutqini o‘stirish kabi malakalarining ortib borishiga erishiladi. Shu bilan birga kitob olamiga bo‘lgan qiziqishlari ham ortib boradi. Ushbu diktant matnidan umumta‘lim maktablarida nazorat hamda ta‘limiy diktant sifatida foydalanish mumkin.

BADIIY ASARLARDA ZONIMLARNING QO‘LLANILISHI

M. Xudayarova - ilmiy rahbar f.f.n., katta o‘qituvchi

G.Egamberganova - Nukus DPI O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti

2-kurs talabasi

Onomastika ilmiy soha sifatida, hozirda yangi fan bo‘lib, rivojlanayotgan bo‘lsa-da, atoqli otlarga qiziqish o‘tmishda ham mavjud bo‘lgan. Keyingi davrlarda o‘zbek nomshunosligida ayniqsa toponimika, antroponimika, etnonimika sohaları jadal rivojlandi. Bu esa o‘zbek tilshunosligida onomastik tadqiqotlar ko‘lamining kengaya borishi bu ilmiy sohaning rivoji va shakllanishiga olib keladi, albatta. Bugungi kunda ham ko‘pgina olimlar ushbu sohalar bo‘yicha tadqiqot ishlarini olib bormoqda. Lekin onomastikaning zoonimika va kosmonimika kabi sohalarida hali tadqiq qilinmagan masalalar ko‘pchilikni tashkil etadi. Nomshunoslikning hayvonlarga atab qo‘yilgan atoqli otlarni o‘rganuvchi tarmog‘i zoonimika deb yuritiladi. Zoonimlar-zotli hayvonlarga atab qo‘yilgan (uy hayvoni, zoologik bog‘, sirk, qo‘riqxonalaridagi, shaxsiy qarovdagi va sh.k.) maxsus laqab nomlar. Har bir yashab turgan tirik jon zod borki, ular ham o‘z nomiga ega bo‘ladi. Hayvonlarga ism qo‘yish, ularni laqabi bilan chaqirish uzoq o‘tmishda ham mavjud bo‘lgan. Jumladan, xalq og‘zaki ijodi dostonlariga murojat qiladigan bo‘lsak ham, otlarga atab qo‘yilgan nomlarni uchratishimiz mumkin. Ulardagi hayvonlarni kelib chiqish etimologiyasi uzoq

o'tmishga borib taqaladi. Bunga misol tariqasida, biz bilgan va bizga tanish bo'lgan "Alpomish" dostonidagi Boychibor, Ko'kdo'n, Saman ot, Olapocha, to'riq ot, shapaqi ot kabilarni, "Ravshan" dostonidagi G'irko'k, Jiyronqush, Qorabayir kabi baytal nomlarini keltirishimiz mumkin. Xususan, zoonimlarni badiiy asarlarda ham uchratish hollari mavjud. Darhaqiqat, xalqimizning ma'naviy-intellektual hayotini, shaxsning badiiy, estetik kamolotini millatning ijtimoiy-madaniy taraqqiyotini badiiy adabiyot, jumladan, lirik asarlarsiz tasavvur etish qiyin. Bu esa onomastikaning adabiyot sohasi bilan bog'liqligidan dalolat beradi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti ta'kidlaganlaridek: "Adabiyot-so'z san'ati azaldan xalq qalbining ifodachisi, haqiqat va adolat jarchisi bo'lib kelgan" [1.137].

Haqiqatdan ham, adabiyot qudratli kuch. Yozuvchilarimizning asarlarida hayvon nomlarining keltirilishi, hamda ularning inson hayotida qay darajada ahamiyatga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, Said Ahmadning "Qorako'z Majnun" nomli hikoyasi, asarning nomlanishida it nomi keltirilgan. O'zi oppoq it bo'lgan Qorako'zga shunday ta'rif berilgan: "Kichkina, belida belbog'dek ikkita – biri qora, biri jigarrang chizig'i bor. Xuddi kimdir ataylab bo'yab qo'yganga o'xshab ko'rinadi. Tumshug'i bilan qop-qora. Bir ko'zining tepasida to'mtoq qoshi ham bor [2.370].

Hikoyada quyidagi so'zlar epigraf qilib olingan: "Jannatga kiradigan hayvondan biri bu "Ashobi kahf"ning vafodor itidir" [2.368].

Asar nomi "Qorako'z Majnun" deb keltirilishi bejizga emas. Saodat aya o'z o'g'li Bo'rixondan kutgan mehr-muhabbatni Qorako'zdan oladi. O'g'lining boshqa dinga o'tganini eshitgan ona, bola emas, bo'ri tuqqan ekanman deya afsus nadomat chekadi. Saodat ayani kasalligida bir oy bag'rini qorga belab yotgan, uning vafotidan so'ng ko'chama - ko'cha tentirab uni izlagan shu it emasmi? Hatto itning o'limiga ham uni insonlarga bo'lgan sadoqati sababchi bo'lgan. Magnitafondan Saodat ayani ushbu "...Qorako'z o'lmagur, Majnuningina, yana qayoqqa ketyapsan? Ma'shuqalaring oldigami? Kelinni qachon ko'rsatasan? Laylingni bir olib kel bir ko'ray..." Ovozi kelayotgan boloxona tomonga yuzini burgancha jonsiz yotardi. Buning o'zi hatto hayvonlarda ham, insoniy bir ajib his-tuyg'ular mujassamligidan dalolat beradi.

Turob To'laning "Do'n" hikoyasi "Yetti zog'ora qissasi" asaridan o'rin olgan bo'lib, unda Do'n nomli ot haqida so'z yuritiladi. Hikoyani Baxshilla maxsum o'z tilidan nabirasi Toshtemirga so'zlab beradi: "Onasining qornidan tushiboq, dungillab menga qaragan, bo'ynini bo'ynimga solgan, ingichka-ingichka oyoqlari titrab turardi. Oyoqlarning to'pig'ida olasi bor edi, peshonasida qashqasi, ko'zlari katta-katta, kiyiknikiga o'xshagan chiroyli".

Jumladan, bu hikoyada Baxshilla qalbidagi jonivorlarga shafqat va muhabbat hissining kuchliligi yaqqol sezilib turadi. Agar Do'nanga uning ko'zi bilan qaralsa, uni "Ot emas, odam" ekaniga bemalol ishonsa bo'ladi. Do'nanning uxlab yotgan egasini chaqmoqchi bo'lgan ilon boshini majaqlashi ham, boshqa otlardek o'rta ariqdan suv ichib ketavermay, Toshloqdagi buloq suvinigina ichishi ham, xuddi odamlarga o'xshab yo'lning o'ng tomonidan yurishi ham shundan darak beradi. Inson va hayvonot olami, yaratilishidan ona tabiatning bir-birini to'ldiruvchi, bir-biriga nihoyatda muhtoj farzandlari ekanini yana bir bor dildan his qilishimiz mumkin. Do'nanning ham qaytib kelishiga, do'stiga bo'lgan vafodorlik, shu yurtga sodiqlik, sadoqatlilik hissi undagan bo'lsa kerak. Shu o'rinda Birinchi Prezidentimizning "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida "Inson o'zligini anglagani, nasl-nasabini chuqurroq bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg'usi ildiz otib ulg'aya

boradi. Bu ildiz qancha teran bo'lsa, tug'ilib o'sgan yurtga muhabbat ham shu qadar yuksak bo'ladi" [1.90] degan fikrlarini aytishimiz joiz. Haqiqatdan ham do'stlik har ikki tomondan beg'araz fidoyilikni, samimiy tuyg'ularni, eng muhimi-juda katta sadoqat va vafodorlikni talab etadigan mas'uliyatli burchdir. Afsuski, ba'zan insonlar umrbod do'stim deb yurgani o'rtog'idan emas, tilsiz-zabonsiz hayvonlardan shu noyob xislatlarni topadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, hayvonlarga atab qo'yilgan nomlar ko'pgina manbalarda uchrashini bilishimiz bilan birgalikda, ularning badiiy asarlarda qanday talqin etilishiga ham amin bo'ldik. Binobarin, "Qorako'z majnun" yoki "Do'nan" misolida ayrim insonlarda uchramaydigan sadoqatlilik, sofdillilik, o'z egasiga bo'lgan vafodorlik, sodiqlik, o'z yurtiga bo'lgan mehr-muhabbat kabi samimiy tuyg'ularni anglashimiz mumkin bo'ladi. Demak, badiiy asarlarda faqat hayvon nomlarini o'zinigina keltirilib qo'yilishidan tashqari, nomiga mos bo'lgan majoziylik yoki tasviriy ifodaviylikni ham ko'ramiz. Bu esa zoonimlarni badiiy asarlarda yanada ko'proq keltirishga asos bo'la oladi.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. To'xliyev B, Isayeva Sh, Sher murodov. T Adabiyot. (Akademik litseylarning uchinchi bosqich o'quvchilari uchun, III kitob. Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013.
3. Ahmedov S, Qo'chqorov R, Rizayev Sh. Adabiyot. Darslik. 6-sinf. Toshkent: Ma'naviyat, 2009.

NUTQ O'STIRISHNING ILMIY METODIK ASOSLANISHI

Atajanova I - Nukus DPI O'zbek tili va adabiyoti 4-kurs talabasi

Yu.M. Ibragimov - lmiy rahbar, filol. fan. doktori, prof.

Tafakkur til materiali yordamida nutqiy shakllantirilsa va bayon etilsagina muvaffaqiyatli o'sadi. Tushuncha so'zlar yoki so'z birikmalari bilan ifodalanadi, shunday ekan, tushuncha til vositasi bo'lgan so'zda muhim aloqa materiallariga aylanadi. Kishi tushuncha ifodalaydigan so'z (so'z birikmasi)ni bilgani shu tushunchaga asoslangan holda tashqi nutqda fikrlash imkoniga ega bo'ladi.

Nutqda fikr shakllantiriladi, shu bilan birga, fikr nutqni yaratadi "Nutq tafakkur bilan chambarchas bog'langandir. Nutq bo'lmasa tafakkur ham bo'lmaydi, til materiali bo'lmasa fikrni ifodalab berib bo'lmaydi"(1:2005:76-78). Fikrni nutqiy shakllantirish uning aniq, tushunarli, sof, izchil, mantiqiy bo'lishini ta'minlaydi. Tilni egallash shu tilning fonetikasini lug'at tarkibini, grammatik qurilishini bilib olish, fikrni takomillashtirish uchun, tafakkurni o'stirish uchun shart-sharoit hozirlaydi. Bilimlar, faktlar, har xil axborotlar tafakkurning ham, nutqning ham materialidir. Nutq tafakkur jarayonini o'rganishning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi. Nutqdan o'quvchilarning fikriy rivojining asosiy o'lchamlaridan biri sifatida foydalaniladi.

Shunday qilib, nutqni tafakkurdan ajratib bo'lmaydi, nutq tafakkur asosida rivojlanadi: fikr nutq yordamida pishib yetiladi, yuzaga chiqadi.

O'quvchilar nutqini o'stirish boshqa o'quv predmetlaridan o'tkaziladigan mashg'ulotlar bilan ham uzviy ravishda bog'lanadi. Ona tili darslarida o'quvchilar til yordamida tabiat va kishilar hayoti haqida bilim oladilar: ular kuzatishni, o'ylashni va ko'rganlari, eshitganlari, o'qiganlari haqida to'g'ri bayon qilishni o'rganadilar. Ona tili darslari bolalar lug'atini boyitishga samarali yordam beradi.

O'qish darsi va u bilan bog'liq holda olib boriladigan kuzatish, ekskursiya o'quvchilarga tabiat hodisalari, kishilar hayoti va mehnati haqida, axloq qoidalari, boshqa kishilar bilan muomala normalari haqida bilim beradi; bu darslarda bolalar nutqi uni shakllantirish va o'stirishga keng imkoniyat mavjud. She'r, maqollarni yozish, o'qish, o'qilganlarni qayta hikoyalash, ekskursiyada predmet va tabiat hodisalarni kuzatish vaqtida ko'rganlarini hikoya qilish og'zaki nutqini o'stirish uchun keng imkoniyat mavjud. Grammatika va to'g'ri yozuv darslarida tilni maxsus o'rganish bilan bolalar alohida tovush, bo'g'in va so'z, gaplarni eshitishga, aytishga o'rganadilar. Ular predmet, harakat, belgi bildirgan ko'pgina so'zlarni, shuningdek, tovush, harf, bo'g'in, so'z, o'zak, so'z yasovchi, forma yasovchi, qo'shimcha, so'z turkumi, ot, sifat, son, fe'l, olmosh, bog'lovchi, gap, gap bo'lagi, bosh bo'lak, ikkinchi darajali bo'lak, darak gap, so'roq gap, undov gap turlanish bosh kelishik singari juda ko'p yangi atamalarni bilib oladilar.

Ta'lim jarayonida boshqa darslarda ham o'quvchilar nutqi xilma-xil so'zlar bilan boyitilishi zarur. Kuzatish va ko'rgazmali qurollar bu darslarda ham bilim olish, tushunchalarni shakllantirish vositasi hisoblanadi.

Matematika darslarida bolalar yangi tasavvur va tushunchalar juda ko'p so'z va atamalar bilan o'z nutqlarini boyitadilar, sodda va qo'shma gap tuzishga o'rganadilar; 5 soni 3 sonidan katta ($5 > 3$) yoki 3 soni 5 sonidan kichik ($3 < 5$) o'nlikka ikkita o'nlik va 5 ta birlikni qo'shsak, uchta o'nlik va 5 ta birlik hosil bo'ladi ($10 + 25 = 35$) va hokazo.

Masalalar yechish jarayonida esa ular shu vaqtgacha o'z nutqlarida ishlatib kelgan **bo'ladi, qoladi, hosil bo'ladi, teng** kabi so'zlarning yangi ma'nosini bilib oladilar;..... **bizga ma'lum, masalada so'ralyapti** kabi so'z birikmalarini ishlatishga o'rganadilar. Demak, matematika darslari o'quvchilarning nutqini o'stirishda muhim ahamiyatga ega. Ular masalani yechishda savolga to'liq javob berishda, atamalarni to'g'ri ishlatib, qoidalarni o'z saviyalariga mos ravishda aniq shakllantirishga o'rgatiladi. Bog'lanishli nutq ko'nikmalarini egallashga masala yechish bilan bog'liq holda olib boriladigan ishlar, ayniqsa, masala tuzishga o'rgatish mashqlari samarali ta'sir ko'rsatadi. Masala tuzish kichik hikoya tuzishdir. Masalani hikoyadan farqi shundaki, unda nimadir noma'lum bo'lib, uni topish uchun ma'lum so'roqqa javob berish talab etiladi.

Shunday qilib, matematika darslarida o'qituvchi bolalar lug'atini boyitish, turli xil gap, bog'lanishli nutq va bayon, muhokama elementi mavjud bo'lgan hikoya tuzish ustida ishlaydi. O'qituvchi matematika tili xususiyatlarini o'zlashtirishga ko'maklashish bilan bog'liq holda o'quvchilar tafakkurini, nutqini o'stiradi "Fikrni aniq shakllantirishni talab qilish, masala shartiini ongli takrorlash, mustaqil masala tuzdirish va savollar yordamida masalani yechish yo'lini tushuntirish ko'nikmasi ustida ishlash o'quvchilarda qayta hikoyalash, insho va muhokama qilish madaniyatini o'stiradi"(2:1985:181).

O'quvchilar tabiatshunoslik darslarida va ekskursiya vaqtida ko'rgan predmetlarini o'qituvchi yordamida gruppalaydilar, ularni o'zaro taqqoslab, o'xshash va farqli tomonlarini topib, aytadilar. Bular, o'z vaqtida tabiatga oid ayrim tushunchalarni aniq bilib olishga imkon beradi va tafakkurni o'stiradi.

Mehnat va rasm darslari ham, jismoniy tarbiya darslari ham, shuningdek, darsdan tashqari mashg'ulotlari ham o'quvchilar nutqi va tafakkurini o'stirishga imkon beradi.

O'quvchilar nutqini o'stirishda o'quvchining nutq madaniyati katta ahamiyatga ega. O'qituvchi barcha darslarda, sinfdan va maktabdan tashqari mashg'ulotlardan faqat orfoepik talaffuz va adabiy til normalariga rioya qilgan holda ifodali, ta'sirli so'zlashi, shuningdek, har doim o'quvchi daftariga barcha hujjatlarga husnixat va imlo qoidalariga rioya qilgan holda yozishi zarur. Bu bilan u bolalarni ifodali so'zlashga, xatosiz, chiroyli yozishga o'rgatadi, tilga sezgirlikni uyg'otadi.

Xullas, ona tilini o'qitishdan asosiy maqsad shuki, o'quvchilarda o'z ona tilida fikrni to'liq, aniq, ravshan va go'zal ifodalay olish, so'zlarni to'g'ri tanlash, nutqni tinglovchiga qulay tarzda yetkaza olish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

ADABIYOTLAR

1. Xalq ta'lim jurnali. 2005, 3-son, 76-78-b

2. Qosimova K. "Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi" Toshkent "O'qituvchi" 1985 yil. 216 b

MAQOLLAR, ULARNING SINTAKSISNI O'RGANISHDAGI ILMIY VA TARBIYAVIY AHAMIYATI

Jumaniyozova A - NukusDPI O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 4-kurs talabasi

Ibragimov Yu - Ilmiy rahbar, filol.fan.doktori, prof.

Ona tili ta'limida shu narsa ma'lumki, gap bo'laklari kichik maktab yoshidan boshlab o'rgatiladi. Lekin asosiy ma'lumotlarga ega bo'lish uchun 8-sinf Ona tili darslarida ko'proq vaqt ajratiladi. Gap bo'laklari mavzusini o'rganishda maqollardan keng foydalanish yaxshi natijalar beradi. **Birinchidan**, mavzuni mustahkamlashda maqollar orqali o'quvchi fikr doirasi kengayadi, **ikkinchidan**, mavzu doirasida foydalanilgan har bir maqolning tarbiyaviy tomonini chuqur o'rganish mumkin.

Maqol haqida tilshunoslik terminlarining izohli lug'atida shunday ta'rif berilgan va misollar bilan isbotlangan. "*Maqol chuqur ma'noli, tuzilishi gapga teng, alohida ritmik, metodik xususiyatlarga ega bo'lgan folklor janri. Maqollarda xalqning ko'p yillik tajribalari, hayot hodisalarining ma'lum bahosi (unga munosabat) aks etadi. Daryo suvini bahor toshirar, odam qadrini mehnat oshirar. Sabr qilsang, g'o'radan holva bitar, besabrlar o'z oyog'idan yitar(6:2002:62).*

Maqol (arabcha –maqola, kichik asar; so'z, nutq) hayotiy tajriba asosida xalq tomonidan yaratilgan, odatda pand nasihat mazmuniga ega bo'lgan ixcham, obrazli, tugal ma'noli va hikmatli ibora gap. O'zbek xalq maqollari : Maxdum ... Anvarning biror kambag'al bilan "ezilishib" o'tirganini ko'rsa "**Sut bilan kirgan, jon bilan chiqar**" maqoli ko'p to'g'ri so'z, deb o'ylar va ensasi qotib, chetga ketar edi(4:2006:569).

Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asarida ko'plab xalq o'g'zaki ijodi namunalarini keltirgan. Asarda uchraydigan har bir maqol bugungi kunda ham o'z qimmatini yo'qotgani yo'q. Masalan: *Ardam boshi til - Til (barcha) san'at -hunarning boshidir. So'zga suchunsa bulun barir.* - Odam so'zning shirinligi bilan lazzatlansa, unga asir bo'lib ketadi.

"Devoni lug'atit –turk"da keltirilgan ayrim maqollar ba'zi o'zgarishlar bilan yoki hozirgi kunda ham aynan shu ko'rinishda qo'llanadi. Bu fakt o'zbek tilining juda qadim va boy tarixga ega ekanini yana bir karra isbotlaydi. Misollar:

Qut bilgisi bilik. (*Bilim - baxt belgisidir*)

Emgak ekinda qolmas. (*Mehnat yerda qolmas*)

Osh totig'i tuz (*Oshning ta'mi tuz bilan*)

Qo'rqmish kishiga qo'y boshi qo'sh ko'rinur (*Qo'rqqanga qo'sh ko'rinur*)
(2:1965:70).

Ona tili darslarida gap bo'laklari mavzusini o'rganishda maqollarni, xuddi shu birliklarning matnda qo'llanilishi va o'qituvchi hamda o'quvchilar tomonidan noan'anaviy dars usuli orqali tarbiyaviy ahamiyatining ochib berilishi bugungi yosh avlodning tafakkurini rivojlantiradi, dunyoqarashini kengaytiradi. Keyingi davrlarda yaratilgan manbalarda gap bo'laklariga misollarni ko'plab keltirish mumkin. Sharq aforistikasida, xususan, Alisher Navoiy aforizmlari orasida contrast usuliga xoslangan tardi aks san'atidan ham unumli foydalanilgan. Mazkur badiiy san'atda esa bir-biriga zid ikki obraz aforizmning ikkinchi qismida sintaktik jihatdan o'rin almashadi. Natijada, birinchi qismda ifodalangan ibratli fikr ikkinchi qismda alohida ta'kidlanadi va tasdiqlanadi. Masalan: "*Vafosizda hayo yo'q – hayosizda vafo yo'q*"(1:2006:82).

Maqollar ko'p asrlik hayotiy tajribalar, doimiy kundalik kuzatishlar xulosasini tugal fikr tarzida ifodalar ekan, ularda har bir so'zning ma'no xilma-xilligi, iboralarning turg'unligi, shakliy barqarorlik ustunlik qiladi. Ammo qo'llanish o'rniga qarab ularning ma'no doirasi doimiy ravishda kengayib boradi. Masalan, ***tuz*** so'zi bugungi kunda mineral moddani bildiradi. Tarixan bu so'z ***to'g'ri, odobli; dala, tekislik*** ma'nolarini anglatgan va faqat maqollardagina saqlanib qolgan: *Qiz saqlasang, tuz saqla. Tuzdagi bilan emas, uydagi bilan bo'l.* Shuningdek, ***mehnat*** so'zining ***azob- uqubat, baxtsizlik*** ma'nosini ham faqat maqollarda yoki ayrim shevalardagina uchratish mumkin.

Davlat ham egiz, mehnat ham egiz.

Dars jarayonida tanlangan har bir maqolning tarbiyaviy ahamiyati chuqur yoritilib borilishi o'qituvchidan katta mas'uliyat talab qiladi. Ko'pincha ona tili darslarida, ya'ni sintaksis bo'limini o'tishda darslikdan tashqari ***"O'zbek xalq maqollari"*** (5:2005) nomli kitobga murojaat qilinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu kitobda maqollar mavzu jihatdan deyarli barcha sohani qamrab olgan va tartibga solingan. Shuningdek, kitob so'ngida foydalanishimiz kerak bo'lgan maqollarda bizga tushunarsiz bo'lgan so'zlar izohi keltirilgan. *Gap bo'laklari mavzusini puxta o'zlashtirish uchun ushbu manbani qo'shimcha adabiyot sifatida o'qib chiqish va uyga vazifa berilganda undagi maqollardan foydalanishni o'quvchilarga tavsiya etamiz.*

Onangga boshingni xam qil, otanga gapingni kam qil.

Otang bolasi bo'lma, odam bolasi bo'l.

Shu kabi maqollarda ta'lim-tarbiya jarayonida ham ilmiy ham ma'naviy jihatdan foydalanish mumkin.

Maqollar ko'p jihatdan matallarga o'xshasa ham, ularning har qaysisi o'ziga xos xususiyatga ega. "*Yovni ayagan yara yer, kaltagini sara yer.*", "*Er yigitga ikki nomus bir o'lim*" kabilar tom ma'noli maqollar bo'lib, ularning mazmunida tugal fikr, umumiy xulosa bor

Qisqasi, maqollardagi gap bo'laklari shunday xususiyatga egaki, bu xususiyatlarni tekshirib ko'rmasdan turib, mazkur mavzu mundarijasini ochib berish ham, ularni o'zbek adabiy tilidagi gap bo'laklaridan alohida olib o'rganishga sabab bo'lgan dalillarni bayon qilish ham mumkin emas.

A d a b i y o t l a r:

1. Ashirboyev S. , Azimov I.,Rahmatov M, G`oziyev A. Eski o`zbek tili va yozuvi praktikumi. Toshkent – 2006-yil
2. Mallayev N.. O`zbek adabiyoti tarixi. Toshkent – 1965-yil
3. Sultonmurod Olim, Sunnat Ahmedov, Rahmon Qo`chqorov. 8-sinf Adabiyot darsligi, Toshkent, 2010-yil, 23-bet.
4. O`zbek tilining izohli lug`ati. Toshkent – 2006-yil, 2-jild
5. O`zbek xalq maqollari , Toshkent 2005-yil. (Tuzuvchilar: T.Mirzayev,A.Musoqulov, B.Sarimsoqov)
6. G`ulomov A., Ne`matov H. Ona tili ta`limi mazmuni. - Toshkent, 1995-yil.

O‘ZBEK SHEVALARINI O‘RGANISHNING ILMIY AHAMIYATI

Rajabova N -Nukus DPI O‘zbek tili va adabiyoti 4-kurs talabasi

Ibragimov Yu - filol.fan.doktori, prof.

Ma’lumki, o‘zbek tili, ayniqsa, uning ko‘p sonli dialekt va shevalari XX asrning boshlariga qadar o‘rganilmagan edi. O‘zbek tilshunosligi va dialektologiyasini taraqqiy ettirishda, uni fan sifatida qisqa vaqt ichida to‘la shakllantirib, yanada rivojlantirishda o‘zbek, xususan, rus olimlarining qo‘shgan hissasi va xizmati benihoyat katta bo‘ldi. Masalan, professor E.D.Polivanov juda keng territoriyaga tarqalgan xilma-xil o‘zbek shevalarining fonetik, morfologik, leksik xususiyatlarini sistemali o‘rganishni boshlab berdi Bulardan tashqari, professor E.D.Polivanov 1933-yilda «O‘zbek dialektologiyasi va o‘zbek adabiy tili» nomli asarini yaratdi.

Qisqa davr ichida yangi tom ma’nodagi o‘zbek adabiy tili yuzaga keldi va yuksak darajada rivojlandi. Uning lug‘at tarkibi boyidi, grammatik qurilishi yanada silliqlashdi, xizmat qilish doirasi va uslubiy imkoniyatlari yanada kengaydi. Tilimizda yangidan yaratilgan juda ko‘p zamonaviy terminlar bilan bir qatorda yangi terminologiya ham yuzaga keldi. Adabiy tilning xalq tili bilan aloqasi kuchaydi. Natijada o‘zbek millatining zamonaviy, yetuk, mukkammal va barkamol milliy tili yuzaga keldi, ulg‘aydi va taraqqiy qilmoqda.

Milliy adabiy tillarning birini-biri boyitish va o‘zaro ta’siri deganda, ***birinchi navbatda***, uzluksiz rivojlanishni ham funksional, ham struktura jihatdan taraqqiy etish jarayonini tushunmoq kerak. Shu nuqtai nazardan adabiy tillarning rivojlanishi jarayonida mahalliy sheva vakillari tillarida qanday o‘zgarishlar yuz berdi, adabiy tilning ko‘rsatgan ta’siri qanday natijalar beradi?—degan so‘roqlarga javob berish tilshunoslik fanida muhimdir. Adabiy tillarning funksional rivojlanishi sheva vakillari tilida nutq xususiyatlarining kamayishiga, asta-sekin yo‘qolib ketishiga keng yo‘l ochadi. Ana shu qonuniy jarayonni umumnazariy jihatdan yoritish uchun sheva vakillari nutqidagi dialektal xususiyatlarni sinchiklab o‘rganish taqozo etadi. ***Ikkinchi tomondan***, adabiy til normalarini tinmay targ‘ib qilish zaruriyati, dialekt vakillari nutqiga singdirish taqozosi ham mahalliy sheva xususiyatlarini chuqur va atroflicha o‘rganishni talab etadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Amudaryo tumanida yashovchi aholi jonli tilning xarakterli sohalar leksikasi xususiyatlarini o‘rganar ekanmiz, biz, avvalo, ushbu jonli til nutqini o‘zida tashuvchisi bo‘lgan xalqning asosiy mashg‘ulotiga oid so‘zlarni o‘rganishimiz lozim. Tekshirishimizning ob’yekti hisoblangan Amudaryo tumani o‘zbek shevasida so‘zlashuvchi xalqning asosiy mashg‘uloti paxtachilik, dehqonchilik, bog‘dorchilik, polizchilik va qisman sholikorlik bilan shug‘ullanish. Bu

tuman Qoraqalpog'istonning asosiy paxtachilik bazalaridan biridir. Tuman territoriyasida yashovchi aholining asosini o'zbeklar (taxminan 67-75%)ini, qolgan qismini qoraqalpoq, qozoq, turkman va boshqa millat vakillari tashkil etadi.

Avvalo, mazkur shevalardan yig'ilgan boy materiallar uni mang'it tip shevachalar va qipchoq tip shevachalar deb, ya'ni uni mang'it-qipchoq shevasi nomi bilan birlashtirib o'rganishga to'g'ri keladi. Mang'it tip shevachalar guruhi o'z ichiga Amudaryo tumanining sharqiy-janubiy hududiga joylashgan Do'rman, Bog'dinqal'a, Mang'it, Qilichboy, Xidirali, Olang ovul, Xitoy, Do'simbiy Duringki, Turkmaniston, Xorazm qishloqlarini o'z ichiga oladi. Qipchoq tip shevachalar guruhiga Jumurtav, Do'stlik, Qizilcholi, Qipchoq, Xonjig'ali, Qangli, Bo'z qishloqlarida yashovchi o'zbeklar mansub. Mang'it tip shevalar «y» -lovchi shevalar, qipchoq tip shevalar «dj» - **lovchi, dj**»\ «y» - **lovchi** shevaga bo'linadi. «dj» - lashish hodisasi Bo'z qishlog'idan Qipchoq qishlog'i oraligidagi qishloqlarni o'z ichiga oladi. Do'stlik va Qizilcholi qishloqlari aholisi nutqida «dj\y» - lashish hodisasi so'z boshida parallel ishlatiladi, Jumurtav qishlog'ida juda zaiflashadi. Xitoy qishlog'iga yetib borganda «dj» - lashish izsiz yo'qoladi, ya'ni «y» lashish boshlanadi.

Mang'it-qipchoq shevasi vakillari qadimdan asosan dehqonchilik bilan shug'ullanib kelgan. Bu sheva vakillari tilidagi so'z va atamalarni o'z navbatida bir necha (LSG)larga bo'linib, ular adabiy til va boshqa o'zbek shevalari hamda qarindosh tillar bilan umumiy va farqli xususiyatlarga ega. Masalan, 1) **Qovun nomlari:** *zamcha* 'handalak' 2) **Meva nomlari:** *yerik* 'o'rik', *navxan* 'tut daraxti'; 3) **Mehnat qurollari:** *Tyirma* 'xaskash', *Yava* 'panshaxa' 4) **Dehqonchilikda ishlatiladigan ayrim so'zlar:** *qari'q* 'egat, jo'yak', *chaqchaq* 'kungaboqar' 5) **Paxtachilikka oid so'zlar:** *ati'z* 'dala', *ziykash//ze:kash* 'yer osti suvi yaqin bo'lgan erlarda zax ko'tarilishidan saqlash maqsadida qazilgan kata ariqlar, zavur'; 6) **Uyning turiga qarab nomlanishi:** *paxsa jay* 'loydan solingan uy', *karkaz' jay* 'uyning bu turi asosan yog'och va taxtalardan quriladi'; 7) **Uy qismlarining nomlanishi:** *vejra* 'hujra xona', *qazantam* 'oziq ovqat anjomlari va ovqat pishirish uchun moslab qurilgan xona, oshxona'; 8) **Uy qurilishida ishlatiladigan qurol-asbob nomlari:** *zambor* 'zambil'; 9) **Uy qurilishida ishlovchi kishilarning nomlanishi:** *I'laykash* 'loyni tayyorlab beruvchi shaxs nomi'.

Xullas, Amudaryo tumani hududida joylashgan o'zbek qishloqlari shevadan yig'ilgan ma'lumotlarni sheva xususiyatlariga ko'ra, mang'it-qipchoq shevasi deb birlashtirib, tahlil qildik. Bu shevada o'zbek tilining qipchoq tip shevalari vakillari yashaydilar. Amudaryo tumanida joylashgan o'zbek shevasini mang'it tip ya'ni, «y-**lovchi**» shevachalar va qipchoq tip «**dj\y -lovchi**» shevachalarga ajratib, ularni birlashtirib mang'it-qipchoq shevasi deb ko'rsatish maqsadga muvofiq.

A d a b i y o t l a r :

1. O'rozov E.Yu. Janubiy Qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalari. Fan. Toshkent.1978
2. O'zbek shevalari leksikasi.-Toshkent: Fan.1966.
3. O'zbek dialektologiyasidan materiallar. Toshkent. 1957 y. I-11 tom

SIFATLARDA KONVERSIYA HODISASI

Saparboyeva M – Nukus DPI O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 4-kurs talabasi

Ibragimov Yu - Ilmiy rahbar, filol.fan.doktori, prof.

Ma'lumki, bir turkum so'zi boshqa turkum so'ziga ko'chganda bir vaqtlar bir turkumda bo'lib, til taraqqiyoti natijasida ikkinchi turkumga o'tgan so'z nazarda tutiladi. So'z turkumlari orasida ko'chish bo'yicha olim A.G'ulomovning tadqiqotlari

e'tiborga molik [1:1992; 4:2001:46-52]. Bu boradagi oxirgi fundamental tadqiqotlardan biri J.Eltazarov tomonidan amalga oshirildi [32].

Hozirgi o'zbek tilida so'z turkumlararo ko'chishning quyidagi turlari mavjud: 1. O'tlanish (Substantivatsiya), 2. Sifatlanish (Adyektivatsiya), 3. Sonlanish (Numerilizatsiya), 4. Olmoshlanish (Pronominalizatsiya), 5. Ravishlanish (Adverbializatsiya), 6. Fe'llanish Verbalizatsiya), 7. Tasviriylanish (Essivatsiya), 8. Undovlanish (Interyektivatsiya), 9. Modallashish (Modalyatsiya), 10. Ko'makchilashish (Postpozitionalizatsiya), 11. Bog'lovchilashish (Konyunktionalizatsiya), 12. Yuklamalashish (Partikulyatsiya).

Har qanday tildagi so'z turkumlari ko'chish hollarini bevosita tahlil qilayotganda bu masalaning ikki ajralmas tomoni: o'sha so'z turkumining boshqa so'z turkumlariga ko'chishi va boshqa so'z turkumlarining mazkur so'z turkumga ko'chishini nazardan qochirmaslik kerak, chunki til birligining nutqda amal qilinishi va so'z turkumlararo aloqaning ro'yobga chiqishida ko'chishning har ikki turining qiymati tengdir [2:2011:32]. So'zlar bir turkumdan ikkinchi turkumga o'tganda mazkur so'zning grammatik mohiyati, qisman ma'nosi o'zgaradi. Sifatning otga ko'chishi ham shunday hodisadir. Masalan, **qiz, o'g'il, yosh, qari, erkak, xotin, ayol, kasal, chol, kampir** kabi so'zlar bir vaqtlar sifat bo'lib, keyinchalik otga o'tgan. Bu hol, ya'ni o'tish birdaniga emas, balki bir-ikki avlod ko'z o'ngida yuz beradi. Yuqoridagi kabi so'zlarning otga ko'chganini yoki ko'chayotganini ko'rsatuvchi **ikkinchi belgi** ularning sifat bilan ifodalangan aniqlovchi olishidir: *yosh yigit, qari chol, chiroyli xotin* kabi. Konversiya yo'li bilan sifatga ko'chgan so'zlar quyidagilar: 1. *Juft va takroriy otlar: mosh-guruch, yo'l-yo'l, rang-barang, xilma-xil.* 2. *O'zak holidagi fe'llar: daydi, qari, och, chalkash, yanglish, tutash, aralash.* 3. *Harakat nomi shaklidagi juft fe'l: olmoq-solmoq.* 4. *Yaqin (aniq) o'tgan zamondagi juft fe'llar va fe'lli birikmalar: oldi-qochdi (gap), kuydi-pishdi (ayol), tug'di-bitdi (farzand), ichakuzdi (hangomalar), supraoqdi (o'g'il, ya'nikenja o'g'il).* 5. *Takroriy olmosh: manman* 6. *Takroriy son: birdan-bir* [3:1974:78; 4:2003:24,48].

Sifat turkumiga xos so'zlarning ravish bajargan vazifalarda kelishi ham keng taraqqiy etgan. Sifat va ravishning leksik-semantik xususiyati o'zaro bitta, ya'ni **"belgi"** termini bilan atalsa-da, biroq xarakter e'tibori, stilistik tomoni bilan ularning belgisi bir-biridan farqlanadi. *Sifat turg'un xarakterdagi belgini anglatrsa, ravish esa jarayon xarakteridagi (adverbial) belgidir. Sifat anglatgan belgi – birlamchi, ravish belgisi – ikkilamchi, ya'ni belgining belgisidir.*

So'z turkumlari orasida sintaktik funksiya almashish, xususan, hozirgi zamon tilshunosligida keng tarqalgan hodisadir. Masalan, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da **"og'ir"** leksemasining o'ndan ortiq ma'nosi izohlangan. **"Og'ir"** leksemasining atash semasi *"vazni katta bo'lgan, tosh bosadigan, vaznli"* ma'nosini ifodalaydi. Ko'chma ma'no (konnotativ ma'no)da **og'ir** leksemasi harakat belgisini ham ifodalay oladi: Ammo mana shu ro'yirostlik *Lolo uchun o'g'ir kechadi.* (H.Nazir). Bu holat (ish- harakat belgisini ifodalagan sifatlar)ni ayrim tadqiqodchilar adverbializatsiya hodisasi sifatida belgilaydilar. Shuningdek, *bu yil bahor nihoyatda yaxshi keldi. Shirin juda chiroyli kuladi* (N.Hikmat) kabi gaplarda *"nihoyatda yaxshi"*, *"juda chiroyli"*, sifatleri grammatik jihatdan fe'llarga bog'lanib, gapda hol vazifasida kelgan. Birinchi *gapdagi "nihoyatda yaxshi"* so'zi grammatik jihatdan fe'lga bog'lanib, gapda hol vazifasida kelgan bo'lsa ham, mantiqan subyektning – *"bahor"*ning belgisini bildiradi va bu belgi harakatga ham ko'chiriladi.

Yuqoridagi misollardan kuzatiladiki, ba'zi sifatlar o'z vazifasi doirasini birmuncha kengaytirgan. Buni sifat leksemalarning nutqdagi imkoniyati sifatida qabul qilish lozim. Ish harakat belgisini bildirgan har qanday so'zga ravish deb qarash ayni so'z turkumiga leksik va sintaktik xususiyatlarni zo'rma-zo'rakilik bilan tirkashidan o'zga narsa emas. Bu esa so'z turkumlari tasnifida mantiqiy to'g'ri tasnif asosini buzishga olib keladi[21:2005:57].

Ish- harakat tarzini ifodalash barcha sifatlarga xos xususiyat emas, albatta, ya'ni har qanday sifat ham ish- harakatning belgisini bildir olmaydi. Asosan, xarakter- xususiyat (*yaxshi, yomon, qiziq ruhli, yorqin qattiq yumshoq toza, chiroyli, dadil*), holat (*erkin, ozod, tutqun, to'liq*), vertikal hajm (*past, baland*), vertikal shakl (*tik*), umumiy shakl (*egri, to'g'ri*), gorizonta shakl (*yopiq*), umumiy hajm (**katta, kichik**), ichki hajm (*keng, tor, chuqur*), masofa (*uzoq- yaqin*), muddat (*abadiy*) va harorat (*issiq, sovuq, illiq*) belgisini bildiruvchi qismigina gapda hol vazifasida qo'llanadi. O'z semantikasiga ko'ra "**yaxshi**" qabilidagi so'zlar doim mavhum tushunchani anglatadi.

Xullas, sifatning taraqqiyoti boshqa turkumlar bilan uzviy bog'liq. Bundan tashqari, yordamchi leksemalar tarkibida ham bir qator sifatlarni uchratish mumkin. (*jumladan, boshqa, qarshi* (ko'makchi), *yolg'iz* (yuklama) va h.k.). Bu holat ham (grammatikalizatsiya) sifat turkumining taraqqiyotidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR

1. Маҳмудов Н. Ўзбек тилшунослигининг таракқиёти // Ўзбек тили ва адабиёти. 2001.4-сон. 5–7-бетлар

2. М. Ҳозирги ўзбек тилида сифатлар. Т.: Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q Hozirgi o'zbek adabiy tili. T.: Fan, 2011. 335 b.

3. Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Олий ўқув юртлари филология факультетлари талабалари учун дарслик. Т.: Ўзбекистон, 1992. 339 б.

4. Қиличев Э. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Бакалавр – ўзбек филологияси ихтисослиги учун қўлланма. Бухоро, «Бухоро», 2005. 228 б.

3. М. Ҳозирги ўзбек тилида сифатлар. Т.: Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q Hozirgi o'zbek adabiy tili. T.: Fan, 2011. 335 b.

3. Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Олий ўқув юртлари филология факультетлари талабалари учун дарслик. Т.: Ўзбекистон, 1992. 339 б.

4. Қиличев Э. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Бакалавр – ўзбек филологияси ихтисослиги учун қўлланма. Бухоро, «Бухоро», 2005. 228 б.

BO'LISHLI- BO'LISHSIZLIK VA UNING TASDIQ-INKORDAN FARQI

Ibragimov Yu - Ilmiy rahbar, filol.fan.doktori, prof.

Saparova Yu – Nukus DPI O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 4-kurs talabasi

O'zbek tilshunosligida ham, rus tilshunosligida ham fe'llarda bo'lishsizlik ancha mufassal tahlil etilgan. Jumladan, o'zbek tilshunosligida bo'lishsizlik taniqli tilshunos A.Nurmonovning doktorlik dissertatsiyasida chuqur tahlil etiladi.

Odatda, tilshunoslar fe'llarda bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasini nisbat kategoriyasidan oldin qo'yadilar. Bu nisbat kategoriyasi keng rivojlanmagan va fe'lning mutlaq va zaruriy kategoriyasi bo'lmagan rus tili uchun meyoridir. Rus tilida bo'lishsizlik **-ni, -ne** qo'shimchalari perefiks sifatida so'zning boshida keladi va ko'pchilik tilshunoslar bo'lishsizlikni so'z yasalishi deb talqin etadilar. Qator

hollarda bo'lishsizlik rus tilida so'z yasashga o'tib ketadi. Masalan, nenavidet, nedostavat, nevzlyubit, nezdorovitsya va hokazo.

O'zbek tilida bo'lishsizlikning so'z yasashiga aloqador emasligi ancha ravshandir. U lug'aviy ma'noga ta'sir etadi, lekin yangi so'z yasamaydi, o'zak ma'nosini inkor etadi, xolos. Bo'lishli-bo'lishsizlik ma'nosi va shakli fe'llar uchun nisbat shaklidek mutlaq va zaruriy xususiyatga ega emas.

Fe'lning bo'lishli va bo'lishsiz shakllari o'zaro zidlanadigan ikki a'zoli paradigma hosil qiladi. Bo'lishsiz shakl markerli bo'lib, asosan **-ma** affiksi bilan yasaladi; bunday affiks qo'shilmagan shakl bo'lishli shakl deyiladi; bo'lishli shakl nol ko'rsatkichli morfema bilan ifodalanadi: kel(kel + **ma-**) kabi.

Fe'llar bo'lishli va bo'lishsiz shaklda bo'ladi. Fe'lning bo'lishli shakli harakatning bajarilish haqidagi tasdiqni bildirib maxsus ko'rsatkichga ega emas, bo'lishsiz shakl esa harakatning bajarilishi haqidagi inkorni bildiradi va quyidagi grammatik vositalar orqali hosil qilinadi:

Fe'l asosga **-ma** affiksini qo'shish bilan. Bu affiks inkor ma'nosini ifodalovchi asosiy qo'shimcha hisoblanadi, harakat nomi va maqsad ravishdoshiga qo'shilmaydi: boraman – bormayman, otganman – otmaganman, aytibman – aytmabman kabi.

Ravishdoshda bo'lishsizlik **-may, -mayin, -masdan**; sifatdoshning **-r, -ar** shakli **-mas** orqali bo'lishsizlik ifodalaydi.

Qadimgi turkiy tilda ravishdoshning bo'lishsiz shakli **-mazib, -madin, -mayin** tarzida ishlatilgan

Harakat nomining bo'lishsiz shakli **-maslik** affiksi orqali yasalsa, maqsad ravishdoshining bo'lishsiz shakli haqida fikrlar har xil. Ulug' Tursunov darsligida: «Maqsad ravishdoshlarida bo'lishsizlik emas to'liqsiz fe'li orqali ifodalanadi: Siz bizdan yordam olgani emas, bizga rahbarlik qilgani kelgansiz.» (4 – 317) desalar, A.Hojiev fikricha «**-ma...** Faqat maqsad ravishdoshi (aytgani ketdi) bilan qo'llanmaydi. Lekin bundan maqsad ravishdoshi bildirgan harakat inkor etilmaydi degan xulosa chiqmaydi. Bu ravishdosh anglatgan harakat inkori ikki usulda ifodalanadi: 1)**asosiy fe'lning bo'lishsiz formasi orqali**: ko'rgani kelmadi, bilgani keldi; 2) **emas to'liqsiz fe'li orqali**: Toqqa o'ynagani emas, ish bilan chiqdik.» (13–337)da deyilsa, shu darslikning 380-betida «Bu turdagi (-gani nazarda tutilyapti) ravishdoshning o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning bo'lishsiz formaga ega emasligidir» deyiladi.

Ritorik so'roq gaplarda ba'zan **-ma** affiksi tasdiq ma'nosini anglatadi: Vatanni kim sevmaydi? Ritorik so'roq gaplarda bo'lishli shakl bo'lishsizlik ma'nosini ifodalaydi: Sizdan yordamimni ayarmidim?

-ma affiksi yetakchi va ko'makchi fe'llarga quyidagicha qo'shiladi:

a) yetakchi fe'lga: uxlamay chiqdi, tanimay qoldi;

b) ko'makchi fe'lga: o'qib ko'rmadi, yozib olmadi;

v) yetakchi va ko'makchi qismning har ikkisiga: aytmay qo'yma, olmay kelma, ko'rmay qo'yma. Ikki fe'lga qo'shilgan bo'lishsizlik tasdiq ifodalaydi: Botirjon kitobni o'qimay chiqmaydi.

Bo'lishlilik **nol** shakl orqali ifodalanadi. Bu **nol** shakl ham boshqa kategoriyalar **nol** shakli kabi xususiyatga ega bo'lib, bo'lishsizlikni ham ifodalashi mumkin. Masalan, Yozadi-ya, yozadi («yozmaydi» ma'nosida).

[-ma] affiksi fe'lning tushangan va sifatdosh shaklida bo'lishsizlikni ifodalash uchun ishlatiladi: 1.Sevgi menga bo'ylama, Mehring bilan siylama. (M.Yusuf.) 2.Bu

yerlarga nega keldim men, qiziqmasam unut chiroyga. (A.Orip.) 3.O'qimagan odam, yurmagan mashina.

[-may/masdan] bo'lishsizlik ko'rsatkichi fe'lning ravishdosh shakliga xos. Uni ravishdosh shakli sifatida ajratishning bir nechta asosi bor. Masalaga tarixiylik nuqtai nazaridan yondashilsa, uning -ma+y tarkibli emasligi oydinlashadi. Turkiy tilda O'rxun-Yenisey yodgorliklaridan tortib XV asrgacha bo'lishsiz ravishdosh shakli [-*mazib*], [-*madin*], [-*mayin*] va h. ko'rinishida bo'lgan. O'zbek tilidagi [-may] qo'shimchasidagi y mana shu qadimiy [-*mazib*], [-*madin*], [-*mayin*] qo'shimchasi tarkibidagi ikki tish oralig'ida talaffuz etiluvchi [z] va uning boshqa turkiy tillardagi muqobili bo'lgan [d], [t] ga nisbat beriladi.

Xullas, tasdiq-inkor bo'lishli-bo'lishsizlikka qaraganda keng kategoriya bo'lib, u o'z ostiga bo'lishli-bo'lishsizlikni ham, boshqa vositalarni ham qamrab oladi. Bo'lishli-bo'lishsizlik faqat fe'lniki, tasdiq-inkor sintaktik kategoriya bo'lganligi sababli kesim vazifasida kela oladigan har qanday so'zga qo'shila oladigan kategoriya: shoirman - shoir emasman, o'qigan - o'qimagan, qiziq ekan - qiziq emas ekan va hk.

ADABIYOTLAR

1. Abuzalova M. O'zbek tilida sodda gapning eng kichik qurilish qolipi va uning nutqda voqelanishi: Filol.fan.nomz...dis.avtoref.-Toshkent,1994.-21 b.
2. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.Toshkent, 2001 yil, 6-bet.
3. Nurmonov A.N. Signifikativnaya oppozitsiya sintaksicheskoy konstruksii po priznaku utverditelnost-otritsatelnost: Avtoref.diss.. dok.filol.nauk. Toshkent, 1983,-42 s.

DIALEKTAL FRAZELOGIZMLAR SHAKLLANISHINING NAZARIY-AMALIY ASOSLARI

Jumaniyozova G- Nukus DPI O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 4-kurs

Ibragimov Yu - Ilmiy rahbar, f.f.d. professor

O'zbek tilshunosligida ham frazeologizmlar anglatgan yaxlit ma'no bilan ular tarkibidagi so'zlar ifodalaydigan ma'nolar orasidagi munosabat asosida frazeologik butunlik, frazeologik qo'shilma, frazeologik chatishma kabi turlarga ajratiladi, albatta, bu tasniflashning nazariy ahamiyatini e'tirof etish bilan birga, tasniflashning tamoyillari va amaliy zaruriyatini asoslash lozimga o'xshaydi.

Bu leksik-semantik tasnif darslik va qo'llanmalarda turlicha. Jumladan, ayrim qo'llanmalarda qayd etilgan uch guruhdan(1:1981:108:110) iboratligi ta'kidlansa, boshqalarida ikki guruhga ajratiladi. Ayrim darslik va tadqiqotlarda(2:1992:142) bu tasnif umuman inkor etiladi. Ma'lumki, frazeologizmlarning ma'nosi tarkibidagi so'zlarga xos ma'nolar asosida izohlanishi va izohlanmasligiga ko'ra, frazeologik butunlik va frazeologik chatishma kabi tasniflanadi. Avvalo, frazeologizmlarning ma'nosi tarkibidagi so'zlarga xos ma'nolar asosida izohlanmaydi. Erkin bog'lanmaga xos ma'no frazeologizmlashtirilishi asosida yangi ma'no yuzaga keladi. Chunonchi, «*bəl baylamaq*» birikmasi erkin bog'lanma tarzidagina ularni tashkil etgan «*bəl*» va «*baylamaq*» so'zlarining o'zaro ma'noviy birikuvidan, «*kiyimning belini bog'lash bilan bog'liq harakatni*» ifodalovchi ma'no kasb etadi. Faqat birlamchi ma'no so'zlarga xos ma'nolar asosida izohlanadigan ma'no bo'ladi. Bu erkin bog'lanma frazeologizmlashtirilgandan keyingi esa erkin bog'lanmaga xos ma'no butunlay o'zgarib, tarkibidagi so'zlarga xos bo'lmagan «*astoydil ishga kirishmoq*» ma'nosi shakllanadi. Shuning uchun ham, frazeologizmlarni so'zlarga xos ma'nolar asosida izohlanadigan va izohlanmaydigan kabi tasniflash, bizningcha, o'zini oqlamaydi.

Avvalo, erkin bog‘lanma va shu asosda shakllangan frazeologizmni obraz bog‘lab turadi. Obrazlilik shakllangan frazeologizm uchun motivlovchi (mantiqiy) asos bo‘lib, erkin bog‘lanma orasidagi bog‘lanishni saqlab turuvchi mezondir. «*Bel baylamaq*» erkin bog‘lanmasining obrazi shakllangan frazeologizmida namoyon bo‘ladi. «*Boshini olib chiqib getmæk*», «*ayag‘ını əlinə ap*», «*əpkəsin qoltıqlap*», «*postının dəris giyip*», «*əlin yuvub, qoltıqına urıb*» kabi birikmalarda ham erkin bog‘lanma va frazeologizm orasidagi bog‘liqlikni obraz belgilaydi.

Frazeologizmlarning tarkibiy va ma‘noviy shakllanishi leksikaga nisbatan murakkab kechadi. Turkiyshunoslikda, jumladan, o‘zbek tilshunosligida frazeologizmlar «**so‘zga muqobil**» nazariyasi asosida o‘rganildi. Bunga ko‘ra, so‘zlar va frazeologizmlar o‘zaro vazifadosh, narsa, predmet, hodisalarni nomlaydi kabi nazariyalarga amal qilindi. SHundan kelib chiqib, frazeologizmlar so‘zlarning alohida shakli sifatida leksikologiyada o‘rganiladi. *Bu bir tomondan to‘g‘ri, ikkinchi tomondan, shartlidir. To‘g‘riligi shundaki, frazeologizmlarning vazifaviy xususiyatlari so‘zlarga o‘xshaydi, shartliligi shundaki, frazeologizmlar murakkab til birligi bo‘lganligidan so‘zlardek tadqiq etish frazeologizmlar uchun kifoya qilmaydi. «Frazeologik birlik ifoda plani bilan mazmun planining o‘ziga xos qarama-qarshiligi va birligi asosida yuzaga keladi, shunga ko‘ra, frazeologik birliklar alohida yondashishni, o‘rganishni talab qiladi»(3:1992:5).* Bu hol, ayniqsa, dialektal frazeologizmlarning shakllanish jihatlarida ochiq-oydin namoyon bo‘ladi.

O‘zbek tilshunosligida, jumladan, o‘zbek shevashunosligida ham frazeologik shakllanish masalalari yaxlit tizim sifatida o‘rganilmagan. Frazeologizmlarning shakllanish xususiyatlarini o‘rganishdan oldin, frazeologik shakllanish terminining huquqiy holati (statusi)ni belgilash lozim. ***Frazeologik shakllanish til vositalari yordamida frazeologizmlar hosil qilishning o‘ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlarini o‘rganadi.*** Frazeologik shakllanish bahsida frazeologizmlarning tuzilishi, lisoniy va nolisoniy omillari, shakllanishning vosita va usullari, qaysi til birligi asosida frazeologik birlik yuzaga keladi, qanday jarayon bu til birligining shakllanishiga sabab bo‘ladi va hosil bo‘lgan frazeologizmlar tilning boshqa birliklari bilan qay munosabatda bo‘ladi kabi masalalar tahlil etiladi. Maqsad va vazifalarga ko‘ra, frazeologik shakllanish so‘z yasallishiga yaqin turadi. So‘z yasallishida yangi so‘zlar, frazeologik shakllanishda esa yangi frazeologizmlar hosil qilish jarayoni o‘rganiladi. So‘z yasallishining til qonuniyatlari tilshunoslikda nisbatan keng o‘rganilgan bo‘lsa, frazeologik shakllanish qonuniyatlari, xususan, o‘zbek tilshunosligida hanuzgacha tadqiq etilmagan. Frazeologizmlarning tilda paydo bo‘lish, ularning etimologik asoslarini aniqlash va tahlil qilish frazeologik shakllanish bahsida emas, balki frazeologik etimologiya bahsida amalga oshirish lozim. *Albatta, frazeologik etimologiya bilan frazeologik shakllanish bahslarining mushtarak tomonlari mavjud. Chunki, ishonchli etimologik tekshirishlardan keyingina frazeologik shakllanishning umumqonuniyatlari belgilanadi*

O‘zbek dialektal frazeologiyasining ko‘pgina jihatlarini tilshunos olimlarning e‘tiboridan chetda qolayotganligini ham ta‘kidlash lozim. Jumladan, dialektal frazeologik semantik bog‘lashuv, ideografik semalar tahlili, frazeologizmlarni diaxron planda tadqiq qilish, frazeologik etimologiya, frazeologik stilistika, turli tillar dialektal frazeologizmlarini qiyosiy o‘rganish kabi masalalar xususida chuqur ilmiy monografik ishlar olib borilishi zarur.

Xullas, frazeologizmlar, asosan, shaxs tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lib, shaxsning biror tarzdgagi tasavvuri, xatti-harakati, fiziologik hamda psixik holatlarini

ifodalaydi. Shuningdek, frazeologizmlar hayvonlar obrazini gavdalantirish va muayyan kasb-korga bog'liqligi jihatidan ham shakllanadi. Dialektal frazeologizmlarni shakllanish ko'lami bo'yicha quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

ADABIYOTLAR

1. Raxmatullaev Sh. Nutqimiz ko'rki.-Toshkent, 1970, -43b.
2. Raxmatullaev Sh. O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari. - Toshkent: Fan.1966 3.Sodiqov A., Irisqulov M.. Abduazizov A. Tilshunoslikka kirish.-T.1981, 108-110 betlar;

МАҚОЛ-МАТАЛЛАРНИНГ СЕМАНТИК-ГРАММАТИК ХУСУСИЯТЛАРИ

Ибрагимова З.Ю. -Бердах номидаги ҚДУ Ўзбек тилшунослиги кафедраси
Ўрозбоев П - Нукус давлат пединститутини Ўзбек тили кафедраси

Маълумки, мақол-маталлар, иборалар ва ҳикмат (афоризм)ларни халқимиз ҳаётий тажрибаларининг ойнаси деса бўлади. Шунинг учун содда, ихчам ва гўзал бўлади. Соддалиқ мазмун жилосига бурканиб, гўзаллик касб этади. Уларнинг мазмуний қобигда ҳикматона, ибратона маънолар жамлангандир. Ибратнома фикрлар узоқ ҳаётий тажрибалар маҳсули сифатида майдонга келган. Чунки мақоллар ҳамда ҳикматлар авлоддан авлодга ўтиб, ўз қадрини, қимматини йўқотмай келмоқда.

Мақол - арабча сўз бўлиб, ҳаётий тажриба асосида халқ томонидан яратилган, одатда панд-насихат мазмунига эга бўлган ихчам, образли ва ҳикматли ибора, гап маъносини англатади.² “Ҳикмат” ҳам арабча сўз бўлиб, ўта донолик, донишмандлик, заковат, ақл-идрок маъноларини англатади. Ҳикмат сўзи тагини англаш қийин бўлган, яширин бир маъно, яширин бир сабаб, сир маъноларини ҳам ифодалайди.¹ Ҳикматлар ва мақоллар – халқимиз ақл-заковатининг нодир меваси. Шунинг учун уларнинг замирида инсоннинг ақлига ҳавола этилган ибратона тағмаънолар мавжуд бўлиб, улар халқ ижодиётининг хазинаси ҳисобланади. Хазина ранг-баранг бойликлардан тузилган. Шу боисдан мақол ва ҳикматлар ҳаётнинг барча табақасини қамраб олган. Уларнинг мавзу жиҳатдан хилма-хиллиги ҳаётнинг мураккаблигидан, серқирралигидан дарак беради.

Бундан ташқари, мақоллар, матал ва ҳикматларда шаклий ва мазмуний номутаносиблик мавжуд. Бундай номутаносиблик фақат мақоллардагина эмас, халқ яратган бошқа маънавий бойликларда ҳам бор. Чунки халқ ижодида бир нарса ўта пишиб етилмагунча, тилга келмайди. Ўта пишиб етилган, сайқаллашган, безакларга бурканган гаплар жуда ихчам, содда бўлиб, мураккаб мазмун учун хизмат қилади. Бундай мазмуний мураккаблик тилшуносликда “тағбилим”, “тағмаъно”, “пресуппозиция” деб ўрганилади.

Мақол ва ҳикматларда сўзлар рамзий маъноларда қўлланилади. У ёки бу мақоланинг кўчма маъносини, унда нима дейилмоқчи бўлаётганини аниқлаш учун мақолларда келтирилган образларнинг моҳиятини тўғри аниқламоқ зарур. Халқ оғзаки ижоди, жумладан, мақолларда ҳам жамиятдаги муносабатлар, ҳодиса ва ҳолатларни соддароқ, ойдинроқ ифодаламоқ мақсадида табиатдаги ўз

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-том. Москва. 1981 йил, 456 бет

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II-том. Москва. 1981 йил

хусусиятлари билан шунга мос келадиган турли нарсалар (ҳайвонлар, ўсимликлар, уларнинг мевалари, жисмлар, уй жиҳозлари, кийим-кечаклар, иш куроллари, меҳнат маҳсулотлари ва ҳоказо) образларидан усталик билан фойдаланилади. Масалан, халқимиз шерни мард, довюррак ботирларга, чумолини меҳнаткаш мазлумларга, қурбақани дангаса, ишёқмас кишиларга ўхшатади.¹ Шу сабабдан мақол ва ҳикматларда тимсол асосидаги маъноларни тушунишда тағмаъно қўл келади. Эътибор “коса тагидаги ним коса”га қаратилади.

Мақол ва ҳикматларнинг ташқи кўриниши товушларнинг қатор келиши ва оҳангдошлиги асосида гўзаллик касб этса, мазмунан бир қанча тағмаъноларга ишора қилиши билан гўзал бўлади. Шунинг учун уларни эслаб қолиш ҳам осон бўлади. Мақол ва ҳикматли сўзларда тилдаги тасвирий воситалар кенг қўлланилади ва улар асосида фикр лўнда, ихчам ҳамда таъсирли ифодаланади.

Масалан: “Сабрнинг таги – сариқ олтин” мақолида, с, а, р, т товушлари ўзаро бир-бирига оҳанг жиҳатидан мослашган ҳолда тартибланган. Шунинг учун бу мақол оҳанг жиҳатидан қулоғимизга ёқимли эшитилади, эслаш учун ҳам осонлик туғдиради. Товушларнинг бир-бирига оҳангдошлигидан шаклий гўзаллик юзага келган. Масалан: “Синамаганнинг сиртидан ўтма” мақолида “С” ундошининг қатор келиши натижасида оҳангдошлик пайдо бўлган. Маънолар мослиги ҳам оҳангдошликка мутаносибдир. Мақолдаги “сирт” сўзининг ўрнида “уст” сўзини ишлатса ҳам бўлади. Бундай шаклий жиҳатдан ғализлик сезилмаса ҳам, мазмунан камбағаллик юзага келади. Таъсирчанлик озаяди. Бундан ташқари, товушларнинг оҳангдошлиги ҳам бузилади. Шаклий ва мазмуний тузилишдаги силлиқлик йўқолади. Шунинг учун “сирт” сўзи ўз ўрнида тўғри қўлланилган. Бу мақол шаклий тугалланмаган бўлса ҳам мазмунини тўла тушунишимиз мумкин.

“Синамаганнинг сиртидан ўтма” мақоли дастлаб мажозий тарзда “Синамаган отнинг сиртидан ўтма” шаклида айтилган. “От” сўзи умумлашма сифатида муайян нутқий шароитда ўз маъносида, бошқа ҳолатларда эса “инсон” маъносида қўлланилган. “Инсон” маъноси турли нутқий шароитларда хилма-хил маънолар ифодалайди. Масалан, “қиз”, “йигит”, “куда”, “мусофир” ва ҳоказолар. “От” сўзи рамзий маънода ишлатиладиган бўлиб қолган. Рамзий маъно асосида турлича тағмаънолар юзага келадик, бу сўзловчи ва тингловчининг ўзаро шартномавий муносабатига ҳамда нутқий шароитига боғлиқ ҳолда кечади. Бу мақолнинг тағмаънолари қуйидагича:

Синамаган йигитга кўнгил қўйиб бўлмайди.

1. Синамаган қизга кўнгил қўйиб бўлмайди.

2. Синамаган жойдан куда тутиниб бўлмайди.

3. Синамаган дўстга сир айтиб бўлмайди.

4. Синамаган жойга кириб бўлмайди.

5. Синамаган ҳайвоннинг олдига бориб бўлмайди ва ҳоказо.

Кўриниб турибдики, мақол ниҳоятда кенг қамровли бўлиб, турмушнинг жуда кўп қирраларини акс эттиради. Аммо муайян нутқий шароитда битта тағмаъно билан иштирок этади, қолганлари эса инсоннинг умумий билим хазинасида имконият тарзида туради. Шунинг учун бу мақол “Синамаганнинг сиртидан” шаклида умумийлик касб этади. Мақолнинг шакл жиҳатдан

¹ Ш.Шомаксудов. Ш.Ш.Шораҳмедов. Ҳикматнома. Тошкент, 1990 йил, 10-бет

соддаланишининг ҳам лисоний асослари бор. Бу мақол дастлаб ҳайвонга нисбатан айтилган бўлса ҳам, кейинчалик мазмунан кенгайиб, бошқа нарсаларга нисбатан ҳам қўлланилаверган. Натижада даврлар ўтиши билан “от” сўзи тушиб қолиб, бу сўзнинг барча хусусиятларини “Синамаган” сўзи олган, яъни отлашган “Синамаган” сифатдошидаги бўлишсизликнинг ишораси бутун мақолнинг мазмунига таъсир этган ва ўтма сўзини ҳам қолишига сабаб бўлган. Натижада “Синамаганнинг сиртидан” шакли юзага келган. Бу шакл барча нутқий шароит учун қўлланилиш имконияти кенгайган. Яъни, шаклан қисқа бўлса ҳам, мазмунан мураккаб бўлади. Содда шакл мураккаб мазмун ифодалайди. Бундай номутаносибликнинг ҳам лисоний ва лисоний бўлмаган асослари бор. Улар турли кўринишларда намоён бўлади.

“Синамаганнинг сиртидан” мақоли муайян нутқий шароитда битта тағмаъноси билан иштирок этади. Яъни, сўзловчи ва тингловчининг ўзаро шартномавий муносабати орқали биттаси танлаб олинади. Шартномавий муносабат сўзловчи ва тингловчининг коммуникатив мақсади, нияти асосида белгиланади. Агар сўзловчи ва тингловчи ўртасида коммуникатив мақсад бирор қиз ҳақидаги нутққа қаратилган бўлса, у ҳолда мақол шу нутқий шароитга мослашади. Умумий билиш хазинамиздаги билимлар кўлами ҳам шунга қаратилади. Мақолнинг ишоравий маъносини тушунишга имкон яратади. Бир қанча шакллар ифодалайдиган мазмунни тушуниб етиш имкони туғилади. Яъни, қиз боланинг ташқи кўриниши, одоби, юриш-туриши, уй тутиши кабилар “Синамаган” сўзи орқали англашилади. “Сиртдан” сўзи эса олдиндан ҳукм чиқариш, хулосалаш каби маъноларни ифодалайди. “Синамаган” сўзининг бўлишсизлик –ма шакли бутун мақол мазмунига тааллуқли бўлиб, қиз болани билмай туриб, олдиндан ҳукм чиқариш хато бўлиши мумкинлигига ишора қилади. Шунинг учун содда шакл остида мураккаб мазмун акс этади. Бундай мазмунни тушунишга тағбилим ёрдам беради. Шу сабабдан мақолларда ишоравий маъно биринчи планда туради.

Мақол ва ҳикматларда аллегория орқали ҳам турли тағмаънолар ифодаланиб, мазмун сиғимини оширади. Масалан: “Бўйнида иллати бор итнинг оёғи қалтирайди” мақолида “ит” сўзи аллегорик ифодага эга бўлиб, умумий жиҳатдан “инсон”, “одам” маъноларини ҳам англатади. Мақолдаги “ит” сўзи мазмунни ниҳоятда кучайтирган. Чунки ит ҳар қандай шароитда ҳам инстинкт асосида кўринган нарсага ташланиши, кўркмаслиги мумкин. “Оёғининг қалтираши” эса “иллат” сўзига боғлиқ ҳолда мазмунан мослашган. Натижада “ҳатто иллати, нуқсони бор итнинг ҳам оёғи қалтирайди” маъноси юзага келган. Бунда ҳам шаклий, ҳам мазмуний мутаносиблик мавжуд.

Агар “ит” сўзининг ўрнида “одам”, “инсон” сўзи қўлланилса, шаклий жиҳатдан ғализлик сезилмаса ҳам, мазмунан камбағаллик юзага келади. Мақолдаги тағмаъно у даражада кучаймаган, мазмунан мураккаблашмаган ва барча нутқий шароит учун баробар қўлланилиш имконига эга бўлмаган бўларди. Шунинг учун “ит” сўзи ўз ўрнида тўғри қўлланган ва ўз маъносида ҳам, кўчма маънода ҳам мутаносибликни юзага келтирган. Барча нутқий шароит учун қўлланиш имконини яратган.

Мақоллар ва ҳикматларда қарама-қарши муносабат кучли тарзда ифодаланади. Бундай ҳолат мақолнинг мазмунига ҳам таъсир этади. Турлича тағмаъноларни юзага келтиради. Масалан: “Тўғри одам эгри сўздан ор қилар”, “ширин ёлғондан аччиқ ҳақиқат яхши”, “Яхши сўз жон озиғи, ёмон сўз – бош

қозиғи”, “Яхшилик нур келтирар, ёмонлик зулмат”, “Майда гап катта ишни фарқ қилади” каби мақолларда антонимик муносабатдаги сўзлар ишлатилган. Антонимик - қарама-қарши зид муносабатдаги сўзлар мақолларнинг мазмун сиғимини оширган. Баъзан бундай мақоллар тўла шаклланмаган бўлиши ҳам мумкин. Тўла шаклланмаса ҳам тушунарли бўлиши зиддош - қарама-қарши маъноли сўзларнинг ўзаро муносабатдорликдаги алоқаси натижасида юзага келади. Чунки бундай сўзлар бир-бирига ишора қилиш хусусиятига эга. Яхши сўзи ўзаро маъно муносабатдорликда матнда ёмон сўзига ишора қилади. Ёки ширин сўзи аччиқ сўзига ишора қилади. Натижада матнда антонимик муносабатдаги сўзлардан бири иштирок этса, мазмунан иккинчи жуфти ҳам тушунилаверади. Масалан: “Дили тўғрининг йўли тўғри”. Бу мақолнинг ишорасидан “Дили эгрининг йўли эгри” мақолини ҳам тушуниш мумкин.

Хуллас, мақолларда турли воситалар асосида тагмаънолар ифодаланади. Тагмаъноларнинг юзага келишида бадий ифода воситалар, омонимик, синонимик, антонимик муносабатлар восита бўлади. Мақолларнинг лисоний таҳлили шу соҳадаги кемтик жойни тўлдириш учун аҳамиятлидир.

Адабиётлар:

1.Шомақсудов Ш..Шораҳмедов Ш.Ш. Ҳикматнома. Тошкент, 1990 йил, 10-бет

2.Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-том. Москва. 1981 йил, 456 бет

3 Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II-том. Москва. 1981 йил

4.Ўзбек халқ мақоллари.-Тошкент. 2005.

ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА НУТҚ ЎСТИРИШНИНГ АҲАМИЯТИ

Ибрагимова У.Ю - Нукус ДПИ Ўзбек тили кафедраси ўқитувчиси

Маълумки, тилшуносликдаги "умрбокий" янги йўналишлардан бири когнитив лингвистика, иккинчиси - лингвокултурологиядир. Когнитив лингвистика инсон билимини ўрганувчи когнитология фани(билиш назарияси, гносеология) билан лингвистика ўртасидаги оралик - соҳалараро фандир.

Инсондаги билим, унинг қандай олиниши, қандай сақланиши, қандай узатилиши кўп фанларни қизиқтириб келган. Кейинги йиллари бу масала тилшуносларни ҳам қизиқтира бошлади, чунки инсондаги кўп билимларнинг пайдо бўлишида, сақланишида ва уларни узатишда тил муҳим воситадир. Тил ва нутқ ўз семантикасида, яъни бирликларининг маъноларида дунё ҳақидаги билимнинг бир қисмини акс эттиради. Масалан, борликдаги оламга нур ва иссиқлик тарқатувчи думалоқ нарса ўзбек тилида **қуёш** сўзи маъносида акс этади.

Когнитив лингвистиканинг вазифалари:

1)инсондаги билимларнинг пайдо бўлишида тилнинг ролини аниқлаш;

2) олам ва ундаги нарсаларни категориялаштириш (тушунчалар ҳосил қилиб, турларгабўлиш); концептуаллаштириш(концептлар ҳосил қилиш) ва аташ (номинация) жараёнларини тушуниш; 3) концептуал система билан тил системаси ўртасидаги муносабатни аниқлаш; 4) оламнинг лисоний ва когнитив (концептуал) тасвирлари билан боғлиқ масалаларни ечишдир

Ташқи ва ички оламдаги нарса-ҳодисаларнинг тилда ва нутқда акс этиши (инъикоси), образли қилиб айтганда, оламнинг лисоний тасвиридир. Ташқи ва ички дунёдаги нарса-ҳодисаларни конкрет тилда акс этиши эса " оламнинг миллий тилдаги тасвири деб юритилади.

Шундай экан, она тили таълимидан кўзланган асосий мақсад талабаларнинг оғзаки ва ёзма нутқ кўникмаларини шакллантириш ҳамда ифодали фикрлаш малакасини ҳосил қилишдан иборатдир.

Ҳозирги кунда ҳаётимизда компьютер, янги педагогик технология жадаллик билан сингиб бораётибди десак, адашмаймиз. Мустақиллик даврида техника шу қадар ривожланиб кетдики, уларнинг инсон томонидан ўзлаштирилиши замон талабига айланиб қолди. Шунингдек, электрон ҳисоблаш ва интернетга алоқадор атамалар микдори кундан -кунга ошиб бормокда.

Бу маълумотларни ўқувчилар онгига сингдириш учун дарс соатларининг чегараланганлиги бир қанча қийинчиликлар туғдириши табиий ҳолдир. Бу муаммони ҳал қилиш эса дарсларга бўлган дидактик талабларнинг оширилишини талаб этмокда.

Дарсларда ўқитувчи талабанинг қалбига йўл топа олиши керак. Бунинг учун ўқитувчи ўз фанини пухта билиши ва ўз устида кўпроқ ишлаши зарур. Дарс зерикарли ва қуруқ бўлмаслиги керак. Чунки, зерикаш - талабанинг ашадий душмани.

Ўқитувчи ҳар бир дарсда талабаларни ўзига қаратмоғи. мавзуга кизиқтирмоғи керак. Бундан ташқари, аудиторияда ижобий эмоционал фонни ташкил қилиш учун ўқитувчи ўқитишнинг интерактив усуллари амалда қўллай олиши лозим. ***Интерактив сўзи инглизча бўлиб, ўзаро ҳаракат, ҳамкорлик маъноларини англатади.*** Д.Н.Кавтарадзе таърифига кўра, ***«Интерактив-гуруҳ ичидаги ўзаро ҳамкорликка асосланган ва ўқувчининг таълим вазифаларини ечишдаги эркинлиги билан боғлиқ таълим технологияси ҳисобланади».*** У ўзаро ҳамкорлик, ўқувчилар фаоллиги, гуруҳий тажрибага таяниш, тесқари алоқа принципларига амал қилиш билан боғлиқдир. Интерактив усул бошқа таълим усулларида тубдан фарқ қилади ва бир қанча устунликларга эга.

Ўқувчиларга таълим беришдан асосий мақсад улар онгига фан асосларини пухта сингдириш орқали уларни диёнатли, эътиқодли қилиб ўстириш, ижтимоий ҳаётдаги ҳар бир ҳодисага онгли ёндашиш ҳиссини тарбиялаш, эгалланган билим ва кўникмаларни ҳаётга татбиқ этиш қобилиятини ўстиришдир.

Инсоннинг маънавияти, маданияти ва одоб-ахлоқи унинг тилида намоён бўлади. Лекин, минг афсуслар бўлсинки, ҳозирги кунда ўқувчиларимизнинг нутқи раван эмас, сўз бойлиги ҳам камроқ.

Матн устида ишлаш нутқ ўстириш мазмуни, гап тузишга керакли сўз ва унинг формасини танлаш фикрни орфографик ва пунктуация жиҳатдан саводли баён этиш, орфоэпик жиҳатдан тўғри талаффуз қилиш устида мунтазам ишлаш демақдир.

Ўқувчилар учун ёзма нутқ алоҳида қийинчилик туғдиради, уларни ёзма нутққа аста-секин, грамматикани ўргатиш ва орфография билан боғлиқ ҳолда ўқитиб борилади. Ёзма ишга йўналтириш эса, танланган матн устидаги дастлабки оғзаки машқдан бошланади.

Хулоса қилиб, ёшларда ижодий тафаккур, ижодий изланиш, уларни миллий қадриятларимиз, удум-анъаналаримиз руҳида тарбиялашда, ҳар томонлама етук, сўзга чечан ва мустақил фикрлайдиган қомил инсон бўлиб

етишувида ўзбек тили фанининг тутган ўрни ва имкониятлари бениҳоя каттадир.

АДАБИЁТЛАР

1. Баҳромов А.А. Малака ошириш тизимида янги ахборот технологиялари\Халқ таълими, журнали, -Т.: 2012. 4- сон,
2. Ғуломов С. Ахборот тизимлари ва технологиялари.-Т.: Шарқ, 2011.
3. Абдуллаев Ю.Н., Бушуй А. Язык и общество. -Т.: Фан. 2002.

YUKLAMALAR MAVZUSINI PEDTEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'RGATISH

Jumanova. N. P. - Nukus DPI O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 4 –kurs talabasi
Ibragimov Yu.M. - Ilmiy rahbar, filol. fan. doktori, professor

Кўмакчи ва боғловчининг вазифасига қараганда юкламаларнинг семантик ва синтактик вазифаси мураккаб ва хилма-хилдир. **Биринчидан**, содда гап таркибида гап бўлақларининг синтактик алоқага киришида тенг боғловчилар каби хизмат қилади. Шунинг учун ҳам тенг боғловчи ўрнида юкламани қўллаш мумкин бўлади. Масалан: *Бир севгиким жон берур танга Ҳам Зайнаб-у Омонларга хос. (Ҳ.О.) Зайнаб ва Омонларга х<>с.* Солишти[^] ринг: Келди ва кетди // келди-да, кетди // келди-ю кет-ди. Фақат боғловчи ва юклама ўртасида нозик мазму-[^] ний фарқ бор. Уюшиқ феъл кесимлар юкламалар ёрдамида боғланганда, ҳаракат тезлиги семаси ҳам ифодаланади.

Айрим юкламалар уюшиқ бўлақларнинг ва уюшиқ гапларнинг синтактик алоқага киришувида маълум даражада хизмат қилиш билан бирга, уюшаётган бўлақларга таъкид маъносини (ҳам юкламаси) ва бутун гапга инкор маъносини (на на ...) юклайди. Масалая: *На хотин, на фарзанд кўр(ма)ган бир йигит. (У.) // Хотин ҳам, фарзанд ҳам кўрмаган бир йигит.*

Иккинчидан, юкламалар эргаш гапли қўшма гаплар таркибида эргаш гапларни бош гапга боғлаб келади. Масалан: *Билки, >жангда билинади мард йигитнинг сараси. (Ҳ.О.).*

Shunday ekan, yuklamalar mavzusini o'rganishda egallangan ko'nikma va malakalarni mustahkamlash, ularni amaliyotga tatbiq etish borasidagi bilimlarni nazorat qilish va baholash uchun izohli yoki saylanma diktantlar o'tkazish, shu jarayonda *so'z yuklamalar va affiks yuklamalarning vazifasi va ma'nosini izohlash, ularning ma'no turlari, imlosini amaliyotda qo'llashga yo'naltirilgan o'quv topshiriqlar ustida ishlash nihoyatda foydali bo'lib, bunda yuklamalarning og'zaki nutqda to'g'ri va o'rinli foydalanish malakalari shakllantiriladi hamda rivojlantiriladi.* Maktab amaliyoti shuni ko'rsatib turibdiki, boshlang'ich sinfdan boshlab bosqichma-bosqich yuklamalar haqida uzluksiz ma'lumot berilmas hamda ularning o'quvchi nutqida barqarorligi ta'minlanmas ekan, bu yuklamalarni o'quvchining nutqiy faoliyatiga olib kirish nihoyatda murakkab bo'lib qolaveradi.

Yuklamalarni o'rganishda ta'limning turli bosqichlarida ko'zga tashlanayotgan keng tarqalgan nuqsonlardan biri ijodiy yo'nalishdagi topshiriqlardan kam foydalanishdir. Darslikdagi topshiriqlarning asosiy qismi qayta takrorlashga asoslanganligi sababli ijodiy topshiriqlarni ona tili o'qituvchilarining o'zlari tuzishlariga to'g'ri keladi(1:2008:55).

Yordamchi so'zlar yuzasidan amaliy ko'nikma va malakalar hosil qildirish maqsadida o'quvchilarga istagan emas, balki o'quvchilarning yosh xususiyatlari,

qiziqishlari tegishli tayyorgarlik darajalarini hisobga olgan holda ikki xil yoʻldan foydalaniladi:

1. Badiiy asarlardan (Alisher Navoiy, Bobur, Ogahiy, Abdulla Qodiriy, Choʻlpon, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, T.Adashboev, A.Obidjon ...) parchalar tanlanadi.

2. Shu sinfga tegishli boʻlgan boshqa oʻquv predmetlariga oid darsliklar (matematika, botanika, geografiya, kimyo ...) dan foydalaniladi.

Buning real natijasi:

- oʻquvchilar turli nutq uslublari bilan amalda tanishadilar;
- yuklamalarning qoʻllanish imkoniyatini amaliy jihatdan koʻrishadi;
- predmetlararo aloqa taminlanadi.

Yordamchi soʻzlardan, xususan, yuklamalardan nutqiy faoliyatda foydalanishni yaxshilash maqsadida berilgan yoki oʻquvchilarni oʻzlari aniqlagan soʻzlar yordamida (**masalan, bilan, uchun, sayin, orqali, sari, va, ammo, lekin, biroq, chunki, shuning, uchun, faqat, -ku, -ya yordamchilari ishtirokida**) gaplar tuzdirish yoki nuqtalar oʻrniga zarur yordamchi soʻzni qoʻydirish kabi ijodiy-amaliy ishlarni tavsiya qilish mumkin. Matnda notoʻgʻri qoʻllangan yordamchi soʻzlarni toʻgʻrisi bilan almashtirish ham yaxshi natijalar beradi. Bunday mashqlar oʻquvchilarning matnga ongli munosabatda boʻlishini, ijodiy fikrlashni oʻrgatadi.

Oʻquvchilar nutqini yuklamalar bilan boyitish, nutq jarayonida bu soʻzlarni oʻrinli qoʻllash maqsadida berilgan matnni yoki alohida gaplarni oʻqish **bilan, uchun, sayin, orqali, sari, oq, -chi, -mi** yuklamalarning vazifasini tushuntirish; hamda yuklamalarning (affiks yuklamala) maʼno va vazifasini sharhlab, vergulning ishlatilish sabablarini izohlashni talab qilish; gaplarni oʻqib inkor manosi ifodalovchi **na, -na** yuklamasini juft bogʻlovchisi bilan almashtirish; berilgan sodda gap juftlarini yordamchi soʻzlar vositasida bogʻlab, sodda va qoʻshma gaplar orasidagi maʼno nozikligini tushuntirish kabi ijodiy-amaliy ishlardan foydalanishni tavsiya qilish muhimdir.

Quyida ana shu topshiriqlardan ayrim namunalar keltiramiz.

1-topshiriq. Gaplarni oʻqing **va, lekin, biroq, ammo, yoki, shuning uchun, chunki, -ki** bogʻlovchilarining vazifalarini aniqlang.

1) Mehnat bilan topilgan pul qadri mashaqqat bilan qoʻlga kiritilgan barcha narsalar singari aziz boʻladi.

2) Hozirgina bir falokatning oldi olingan boʻlsa ham, ammo kelajakdagi mashgʻulotlar uning uyqusini qochirmoqda edi. (P. K)

2-topshiriq. **Na-na** inkor bogʻlovchisini **ham, ham** juft bogʻlovchisi bilan almashtirib, gaplarni oʻzgartiring.

1. **Na** yurib charchadi, **na** sovuqdan shikoyat qildi. 2. Qalandarovga **na** goʻsht tatidi, **na** qimiz!. 3. **Na** bulutlar tarqaldi, **na** yomgʻir yogʻdi.

Xullas, yuklamalar matn qismlarini boʻlashda xizmat qilish bilan birga, gapga emotsional-ekspressiv va motal maʼnolar ham yuklaydi: **Наҳотки, денгизлар чанпа айланиб, наҳотки** дарёлар оқар тескари. (F.F).

A D A B I Y O T L A R

1. Тўхлиев Б., Иноғомова Р., Тилавова Г. Сўз туркумлари ва нутқ ўстириш методикаси. –Т.: 2008. 55-б.

YUQORI SINFLARNING ONA TILI DARSLARIDA MUSTAQIL ISHLARNING O'RNI

Atiyazov S.- O'zbek tili kafedrası assistenti

Ibrohimova D. - O'zbek tili va adabiyoti bakalavr ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi

Maktabda fan asoslarini egallash ko'p jihatdan, ona tili ta'limining qo'yilishiga bog'liq. O'quvchilar tilga oid bilimlarini, asosan, dars jarayonida o'rganadilar. Ularga tildan beriladigan bilimlarni mustaqil ishlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Didaktikada mustaqil ishlar muammosi juda uzoq tarixga ega. "O'quvchilarda mustaqillikni shakllantirish, – K.D.Ushinskiy pedagogik tizimning asosiy muammolaridan biri"- degan edi. U – "Tarbiyachi o'z shogirdlarining mustaqil ishlashiga ko'proq imkoniyat yaratib bermog', o'quvchini tayyor xulosalar bilan qurollantirishga ko'ra, uning o'ziga xulosalar izlashni o'rgatmog'i kerak",-deb ta'kidlagan edi. Grammatik qonun-qoidani o'qituvchi rahbarligida o'quvchining o'zi kuzatishi va xulosalashini istardik, o'quvchining umumiy taraqqiyotida grammatikaning asosiy ahamiyati ana shundan iborat.

Ta'limda faollik va mustaqillik muammosi bir-birini to'ldiradigan, o'zaro uzviy bog'langan pedagogik kategoriyalar hisoblanadi. Har qanday faoliyat asosida mustaqil aqliy faoliyat yotadi. Mustaqil ishlarsiz hech qanday faoliyat bo'lmaydi. Ammo bu faollik va mustaqillik bir xil tushuncha ekan, degan fikrga olib kelmasligi kerak. Faollik mustaqillik tushunchasiga nisbatan gapirganda, o'qituvchi tushuntirishi ma'ruzani diqqat bilan tinglash, turli xil vositalar: ko'rgazma qurol, mustaqil ish yordamida o'quvchilarning faolligini oshirish, ijtimoiy va ma'naviy hayotda faollik bilan ishtirok etish, moddiy ne'matlarni ishlab chiqarishda ijodkorlik, tashabbuskorlik ko'rsatish kabilar tushiniladi. Demak, faollik tushunchasi xoh o'quv-tarbiya, xoh ijtimoiy va ma'naviy hayot sohasida bo'lmasin, kishining ongli, aqliy faoliyatini ifodalash uchun ishlatiladi. Darslarda o'tkaziladigan mustaqil ishlar o'quvchilarning faolligini oshirishning asosiy vositalaridan biri sanaladi.

Kitob ustida mustaqil ishlay olish malakalari, dastavval, boshlang'ich sinflarda hosil qilinadi, bu malakalar yuqori sinflarda yanada takomillashtiriladi. Darslarda tashkil etiladigan mustaqil ishlar o'quvchilarda kitob ustida ishlash malakasini shakllantirishning yetakchi omilidir.

Didaktika va umumiy ta'lim predmetlaridan biri sanalgan ona tili o'quvchilarda mustaqillikni taraqqiy ettirish uchun juda boy imkoniyatlarga ega. Ona tili materillari ustida tashkil qilinadigan topshiriqlar o'quvchilarni til hodisalarini kuzatish, tahlil va qayta qo'shish, induktiv va deduktiv xulosalar chiqarish kabi malakalarini o'stiradi.

O'quvchilarning mustaqil ishlari ona tili darslarining barcha bosqichlarida o'tkaziladigan, o'qituvchining bevosita ishtirokisiz, ammo uning ko'rsatmalari va rahbarligida bajariladigan, o'quvchilarning ongli ravishda faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydigan grammatik vazifalardir.

Ilg'or o'qituvchilar darslarni ijodiy uyushtirishda o'quvchilarning mustaqil ishlariga tayanadilar. Kuzatishlar shuni tasdiqlaydiki, aksariyat o'qituvchilar mustaqil ishlarning o'ziga xos xususiyatlariga yetarli ahamiyat bermay, uni nafasni rostlab olish uchungina o'tkazadilar.

Ba'zi maktablarda ona tilidan o'tkaziladigan mustaqil ishlar o'quvchilarning bilimi, hayotiy tajribasi, yakka xususiyatlariga to'g'ri kelmaydi.

Darslarda o'tkaziladigan mustaqil ishlar dars tipiga, dars jarayonining turli bosqichlariga o'quv materialining mazmuniga bog'liq bo'ladi. Ona tilidan

o'rganiladigan har bir mavzu, har bir orfogramma xarakteriga muvofiq mustaqil ishlar uyushtiriladi, Ona tili darslarida o'tkaziladigan mustaqil ishlarga quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Mustaqil ishlar pedagogik va psixologik tomondan asoslangan, o'quvchilarning yosh va xususiy xususiyatlariga, bilimiga mos bo'lishi o'quvchilarga tilni o'zlashtirishga qiziqtirishi lozim.

2. O'qituvchi tomonidan berilgan topshiriq bolalarning o'quv materialini faol idrok etishini ta'minlashi zarur.

3. Mustaqil ish hayotiy bo'lishi, o'rganilgan nazariy bilimlarni amaliy tatbiq etishning vositasi bo'lmog'i kerak.

Ta'lim ilgarilab ketgani sari mustaqil ishlarning hajmi, murakkabligi oshira boriladi. O'quvchilarning ish tezligi, mustaqillik darajasi o'sadi. Masalan, 5-9-sinflarda "so'z tarkibi" mavzusi o'tiladi. O'quvchilar 5-sinfda asos, asosdosh so'z, so'z yasovchi qo'shimchalar, shakl yasovchi qo'shimchalar to'g'risida dastlabki ma'lumotni oladilar. Bu sinfda asos, asosdosh so'z, so'z yasovchi qo'shimchalar, shakl yasovchi qo'shimchalar kabi atamalar vositasida bolalarning so'z tarkibi haqidagi bilimlar yanada boyitiladi.

ADABIYOTLAR

1. Qosimova K., Matchonov va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi. -T.: 2009.
2. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A. va boshqalar. Ona tili. 5 -sinf o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. -T.: Ma'naviyat. 2004.
3. Gulomov A. Ona tili ta'limi mazmuni. -T.: Universitet. 2001.
4. Istiqlo'l va til. Ilmiy-amaliy anjuman materiallari. -T. 2005.
5. Begmatov E., Boboyeva A., Asomiddinova M. Adabiy norma va nutq madaniyati. -T.: Fan, 1983.
6. Raxmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -T.: Universitet. 2006

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI HUDUDIDAGI AYRIM OYKONIMLAR

Xudayarova M. -O'zbek tili kafedrasida katta o'qituvchisi f.f.n.

Aytbaeva G. – Nukus DPI O'zbek tili va adabiyoti 2-kurs talabasi

Qoraqalpog'iston Respublikasining markazi – Nukus shahri. Nukus oykonimi aslida urug'ning nomidan kelib chiqqanligi manbalarda e'tirof etiladi. Q. Abdiramatov maqolasida Nukus so'zi fors tiliga tegishli bo'lib, **No'h** "to'qqiz", **kas** "odam" shaklidan yasalganligini ta'kidlaydi va Qoraqalpog'istonning to'qqiz bahodiri haqidagi afsonani keltiriladi [1.93-94].

Nukus toponimi Xorazm dialektida qo'llanilgan va shu xalq tomonidan qo'llanilgan bo'lishi mumkin degan taxminlar ham bor. Bu shahar Xorazmshohlar hududida barpo etilishiga ruxsat etilgan [2]. Bu toponimning etimologiyasi Abulg'azi Bahodirxonning "Shajarayi tarokima" asarida quyidagicha yoritiladi: **Nuv**, **Nuz** "yangi", **kas** "yuzaga kelmoq" [3.187].

Nukus "yangi yuzaga kelgan", "yangi qishloq"dir. E. Murzayev toponimning **Nu** "to'qqiz", **kesh** "uyi, joyi" degan ma'no bildirishini aytgan [4. 230].

Ayrim shaharlar unvon, mansab nomlari asosida shakllanganini ta'kidlab o'tishimiz kerak. Xo'ja, bek, biy nomlarining ma'lum qismi Xiva xonligi davlat tuzilishi, shu davrdagi mansablar va shunga o'xshash bir qancha omillarga bog'liq shakllanganligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, Xo'jayli tumani. Shu hududda yashovchi qariyalarning ko'pchiligi shaharning avvalgi nomi *Antakiya*, undan keyin

Gauvir, soʻngra *Xoʻjayli* deb atalganini taʼkidlashadi. Professor Y.Gʻulomov *Gauvir* qoʻrgʻoni taxminan mil. av. I asrning boshlarida Kushonlar tomonidan barpo etilganini aniqlaydi.

XVI asrning oxiriga kelib, Amudaryo oʻzanini oʻzgartirishi natijasida Urganch, Vazir, Adoq shaharlariga tegishli tumanlar suvsiz qolgan. Ekinlar Amudaryoning yoqalariga *Xoʻjayli*ning shimoli-sharqiy va shimoliy tumanlariga ekilgan. Mana shu yerda yangi qoʻrgʻon barpo etilgan. Asfandiyorxon davrida (1623-1642) Urganch tumanida suv boʻlmaganli sababli xon farmoyishi bilan Amudaryoning chap qirgʻogiga koʻchirilgan. Abulgʻozi Bahodirxonning “Shajarayi tarokima” asarida *Xoʻjayli* degan nom Xiva xoni XVII asrda bu hududga bir necha uyli xoʻjalarini olib kelgandan keyin berilgan atama ekanligi berilgan [2].

Taxiatosh - hozirda *Xoʻjayli* tumaniga qarashli shahar. Shahar dastlab 1953-yilda Qoraqalpogʻiston Respublikasi quruvchilarning posyolkasi sifatida paydo boʻlgan. Shahar Amudaryoning Ketmon tepaligi yonida joylashgan. Xalq orasida bu atamaning “*taxiya*” va “*tosh*” soʻzlaridan kelib chiqqanligi haqida maʼlumotlar bor. “Boburnoma”da qayd etilishicha, *Taxia* “*darveshlarning asosiy yashash joyi, yotoqxona*” kabi maʼnolarni bildirgan. Taxiatosh “*toshdan ishlangan darveshxona, musofirxona*” maʼnosida eʼtirof etilgan [5.135].

Baʼzi hollarda tarixiy nomlar nutqda oʻz shaklini oʻzgartirishi, tovush va morfema strukturasi aslidan uzoqlashishini koʻrishimiz mumkin. Buni Moʻynoq oykonimi misolida koʻrishimiz mumkin. Moʻynoq – Qoraqalpogʻiston Respublikasidagi tumanlardan birining nomi. M.Qoshgʻariyning maʼlumotiga koʻra *boʻynoq* - “*togʻ boʻyni*” degani. *Moʻyin* – turk xalqlari orasida koʻp qoʻllaniladigan termin. Bu termin “*togʻ boʻyni, ikki togʻning qoʻshilishgan joyi*” degan maʼnoni bildiruvchi soʻz [6.190]. –*oq* oʻzbek tilida kichraytirish maʼnosidagi qoʻshimchadir. Shunday qilib, bu nom *Moʻyin* soʻziga –*oq* affiksi qoʻshilishi natijasida (soʻzlarning fonetik oʻzgarishi tamoyili asosida) yasalgan.

Xorazm dialektida daryoning bukilib (chigʻanoq holida) oqadigan joyini ham *moʻynoq* deb atashadi.

Xulosa qilib aytganda, oykonimlarni oʻrganish tilshunoslik, geografiya, tarix, etnografiya fanlari uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Абдирамамов К. О происхождения названия “Нукус”. – Вестник. Каракалпакского филиала АНУзССР, -Нукус, 1965. №1. – С. 93-94.
2. Bahodirxon A. Shajarayi tarokima. – Toshkent, 1995.
3. Материалы по истории Туркмен и Туркмении м.1, М-Л, 1939. – С. 187.
4. Doʻsimov Z., Egamov X. Жер атамаларының қысқаша сөзлигі. – Nukus: Bilim, 1991. – В. 135
5. Qoshgʻariy M. Devonu lugʻatit turk. – Toshkent, 1960. – В. 190.

OʻQUVCHILARINI KICHIK GURUHLARGA BOʻLIB OʻQITISHNING AFZALLIKLARI

Atiyazov S., Xalmuratova D. - Nukus shahar 38- maktabning Ona tili va adabiyot fani oʻqituvchisi, Qoraqalpogʻiston Respublikasi taʼlim aʼlochisi

Kichik guruhlarda ishlash oʻquvchilarning darsda faolligini taʼminlaydi, har biri munozarada qatnashish huquqini beradi, bir-biridan sinfda oʻrganishga imkon

tugʻiladi. Kichik guruhlarda ishlash usuli bilan dars oʻtganda quyidagilarga amal qilish kerak boʻladi.:

- guruh tarkibiga 3-7 oʻquvchi kirishi mumkin. Koʻp sonli guruhlarda oʻquvchilarning faol ishlashi qiyinlashadi. Baʼzi oʻquvchilar chetda qolib ketishi mumkin.

- guruhlarining tarkibini oʻzgartirib turish kerak. Butun oʻquv yili davomida bir xil tarkibli guruhlarini ishlanishdan cheklanish lozim. Iloji boʻlsa, har yangi mashgʻulotda yangi guruh tashkil qilinsa, maqsadga muvofiq keladi.

- Guruh tarkibini oʻqituvchi belgilashi kerak. Guruh ishlari yaxshi bajarilishi uchun tarkibiga malakali va qobiliyatli oʻquvchilar kirishi kerak. Agar hamma qobiliyatli oʻquvchilar bir guruhga tushib qolsalar ham, boshqa guruhlar oʻz vazifalarini yaxshi bajara olmaydilar.

Guruhlarining toʻgʻri tanlanishi oʻquvchilarning dars davomida sezilarli darajada faol harakat qilishlariga imkon beradi. Ushbu usulning samarasi shundaki, mashgʻulotda barcha oʻquvchilar qatnashadi, erkin bahs muhiti vujudga keladi. Oʻquvchilar oʻz fikrlarini mustaqil bayon qilishadi, munozara madaniyatini oʻrganishadi. Eng muhimi, bunday darslarda ishtirok etish oʻquvchilar uchun juda maroqli kechadi, chunki hamma teng fikrlaydi, soʻzlaydi, ijod qiladi, muhokama qilinayotgan mavzu yuzasidan oʻz fikr-mulohazalarini bildiradi, jonli jarayonda faol ishtirok etadi. 5-sinfda oʻtiladigan “Oʻzakdosh soʻzlar” mavzusini shu metod asosida oʻrganish haqida.

Oʻtilgan mavzu iboralar haqida boʻlib, unga doir bilimlar savol-javoblar va mashqlar orqali mustahkamlangandan soʻng yangi eʼlon qilinadi. Oʻqituvchi mavzuni eʼlon qilib, bugungi oʻtilgan darsning maqsadini tushuntiradi va bu maqsadga erishish uchun sinflarga boʻlinib ishlashini aytadi. Sinf oʻquvchilari oʻqituvchi tomonidan toʻrt guruhga boʻlinadi. (Bu guruhlar soni bundan boshqacha boʻlishi ham mumkin, biz mavzuning mohiyatidan kelib chiqib toʻrt guruhga ajratyapmiz)¹⁰.

1-guruh “Zukko”

2-guruh “Ziyo”

3-guruh “Ibora”

4-guruh “Bogʻlovchi”

Oʻqituvchi guruhlarining vazifasini tushuntirib, ularga quyidagi savollarni beradi:

1. Soʻzning tarkibiga nimalar kiradi?

2. Oʻzak deganda nimani tushunasiz?

5-sinfda oʻquv yilining boshida “Soʻz tarkibi” mavzusi boʻyicha olgan bilimlari asosida savollarga javob beradilar. Birinchi savolga “Zukko” va “Ziyo” guruhlarini javob bersa, ikkinchi savolga “Ibora” va “Bogʻlovchilar” guruhlarini javob beradi. Oʻqituvchi guruhlarining javoblarini qiyoslab, zarur tuzatishlar kiritadi va toʻgʻri javobni belgilaydi. Shundan soʻng 140-mashqni ishlash bilan mavzu boshlanadi.

1-topshiriq. Matnni oʻqing, daraxt, meva, oʻsmoq, gul soʻzlari qoʻllanilgan shakllarni alohida ustunchalarga yozing. Oʻqituvchi har bir soʻzni bittadan guruhga beradi va topshiriq asosida bajarishi kerakligini aytadi. Mashqning birinchi sharti quyidagicha bajariladi:

“Zukko”

gul

“Ziyo”

daraxt

¹⁰ O.Raximova “Ona tili darslarida interfaol metodini qoʻllash”, “Til va adabiyot taʼlimi” jurnali, 2003y. №4. 10-bet.

gulzorga
gulzordagi
“Ibora”
meva
mevali
sermeva

daraxtlar
daraxtlardan
“Bog‘lovchilar”
o‘smoq
o‘sgan

Har bir guruhdan bittadan vakil chiqib, yuqoridagi so‘zlarni doskaga yozadi. O‘qituvchi o‘quvchilarning e‘tiborini doskadagi barcha so‘zlarga qaratadi.

2-topshiriq. Har bir ustuncha asosiy ma‘no qaysi qism bilan ifodalanoshini aniqlang. Uning ustiga $\cap$ (yoy) belgisini qo‘ying.

Guruh o‘quvchilari 1-ustunchada meva so‘zi orqali, 2-ustunchada daraxt so‘zi orqali, 3-ustunchada meva so‘zi orqali, 4-ustunchada o‘smoq fe‘li orqali ifodalanganligini aytadilar.

O‘qituvchi: Har bir ustundagi so‘zlarning o‘xshash tomoni qaysi?

O‘quvchilar: Bu so‘zlarning o‘zagi bir xil.

3-topshiriq. “Maktab bog‘i” matni asosida o‘z maktabingiz bog‘i tasvirini qo‘shib matn tuzing.

O‘quvchilar o‘qituvchi rahbarligida matn tuzadilar.

Shundan so‘ng mavzu yuzasidan xulosa chiqarish imkoni yuzaga keladi. Buning uchun o‘qituvchi har bir o‘quvchiga savollar beradi va ularning javoblarini umumlashtiradi.

“Zukko” guruhiga: O‘zakdosh so‘zlar deb qanday so‘zlarga aytamiz?

“Ziyo” guruhiga: So‘z qanday qismlardan iborat bo‘ladi?

“Ibora” guruhiga: Atash, nomlash ma‘nosini so‘zning qaysi qismi ifodalab beradi?

“Bog‘lovchi” guruhiga: O‘zakka qoshilib keladigan qism nima deb yuritiladi?

Guruh a‘zolari savollarga javob topadilar va javoblarni ma‘lum qiladilar. Shu asosida umumlashgan xulosa chiqariladi.

Dars davom ettirilib, 141-mashq ishlanadi. Mashq shartida ot, sifat, son, olmosh, fe‘llarning o‘zak va qo‘shimchalarini ajratib, jadvalga joylashtirish hamda ularning o‘zagini belgilash topshirilgan.

2-topshiriq. Har bir ustundagi o‘zaklar qaysi jihatdan o‘xshash ekanligini tushuntirish va qatorlarini davom ettirish.

O‘quvchilar har bir ustundagi o‘zaklar qo‘shimcha olganligi bilan o‘xshash ekanligini aytadilar.

3-topshiriq. To‘ldirilgan qatorlar asosida har bir so‘z turkumini qanday qo‘shimchalar olishi haqida xulosa chiqaring.

“Zukko” – ot turkumini so‘z yasovchi, egalik, kelishik va ko‘plik qo‘shimchalarini oladi.

“Ziyo” sifat turkumi –gina erkalash qo‘shimchasini hamda –li, -dagi, -in kabi yasovchi qo‘shimchalarni, son turkumi –nchi qo‘shimchasini qabul qilgan.

“Ibora” –fe‘l turkumi zamon, shaxs-son, mayl, bo‘lishsizlik, sifatdosh shakli qo‘shimchalarini qabul qilgan.

“Bog‘lovchi” –olmosh, -dek, qo‘shimchasini va –dan kelishik qo‘shimchasini qabul qilgan.

Guruhlarning dars davomida faolliklariga baho beriladi, faol o‘quvchilarga tegishli baholar qo‘yiladi.

Darsning ana shunday usul asosida o'tkazilishi o'quvchilarning dars jarayonida faol ishtirokchisi bo'lishiga yordam beradi. Boshqalar fikrini qadrlashga o'rgatadi. Guruhlar bilan ishlash o'quvchilar o'rtasida vazifalarni aniq taqsimlashga o'rgatadi.

Buning uchun sinf o'quvchilari kichik guruhlariga bo'linadi va har bir guruhga kerakli topshiriq beriladi, guruhlariga nom qo'yiladi va sardorlar tayinlanadi.

Ta'lim jarayoni, uni rivojlantirish va o'zgartirish o'qituvchi va sinf o'quvchilarining o'zaro ochiq muloqoti va ishonchi muhitida samarali bo'ladi. Dars davomida didaktik o'yinlardan foydalanilsa, o'qituvchilarning ona tili darslariga bo'lgan qiziqishlari ortadi hamda ularning nutqiy ko'nikmalari rivojlantiriladi. Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan o'yinlar qisqa vaqtga mo'ljallangan bo'lib, bular orqali o'quvchilar guruh bo'lib mashq qilishga odatlantiriladi. O'yinlar vositasida kichik guruhlar faolligi ortadi, ta'lim ishtirokchilarning diqqati ishga (ta'lim jarayoniga) to'liq jalb etiladi.

O'yinlar vositasida o'quvchilarga yangi bilimlar berish, ko'nikma hosil qilish, kichik guruhlar a'zolarining ijodiy qobiliyatlarini rag'batlantirish mumkin. O'yinlarni maqsadiga ko'ra 7 turga ajratish mumkin.

1. Guruh bo'lib ishlash uchun sog'lom muhit tashkil etishga qaratilgan o'yinlar.
2. Umumiy qiziqishlarni aniqlashga qaratilgan o'yinlar.
3. Guruhlarning birligini qo'llab - quvvatlovchi o'yinlar.
4. O'zaro bog'lovchi o'yinlar.
5. Rag'batlantiruvchi o'yinlar.
6. Ijodkorlikka da'vat etuvchi o'yinlar.
7. Yakunlovchi o'yinlar.¹¹

O'yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini o'quvchilarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etiladi.

Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotga o'z o'rnini barqaror qilish, o'zini - o'zni boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi.

O'yin ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish va qayta yaratishga yo'nalgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o'z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi.

L.S.Vigodskiy o'yinni bolaning ichki ijtimoiy dunyosi, ijtimoiy buyurtmalarini o'zlashtirish vositasi sifatida ta'riflaydi.

O'yinli faoliyat muayyan funksiyalarni bajarishga bag'ishlangan bo'ladi. Ular quyidagilar:

- maftunkorlik;
- kommunikativlik;
- o'z imkoniyatlarini amalga oshirish;
- davolovchilik;
- tashxis;
- millatlararo muloqot;
- ijtimoiylashuv.

O'yin ijodiyligi bilan ajralib turadi. U mumkin qadar boy, faol xarakterga ega.

- "ijod maydoni" ga ega bo'ladi.

¹¹ I.P.Po'latov, S.Odilov. O'zbek tili ta'limidagi zamonaviy texnologiyalar va innovatsion metodlar. Qo'qon, 2004.

O'yin uchun hissiy ko'tarinkilik xosdir. U o'zaro kurash, munosabaqalashish, raqobat shaklida namoyon bo'ladi.

O'yindan tushunchalar, mavzu va hatto o'quv predmeti bo'limini o'zlashtirishda o'qish metodi va mustaqil texnologiya sifatida foydalaniladi.

Katta mavzularni o'rganishni yakunlash, egallagan bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi. Ta'lim jarayonida qo'llanilgan har bir o'yin yakunida o'qituvchining sharhida vaqt ajratiladi. Bunda u yoki bu o'yin guruh a'zolari tomonidan qanday g'oyalarni tug'dirganini sharhlashga e'tibor beriladi.

Adabiyotlar

1. A.Karimov. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". -Toshkent, 2008, 61-bet.
2. I.A.Karimov. "O'zbekistonning o'z istiqloli va taraqqiyot yo'li". -Toshkent, 1992
3. "O'zbekiston Respublikasining Qonuni" "Ta'lim to'g'risida". -Toshkent, 1997.
4. N.N.Azizxo'jaeva. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat". -Toshkent, 2006.
5. N.Sayidahmedov. "Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya". -Toshkent, 2003.
6. "Til va adabiyot o'qitishning dolzarb muammolari". -Toshkent, 2008.
7. O.Rahimova. Ona tili darslarida interfaol metodlarni qo'llash. "Til va adabiyot ta'limi" jurnali. 2004. №4, 8-10 betlar.

ALISHER NAVOIY VA TIBBIYOT

Yeshbayeva Durdona Feruz qizi – Toshkent pediatriya tibbiyot institutining Nukus filiali, pediatriya ishi yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Biz Alisher Navoiyni «she'riyat mulkining sultoni», mashhur davlat arbobi, ilm-u fan va madaniyat homiysi sifatida bilamiz. Vaholanki, shoir hayoti va ijodiga yaqin yondashsak, O'rta Osiyoda XV-XVI asrlarda tibbiyotning rivojlanishi Alisher Navoiy nomi bilan bog'liq bo'lganligi ravshan bo'ladi. Zamondoshlarining yozishicha, Navoiyning o'zi tabiblarga xos xususiyatga ega bo'lgan: o'zi kelishgan, sarvqomat, zukko va nozik tabiatli odam bo'lgan, doimo ozoda kiyinib yurgan. Bu borada Zahiriddin Muhammad Boburning: «Alisherbek o'zining nozik tabiati bilan ajralib turardi, bu xususiyat unga naslidan o'tgandir», – degan ta'rifini eslash o'rinlidir [2].

Navoiyning tibbiyot sohasidagi ulug' xizmati shundaki, tibb ilmini rivojlantirish, tibbiy maktablar ochish, tibbiyot sohasida mutaxassislar tayyorlash ishiga bosh-qosh bo'lgan, bu ishlarni amalga oshirishda o'z shaxsiy mablag'larini ham sarf qilgan. Ularda ehtiyojmand insonlarga bepul tibbiy xizmat ko'rsatilgan. Shoir tomonidan qurilgan madrasalarda bo'lajak tabiblar tayyorlangan. Masalan, Mavlono Nizomiddin Abdulxay Alisher Navoiy tomonidan bunyod etilgan «Dor ush-shifo»da faoliyat yuritgan. U qon-tomirlar tuzilishi, davolash usullari haqidagi tibbiy bilimlarini takomillashtirib, bu borada o'z ilmiy kashfiyotlarini amalga oshirganligi ma'lum [3,4].

Alisher Navoiy zamonasida madrasalarda boshqa fanlar qatorida tibbiy bilimlardan ham dars berilgan. Alisher Navoiy o'qigan madrasaning bosh mudarrisi – Fazlulloh Abulaysiy – olim va tabib bo'lgan. U Alisher Navoiyga boshqa fanlar qatori tibbiy bilimlarni ham o'rgatgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

«Mahbub ul-qulub (qalblar sevgilisi)» nomli kitobining 15-bobida tibbiyot va tabiblar haqidagi masala yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Navoiyning fikricha,

tabib birinchi galda o'z kasbini yaxshi egallagan mohir mutaxassis bo'lishi lozim, u rahm-shafqatli, insonparvar bo'lishi kerak. Unda tibbiyotga nisbatan layoqadlilik, ya'ni ilmiy til bilan aytganda, kompetentlik bo'lishi zarur [5].

Alisher Navoiyning quyidagi qarashlari juda o'rinli: "Tabib agar o'z kasbiga mohir bo'lsa-yu, ammo o'zi badfe'l, beparvo va qo'pol bo'lsa, bemorni har qancha muolaja qilganda ham baribir uning mijozida o'zgarish paydo qilolmaydi". Shu o'rinda tabiblar podshosi, buyuk vatandoshimiz Abu Ali Ibn Sinoning tabibning kasalni davolashdagi uchta tayanch quroli, ya'ni "So'z, giyoh, tig'" orasidan so'zni birinchi o'ringa qo'yganligini eslab o'tish joiz. Demak, Alisher Navoiy va Abu Ali Ibn Sino qarashlarida mushtarakliklar ko'p ekan. Navoiy Ibn Sinoga juda yuksak baho bergan. Uni aql-idrok va tafakkur ramzi, deb atagan.

Navoiy tajribasiz, chalasavod, nodon tabibni jallodga o'xshatgan ekan. Navoiy bunday yozadi: «Chalasavod tabib xuddi jallodning shogirdi kabidir. Jallod qilich bilan o'ldirsa, nodon tabib zahar bilan azoblaydi. Shubhasiz, jallod bunday tabibdan yaxshiroqdir. Zero, u gunohkorni o'ldiradi, nodon tabib esa, begunohni hayotdan ko'z yumdiradi».

Salomatlikni saqlash borasida Navoiy birinchi o'ringa sifatli va to'g'ri ovqatlanishni qo'yadi. Badxo'rlik qilmaslikni tavsiya etadi. Shu bilan birga, och yurmaslik kerakligini ham ko'rsatib o'tadi. U bunday deb yozadi: Kimki salomatlik istasa, u mo'tadil ovqat iste'mol qilishi kerak».

Alisher Navoiy ba'zi mevalar va o'simliklarning, masalan, makkai sano, anor, behi, limon va ko'katlarning shifobaxsh xususiyatlarini bilgan. Lug'z janridagi she'rida anor suvini ichib, kasallikdan forig' bo'lganligini yozadi:

Ne mijmardur, to'la axgar, vale ul mijmar andomi
Erur sun' ilgidin gahe musaddas, gah musamman ham.
Chiqar ravzandin axgari dudi-yu bu turfakim, aning
O'tig'a dud yo'qtur, mijmarig'a balki ravzan ham.

O't-u mijmar dema, bor ul sadafkim, durlarin oning
Evurdi qong'a davroni musha'bid, charxi purfan ham.

Agar bu nav' emas, bas ne uchun barmoq kuchi birla,
Bo'shar jismi, oqar qoni, anga majruh o'lub tan ham.

Nechakim tab'i noridur, valekin me'da norig'a
Berur tarkin, muning naf'in topibmen voqean man ham.

Tabobatda anordan me'da va jigar kasalliklarini davolashda foydalaniladi. Navoiy asarni anorning ana shu shifobaxsh xosiyati vasfi bilan tugallaydi. Shoir bu borada shaxsan o'zi ham undan naf topganligini qayd etadi. Demak, bu asar Navoiyning hayotiga oid birgina ma'lumotni yetkazgani bilan ham bizga qimmatlidir.

Ma'lum bo'ladiki, ulug' shoir tibbiyot masalalarida ham durustgina bilimdon kishi bo'lgan ekan. Ammo Navoiyning amaliy tibbiyot bilan shug'ullangani ma'lum emas.

Shoir «Badoe' ul-vasat» — «O'rta yosh badealari» asarida davosiz dardga chalinganini go'yo bashorat etadi:

*Bu dard ilaki o'larmen, maraz chu zohir emas,
Tabiblar bu balog'a ne chora qilg'aylar.*

Tarixdan ma'lumki, tabiblar chorasiz qoladilar va sakta (insult) tufayli shoir vafot etadi.

Alisher Navoiy ilm ahllarini qadrlab, yuksaklarga ko'targan, ularga Nuh payg'ambarning umrlarini tilagan: «Agar hikmatga bo'lsa iltifoting, ki bo'lsun Nuh umridek hayoting», – deb yozgan edi. Baytni Navoiyning o'ziga ham nisbat qilish mumkin. Darhaqiqat, Navoiy ijodiyoti hikmatlarga yo'g'rilgani uchun ham barhayot.

Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimovning iborasi bilan aytganda, “millatimizning g'ururi, sha'n-u sharafini dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z san'atkori”ning asarlarini faqat o'qib, bilib qo'yish kifoya qilmaydi []. Har bir bo'lajak mutaxassis Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar ijodi, hikmatlarini o'z ixtisosligi doirasida o'rganishi va ibrat olishi, faoliyatiga tatbiq qila olishi taqozo qilinadi.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Bobur Z.M. Boburnoma. – T.: Yulduz, 1989.
3. <https://BUXVSSB.uz> “O'zbekiston ovozi” gazetasidan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Isomiddin Jorayev. Tibbiy odob va madaniyat shifokor va bemorga madad.
4. <https://Ziyonet.uz>. t.f.n Quvondiqova D.E. Navoiyning Xuroson va Movorounnahrda tibbiyotning rivojlanishidagi xizmatlari.
5. <https://Ziyouz.com>. “Махбуб ул-қулуб” (қалблар севгилиси). – T.: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. 110 б.

8-SINFDA SODDA YIG'IQ VA SODDA YOYIQ GAPLARNI O'RGATISH TAJRIBASIDAN

Yuldasheva Sh. Sh. – p.f.n. ilmiy rahbar

Tursunova Gulyor Bekchanovna – O'zbek tili va adabiyoti bakalavr ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Umumta'lim maktablarining 8-sinfida, III chorakda “Sodda yig'iq va sodda yoyiq gaplar” mavzusi uchun bir soatlik dars ajratilgan bo'lib, ushbu mavzu 5-sinf darsligining I choragida ham mavjud. Mazkur mavzu yuzasidan Jizzax shahridagi 22-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabining ona tili va adabiyoti fan o'qituvchisi Dilafruz Mo'minova tomonidan bir soatlik dars ishlanmasi chop etilgan bo'lib [1], 5- sinf I choragi uchun mo'ljallangan. Muallif klaster, “O'yla, izla, top”, “Kim topqir”, “Zakovat” kabi o'yinlarni tavsiya qiladi. Bu usullar o'quvchilarning mazvuni o'zlashtirishida katta yordam beradi, albatta. Ammo dars ishlanmasida berilgan mashqlar va ma'lumotlarning barchasi 5-sinf uchun muvofiq emas, materiallar 8-sinf ona tili darsligining 2010-yilgi nashri bilan mos keladi. Quyidagi jadvalni qiyoslasak, manzara oydinlashadi:

1-rasm

3-topshiriq. Gap bo'laklarining bir-biriga tobelanishini shartli belgilar bilan chizmada ko'rsating. Namuna: O'zbekistonda (qayerda?) nishonlanadi 21- (nechanchi?) martda bayram (nima?) nishonlanadi Navro'z (qanday?) bayrami shod-xurramlik bilan (qay tarzda?) nishonlanadi	3-topshiriq. Gap bo'laklarining bir-biriga tobelanishini shartli belgilar bilan chizmada ko'rsating. Namuna: O'zbekistonda (qayerda?) nishonlanadi 21- (nechanchi?) martda nishonlanadi bayram (nima?) nishonlanadi Navro'z (qanday?) bayrami nishonlanadi Shod-xurramlik bilan (qay tarzda?) nishonlanadi
“Til va adabiyot ta'limi” jurnalidan	8-sinf uchun “Ona tili” darsligi. 2014-yildagi nashr

Bizningcha, “Sodda yig‘iq va sodda yoyiq gaplar” mavzusini o‘quvchi yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda o‘rgatish lozim. Biz pedagogik amaliyot davomida 8-sinfda mavzuni o‘rganishni quyidagicha tashkil qildik:


Darsda o‘quvchilarga sodda yig‘iq va sodda yoyiq gaplar haqida ma’lumot berishni, o‘quvchilarda sodda yoyiq gaplar tuza olish va ularni birikmalarga ajratish, gap qurilishidagi hokim-tobelik munosabatlarini aniqlay olish ko‘nikmasini shakllantirishni maqsad qildik.

Darsda darslik, kompyuter, slaydlar, ko‘rgazmalar, proyektor, rag‘bat va jarima kartochkalari, tarqatmalardan foydalanildi va quyidagi reja asosida tashkil qilindi:

Dars rejasi:

T/r	Dars rejasi	Vaqt
1.	Tashkiliy qism. Salomlashish. Davomatni aniqlash. Sinf tozaligini tekshirish.	2 daqiqa
2.	Uyga vazifani so‘rash. “Domino” o‘yinini tashkil qilish	10 daqiqa
4.	Yangi mavzu bayoni va mustahkamlash.	31daqiqa
5.	Baholash.	1 daqiqa
6.	Uyga vazifa berish.	1 daqiqa

O‘quvchilar guruhlariga ajratiladi, guruhlar nomlanadi. O‘tgan mavzuni takrorlash uchun “Domino” o‘yinidan foydalanildi. Bunda 1-savol o‘qituvchi tomonidan berildi. O‘quvchilarga tarqatilgan tarqatmalarning birida savolning javobi yozilgan bo‘lib, topqir o‘quvchi dastlab to‘g‘ri javobni, so‘ng javob tagida berilgan savolni o‘qidi. Bu savolning javobi ham boshqa tarqatmada berilgan va unga boshqa savol ilova qilingan edi. O‘quvchilar shu tariqa “Domino” o‘ynadilar va o‘rganilgan mavzuni takrorlab oldilar. “Domino” savollari quyidagicha tuzildi:



Savol	Bitta so‘zdan iborat bo‘lishi ham, aniqlovchilar bilan kengayib kelishi ham mumkin.
Javob	Atov gaplar qanday zamon ma’nolarida ifodalanishi mumkin?
Savol	Xabar maylining hozirgi-kelasi, ba’zan o‘tgan zamon shakllarida keladi.
Javob	Qanday gaplar ega ishtirok etmagan gaplar deyiladi?
Savol	Shaxsi noma’lum gaplar, atov gaplar, so‘z-gaplar.
Javob	Shaxsi noma’lum gaplar qanday ma’noni ifodalab keladi?
Savol	Imkoniyat, zaruriyat, shart, tilak, istak
Javob	Qanday gaplar so‘z-gaplar deyiladi?
Savol	Bir so‘zdan iborat bo‘lib, tarkibga ajralmaydigan, boshqa so‘zlar bilan kengaya olish imkoniyatiga ega bo‘lmagan gaplar.
Javob	So‘z-gaplar qanday ma’no munosabatlarni ifoda etadi?
Savol	Modal va his-hayajon.
Javob	So‘z-gaplar kengayishi mumkinmi?
Savol	Kengayishi chegaralangan.
Javob	Atov gap bilan so‘z gapning farqi nimada?
Javob	Atov gap bemalol kengayadi, so‘z-gap kengayishi chegaralangan.

Guruhlar javoblari rag‘batlantirilgach, o‘tilgan mavzuni “Klaster” usulida mustahkamlanadi.



Yangi mavzuni o‘rganish 1-topshiriqni bajarishdan boshlandi. Bunda berilgan gaplarda qanday bo‘laklar qatnashganligi aniqlandi, ularga tegishli belgilar qo‘yildi.

Namuna: 1. Men o‘qidim. Nima qildim? (o‘qidim) Kim? (men)

Topshiriq asosida o‘qituvchi o‘quvchilarga ega va kesimdan iborat gap sodda yig‘iq gap ekanligi haqida ma’lumot berdi. Ikkinchi topshiriq asosida esa yig‘iq gaplarni kengaytirish topshirildi. Sodda yig‘iq va sodda yoyiq gaplar farqi slayd orqali tushuntirildi:

Faqat ega va kesimdan iborat gap **sodda yig‘iq gaplar** hisoblandi,

Ikkinchi darajali bo‘laklar qatnashgan gaplar **sodda yoyiq** gaplar.

Quyidagicha edi. Berilgan uch topshiriqni namunani diqqat bilan o‘rganing. Topshiriqlarni o‘z misollaringiz asosida bajaring.

1-topshiriq. Yoyiq gap tuzing.

Namuna: O‘zbekistonda 21-martda Navro‘z bayrami shod-xurramlik bilan nishonlanadi.

2-topshiriq. Gapni aniqlovchili, to‘ldiruvchili, holli so‘z birikmalariga ajrating.

Namuna: 1) O‘zbekistonda nishonlanadi. (h.b.); 2) 21-martda (a.b.); 3) Navro‘z bayrami (a.b.); 4) bayrami nishonlanadi (ega-kesim); 5) shod-xurramlik bilan nishonlanadi. (h.b.)

3-topshiriq. Gap bo‘laklarining bir-biriga tobelanishini shartli belgilar bilan chizmada ko‘rsating.

Namuna: O‘zbekistonda (qayerda?) nishonlanadi.

21-(nechanchi?) martda nishonlanadi

bayram (nima?) nishonlanadi

Navro'z (qanday?) bayrami nishonlanadi

Shod-xurramlik bilan (qay tarzda?) nishonlanadi

O'quvchilar o'qituvchi rahbarligida guruhlarda o'z vazifalarini bajardilar.

170-mashq shartiga ko'ra o'quvchilar quyidagi savollarga javob berdilar:

1. Gapning qaysi bo'lagi boshqa biror bo'lakka tobelanmaydi?

2. Aniqlovchi kesim bilan bevosita bog'lanadimi yoki bilvositami (ya'ni boshqa bir bo'lak orqalimi)? Egaga-chi?

3. To'ldiruvchi va hollar qaysi bo'lakka tobelanadi?

So'ngra o'quvchilarga Azim Suyunning she'ri o'qib berildi. Guruhlarga quyidagicha topshiriq berildi: elektron doskadagi she'r matnidan gaplarni yig'iq va yoyiq gaplarga ajrating va she'riy parchani nasriy bayoni bilan taqqoslang.

Bahodirning qilichi sindi

Bahodirning qilichi sindi...

So'ngi nuqta. Tugadi ertak.

Pastak hovli chetida dilxun

Bir bola yig'laydi –

Qo'lida kitob.

Bahodirning qilichi sindi.

Bahodirning qilichi sindi.

Yovniki butun!

Qayga ketdi yaproqdek bola,

Bo'ta kabi qayda bo'zlaydi?

Uchib yurgan varaqlar, ana,

Shamollarga ertak so'zlaydi.

Bola qani?...Bilmayman, ammo,

Ishonaman, qaylardadir u

Bahodirga qilich izlaydi...

O'quvchilar she'r matnidagi gaplarni odatdagi tartibga keltirdilar va gap bo'laklarini aniqlab, sodda yig'iq va yoyiq gaplarni ajratib berdilar.

O'qituvchi guruhlarda she'r mazmuni haqida kichik bahs tashkil qildi.

Dars yakunida guruhlar to'plagan ballar hisoblandi va o'quvchilar baholanadi.

Darsimizda darslikda taqdim qilingan topshiriqlar va mashqlardan unumli foydalandik. Shuningdek, qo'shimcha manbalardan tarqatma materiallar hozirladik. She'riy parchalardan o'rganilgan mavzuga doir sintaktik hodisalarni aniqlatishga o'rgatish o'quvchilarning tanish va notanish vaziyatlarda bilim, malaka va ko'nikmalarini qo'llay olishga yo'naltirish uchun juda qulay vosita bo'la oldi.

Adabiyotlar

1. Ona tili: Umumta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik / M.Qodirov, H. Ne'matov, M. Abduraimova, R.Sayfullayeva. – T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi 2010. – 128 b.

2. Mo'minova D. Sodda yig'iq va sodda yoyiq gaplar.//Til va adabiyot ta'limi. 2015-yil 10-son.16-b.

ONA TILI TA'LIMI UCHUN AUDIODASTURLAR YARATISH VA FOYDALANISH TEXNOLOGIYALARI

Yuldasheva Sh. Sh. – p.f.n. Ilmiy rahbar

Gulmanova Qunduz Erimmatovna – O'zbek tili va adabiyoti bakalavr ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Til ta'limida autentik materiallarning ahamiyati asosan chet tillarni o'qitish misolida tadqiq qilingan. Ona tili ta'limida zamonaviy audio vositalaridan foydalanishning ilmiy-nazariy, metodik jihatlarida esa tadqiqotlardan chetda qolib ketmoqda. Vaholanki, ona tili ta'limida qo'shimcha vosita sifatida qo'llaniladigan audiodasturlar ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Buni 90-yillar oxirida Rossiyada o'tkazilgan tajriba-sinovlar misolida ham ko'rish mumkin [8]. Jumladan, I.A.Yegorovning „Интерактивный диктант“ maqolasida audiodasturlar yaratish bo'yicha barcha jarayonlarning batafsil bayoni bilan tanishish mumkin [6].

Maqolada XX asr oxirlarida internetdagi ta'limiy saytlardan Грамота.ру saytida joylashtirilgan on-line interaktiv diktantga alohida e'tibor qaratilib, sayt mualliflari g'oyasi qo'llab-quvvatlanadi [5]. Mazkur «Интерактивный диктант» o'rgatuvchi dasturini yaratish Borland Delphi 7.0 kompyuter dasturida amalga oshirilgan, dizayni Adobe Photoshop CS5 grafik muharririda bajarilgan.

Muallifning ta'kidlashicha, har yili rus tilidan barcha talabalar va o'quvchilar nazorat diktanlarini yozadilar, biroq ularni tekshirish jarayoni o'qituvchilar uchun nihoyatda mashaqqatlidir. Shuning uchun ham interaktiv diktantlar o'qituvchilarning mashaqqatli mehnatini yengillashtirishda alohida ahamiyatga egadir.

Rossiyada yaratilgan audiodasturlar va ular haqidagi tadqiqotlardan shuni aniqladikki, bunday dasturlarni yaratish uning loyihasini ishlab chiqishdan boshlanadi.

Murakkablik darajasiga ko'ra diktant matnlari tayyorlanadi, alohida fayllarda saqlanadi. Javoblar esa matn muharririda alohida fayllarda taqdim qilinadi. Barcha fayllar qobiq dasturda qulay interfeysda yig'iladi. Biroq dasturlash tillaridan bexabar bo'lgan kishi uchun bunday dasturni yaratish jarayoni nihoyatda murakkabdir. Fan o'qituvchilari muallifligida yaratiladigan audiodasturlar uchun nisbatan sodda instrumentlarni tavsiya qilish zarur. Bizningcha, interaktiv diktant audiodasturini yaratish uchun qulay va ancha oson hisoblanuvchi iSpring Suit instrumentidan foydalanish maqbuldir [4].

Mazkur instrument vositasida audiodasturlarni ishlab chiqishda ketma-ket amalga oshirilishi zarur bo'lgan jarayonlar bor:

1. Diktant matni tanlanadi. U matn muharririda tayyorlanadi.
2. iSpring Suitning Quezmaker blogidan foydalanishda dastlab ixtiyoriy til interfeysini yaratish imkoniyati mavjudligi uchun yozuvlar o'zbek tiliga tarjima qilinadi.
3. O'quvchi yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda “Kirish” va “Natija” slaydlarining dizayni ishlab chiqiladi, ya'ni bezak beriladi.

Audiodastur uchun bir necha turdagi diktantlarni yaratish imkoniyati bor: “Вопрос теста” qismidan „Вложенные ответы“, “Пропуски” (javob kiritish) va “Анкетный вопрос” qismidan esa “Ессе” bandlaridan foydalanib 3 xildagi diktant tayyorlash mumkin. Jumladan, biz 6-sinf uchun amaldagi “Ona tili” darsligida nazarda tutilgan nazorat ishlari uchun interaktiv diktantning “Tanlash” turi bo'yicha bir nechta matnlarga ovoz yozdirib audiodasturga joylashtirdik [1].

iSpring Suitning Quezmaker blogining “Вопрос” qismidan „Вложенные ответы” savol turi tanlanadi. “Вопрос с вложенными ответами” qismiga diktant talabi yoziladi. “Текст с пропусками” qismiga matn muharriridan nusxa ko‘chirish orqali diktant matni kiritiladi. Asosan, o‘quvchilar yozma ishlarida ko‘p xatolikka yo‘l qo‘yiladigan holatlar: a va o, i va u, o‘ va u unlilari; jarangli undoshlarning jarangsizlashishi, x va h, x va q, m va n kabi undoshlar; tutuq belgisi hamda tinish belgilarining ishlatilish o‘rinlarga e‘tibor bergan holda ro‘yxatlar tuziladi. Oynaning “Слайды” qismiga bir marta chertilib, uskunalar panelidagi “Дизайн”dan shrift turi va kegli belgilanadi.

4. Diktant matniga ovoz beriladi. Bu ikki usulda amalga oshiriladi. Dasturning o‘zida „Данные” qismi chertiladi, oynaning o‘ng tomonida “Звук” qismiga audio yozdiriladi yoki avvaldan yozdirilgan tayyor audio joylashtiriladi.


5. Keyin ushbu ketma-ketlik bajariladi: “Главная”, “Свойства”, “Настройке по умолчанию”dan kerakli bandlar belgilanadi. Barcha amallar bajarilgach, “Главная” bo‘limidagi “Просмотр” orqali natija ko‘riladi va “Публикация” bo‘limi chertilib, jarayon yakunlanadi, html faylga o‘zgartiriladi.

Tayyorlangan dasturning foydalanish ko‘rsatmasi quyidagicha:

1. Dasturga kirgan o‘quvchi dastlab „Boshlash” tugmasini chertadi.

Audiomaterialni tinglab o‘quvchi bo‘sh o‘rinlarga kerakli harf va belgilar (tinish belgilari) ni ro‘yxatdan tanlaydi:

1-rasm



Barcha javoblar belgilangach „Jo‘natish” tugmasi bosiladi.


Agar o‘quvchi tanlagan javoblar to‘g‘ri bo‘lsa, bu haqda o‘quvchiga xabar keladi. Agar tanlangan javoblar noto‘g‘i bo‘lsa, o‘quvchiga javob tanlashda asosan nimalarga e‘tibor berish kerakligi haqida yordam xabari keladi. Ikkinchi imkoniyatda ham o‘quvchi topshiriqni bajarolmasa, natija e‘lon qilinadi. Ushbu qismdan keyin o‘quvchi oynaning pastki qismidagi “Natijani ko‘rish” tugmasini chertish orqali qayerda xatolikka yo‘l qo‘yganligini bilib olishi mumkin.

”Ona tili” fani doirasida audiodasturlarni yaratish va undan foydalanish bo‘yicha metodik adabiyotlar respublikamizda yetarli darajada mavjud emas. Xorijiy

tajribalarni o'rganishdan ma'lum bo'ladiki, AKTni ta'lim tizimida foydalanish bo'yicha katta tajriba to'plangan. Tan olish kerak, audiomateriallarni tayyorlash va amaliyotda qo'llash borasida ta'lim tizimimiz 20 – 30 yil orqada. Ammo bu tafovutni qisqartirish mumkin. Shunisi muhimki, ona tili uchun yaratish va foydalanishda qulay, bir qator afzalliklarga ega bo'lgan audiodasturlar zamonaviy vositalar qatoridan joy olishi mumkin.

Rus tili bo'yicha "Интерактив диктанты" on-line foydalanish uchun mo'ljallangan:

2-rasm



Biz tavsiya qilayotgan audiodasturlarda esa of-line shug'ullanish imkoniyati bor. Shuningdek, bunday diktantlarni fan o'qituvchisining o'zi mustaqil ravishda, kompyuter muhandisi ishtirokisiz yarata oladi. Faqat mualliflik dasturlarining ayrimlari bilan yaqindan tanishish taqozo qilinadi.

ADABIYOTLAR

1. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Qodirov V. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. –T.: Ma'naviyat, 2013.
2. G'ulomov A., Qodirov M. Ona tili o'qitish metodikasi. – T.: O'qituvchi, 2012.
3. Nazirbayev A. Ta'lim-tarbiya jarayonida interaktiv texnik vositalardan foydalanish imkoniyatlari. Multimedia.uz.
4. www.ispring.ru.
5. <http://www.gramota.ru/class/coach/idictation/>
6. <https://www.scienceforum.ru/>
7. <http://onlinetestpad.com/ru/tests/russian/interactive-dictations>
<http://cyberleninka.ru/article/n/aktualnaya-metodika-interaktivnogo-obucheniya-russkomu-yazyku>

O‘QUVCHI PORTFOLIOSI VA UNING TIL TA’LIMI UCHUN AHAMIYATI

Karimova Sayyora Olimjon qizi – o‘zbek tili va adabiyoti bakalavr ta’lim
yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar – p.f.n. **Yuldasheva Shahlo Shukurlayevna**

“Portfolio” – tushunchasi XV – XVI asrlarda G‘arbiy Yevropadan kirib kelgan bo‘lib, uyg‘onish davrida arxitektorlar o‘z buyurtmachilariga qurilish loyihalarini tayyor va xomaki variantlarini "portfolio" deb nomlangan alohida papkada taqdim etishgan. Ushbu papkada taqdim etilgan hujjatlar talabgorda qurilish loyihasi haqida taassurot hosil qilgan. Hozirgi vaqtda esa biznes olamida portfolio firmaning yutuqlarini ko‘rsatish, fotosuratchi va fotomodellar sohasida esa suratlar albomi sifatida ishlatiladi.

Portfolioni ta’lim sohasida qo‘llash g‘oyasi, 80-yillarning o‘rtalarida AQSHda paydo bo‘lgan. AQSH va Kanadadan so‘ng portfolio g‘oyasi Yevropa va Yaponiyada ommalashgan, XXI asrning boshlarida esa bu g‘oya Rossiyada keng tarqala boshlagan va hozirgi kunda O‘zbekistonda ham keng yoyilmoqda.

Portfolio yaratilishiga qo‘yiladigan maxsus talablar ham mavjud. Yevropa kengashida “Yevropa tillar portfoliosi” Bolonya jarayoni yo‘nalishlariga muvofiq yaratiladi. Ko‘pgina xorijiy mamlakatlarda o‘qishga qabul qilishda talabgorning portfoliosi baholanadi.

Portfolio texnologiyasining ta’lim sohasidagi imkoniyatlari va undan foydalanish masalalari bo‘yicha rus pedagoglari tomonidan qator tadqiqotlar olib borilgan. Zachesova E.V., Karamzina A.G., Silnova S.V., Velikanova A.V., Peyp S.J., Choshanov M. kabi mutaxassislarning maqola va qo‘llanmalarida potrfolioni o‘quv materialini o‘zlashtirish va mustahkamlash vositasi sifatida foydalanish bo‘yicha tadqiqotlar natijalari bayon qilingan [1,2,3,4].

O‘zbekistonda portfolio texnologiyasi haqida 2000-yillardan buyon olib borilayotgan tadqiqotlarda R.Jo‘rayev, A.Zunnunov, B.Farberman, N.Sayidaxmedov, R.Ishmuxammedov, A.Abduqodirov, A.Pardayev, U.Tolipov, L.V.Golish, D.Fayzullayeva, M.Usmonboyevalar tomonidan zamonaviy va innovatsion ta’lim texnologiyalari qatorida asosan o‘qituvchi va talaba portfoliosining o‘ziga xosligi yoritib berilgan [5,6,7,8]. O‘quvchilar portfoliosini ta’lim samaradorligi omili sifatida tadqiq qilish bo‘yicha tadqiqotlar olib borish jarayoni endi faollashmoqda.

Portfolio texnologiyasi ta’lim jarayonida o‘quvchining shaxsiy natijalarini aks ettiruvchi ma’lumotlarni qayd etib borish imkonini beradi. U o‘quvchining barcha faoliyatini, ya’ni o‘quv, ijodiy, ijtimoiy, kommunikativ qobiliyatlarini qamrab oladi. Biroq u o‘quvchi ishlari to‘plangan oddiy papka emas.

Adabiyotlarda portfolio texnologiyasi bir qancha pedagogik vazifalarni hal qilishga yordam berishi ta’kidlanadi:

- 1) o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan ehtiyojini kuchaytiradi.
- 2) o‘quvchini o‘z oldiga maqsad qo‘yish, ishlarini rejalashtirish, mustaqil ta’lim olishni o‘zi tashkil qilishga undaydi.
- 3) faollik va mustaqilligini rag‘batlantirish, mustaqil ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish omili bo‘la oladi.
- 4) o‘quvchilarni o‘z-o‘zini baholashga, o‘zining ijobiy o‘sishlarini ko‘ra olish va aniqlay olishga o‘rgatadi.
- 5) kasb tanlashga yo‘naltiradi va kasbga tayyorlaydi.

Rossiya o'quvchilarining portfoliolarini o'rganib chiqish shuni ko'rsatdiki, bu texnologiya til o'qitish jarayonida til va adabiyot o'qituvchisining eng yaqin yordamchisiga aylanishi mumkin ekan. Chunki portfolioda joylashtiriladigan ma'lumotlar, hujjatlar asosan o'quvchining o'zi tomonidan tayyorlanadi, portfoliodan o'quvchining ijodiy ishlari o'rin oladi. Demak, o'quvchi ona tili va adabiyot o'qituvchilari bilan hamkorlikda ishlaydi, ma'lumotlarni tahrirlash uchun o'qituvchining rahbarligi zarur, shuningdek, yozma nutqdagi imloviy va punktuatsion xatolar, uslubiy xatolarni bartaraf qilish bo'yicha o'quvchiga o'qituvchilar tomonidan maslahatlar berilishi taqozo qilinadi. Albatta, o'qituvchining boshqaruvchilik faoliyati portfolioning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Shularni nazarda tutgan holda ona tili o'qituvchilariga portfolio yaratish bo'yicha ilmiy-nazariy va amaliy ko'rsatmalar tayyorlash alohida ahamiyat kasb etadi.

O'quvchi portfoliosida tarjimayi hol, psixologik tashxis, shaxsiy ma'lumotlar keltiriladi. Bu o'quvchining shaxsiy xarakterini baholashga yordam beradi. Bu qism orqali o'quvchi o'zining rejalari va qiziqishlariga ko'ra faoliyatini yil oxirida tahlil qiladi.

O'quvchining ijodiy fikrlashi, yozma hamda o'g'zaki nutqining rivojlanishida portfolio ona tili va adabiyot o'qituvchisi uchun ta'lim metodi bo'lishi mumkin. Boisi o'qituvchi rahbarligida o'quvchilar tasviriy, muhokama matnlarni, esse va insholarni yozib boradilar. Ular ham portfoliodan joy oladi.

Masalan, muhokama insho ijodiy ishning o'ziga xos turi bo'lib, u bolalardan qiyoslashni, ma'lum bir voqea-hodisaga baho berishni, o'z nuqtayi nazarini himoya qilishni, o'zining haqligini isbotlashni talab qiladi. Ijodiy ishning bu turi, ayniqsa, bugungi kunda o'quvchini ta'lim jarayonining ijodiy fikrlovchi faol ishtirokchisiga aylantirishga, bahs va munozaralar jarayonida o'zining haqligini himoya qilishga o'rgatishga qaratilgan.

Tavsifiy insholar ham muhokama inshoning bir ko'rinishi bo'lib, o'qilgan badiiy asar, ko'rilgan kinofilm qahramonlari haqida shaxsiy fikr-mulohazalarni bayon etish nazarda tutiladi.

O'quvchilarning ona tili va adabiyot fanlaridan muayyan mavzular bo'yicha adabiy, adabiy-ijodiy, erkin mavzudagi insholari, shuningdek aniq va tabiiy fanlardan ilmiy insholari, turli ko'rik-tanlovlar uchun yozgan yozma ishlari ("Yosh ijodkorlar", "Kamalak yulduzlari", "Bilimni buyuk, hunarni ulug' bil") portfolioga joylanadi. Insholarini tahrirlash jarayonida o'quvchi yozma nutqidagi imloviy va punktuatsion xatolar, uslubiy xatolarni bartaraf qilish bo'yicha o'quvchilarning mustaqil ishlari tashkil qilinadi.

Portfolioda ayniqsa tarjimayi hol yozilishi jarayoni juda muhim. Binobarin, o'quvchida qaysidir ish qog'ozini yozishga ehtiyoj paydo qilish tufayli rasmiy-idoraviy uslub bo'yicha ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga erishish borasida kutilgan natijaga erishish mumkin.

Portfolio bir vaqtning o'zida o'quvchining fanlarga bo'lgan qiziqishini uyg'otadi, shu bilan birga savodxonligini oshirishga xizmat qiladi. Shuning uchun portfolioni til ta'limida alohida metod sifatida qarash mumkin.

Demak, portfolioning asosiy vazifasi ta'lim jarayonida o'quvchining shaxsiy natijalarini aks ettiruvchi ma'lumotlarni qayd etib borish sanalsa, ya'ni o'quvchining barcha faoliyatini: o'quv, ijodiy, ijtimoiy, kommunikativ qobiliyatlarini qamrab olsa, portfolio yaratilishi jarayoni til ta'limi uchun alohida qimmatga egadir.

Portfolioning foydasi ota-onalar uchun ham beqiyos: boshlang'ich sinf o'quvchisining portfoliosini har bir ota-ona o'zi to'ldirib boradi. Bolasi haqidagi ma'lumotlarni: bolaning birinchi qadam qo'yishi, birinchi jilmayishi, birinchi aytgan so'zlari, birinchi sinfga qadam qo'yishi, olimpiada va tanlovlarda erishgan yutuqlari, bolaning qiziqishlari haqidagi ma'lumotlar portfolioni o'quvchining ikkinchi kundaligiga aylantiradi. Ota-onalarning savodxonligi ham farzandi portfoliosida namoyon bo'ladi. Demak, o'quvchi portfoliosi butun jamiyatga zarur bo'lgan muhim vositaga aylanadi.

ADABIYOTLAR

1. Зачесова Е.В. Образовательная технология "Портфолио" и возможность ее применения в обучении. <http://doob-054.narod.ru/portfolio.html>
2. Анастасия Геннадьевна Карамзина, Светлана Валерьевна Сильнова. Технология портфолио как метод усвоения и закрепления учебного материала ФГБОУ ВПО Уфимский государственный авиационный технический университет, <http://ugatu.ac.ru>; Cuberleninka.ru
3. Великанова А.В. и др. Технология развития критического мышления через чтение и письмо. Дебаты. Портфолио / Сер. «Компетентностно-ориентированный подход к образованию: образовательные технологии». Вып. 2. Самара: Профи, 2002. 92 с.
4. С. Дж. Пейп, М. Чошанов. Учебные портфолио – новая форма контроля и оценки достижений учащихся // Директор школы. 2000. № 1. С. 75–82. URL: <http://ecsocman.edu.ru/direktor/msg/177456.html>
5. Фарберман Б.Л., Мусина Р.Г. и др. Инструменты развития критического мышления. – Т.: Минвуз, 2002.
6. Ишмухамедов Р., Абдуқодиров А., Пардаев А. Таълимда инновацион технологиялар. – Т., 2008
7. Толипов Ў., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбиқий асослари. – Т., 2006.
8. Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O'quv uslubiy qo'llanma. Innovatsion ta'lim texnologiyasi seriyasi. – T.: "Iqtisodiyot" 2012.

TIL O'QITISHDA LOYIHALI TA'LIMNING AFZALLIKLARI

Yuldasheva Xurshida Farhod qizi – o'zbek tili va adabiyoti bakalavr ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar – p.f.n. Yuldasheva Shahlo Shukurlayevna

Amerikalik pedagog U.Kilpatrik XX asrning 20-yillarida J.Dyuining nazariyasini rivojlantirib loyiha metodini ishlab chiqqan bo'lib, bu metodning maqsadi shunday belgilanki, turli fanlar integratsiyasi vositasida amaliy topshiriq yoki muammoni yechish jarayonida o'quvchilarning mustaqil bilim olishlari taqozo qilingan. O'qituvchi esa koordinator, ekspert, qo'shimcha axborot manbasi vazifasini bajargan.

Rus pedagoglari E.S.Polat, N.M.Koptyug, M.E.Lukyanchikova, G.E.Mamukina, E.D.Paxmutova, O.A.Pobakova, A.A.Nemchenko, D.Ruskova, Y.Paxomova, N.Kocheturovalar tomonidan loyihali ta'limni amalga oshirish metodikasiga bag'ishlangan tadqiqotlar o'tkazilgan va loyihali ta'limning tuzilishi, bosqichlari, turlari, samaradorligi aniqlangan [1,2,3,4,5,6,7,8,9.].

O'zbekistonda loyihali ta'lim metodi bo'yicha 2005-yillardan buyon tadqiqotlar olib borilmoqda. R.Jo'rayev, A.Zunnunov, B.Farberman, N.Sayidaxmedov,

R.Ishmuxammedov, A.Abduqodirov, A.Pardayev, U.Tolipov, L.V.Golish, D.Fayzullayeva, M.Usmonboyeva, Sh.E.Toshturovlarning zamonaviy va innovatsion ta'lim texnologiyalari asoslariga bag'ishlangan ishlarida loyihali ta'limning o'ziga xosligi yoritib berilgan [10,11,12,13,14,15].

Adabiyotlardan ma'lum bo'ladiki, loyiha metodi bir necha bosqichlarda olib boriladi:

Tayyorlov bosqichi

a) loyiha mavzusi tanlanib, uning dolzarbligi, yechilishi kerak bo'lgan muammo shakllantiriladi;

b) loyiha maqsadi, predmeti, obyekti va vazifalari belgilab olinadi;

v) loyihalashtirish faoliyati turlari va yechilishi lozim bo'lgan topshiriqlar tayyorlanib, ularni yechish usul va vositalari tanlanadi;

g) o'quvchilar loyiha mavzusiga doir adabiyotlar va axborot manbalari bilan tanishtiriladi.

O'quv faoliyatini rejalashtirish bosqichi.

a) maqsadga erishish ketma-ketligi ishlab chiqiladi;

b) ish rejasi tuziladi (loyihani ishlab chiqish, rasmiylashtirish, uni taqdimotga tayyorlash, hisobotni tuzish bo'yicha topshiriqlarni ishtirokchilar o'rtasida taqsimlash, ularni bajarish va tayyor holatga keltirish muddati belgilanadi).

Loyihani bajarish bosqichi

a) kerakli ma'lumotlar to'planib, tizimga keltiriladi va tahlil qilinadi;

b) tadqiqot natijalari rasmiylashtiriladi (tayyor holatga keltiriladi);

v) yo'riqnomaga muvofiq loyiha faoliyati to'g'risida hisobot tayyorlanadi.

Loyiha metodi XX asrning 80-yillaridan til ta'limida faol qo'llanila boshlangan. Ana shu vaqtdan boshlab AQSH va Yevropaning taniqli nashriyotlari chet tillarni o'qitish jarayonida loyiha metodidan foydalanish bo'yicha metodik qo'llanmalarni nashr qilib kelmoqdalar. O'qituvchilar uchun eng mashhur resurs – D.L.Fried-Booth "Project Work" (OUP, 1986) qayta nashrga tayyorlanishi kutilmoqda [9].

Ishimizda xorijiy adabiyotlarga va respublikamizda erishilgan tajribalarga tayanib ona tili fanidagi ba'zi mavzularni, xususan, o'quvchilar egallashi qiyin bo'lgan mavzularni oson hamda qiziqib o'rganishlari uchun yordam berishda loyihali ta'lim texnologiyasini qo'llash mumkin bo'lgan ayrim mavzularni aniqlashtirishga harakat qildik.

5-sinf "Ona tili" darsligida "Eskirgan so'zlar"ni o'rganish uchun alohida soat ajratilgan. O'quvchilarning bu mavzuni loyiha metodi orqali o'rganishlari ijobiy samara berishi mumkin. Albatta, eskirgan so'zlarni darslikda berilgan nazariy ma'lumot va mashq-topshiriqlar orqali o'rganish ham mumkin. Biroq 5-sinf "Adabiyot" darsligida keltirilgan adabiyot namunalari, shuningdek, "Tarixdan hikoyalar" darsligidan o'rin olgan matnlar tarkibida qo'llangan eskirgan so'zlarni mustaqil aniqlatish va ularni lug'at shakliga keltirish, shu so'zlarga mos rasmlar tanlash yoki qo'lda mustaqil chizish orqali mavzuning o'quvchi xotirasida uzoq saqlanishiga erishish mumkin.

Guruhlarga eskirgan so'zlarga mos narsa va harakat-holatlarni ifodalovchi suratlarini chizish yoki internet va gazeta-jurnalladan rasmlarini izlab topish vazifa qilib beriladi, o'quvchilar "Tushunchalar tahlili" metodi bo'yicha to'plangan ma'lumotlarni joyalashtirib, rasmlar bilan bezatib taqdimot qilishga tayyorlanadilar.

“TUSHUNCHALAR TAHLILI” METODI

Usturlob	
Handasa	
Qiroatxona	
Qozi	
Mirshab	

8-sinf “Ona tili” darsligida “So‘z birikmasi sintaksisi” bobi bo‘yicha o‘quvchilar bilimini mustahkamlash maqsadida ularga loyiha ishi taqdim qilinishi mumkin. Mazkur bobda so‘z birikmasi va so‘z, so‘z birkmasi va qo‘shma so‘z, so‘z birikmasi va turg‘un birikmalar, ularning farqlari haqida ma‘lumot keltirilgan. Aksariyat o‘quvchilar bu hodisalarni chalkashtiradilar. Shuning uchun bu masalani loyiha metodi yirdamida o‘rganish yaxshi samara berishi mumkin.

Sinfni 3 ta kichik guruhga ajratib, loyihani amalga oshirishning tayyorgarlik bosqichida guruhlariga quyidagi mavzular taklif qilinadi:

“So‘z birikmasi va so‘zning o‘xshash va farqli jihatlari”;

“So‘z birikmasi va qo‘shma so‘zning o‘xshash va farqli jihatlari”;

“So‘z birikmasi va turg‘un birikmaning o‘xshash va farqli jihatlari”.

Loyihaning keyingi bosqichlarida ishlarni rejalashtirish va natijani taqdimot qilishga doir topshiriqlarni bajarish jarayonida o‘quvchilar bir-birlarini sintaktik va morfologik hodisalarni farqlashga o‘rgatadilar.

Til ta‘limida loyiha metodini qo‘llash qator afzalliklarga ega bo‘ladi, chunki o‘quvchilar ishni rejalashtirishda, tashkillashtirishda, nazoratda, tahlil qilish va vazifani bajarish natijalarini baholashda ishtirok etadilar.

Loyihali o‘qitishda nafaqat natijalar, balki jarayonning o‘zi ham qimmatlidir. Loyihaning barcha bosqichlarini bajarish jarayonida: fikrning tug‘ilishidan to natijalarning taqdimotigacha o‘quvchilar tajriba orttiradilar; ularda eng muhim o‘quv ko‘nikma va malakalarni (tadqiqotchilik, baholash, mustaqil fikrlash, mustaqil qarorlar chiqarish, taqdimot qilish) shakllantirish to‘la boshqariladigan jarayonga aylanadi.

ADABIYOTLAR

1. Полат Е.С. Метод проектов на уроках иностранного языка // Иностранные языки в школе. 2000. № 2, 3.
2. Коптюг Н.М. Интернет-проект как дополнительный источник мотивации учащихся // Иностранные языки в школе. - 2003. - №3.
3. Лукьянчикова М.Е. Опыт литературного e-mail проекта // Иностранные языки в школе. - 2003 - № 1.;
4. Мамукина Г.Е. Создание мультимедийного проекта на немецком языке в средней школе // Иностранные языки в школе. - №4. - 2001.
5. Пахмутова Е.Д. E-mail-проект как средство межкультурного обучения немецкому языку в сети Интернет // Материалы всероссийской конференции "Интернет. Общество. Личность". - СПб, 2000. <http://iol.spb.osi.ru>
6. Побоква О.А.. Немченко А.А. Новые технологии в обучении языку: проектная работа // Новые возможности общения: достижения лингвистики, технологии и методики преподавания языков. - Иркутск, 2003.
7. Рускова Д. Использование проектного метода при обучении русскому языку с целью соединения учебы с практикой и повышения мотивации учащихся // Русское

слово в мировой культуре. Материалы X конгресса МАПРЯЛ. Направление IV. Методика преподавания русского языка: традиции и перспективы. - СПб., 2003.

8. Поливанова К. // Проектная деятельность школьников: пособие для учителя. М.: Просвещение, 2011.

9. Кочетунова Н. Метод проектов в обучении языку: теория и практика. Мастер-класс. Новосибирский государственный технический университет. 2017.

10. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: “O‘qituvchi”, 2004.

11. Фарберман Б.Л., Мусина Р.Г. и др. Инструменты развития критического мышления. – Т.: Минвуз, 2002.

12. Ишмухамедов Р., Абдукодиров А., Пардаев А. Таълимда инновацион технологиялар. – Т., 2008

13. Толипов Ў., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбикий асослари. – Т., 2006.

14. Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O‘quv uslubiy qo‘llanma. Innovatsion ta’lim texnologiyasi seriyasi. – T.: “Iqtisodiyot” 2012.

15. Toshturov Sh.E. “Tarix o‘qitish jarayonini loyihalash” fanidan amaliy mashg‘ulotlar. – Navoiy. 2015.

TIL TA'LIMI UCHUN O'RGATUVCHI DASTURLAR

Davletova Muhabbat – O‘zbek tili va adabiyoti bakalavr ta’lim yo‘nalishi

1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar – p.f.n. Yuldasheva Shahlo Shukurlayevna

O‘rgatuvchi dasturlar o‘quv materialini o‘zlashtirish jarayonida o‘quvchilarning faoliyatini boshqaruvchi amaliy dasturlardir. Muayyan bir fan materiallarini o‘zlashtirish jarayonida kompyuter texnologiyalari yordamida foydalanish uchun yaratiladi. O‘quv materiallari bosqichma-bosqich, mashq va topshiriqlar ketma-ketlikda taqdim qilinadi, javoblarning to‘g‘ri-noto‘g‘riligi tasdiqlanadi, yo‘l qo‘yilgan xatolar displeyda aks etadi, o‘quvchilarning o‘zlashtirishi nazorat qilinadi va baholanadi.

Internetda rus tilidan **“Фпаза”** deb nomlangan o‘rgatuvchi dastur-trenajer mavjud [1]. **“Фпаза”** o‘ziga xos elektron repititor hisoblanadi. U 2006-yilda tajribali rus tili o‘qituvchilari, metodistlar va psixologlar tomonidan yaratilgan. Interfeys faqat rus tilida [2]. **“Фпаза”**da Rossiya umumiy o‘rta ta’lim maktablarining rus tili ta’limi uchun 4000 ga yaqin topshiriqlar o‘rin olgan.

Shuningdek, 1000 ga yaqin topshiriq maktab bitiruv imtihonlari va oliy ta’limga qabul imtihonlari uchun tayyorlangan. Saytdan olingan ma’lumotlarga ko‘ra, bu dastur yordamida qisqa muddatda o‘quvchilarda yozma savodxonlik oshadi, “ikki”lar “uch”ga aylanadi. O‘quvchilar imlo va punktuatsiya qoidalarini o‘rganish va takrorlash, bo‘shliqlarni to‘ldirish, bilimlarini tekshirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu repititor o‘quvchining har bir qadamini tekshirib boradi, xatolarni bir lahzada ko‘rsatib beradi va agar o‘quvchi qiyin vaziyatlarga duch kelsa, ekranda qoida va unga mos misollar, istisno holatlar paydo bo‘ladi, bu bilan o‘quvchiga o‘z xatosini to‘g‘rilash imkonini beradi, ko‘rish orqali imloni eslab qolishga yordam beradi, ish oxirida esa natijani ko‘rsatadi, baholaydi, o‘zlashtirish statistikasini taqdim qiladi.

Bu dasturning Windowsga mo‘ljallangan yangi versiyasi o‘z ichiga 500 ta qo‘shimcha mashq va topshiriqlarni jamlagan. Shuningdek, dasturdan foydalanish yuzasidan ko‘rsatma, rus tili qoidalarining katologi va qisqacha imlo lug‘atini o‘z

ichiga oladi. Windows 95/98/2000; Pentium 120 MGs va undan yuqori, 16 Mb operativ xotira, ekran 800x600 bo'lishini taqozo qiladi.

Yuqori sinf o'quvchilari va abituriyentlar uchun rus tilidan "Repititor-diktant" kompyuter trenajeri [3] ham qator afzalliklarga ega. U matnlarni xuddi haqiqiy o'qituvchi kabi diktovka qiladi va tekshiradi. Shuningdek, har bir diktantdan keyin xatolar ustida ishlash mumkin. Bu jarayonda dastur qaysi so'zda xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa, shu so'z ishtirokida jumlar taqdim qiladi yoki yozilishi qiyin bo'lgan so'z va qisqa jumlar qatnashgan grammatik diktantlarni diktovka qiladi. Fayl formati: iso

<http://www.twirpx.com> saytida maktab sintaksisi va punktuatsiyasi bo'yicha qoidalar jamlangan o'rgatuvchi dastur joylashtirilgan. Bu dastur maktab o'quvchilari, abituriyentlar va og'zaki hamda yozma savodxonligini oshirmoqchi bo'lgan barcha yoshdagi qiziquvchilar uchun mo'ljallangan.

Bu dastur televizion repititor hisoblanadi, uning yordamida qiyin mavzularni chuqurroq o'rganish, imtihonlarga tayyorlanish mumkin. Dastur ikki qismdan iborat.

Rossiyaning qator ta'limiy saytlarida ham o'rgatuvchi dasturlar joylashtirilgan. Shuni alohida ta'kidlash zarurki, bu dasturlarning aksariyati to'lovni amalga oshirish orqali yuklab olinadi [5]. Aksariyat o'rgatuvchi dasturlardan on-line foydalanish mumkin.

Til ta'limida jahonda foydalanilayotgan kompyuter texnologiyalari bilan tanishgach, ularning ijobiy jihatlarini, sinalgan usullarni o'zbek tilini o'qitish jarayoniga tatbiq qilish nihoyatda kechiktirib bo'lmaydigan vazifalardan biri deb hisobladik.

O'zbek tilini ona tili sifatida, davlat tili sifatida o'qitishda fan o'qituvchilari, metodistlar, talaba va magistrantlar jahon tajribalariga tayanib quyidagi ta'lim vositalarini yaratishni jadallashtirishlari taqozo qilinadi:

1. O'quv materiallari bosqichma-bosqich, mashq va topshiriqlar ketma-ketlikda taqdim qilinadigan o'rgatuvchi dasturlar.

2. Imlo va punktuatsiya qoidalarini mustahkamlashga yordam beruvchi elektron repititorlar.



3. Maktab sintaksisi va punktuatsiyasi bo'yicha qoidalar jamlangan o'rgatuvchi dasturlar.

4. O'zbek tili imlo qoidalarining katologi va qisqacha elektron imlo lug'ati.

5. Har bir sinf uchun mo'ljallangan o'zbek tilidan "Repititor-diktant" yoki interaktiv diktantlar.

6. Test dasturlari.

7. Boshlang'ich sinflar uchun o'zbek tilidan elektron jadvallar.

8. 5-9-sinflar uchun o'zbek tilidan elektron-o'quv jadvallar.

9. O'zbek tilining elektron izohli lug'ati

10. O'rgatuvchi audiodasturlar.

Bunday dastrularning yaratilishi nafaqat umumta'lim maktablari va boshqa ta'lim bosqichlari uchun, balki kadrlar savodxonligi bo'yicha (masalan, ichki ishlar xodimlari) o'tkazilayotgan nazorat diktantlariga hozirlik ko'rishda ham foydalanishda qator qulayliklar yaratishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. http://polytechnic_dictionary.academic.ru
2. http://www.detkiuch.ru/load/fajly/uroki_russkogo_jazyka/fraza
3. http://www.detkiuch.ru/load/fajly/uroki_russkogo_jazyka
4. <http://www.twirpx.com>
5. <http://festival.1september.ru> ba www.dealeducation.ru

HOZIRGI O‘ZBEK TILINING LEKSIK QATLAMIDA ARAB TILIDAN O‘ZLASHGAN “A” HARFI BILAN BOSHLANUVCHI SO‘ZLARNING QO‘LLANILISHI

I.Davlatmurodov - NDPI o‘qituvchisi

D. Husainova - NDPI 1-kurs talabasi

O‘zbek tilining leksik tarkibida bugungi kunda ham faol qo‘llanilib kelayotgan arabcha o‘zlashmalar uzoq asrlik tarixga ega. O‘zbek tilidagi boy adabiy va ma’naviy merosimizni to‘laqonli o‘rganish, tushunish uchun ham arabcha o‘z- lashmalarining asl ma’nosini bilish muhim ahamiyatga ega. Shu bois biz o‘z tadqiqotimizni tilimizda faol qo‘llaniladigan arabcha o‘zlashmalarni alifbo tartibida o‘rganishga qaratamiz.

1.Adolat – Odillik. Odilona ish tutish. Ijtimoiy-falsafiy, ahloqiy va huquqiy tushuncha. Siyosiy xatti – harakatlar, huquq va burch me’yorlari, axloqiy munosabatlar, mehnat va taqdirlanish, jinoyat va jazo, xizmat va uni tan olish, qadr-qimmatni e’tirof qilish mazkur tushuncha orqali baholanadi.

Mahalla yo‘li – ezigulik himmat va adolat yo‘lidir. (Gazetadan)

Adolatning huquqiy tomoni qonunlarga rioya etishni, siyosiy tomoni esa davlatni adolat qoidlari asosida boshqarishni anglatadi.(Jurnaldan.)

2.Alayhissalom - unga tinchlik va omonlik. Payg‘ambarlar nomiga qo‘shib aytiladi: Muhammad alayhissalom.

Tarixda, ya’ni Odam alayhissalom zamonidan to shu kungacha uch odil podsho bo‘lgan.(Oybek, Tanlangan asarlar.)

Shu kuni Jabroil alayhissalom boshchiligidagi farishtalar zaminga tushadilar.(Gazetadan.)

Muso alayhissalom undan: “ Nima gunoh qilding ?” deb so‘ragan edi. (Hadisdan.)

3.Azim – Ulug‘, buyuk, katta. Ko‘rinish, tuzilish e’tibori bilan g‘oyat katta, ulkan.

Azim terak. Azim tog‘lar. Azim daryo. Shahri azim. Eski Juvada azim bir jamoa yig‘ib, Azizbek bilan bo‘lgan mojarosini so‘zladi.(A. Qodiriy, O‘tgan kunlar.)

Iymon azim daraxtdir xo‘b, Yaproq‘idan mevasi ko‘p.(Gazetadan)

4.Ayyor- mug‘ambir; yalangayoq, bekorchi. Odatda bu atama o‘zbek xalq ertaklarida tulkiga nisbatan ishlatiladi. Ilonning yog‘ini yalagan iborasi ayyor so‘ziga sinonim bo‘la oladi.

Ovchi qancha ayyor bo‘lmasin tulki undan ham o‘tgan ayyor edi.(Xalq ertaklaridan.) Nasabnoma tarhini ko‘rmagan nigohli ayyor qo‘l noto‘g‘ri idrok qildi.(Abdulazizxon Akramov “ Jallodlik falsafasi”)

5.Avliyo – valilar 1.Din. Valilar, e’tiqodli, dindor kishilar; aziz, muqaddas, Ollohga yaqin kishilar; Ruhoniylar. Xoja Bahouddin Naqshbandning Buxoroda avliyo sifatida shuhrat topishida bir voqea sabab bo‘lgan ekan. (Gazetadan)

Karomat, bashorat qila oladigan, mo'jizalar ko'rsata oladigan odam. Men shunday avliyomanki, agar tosh yoki daraxtni chaqirsam, oldimga darrov keladi. (Latifalar) Tantiboyvachcha olazarak bo'lib, yelkasini qisdi va yerga qarab dedi: - Biz avliyomizmi? Qayerda ekanini aytish juda mushkul. (Oybek "Tanlangan asarlar")

Ulug', zo'r fahmlovchi odam yoki narsa. Nima, zveno bo'lib, avliyo bo'ptimi? Xotin kishi esa ojiza, avliyosi ham hasaddan xoli emas. (F. Musajonov "Himmat")

Ariza – arznoma; iltimosnoma. Muayyann muassasa yoki mansabdor shaxs nomiga yozilgan iltimos, taklif, shikoyat mazmunidagi rasmiy hujjat.

Ariza bermoq, Ariza yozmoq, Ariza tashlamoq.

Ammo to'lov bekor qilingandan so'ng, qayta ariza topshirishga yo'l qo'yilmaydi. (E'londan.)

6. Alqissa – tarix; hikoya. Shunday qilib, xullas kalom; qisqasi, xullas.

Alqissa, to'y to'g'risida volida birlan maslahatlashib... (A. Qodiriy "G'irvonlik Mallavoy.") "Novator o'qituvchi", o'zining yaxlit pedagogik vosita va usullari mavjudligi bilan ajralib turishi kerak. Alqissa, bolalar o'yin va to'polonga bu yoshda nihoyatda o'ch bo'lishadi. (A. Xoliqov "Pedagogik mahorat.")

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamida arab tilidan o'zlashgan so'zlar anchayindir hamda ulardan jonli nutqimizda faol foydalanamiz. Yuqorida arab tilidan o'zlashgan "a" harfi bilan boshlanuvchi so'zlarning ba'zilarini tahlil qilib o'tdik.

Arab tilidan o'zlashgan so'zlardan nafaqat hozirgi o'zbek adabiy tilida balki, eski o'zbek adabiy tilida ham foydalanilgan. Xususan, Sakkokiy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Turdi, Maxmur, Gulxaniy singari ijodkorlar asarlarida arab tilidan o'zlashgan so'zlarning qo'llanish o'rinlari nihoyatda ko'pdir.

Hozirgi kunda ham arab tilidan o'zlashgan so'zlar chetdan kirib kelayotgan va yangi qatlamni tashkil qilayotgan so'zlar bilan bir qatorda qo'llanilyapti hamda o'z ahamiyatini saqlab qolgan.

ADABIYOTLAR

1. "O'zbek tilining izohli lug'ati". I tom. Toshkent - 2006 yil
2. Xoliqov "Pedagogik mahorat" o'quv qo'llanma
3. F. Musajonov "Himmat" didaktik nasihatnoma

BOBURNING SO'Z QO'LLASH MAHORATI

I. Davlatmurodov -NDPI o'qituvchisi

M. Axmadova – NDPI I kurs talabasi

Har bir xalqning tarixiy, madaniy, milliy qiyofalarini aniq belgilovchi ulug' shohlari, buyuk olimlari, yirik adib va shoirlari bo'ladi.

Insoniyatning abadiyatga mansub ana shunday buyuk farzandlari safida Zahiriddin Muhammad Bobur ham o'z o'rniga ega kishilik tarixida Boburchalik shaxsiy imkon, iqtidor va fazilatlarini beqiyos kishilar juda kam uchraydi.

Insonning axloqiy jihatdan shakllantirishda uning ichki olamini go'zallashtirish, his-tuyg'ularini tarbiyalashda adabiyot ta'limi, ayniqsa mumtoz adabiyot namunalari alohida mavqega ega. Buni buyuk shoh va shoir Boburning ijodida ham sezishimiz mumkin.

Z.M Bobur shoh va shoir, tengsiz siymodir. U nafaqat mamlakatni adolatli boshqargan balki benazir ijod namunalari bilan adabiyotga katta hissa qo'shgan.

Bobur g'azallarini kuzatganimizda uchta mavzu yaqqol ko'zga tashlandi. Bular Allohga bo'lgan ishq, yurt ishq va yor ishq.

Alloh taolo ayolni mo'tabar jins vakili qilib yaratgan. U haqida juda ko'plab ijodkorlar ash'orlar bitishgan. Shu jumladan, Zahiriddin Muhammad Boburning ushbu g'azalida ham ayolning naqadar go'zal hilqat ekanligini ko'rishimiz mumkun.

Yana ko'z uyida ma'vo qilibsen,

Ko'ngil koshonasida jo qilibsen

Ayol shunday go'zal hilqatki, uni ko'rganda ko'z quvonadi, ko'z ilg'agan joy esa janatday ko'rinadi va ko'ngil to'rining malikasiga aylanadi."Ko'z uyida" so'zini Bobur ko'chma ma'noda qo'llaydi. Leksik jihatdan ko'zning uyi bo'lmaydi, metafora usulida ma'no ko'chish qo'llangan."Ma'vo" so'zi arabcha so'z bo'lib manzil, turarjoy, boshpana, ma'kon degan ma'nolarda keladi. Bobur ko'z uyida ma'vo qilibsen deb ko'zining uyida makon qilibsen demoqchi.

Yana sovdon Zulfungdin, nigoro,

Meni oshiftau shaydo qilibsen.

Zulfingni takror ko'rib hayollarim sen tomon parishon bo'ldi, meni o'zingga oshiq aylading, senga shaydo qilibsen deydi Bobur oshiqning nihoyatda telbalarcha suyishni nazarda tutyapti."Oshifta" so'zi forscha so'z bo'lib xayron, lol bo'lib qolgan, hijolatda qolgan oshiq, maftun bo'lib qolgan shaydo degan ma'nolarni bildiradi.

G'aming yo'q, jon agar bersam g'amingda,

O'zingni muncha beparvo qilibsen.

Bu dunyoda seni g'aming yo'q. Chunki g'amlaringni o'zim olganman. Seni g'amingda jon fido qilsam ham shunda ham menga beparvosan, oshiqni istiroblarini shunday tasvirlaydi Bobur.

Qoshingdin meni o'zdek toshlar uchun,

Yangi oydek qoshingni yo qilibsen.

Bobur yorning qoshini yangi chiqqan oyga, ya'ni kamon qilib tasvirlayapti, unga o'qdek qilib joylabsan deydi. O'zini toshlarga qiyoslab, yorning qoshini yoyga, yoriga o'zini nishon deb sifatlaydi.

Ko'zimdin yoshunib, ey bahri altof,

Ko'zumning yoshini daryo qilibsen.

Ko'zimning nuriga aylanib, ko'z yoshimni daryo qilding deb Bobur ko'z yoshini daryo qilganligini metafora usulidan foydalangan. Bundan tashqari, "Bahr" so'zi ko'chma ma'noda qo'llangan. "Bahr" so'zi arabcha so'z bo'lib ulkan daryo, dengiz degan ma'nolari bor. Bahr so'zi ko'chma ma'nolarda to'fon, tug'yon, dunyo, olam, tengsiz va ishq muhabbat kabilari uchraydi.

Sog'inmas jannatul-ma'voni Bobur,

Aning ko'nglida to ma'vo qilibsen.

Bobur hech qachon jannatni sog'inmaydi, chunki uning qalbida jannatmakoni bor. Yoriga muhabbati, uning ko'nglidagi jannati deb tasvirlanyapti. "Jannatul" so'zi arabcha so'z bo'lib begunohlar, farishtalar, hurlar, taqvodorlar yashaydigan u dunyodagi makon, behishtdir.

Bobur o'z g'azallarida nafaqat Ollohga bo'lgan ishq, balkim yorga va ona tuprog'iga, Vataniga bo'lgan muhabbat tantana qiladi. U g'azallarida yetuk so'z qo'llash san'atidan mukammal foydalangan. Xulosa qilib aytish mumkinki, Z.M. Bobur yetuk davlat arbobi, adolatli shoh va sarkarda bo'lishi bilan birgalikda, adabiyot, she'riyat shaydosi, ilohiy ishq bilan Ollohga bo'lgan muhabbatni

uyg'unligini kitobxonga yetkazib bera olgan. Bobur so'zlardan mohirona foydalanib uni san'at darajasiga ko'tara olgan benazir shoirdir.

ADABIYOTLAR:

1. "O'zbek tilining izohli lug'ati" Toshkent 2006-yil
2. Z.M. Bobur "Topmadim" g'azallar to'plami Toshkent 2009-yil
3. M. Abdullayeva "Boburnoma" va "Shajarayi turk"ning qiyosiy poetikasi. Toshkent 2002-yil
4. R.J. Vohidov va H.P. Eshonqulov "O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi" Toshkent 2006-yil

ALISHER NAVOIYNING "MUNSHAOT" ASARIDA UMUMXALQ TILI LEKSEMALARIDAN FOYDALANISHI

A.Xasanova – O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 2-kurs talabasi.

S.Jalilov – O'zbek tili kafedrasida katta o'qituvchisi

Necha asrlardan beri badiiy so'z shaydolarini o'z iste'dodi, buyuk asarlari bilan hayratga solib kelayotgan ulug' daho – Alisher Navoiy asarlari o'zbek va jahon adabiyoti xazinasiga qo'shgan ulkan noyob durdona asarlari bilan munosib hissa qo'shgan.

Til bilan bog'liq masalalarni hal qilishda turli davrlarda yaratilgan asarlar tilini o'rganish doimo dolzarbdir. Navoiyning turkiy til, xususan, o'zbek tili ravnaqi uchun qilgan sa'y-harakati muhim ahamiyatga egadir. Bu buyuk daho o'zining asarlari bilan o'zbek tilining lug'at boyligini nafaqat nazmda, balki nasrda ham yana bir bor isbotlab berdi. Zero, u asarlarida 26mingdan ko'proq so'zni qo'llagani buning yorqin ifodasidir.

Navoiyning nasriy asarlari nafaqat tarixga oid masalalar, balki adabiyotshunoslik, tilshunoslik, falsafa va axloqqa oid masalalar mavjuddir. O'zining lirik va boy ilmiy merosi bilan bir qatorda Alisher Navoiy davlat hujjatlarini va xatlarni turkiy(o'zbek) tilida yozib ona tilining serjilo qirralarini namoyon qila oldi. Xususan, uning "Munshaot" asari 20 jildlik asarlarining 14-jildiga kiritilgan. Asar muqaddima va 103 qismdan iborat bo'lib, 1498-1499-yillarda yozilgan. Asardagi maktublar mazmuni xalqparvarlik va tinchliksevarlik g'oyalariga asoslanib, mamlakat va xalq manfaatlarini himoya qila bilishdir. Asarda Navoiy hayotiga oid ma'lumotlar, ijodiy namunalar, turli mavzularga, xususan, axloqqa oid muallifning o'y-fikrlari va mulohazalari o'rin olgan.

Alisher Navoiy «Munshaot» asarini yozishda xalq tili, kundalik hayotda faol qo'llanadigan, barchaga tushunarli bo'lgan so'zlashuv nutqi leksikasidan unumli foydalangan. Asarda Navoiy maktubot uslubining o'ziga xos namunalarini yaratgan. Navoiy imkoniyat boricha, turkiy (o'zbek tili) leksikasining xalq orasida so'zlashuv nutqiga xos ko'rinishlarini ko'proq ishlatishga harakat qilgan. Har bir maktubning mazmun-mohiyati, uning asosiy maqsadi, fikr-mulohaza nimadan iboratligiga qarab, soha tili unsurlaridan foydalangan. Masalan, 13-maktubda Navoiyning mulozimlaridan biri bo'lgan Mavlono G'iyosiddin Jaloliy bilan yozishmasi o'rin olgan. Unda:

**Ul nishonkim, keldi shahdin tanda jon bo'ldi, manga,
O'lmish erdikim, tiriklikdin nishon bo'ldi, manga.**

Ushbu baytda hammaga tushunarli bo'lgan va keng qo'llaniladigan so'zlar ishlatilgan: nishon, keldi, shoh, tan, jon, man(men), o'lmoq, tirik, bo'ldi.

Navoiy xatlarda, ularning tili va uslubining sodda, ravonligiga e'tibor beradi. Maktublarning aksariyatida jumla va gaplar so'zlashuv nutqi tarzida tuzilgan. Hozirgi o'zbek tilida maktublar ko'pincha tartib sonli gaplar bilan boshlanadi, Navoiy maktublarida kirish iboralarga ko'p murojaat etilgan. Navoiy turkiy tilda maktub yozish an'anasini boshlab berar ekan, arz qiluvchi o'ziga kerak bo'ladigan, muammolarinni hal qilib beradigan shaxsga muvofiq so'zlar topib aytadi, asosiy maqsadga o'tishdan oldin yuqoridagi kabi bayt, kirish so'z va so'z birikmalarini qo'llaydi. Bunday uslubda maktublar yozish an'anasi "Munshaot"ning o'ziga xos bir tartibi va muayyan bir qolipi hisoblanadi. Misol uchun:

**Xazoni hajr aro qoldim yiroq bahorimdin,
Yururmen itdek ulub ayr-u shahriyorimdin,
Istaram Luqmon kibi kasb aylasam parrandalik,
To etib ul ostong'a zohir etsam bandalik.**

Qulluq duodin so'ngra arzadosht ulkim luqmon keldi, inoyatlarkim, soyir qullarga'a voqe' bo'lub erdi- yetkurdi. Barchalarning boshi ko'kka yetib, Mirzoning davlatlarining duosini bajo kelturdilar. Mundag'i soyir holatni arzadosht qilib yiborg'on uchun muqarrar bitilmadi.

Yom otlari bila yomxonalar ishi buzukdur, ul bobda qullar tobug'ida so'z arz qililibdur. Arzadosht qilsalar umid uldirki, mustahsan tushgay, deb qulluq, arzadosht bitildi.(63-qism)

O'sha davr adabiyotlarida arab tilidan o'zlashgan so'zlar aralash holda qo'llanib kelinganligi davr tili leksikasida yoqqol ko'zga tashlanadi. Navoiy arabcha so'zlarni xalq tilida fonetik jihatdan moslashtirilib qo'llab boshlagan. Arabcha so'zlarning qorishiq holda grammatik jihatdan moslashishi, eski o'zbek tiliga bo'ysundirilishi «Munshaot» tili leksikasida ham o'ziga xosdir.

Xullas, Alisher Navoiy ona tili rivojiga xalq orasida yurib, xalq bilan yuzmayuz, bevosita maktublar orqali muloqotda bo'lib, adabiy til leksikasi normasiga kiritgan.

ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch. Toshkent, "Ma'naviyat", 2008.
2. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi- 3-jild. Davlat ilmiy nashriyoti.Toshkent-2000.
3. Alisher Navoiy.Munshaot. Tanlangan asarlar 14-jild.

**QO'SHMA GAPLARNI YANGICHA YO'NALISHDA
O'RGANISHNING SAMARALI USULLARI**

S. Jalilov - Nukus DPI katta o'qituvchisi

Sh. Ibodullayev - Nukus DPI talabasi

Ma'lumki, yangilangan ona tili ta'limining mazmuni o'quvchilarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri bayon qilish malakalarini

shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan. Shunday ekan, ona tili ta'limi jarayonida ishga solinadigan o'quv topshiriqlarining asosiy qismini ijodiy-amaliy topshiriqlar tashkil etmog'i lozim.

Ijodiy fikrlash va fikr mahsulini o'zbek adabiy tilining boy imkoniyatlaridan foydalangan holda bayon qilish ko'nikmalarini shakllantirish oldimizda turgan bosh masalalardan biridir. Demak, qo'shma gap sintaksisi ham ana shu maqsadga xizmat qiladi. O'quvchilar qo'shma gapni o'rganar ekan, qo'shma gaplardan nutq sharoitiga mos ravishda to'g'ri va o'rinli foydalanish ko'nikma va malakalariga ega bo'lmog'i lozim.

Shuning uchun umumra'lim maktablarining yuqori sinflarida o'rganiladigan qo'shma gap mavzusi ham amaliy samarani ko'zlagan holda tubdan yangilanishi zarur bo'lgan muammolardan biridir. Muammo yechimini esa tilshunoslik fanining keyingi davrda qo'lga kiritgan yutuqlari berishi mumkin. O'zbek tilshunosligida sistemaviy talqin usullarining rivojlanishi tilning barcha sohalari kabi qo'shma gap talqiniga ham yangicha yondashishni shakllantirdi. Jumladan, R.R.Sayfullayeva o'zbek tilida qo'shma gaplarning struktur umumiy lisoniy qolipini va shu asosda qo'shma gaplarning umumiy qolipini, uning oraliq ko'rinishlarini, nutqda voqealanish shakllarini umumlashtirib, o'zbek tilida qo'shma gaplarning formal struktur talqinini ishlab chiqdi.¹²

9-sinfda «Qo'shma gaplarning tasnifi» mavzusini o'rganishdan oldin ularga muvofiqlashtiruvchi material sifatida «Kesim gapning markazi» degan mavzuni kiritishni zaruriyat deb bildik. «Kesim gapning markazi» degan mavzu 9-sinf o'quvchilari uchun tamomila yangi mavzu bo'lib, keyingi bosqichlarda «Qo'shma gap» hamda qo'shma gapning tasnifini puxta o'rganish ana shu mavzuni o'rganish bilan chambarchas bog'langan. Mazkur mavzuni o'rganishda o'qituvchi o'quvchilarda quyidagi zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarning hosil qilinishiga alohida e'tibor qaratadi.

1. Zaruriy bilimlar:

- kesim gapning markazi ekanligi;
- ega va qolgan bo'laklarning kesim atrofida birlashishi;
- faqat kesimdan iborat gaplarning ixcham gap ekanligi.

2. Zaruriy ko'nikma va malakalar:

- gapning kesimini, markazini topa olish;
- kesimning gapdagi mavqeyi haqida mustaqil xulosa chiqara olish;
- faqat kesimdan iborat gaplarning egasini tiklay olish;
- sodda yig'iq gaplarni, sodda yoyiq gaplarga aylantira olish;
- kesimdan so'roq berish orqali gapni kengaytira olish;
- sodda yoyiq gaplardan iborat matn hosil qila olish.

Shundan so'ng qo'shma gaplar bog'lovchi vositalarga ko'ra quyidagicha 5 turga bo'linishni o'quvchilarning bilib qo'yishlari ta'kidlanadi.

1.Faqat ohang vositasida bog'langan qo'shma gaplar.

¹² Sayfullayeva R.R. Qo'shma gap tasnifi haqida. O'zbek tili va adabiyoti. 1990.№5 22-25

2. Yuklamalar vositasida bogʻlangan qoʻshma gaplar
3. Teng bogʻlovchilar vositasida bogʻlangan qoʻshma gaplar
4. Ergashtiruvchi bogʻlovchilar vositasida bogʻlangan qoʻshma gaplar

5. Nisbiy soʻzlar vositasida bogʻlangan qoʻshma gaplar

Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki:

1. Oʻrta maktabda qoʻshma gapni bogʻlovchi vositalar orqali oʻrgansak ham tinish belgilarining qoʻllanilishi hamda turli xil bogʻlash vositalarining oʻziga xos maʼnaviy va vazifaviy xususiyatlari oʻquvchilar ongiga yetkazilgan boʻladi.

2. Qoʻshma gaplarni faqat ohang (tinish belgi) vositasida bogʻlangan qoʻshma gaplar, yuklama vositasida bogʻlangan qoʻshma gaplar, teng bogʻlovchilar vositasida bogʻlangan qoʻshma gaplar va nisbiy soʻzlar vositasida bogʻlangan qoʻshma gaplar kabi 5 turga boʻlib oʻrganish maqsadga muvofiqdir.

3. Bogʻlovchi vositalar asosida qoʻshma gaplar hosil qila olish, bogʻlovchi vositalarning gapdagi oʻrnini aniqlay olish kabi koʻnikma va malakalarni shakllantirishga eʼtibor kuchaytiriladi.

4. Yuklamalar vositasida bogʻlangan qoʻshma gaplarni oʻrganishda asosiy eʼtibor sodda gap juftlarini turli xil yuklamalar vositasida bogʻlash hamda ularning maʼnosi, imlosi va ohangi ustida ishlashga qaratilishi lozim. Ayniqsa, mazkur mavzuni oʻrganishda gap tuzish va matn yaratish malakalarini takomillashtirish oʻqituvchining diqqat markazida turadi.

5. Sodda gap juftlaridan teng bogʻlovchilar vositasida bogʻlangan qoʻshma gaplar hosil qila olish, teng bogʻlovchilar vositasida bogʻlangan qoʻshma gaplar tarkibida vergulni toʻgʻri qoʻllay olish. Matn yaratish jarayonida bunday qoʻshma gaplarni toʻgʻri qoʻllay olish, bogʻlovchi vositalarni maʼnodoshi bilan almashtira olish, qoʻshma gaplarga taʼrif bera olish kabi koʻnikma va malakalarni shakllantirishga eʼtibor kuchaytiriladi.

6. Ergashtiruvchi bogʻlovchilar vositasida bogʻlangan qoʻshma gaplarni oʻzaro bogʻlash, ergash gapning bosh boʻlaklariga boʻlgan munosabatini anglash, ergashtiruvchi bogʻlovchilarning maʼnosi, imlosi va ohangi ustida ishlashga qaratilishi lozim.

7. Nisbiy soʻzlar vositasida bogʻlangan qoʻshma gaplar mavzusini oʻrganishda oʻquvchini taʼlim jarayonining subyektiga aylantirishga eʼtibor kuchaytirilishi lozim.

ADABIYOTLAR

1. Asqarova M.A. Qoʻshma gapning koʻchirma turi haqida. Oʻzbek tili va adabiyoti masalalari. –T.: 1991, 1-son.

2. Neʼmatov H. v.b. Ijodiy matn ustida ishlash. -Toshkent 1997.

3. Gʻulomov A.Q. Neʼmatov H. Ona tili taʼlimi mazmuni. –Toshkent, 1993.

4. Gʻulomov A.Gʻ. v.b Ona tili oʻqitish metodikasi. –Toshkent, 2001.

5. Toʻxliyev B. va boshqalar. Oʻzbek tili oʻqitish metodikasi. –T.: 2006.

O'QUVCHILARNING OG'ZAKI VA YOZMA NUTQINI SHAKLLANTIRISH

Ilmiy rahbar: M. Xudayarova

G. Yakupova -NukusDPI talabasi

Mustaqilligimizning birinchi kunlaridanoq mamlakatimizda yosh avlod tarbiyasiga jiddiy e'tibor berilmoqda. Jumladan, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ning qabul qilinishi ushbu jarayondagi eng dolzarb muammo sifatida xarakterlanadi.

Birinchi prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganidek, "Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lib yashashlari uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi".

O'quvchilarni puxta bilim ko'nikma yetarli malakalarga ega bo'lishlari bilan birgalikda yuksak madaniyatli shaxs bo'lib yetishlariga katta e'tibor qaratilmoqda. Asosan buning uchun o'qituvchi bir xil qolipdagi dars o'tish usullari bilan cheklanib qolmasligi, aksincha o'qitish usullarini shakllantirish zarurdir. Ona tili ta'limining bosh maqsadi o'quvchilarda og'zaki va yozma nutq malakalarini shakllantirish, bundan tashqari aniq va teran fikrlashga, o'z fikrini mustaqil tarzda bayon eta olishga o'rgatishdir. O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirishning dastlabki bosqichi ularning so'z zahirasi lug'at boyligini oshirish lozim. Jumladan yetarli so'z zahirasi ega bo'lgan o'quvchigina til birliklaridan o'rinli qo'llanib, o'z fikrini aniq va to'g'ri ifodalay oladi.

Og'zaki nutqni shakllantirish uchun tanqidiy fikrlash usulidan foydalansa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tartibi olti bosqichda olib boriladi:

1.O'quvchi o'z fikrini erkin ifodalaydi. Misol uchun Cho'lponning „Kecha va Kunduz“ romanida Zebi obrazining ayanchli taqdirida asosan kim aybdor?

2. Har bir o'quvchi nega shunday bo'lganligini haqida o'z fikrini bildiradi.

3.O'quvchi tomonidan aytilgan fikrlar izohlanadi.

4.Sinfdoشلar tomonidan bildirilgan fikrlar tahlil etiladi.

5.O'quvchi o'zgalar fikriga o'z mulohazalarini bildiradi.

6.Mustaqil fikrlash o'quvchilarning nutqini o'stirish bilan birga uni ijodiy fikr-mulohazalar yuritishga o'rgatadi.

„Nuqtayi nazaring bo'lsin“ usuli, asosan, to'rt bosqichda olib boriladi:

1. Tayyorgarlik sinfga to'rtta jadval osib qo'yiladi. Fonetikada undoshlar soni 23 tami 24 tami dj alfoboda dj ning bor yo yo'qligi.

2. Sinfdan 6-8 o'quvchi taxtaga chiqadi va savolga javob beradilar

3. O'yin paytida ishtirok etmagan o'quvchilarga ham savol beriladi.

4. Taxtadagi o'quvchilar o'tirganlar bilan xulosa qiladilar.

Bu usulda asosan dj fonema bor yoki yo'qmi har bir o'quvchi o'zining fikrini asoslab berishi ko'zda tutiladi. Bundan tashqari, xalq og'zaki ijod namunalari ham maqollar, tez aytishlar og'zaki nutqning shakllanishida juda katta rol o'ynaydi.

O'quvchiarning yozma nutqini o'stirishda ona tili darslarida nazorat ishlarini tashkil qilishda har bir nazorat turining ahamiyati katta hisoblanadi. Misol qilib aytganda , bayon yozish jarayonida o'quvchilar asarning mavzusi , hamda

mazmunidan anglashilgan asosiy g'oyani tushunib oladilar. „**Mehnatsevarlik**” matni o'qituvchi tomonidan o'qib beriladi va yozdiradi.

Mehnatsevarlik

Mehnat bilan suyagi qotgan, mehnat tufayli izzat-u hurmat ko'rgan har bir ota-ona bolasining ham mehnat bilan yashashini, mehnat bilan el-yurt oldida sharaf topishini xohlaydi. Shu tufayli bolalarning kelajagini o'ylab, ularni mushtumdek paytlaridan mehnatga o'rgatadilar. T o'g'ri tarbiyaning eng ta'sirli, eng samarali usuli ham shu, ammo ba'zi bolalar ro'zg'or ishlaridan ham bosh tortadilar. Otalari yo onalariga shafqatsiz, berahm kishilarga, hatto quldorlarga qaraganday o'qrayib, yeb yuborgilari kelguday bo'lib qaraydilar. Malol kelib, qo'l uchuda qilgan ishlaridan ota-onalari norozi bo'lishsa, uzr so'rash o'rniga to'ng'illab beradilar. Ota-ona bolalarning mehnatiga hamma vaqt ham muhtoj bo'lavermas, lekin bolani yoshligidan ishga o'rgatish, mehnatga ko'niktirish zimmalaridagi burch ekanligi shunday yo'l tutishga majbur qiladi.

Matn tugagach o'quvchilar bayon yozish jarayonida grammatika va imlo yuzasidan olgan bilimlarini amaliyotda tadbiq etadi. Bayon yozish jarayonida asosan o'quvchilarning nutqida yangi so'z va tushuncha paydo bo'lishiga yordam beradi. Hamda o'quvchilarning xotirasi mustahkamlanadi. Har bir o'quvchi o'zlarining fikrlarini mustaqil bayon etishni o'rganadilar. Asosan, o'quvchilarni ijodiylikka, mustaqil fikrlashga o'rgatishda bayonning o'рни katta hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1.A.Nurmonov, A. Sobirova, N. Qosimova “Hozirgi o'zbek ababiy tili”. Toshkent – “Ilm ziyo” – 2010-yil.

2.I. A. Karimov “ Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch” .Toshkent.: Ma'naviyat. 2008-yil.

TIL TA'LIMIDA INTEGRATIV YONDASHUV

Adilova Sh– o'zbek tili va adabiyoti bakalavr ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Yuldasheva Sh - Ilmiy rahbar p.f.n.

Fanlararo aloqa masalalari pedagogika tarixida barcha davrlarda ham dolzarb bo'lib kelgan. XX asr oxirida bu masala doirasi kengaydi va muqobil ravishda integratsiya atamasi faollashdi.

Integratsiya – ayrim bo'laklarning yoki elementlarning bir-biriga qo'shilishi, bir butunga aylanishi, yaxlitlanishidir [1]. “Integratsiya” tushunchasi XVIII asrdayoq Spenser tomonidan izohlangan edi. Biz ham integratsiyani tafakkur o'stirish omili sifatida qarab, uni fanlararo aloqa hamda ta'lim sathlarini sintezlash tarzida talqin etishga harakat qildik. Bu borada R.Jo'rayev, A.Zunnunovlarning ta'lim jarayonida o'quv fanlari integratsiyalanishiga bag'ishlangan qo'llanmasi barcha fanlar uchun dasturulamal bo'la oladi [2].

“Ona tili o'qitish metodikasi”da fanlararo aloqa masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Biroq bu atamani nisbatan tor doira uchun qo'llash mumkin, ya'ni ona tili fanining faqatgina boshqa fanlar bilan bog'liqligi, fanlarning bir-birini to'ldirishi.... kabilar. Integratsiya tushunchasi esa nisbatan keng bo'lib, u fanlarning o'zaro aloqasini ham, shuningdek fanlarning bo'limlari, sathlari bo'yicha bir butunlik tushunchasini ham anglata oladi.

Ma'lumki, bir qator fanlarning dasturlarida «**chorrahalar**» bor, ya'ni boshqa-boshqa nuqtalardan bir obyekt o'rganiladi. Bularning barchasi integratsiyaga talabnoma. Jumladan, til hodisalari yuzasidan amaliy ko'nikma va malakalar hosil qildirish maqsadida o'quvchilarga ularning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, tegishli tayyorgarlik darajalari hisobga olingan holda ikki xil yo'ldan foydalaniladi:

1. Badiiy asarlardan (Alisher Navoiy, Bobur, Ogahiy, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, T.Adashboev, A.Obidjon ...) parchalar tanlanadi.

2. Shu sinfga tegishli bo'lgan boshqa o'quv predmetlariga oid darsliklar (matematika, botanika, geografiya, kimyo ...) dan foydalaniladi.

Buning real natijasi:

- o'quvchilar turli nutq uslublari bilan amalda tanishadilar;
- yordamchi so'zlarning qo'llanish imkoniyatini amaliy jihatdan kuzatishadi;
- fanlararo aloqa ta'minlanadi, ya'ni integrativ darslar tashkil qilinadi.

Fikrimiz dalili sifatida pedagogika fanlari doktori Sh.Yusupovanning bir vaqtning o'zida ona tili, adabiyot, tasviriy san'at, biologiya fanlarini bog'lab o'qitishga doir tahlillarini keltiramiz. Olima rahbarligida o'tkazilgan sinov darslaridan birida o'qituvchi o'quvchilardan behi guli haqida ma'lumotlar berishni so'raydi, javob olingandan keyin behi gulining tasvirini chizish ularga topshiriq sifatida beriladi. T.Yusupovanning "Behi guli" she'ri o'quvchilarga ifodali o'qitilib, she'rda berilgan ot va fe'l so'z turkumidagi so'zlarni sinonimlari bilan almashtirib yozish topshiriladi.

Shuningdek, olima botanika va ona tili fanlarini bog'lashda maqollardan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaydi. Bu usul o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga, qissadan hissa chiqarishga, o'z maqsadlarini bayon etishga undashi, maqollarda keltirilgan o'simlik yoki daraxtlarni ta'riflab berish esa ularning nutqiy malakalarini yanada rivojlantirishi ta'kidlanadi [3].

Mutaxassislar integratsiyalangan darslar o'quvchilarning charchog'ini oladi, faoliyatning bir turidan ikkinchisiga o'tishi hisobidan ziyraklik va hozirjavoblikka o'rgatadi, deb hisoblaydilar. Agar integratsiyali darslar jarayoniga zamonaviy vositalarni foydalanish yo'lga qo'yilsa, samaradorlik yanada ortadi. Bu borada muayyan tajribalar ham to'plangan. Jumladan, "Ona tili. 5-sinf uchun elektron o'quv-metodik majmua"siga [4] jamlangan mashq va topshiriqlarning aksariyati 5-sinfda o'rganiladigan fanlar bilan uzviy bog'langan. Foydalanuvchilar "Botanika", "Tarixdan hikoyalar", "Geografiya", "Musika", "Jismoniy tarbiya", "Rus tili", "Ingliz tili", "Tasviriy san'at", "Adabiyot" fanlari bilan integratsiyalashgan 10 dan ortiq turdagi mashq va topshiriqlar; esse, krossvord, test savollari orqali bilimlarini oshiradilar, asosiy materiallarni mustahkamlaydilar. Elektron majmua yordamida esse topshiriqlari uchun botanika fani materiallari video va rasmlar yordamida taqdim qilingan.

Ayniqsa, ona tili darslarida tasviriy san'at asarlaridan foydalanish uchun AKT keng imkoniyatlar yaratadi. Shu tariqa AKT ona tili darslarida o'quvchilarni mazmundor gaplar tuzishga o'rgatishning qudratli omili bo'lib maydonga chiqadi. Metodikada darslikda mavzuga doir rasmlar mashqlar ko'proq bo'lsa, o'quvchilarning nutqini o'stirish va fikrlash qobiliyatini rivojlantirish borasida o'qituvchiga keng imkoniyat yaratilishi haqida alohida qayd qilinadi. Biroq darsliklarni "semirtirmaslik" masalasi bor. Shuning uchun ham rasmlardan foydalanish bo'yicha elektron adabiyotlarda imkoniyatlar katta bo'ladi [5].

Tasviriy san'at asarlarini ularning turlariga, janrlariga ko'ra, shuningdek aks etgan syujetga ko'ra ona tilining qaysi sathi uchun muvofiq kelishini aniqlab, foydalanish kutilgan natijani beradi. Harakatlar tasvirlangan rasmlarga qarab gaplar tuzganda siflatlar kamroq, fe'llar, bog'lovchilar ko'proq ishlatiladi. Demak, bunday tasviriy san'at asarlari fe'l, fe'l shakllari, ravish, bog'lovchi bilan bog'liq mavzularni o'tish jarayonida ko'proq tanlanishi kerak.

Tilni boshqa fanlar bilan bog'lab o'qitish bilan qator til sathlari integratsiyasini ta'minlashga alohida e'tibor qaratish talab qilinadi. Ta'lim samaradorligini oshirish uchun integratsiya holatidagi dastur va darsliklar yaratilishi lozim. Pedagog U.Musaev integratsiyaning mavzularni ketma-ket taqdim etish asosidagi integratsiyaga ahamiyat qaratishi bejiz emas. Bunda o'quv materiallarini bayon qilishda konsentrizm prinsipiga amal qilinadi, ya'ni oldingi o'quv materiali keyingisini to'ldiradi [6].

Til sathlarini tashkil qilgan unsurlarning har biri o'ziga xos xususiyatga ega bo'lishi bilan birga, ular o'zaro uzviy bog'langan. Maktabda fonetikani o'zlashtirmasdan orfografiyani bilish mumkin emas. Fonetika va orfografiya, leksikologiya (so'zshunoslik) va morfologiya (so'z turkumlari) o'zaro chambarchas bog'langan. Shuning uchun o'rta maktabda til sathlarini o'zaro bog'lab o'rganish kutilgan natijalarni beradi.

Demak, ona tili ta'limidagi integratsiya haqida so'z ketganda faqat, fanlararo aloqa emas, balki til sathlarining uzviyligiga erishish masalasiga ham alohida e'tibor qaratilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I жилд. – М.: Русский язык, 1981. – В. 380.
2. Jo'rayev R., Zunnunov A. Ta'lim jarayonida o'quv fanlarini integratsiyalash.– T.: Sharq, 2005
3. Yusupova Sh. Ona tili va botanika fanlarini uyg'un holda tashkil qilish mumkin(mi?)/Til va adabiyot ta'limi. 2015. 7-son. 13-14 b.
4. Юлдашева Ш., Зарипов О., Бекжанова М., Смайлова Д., Гулманова Қ., Янгибоева Г., Уразбоева Д. 5-синф учун “Она тили” фанидан электрон ўқув-методик мажмуа. – Нукус, 2016. (guvohnoma: DGU 04136)
5. Ergasheva A. Ona tili darslarida rasmlar vositasida mazmundor gaplar tuzish. // Uzluksiz ta'lim. 2006. 2-son. 59-62 b.
6. Do'stmurodova O. Matn tuzish topshiriqlari ona tili ta'limining texnologik etaloni sifatida. //Xalq ta'limi, 2005. 3-son, 73.

ONA TILI TA'LIMI JARAYONIDA SATHLARARO BOG'LASHNI RIVOJLANTIRISH

S.Atiyazov, O.Xaytbaev- Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI O'zbek tili kafedrası o'qituvchilari

Ta'lim sohasida bo'layotgan o'zgarishlar ona tili ta'limiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Bugungi ona tili ta'limida yangilash hayotiy ehtiyoj darajasiga ko'tarilmoqda. Chunki maktabni bitirib chiqqan yoshlar ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotning turli jabhalarida muloqot va munosabatning barcha turlarida o'zbek tilidan bemalol, erkin, samarali va to'g'ri foydalana olish, uning boy imkoniyatlaridan to'laqonli bahramand bo'lish ko'nikma va imkoniyatlarga ega bo'lishlari kerak. Buni amalga oshirish uchun esa o'rta

ta'lim maktablarida o'zbek tili o'rgatishni yaxshilash uning samarali metod va vositalaridan foydalanish talab etiladi.

Mustaqillik yillarida tarbiyalangan bolalar xohlagan chet davlatlariga chiqib o'qib kelmoqdalar. O'z iste'dodlarini namoyon qilish imkoniyatlaruga egalar.

Respublikamizda ta'limning umumiy maqsadi zaminida ijodiy va mustaqil fikrlovchi yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalash yotadi. Binobarin har bir fanning o'z maqsadi, vazifalari bo'lib, bu umumiy o'rta ta'lim Davlat standarti va o'quv dasturida o'zining yaqqol ifodasini topgan, ya'ni ta'lim o'quvchining ongli va faol ravishda o'z malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishiga qaratilgan. Demak, ta'lim usuli, mazmuni hamda vositalari ana shu vazifalarning aniq va puxta bajarilishiga yo'naltiriladi.

Ona tili ta'limi jarayonida asosiy diqqat o'quvchilarda so'z boyligini oshirish, ularda so'zning ma'no nozikliklari farq va o'xshashliklarini his qilish va anglab yetish, bexato talaffuz qilish va yozish, so'zlarni to'g'ri bog'lash, fikrni gap va matn tarzida to'g'ri ifodalash, fanlararo aloqadorlikni, ona tili fanlarining ichki bo'limlarining o'zaro aloqadorligi ko'nikmalarini shakllantirish zarur. Shuningdek, o'quvchilarda matndagi mantiqiy xatolarni toppish va tuzatish, o'zgalar fikrini to'g'ri anglash, bir fikrni turli shaklda ifodalash, uzilgan fikrning davomini tiklash kabi qator mantiqiy operatsiyalarni bajartirish, nutq vaziyatini to'g'ri baholash va til imkoniyatlaridan unga mos ravishda foydalanish, ko'nikma va malakalarni shakllantirish ham kerak bo'ladi. Oquvchiga yuqoridagi ko'nikma va malakalarni hosil qilish uchun zarur bo'lgan fonetik, leksik, grammatik, morfologik, sintaktik bilimlarni berish zarur.

Hozirgi kun ta'limining yana bir muhim vazifalaridan biri bu ona tili mashg'ulotlarini fanlararo aloqadagi ta'limini izchil yo'lga qo'yishdir. Bunda ona tilini adabiyot o'quv fani bilan bog'lab o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Badiiy manbalar bilan ishlash o'quvchilarda til sezgirligini tarbiyalaydi, ona tilining boy ifoda vositalariga oshno qiladi. Badiiy matn kitobxonni ona tilining sehrli olami bilan tanishtirish imkoniyatiga ega. Ulardan o'quvchilarga ma'naviy tarbiya berish vositasi sifatida foydalanish lozim.

Ta'lim jarayonida fanlararo aloqa bilan bir qatorda o'quv fani ichki bo'limlarni o'zaro bog'lab o'rganish ham o'qitish usulining muhim jihatlaridan hisoblanadi.

Ona tili ta'limida sathlararo bog'lab otishning ahamiyati juda kattadir. Sathlararo integratsiya o'quvchilarni erkin va mustaqil fikrlashga, o'tilgan til bo'limlarida olgan bilimlarini amalda sinashga yordam beradi. O'quvchilar avvalo fanlararo aloqadan ham ko'ra sathlararo aloqani, ya'ni til bo'limlarini morfologiya va sintaksis, fonetika leksikologiya, morfologiya, sintaksis, morfologiya orfografiya, leksikologiya frazeologiya bo'limlarini qanday aloqada, qanday bog'liqlik tomonlarini bilishlari kerak. Ona tilining ichki bo'limlarining o'zaro aloqasini bilgan o'quvchi, o'zaro fanlararo aloqani ham bimalol tushunadilar.

Ona tili ta'limida sathlararo integratsiyadan asosiy ko'zlangan maqsad: yangi mavzuni tushuntirishda ona tilining boshqa bo'limlari bilan bog'lab olish, o'quvchilarni o'tilgan mavzudagi bilimlarini mustahkamlash va esda saqlashlarini ta'minlashdan iboratdir. Ona tili ta'limida qo'llaniladigan bu usul

o'quvchilarning bilim saviyasini oshirishga, ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yaqindan yordam beradi. O'quvchilar til bo'limlarida olgan bilimlarini eslashga, yodga olishga, ular mashqlarni bajarishida qo'l keladi. Bu usullarni dars jarayonida qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Yangi mavzuni bayon qilish jarayonida shu mavzuga aloqador bo'lgan biror bo'lim bolan bog'lab o'tish o'qituvchidan yuksak salohiyatni, talabchanlikni, tashkilotchilikni, o'quvchilardan esa zukkolikni, esga olish qobiliyatini talab etadi. Ona tili o'qitishning asosiy maqsadi til imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli va unimli foydalanish ko'nikma va malakalarni hosil qilish hisoblanadi. O'quvchilarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki, yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini egallash, mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga yordam beradi. Sathlararo integratsiyaning asosiy vazifalari o'quvchilarni so'z tanlash, gapda so'zni to'g'ri va o'rinli qo'llash o'z fikrini, ixcham, ravon ifodalashga o'rgatishdir.

Demak, ona tili ta'limi jarayonida asosiy diqqat o'quvchilarda so'z boyligini oshirish ularda so'zlarning ma'no nozihliklari, farq va o'xshashliklarini his qilish hamda anglab yetish, bexato talaffuz qilish va yozish, so'zlarni to'g'ri bog'lash, fikrni gap va matn tarzida to'g'ri ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish zarur. Shuningdek, o'quvchilarda matndagi mantiqiy xatoliklarni topish va tuzatish, o'zgalar fikrini to'g'ri anglash, bir fikrni turli shaklda ifodalash, uzulgan fikrning davomini tiklash kabi qator mantiqiy jarayonlarni bajartirib, nutq vaziyatini to'g'ri baholash va til imkoniyatlaridan unga mos ravishda foydalanish ko'nikmalarini va malakalarini shakllantirish ham kerak bo'ladi.

Ona tili o'qitishning asosiy maqsadi til imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli va unimli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish hisoblanadi. O'quvchilarda katta ijodiylik, mustaqil fikrlash ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki, yozma shakllarda to'g'ri ravon ifodalash ko'nikmalarini egallash mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga yordam beradi. Sathlararo integratsiyadan ko'zlangan maqsad: o'quvchilarni so'z tanlash, gapda so'zni to'g'ri va o'rinli qo'llash o'z fikrini ixcham, ravon ifodalashga o'rgatishdir.

Til uning barcha sathlari, vosita va birliklari o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, til ma'lum bir fikrni ifodalashda hamisha juda ko'p vositalarga egadir. Bundan tilning turli sathlarini fonetika, lug'at, morfologiya sintaksisni alohida – alohida o'rganish tilning sistemaviy yaxlitligiga xilofdir, degan tadrijiy xulosa ham kelib chiqadi. Bu sathlar hamisha uzviy bog'lanishda o'rganilishi, har bir sath birligini o'rganish, uning amaliy qo'llanilishi bo'yicha bilim, ko'nikma, malakalarni mustahkamlashtirish bilan birga olib borilishi zarur. Shuning uchun ona tilidan bilimlar tizimi, bosqichli, ketma – ket va sathlararo bog'lanishda bo'lishi lozimdir.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ona tilining fonetika, leksika, grammatika, orfografiya va uslubiyat kabi sathlari garchi mustaqil hisoblansa ham o'qitish jarayonida ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Masalan orfografiya va punktuatsiya o'qitish grammatika bilan bog'lab olib boriladi. O'quvchilar fonetika, leksika va grammatika bo'yicha olgan bilimlari asosidagina ma'lum darajada uslubiy malaka hosil qiladilar.

Maktab ona tili kursining turli bo'limlararo o'zaro bog'lanishni aniq bilish va hisobga olish o'qituvchiga o'tilganlarni har bir bo'limning o'z xususiyatlarini hisobga olgan holda yana ham samarali, sistemali takrorlash va mustahkamlashni tashkil qilishga imkon beradi. Masalan, o'qituvchi mustaqil so'zlarni o'rgatish jarayonida bunday so'zlarning sintaktik vazifalari haqidagi ma'lumotlarni takrorlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Xullas, davr ona tili darsliklaridan o'quvchilarga o'zbek tili qurilishi haqidagi bilimni emas, balki tom ma'noda ona tili imkoniyatini egallash mexanizmi va usullarini berishini taqozo qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.- Toshkent: Sharq, 1997
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi // Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent: Sharq, 1997.
3. Ahmedova H. O'kituvchi nutqi madaniyati. (ma'ruzalar matni), Qo'qon, 2003.
4. Begmatov E. Notiqning nodir boyligi. Toshkent, 1980.
5. Ibrahimov I. O'zbek milliy tilining nutq madaniyati masalalari. Toshkent, 1969.
6. Mahmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati. Toshkent, A. Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.

O'ZBEK TILINI O'QITISHDA ELEKTRON AXBOROT-TA'LIM VOSITALARINING O'RNI

Bekjanova Munira Azatovna – Nukus shahar XTMTFMT va TE bo'limiga qarashli
22-maktab o'qituvchisi

Dastlab ta'lim jarayonida elektron darslik, elektron o'qituvchi tushunchalari paydo bo'lganida aksariyat o'qituvchilarda xavotir paydo bo'ldi. Bu qo'rquvning sababi dars jarayonida o'qituvchining roli pasayib ketishi yoki faqat boshqaruvchi vazifasini bajarib qolishi mumkin deb qaralganida edi. Lekin bugungi kunga kelib darslarning elektron darsliklar yordamida tashkillashtirilishi bu fikrning mutlaqo noto'g'ri ekanligini isbotlamoqda. Ayniqsa, ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda o'zbek tilini o'rgatishda elektron resurslar ko'rgazmalilikni ta'minlash, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshirish omili bo'lmoqda.

O'zbek tili ta'limida multimediya ilovalari asosan boshlang'ich sinflarda foydalanish imkoniyati mavjud, yuqori sinflar uchun multimediya ilovalari hali yaratilish bosqichida (8-, 9-sinflar uchun amaliyotda qo'llanmoqda), 5-, 6-, 7-sinflarda ana shunday elektron resurslarga ehtiyoj juda katta.

Shuning uchun 2016-2017 o'quv yilida 5-sinflar uchun "Ona tili" fanidan yaratilgan elektron o'quv metodik majmuani yuqori sinflarda o'zbek tili darslarini samarali tashkil qilishda foydalandik. Mahorat maktablarida o'zbek tili fan o'qituvchilari ishtirokida majmuadagi mavzularni, mashqlarni o'rganib chiqib, ushbu majmuadagi materiallarning 50% dan oshig'i davlat tilini o'rgatishda ham mos kelishi aniqlandi.

O'zbek tili o'qituvchilari shuni alohida ta'kidlashadiki, o'quvchilarning o'zbekcha og'zaki nutqi yaxshi rivojlanmoqda, ammo tan olib aytish kerakki, yozuvda juda ko'p imloviy, ishoraviy xatolarga yo'l qo'yishadi. Yo'l qo'yilayotgan xatolarni bartaraf qilish uchun o'zbek tili grammatikasini o'quvchilarning ona tiliga

qiyoslash orqali o'rgatish yaxshi samara beradi. Yuqoridagi majmua biz o'qituvchilarga bu borada yaxshi ko'makchi, ishimizni yengillashtiruvchi vosita bo'lmoqda. Masalan, 6-sinfda ot so'z turkumini ma'noviy guruhlarga bo'lib o'rganamiz. 5-sinfda kelishiklarni o'rgangan paytda ham ot haqida qisqacha ma'lumot beriladi. Taqvim-rejada atoqli va turdosh otlarga alohida mavzu ajratilmagan bo'lib, o'rin-joy otlarini o'rganishda o'rin-joy otlarining atoqli va turdosh otlarga bo'linishi haqida ma'lumot berilgan. O'qituvchilarning yozma nutqidagi xatolarni bartaraf qilish uchun shaxs-narsaga atab qo'yilgan otlar, laqablar ham atoqli ot ekanligi, atoqli otlarning qo'shtirnoqqa olinishi yoki olinmasligi haqida qo'shimcha ma'lumotlar tayyorlash, buni amaliy o'rgatish uchun mashqlar tizimini yaratish taqozo qilinadi. Elektron majmua bu borada o'zbek tili o'qituvchisiga katta yordamchi. Majmuaning 67-darsida videodars atoqli va turdosh otlarni farqlash, so'zlarning imlosini o'rgatish uchun juda qulay tayyorlangan (1-,2-rasmlar):

1-rasm.



2-rasm.




6-7-sinflarda morfologiyadan, 8-sinfda o'zbek tili sintaksisi yuzasidan taqdim qilinishi zarur bo'lgan grammatik mavzularning aksariyati uchun majmuada keltirilgan videodarslar mos keladi. Jumladan, morfologiya va sintaksisdan nazariy ma'lumotlarning qoliplar, jadvallar algoritmlar asosida animatsiyalar yordamida ovoz jo'rligida tayyorlanganligi, shunigdek, videodarslarni darsda va darsdan tashqari

vaqtlarda qayta-qayta ko'rish, o'rganish imkoniyati mavjudligi o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatiga ijobiy ta'sir qilmoqda (3-,4-rasmlar).

3-rasm.



4-rasm.



O'quvchilarga qoliplar asosida gaplar tuzdirish yoki matn yaratish jarayonida gaplarni, qo'llangan tinish belgilarni videodarslardagi qoliplar bilan qiyoslatish ularning yozma nutq me'yorlarini egallashlarida yordam bermoqda.

O'zbek tilidagi morfologik shakllarni chuqur o'rgatish masalasi videodarslarda alohida hisobga olingan (5-,6-rasmlar):

5-rasm.

Hozirgi zamon qo'shimchalaridan keyin **shaxs-son** qo'shimchalari qo'llanadi.

Shaxs	Birlik	Ko'plik
I shaxs	fe'l asosi -yap -(a)yotir -(a)yotib -moqda +man	fe'l asosi -yap -(a)yotir -(a)yotib -moqda +miz
II shaxs	fe'l asosi -yap -(a)yotir -(a)yotib -moqda +san	fe'l asosi -yap -(a)yotir -(a)yotib -moqda +siz
III shaxs	fe'l asosi -yap -(a)yotir -(a)yotib -moqda +ti +o +di +o	fe'l asosi -yap -(a)yotir -(a)yotib -moqda +ti (lar) +(lar) +di (lar) +(lar)

6-rasm.

Kelishik qo'shimchalarining aytilishi va yozilishiga e'tiborli bo'ling:

AYTILISHI	YOZILISHI
ishka ishta ishtan	ishga ishda ishdan

Tushum va qaratqich kelishiklarini o'z o'rnida qo'llashga odatlaning, yozuvda oddiy so'zlashuvdagi kabi qo'llashdan saqlaning:


daftarni varag'i emas	daftarning varag'i
bizzi uy emas	bizning uy ☒
qorri og'rivoti emas	qorni og'riyapti

Majmuada o'quvchilarning ish qog'ozlari – ariza, tarjimayi hol, shaxsiy xat yozish malakalarini rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratilgan.

7-rasm.

- Ariza yozishda Sizga kelishik qo'shimchalarini bilish katta yordam beradi.**
Arizada quyidagi qismlar bo'ladi:
- 1 Ariza yo'llangan shaxsning nomi.
 - 2 Ariza beruvchining turar joyi, vazifasi, ismi, ota ismi va familiyasi.
 - 3 Hujjat nomi.
 - 4 Asosiy matn (taklif, iltimos, shikoyat)
 - 5 Arizaga ilova qilinadigan hujjatlar (agar zarur bo'lsa)
 - 6 Ariza beruvchining imzosi, ismi va ota ismining bosh harflari va familiyasi.
 - 7 Ariza yozilgan vaqt (yil, oy, kun).

8-rasm.



Qoliplar asosida, animatsiyalar ketma-ketligida hujjat qismlarining ajratilib ko'rsatilishi ish qog'ozlarining xususiyatlari haqidagi bilimlarni tez va oson tushuntirishda o'qituvchi ishini osonlashtirmoqda, ko'rish, eshitish, yozish, qo'llash orqali o'quvchilar mavzularni oson o'zlashtirmoqdalar.

Majmuada nazariy qismlar uchun ham, mashq va topshiriqlar uchun ham video va audio materiallardan: multfilmlar, topishmoqlar, tez aytishlar, she'rlar, ibratli hikoya va rivoyatlardan keng foydalanilgan. Bizni quvontirgan narsa shu bo'ldiki, o'quvchilarimizga uyga vazifa uchun mavzuga doir misollar topish, gaplar tuzish topshiriq sifatida berilganda misollarni she'rlardan, topishmoqlardan, multfilmlardan, ertaklardan topib kela boshlashdi. Ta'kidlash o'rinliki, majmua orqali o'quvchining kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini, axborotlar izlash, zarur materialni topish malakalarini shakllantirish muvaffaq bo'lyapmiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Юлдашева Ш., Зарипов О., Бекжанова М., Смайлова Д., Гулманова Қ., Янгибоева Г., Уразбоева Д. 5-синф учун “Она тили” фанидан электрон ўқув-методик мажмуа. – Нукус, 2016. (guvohnoma: DGU 04136)

ЎЗБЕК ВА ҚОРАҚАЛПОҚ ТИЛЛАРИ ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ ТЕРМИНЛАРИ ТАРИХИДАН

С.Жалилов - Ўзбек тили кафедраси катта ўқитувчиси.

Ю.Сапарбаева - Ўзбек тили ва адабиёти бакалаврият таълим йўналиши 3-курс талабаси

Ижтимоий-сиёсий терминларнинг пайдо бўлиш тарихини қадим манбалардан излаш тўғрироқ бўлади. Умумтуркий мерос бўлмиш Ўрхун-Енисей ва бошқа ёдномаларда ўз ифодасини топган *қаған*, *будун*, *балық* (*шаҳар* маъносида), *саб* (*кенгаш* маъносида), *битикчи* (*котиб* маъносида), *алп* (*қаҳрамон* маъносида) каби терминлар бунинг яққол мисолидир.

Ижтимоий-сиёсий ҳаётдаги ўзгаришлар, табиийки, ўзининг лексик қатламларида ҳам ўз ифодасини топади. М.Кошғарийнинг “Девону луғотит турк” асаридаги кўйидаги ижтимоий-сиёсий терминлар мисолида ҳам кўриш мумкин: *анд*, *бузун*, *баж*, *божун* (*жамоа* маъносида), *бачиг* (*аҳд* маъносида),

бег, жарлиг, бож (қабилла маъносида), жаги, булгақ (фитна маъносида), жер (мамалакат маъносида) ва ҳоказо. Ўша давр ижтимоий-сиёсий терминологиясининг муҳим хусусиятларидан бири шундаки, уларнинг баъзилари ҳозирги кунда ҳам ўзбек ва қорақалпоқ ҳамда бошқа туркий тилларда фаол қўлланиб келмоқда (эл-ел, бой-бай, онт-ант).

Ҳ.Дадабоевнинг тадқиқот ишига объект қилиб олинган XI-XIV асрлар ёзма ёдгорликлари тилидаги қиёслаш учун олинган ижтимоий-сиёсий ва социал-иқтисодий терминлардан бугунги кунда уйғур тилида-348, қозоқ тилида-220, қирғиз тилида-244, турк тилида-370, ўзбек тилида эса-390 таси ишлатилар экан [Дадабаев. 1].

Терминшунос олима О.Турсунованинг таъкидлашича, кўп асрлар давомида туркий ва мўғул халқлари аجدодларининг ўзаро тинч ва баъзан ижтимоий-сиёсий, ҳарбий-ҳуқуқий алоқада бўлиши натижасида туркий тиллар лексикасида мўғулча сўзлар ва аксинча мўғул тилида туркий сўзлар ёки икки тил учун умумий ҳисобланган лексик қатлам вужудга келган.

Тадқиқотчиларнинг изланишлари шундан гувоҳлик берадики, мўғулча лексик бирликлар туркий тилларга, жумладан эски ўзбек тилига асосан XIII асрдан, яъни Чингизхон бошлиқ мўғул истилочиларининг Ўрта Осиёни забт этиш вақтидан бошлаб кириб кела бошлаган. Мўғул тили бу даврга келиб Олтин Ўрда ва Чиғатой улусида маълум вақт давомида туркийлашиб борди, аммо шуни ҳам инобатга олиш лозимки, ассимиляцияга учраган мўғул тили бутунлай изсиз йўқолиб кетмади, бу тилнинг айрим лексик, морфологик элементлари туркий тиллар томонидан ўзлаштирилди. Йирик олтойшунос олим В.И.Рассадиннинг фикрича, Чиғатой ва унинг ворислари ҳукмронлик қилган даврда эски ўзбек тилига юзга яқин мўғулча сўзлар кириб келган [Рассадин. 2]. А.М.Шчербак эски ўзбек тили обидаларини текширар экан, “Ўғузнома”да қайд этилган *нукар – жангчи, навкар, жыда – найза, қурылтай – халқ йиғини* сингари бир қатор сўзларнинг мўғул тилидан ўзлашганлигини таъкидлаган эди [Шчербак. 3]. Келтирилган бу мўғулча сўзларнинг *нукар, жыда, қурылтай* каби шакллари кейинчалик ўзбек ва қорақалпоқ тилларида ҳам мустаҳкам ўрин олганлигини кўриш мумкин

Аслини олганда, ўзбек ва қорақалпоқ тиллари ижтимоий-сиёсий терминларини бир-биридан ажратиб бўлмайди. Шунга қарамай, ҳар бир тилнинг ўзига хос ривожланиш қонуниятлари асосида у ёки бу термин қўлланавериши ёки истеъмолдан чиқиб қолиши мумкин.

Масалан, Алишер Навоий ва бошқа адибларимизнинг асарларида ишлатилган *кадхудо, амр, амрқирдор, валиаҳд, васикат, муниий, муҳосара (қамал маъносида), рийосат (бошчилик маъносида), рутба, саркор* каби ижтимоий-сиёсий терминлар, қорақалпоқ халқ дostonларидаги *датқа, айемнама, ақ алам, бағбан, базирген (савдогар маъносида), бий, жизия, зиндан, қазы, маскаишы (хон хизматидаги қул маъносида)* каби ижтимоий-сиёсий терминлар архаиклашиб қолди. Лекин уларнинг кўпчилиги ижтимоий-сиёсий ҳаётимиз тарихига бағишланган бадий ёхуд илмий оммабоп асарларда, газета-журнал ва ҳоказоларда тарихимизга бағишланган илмий, публицистик ишларда бемолол қўлланиши мумкин. Яна шуни таъкидлаш мумкинки, Алишер Навоийнинг “Муҳокаматул луғатайн” асарида

-в(ул) аффикси ёрдамида ясалган бир қанча сўзларнинг сарой лавозимлари маъносини билдиришини таъкидлаш мумкин: *ҳиравул, чингдавул, китпавул, янкавул, патавул, дақавул, шигавул, бакавул* каби.

Кўчманчи қорақалпоқларнинг Хива хонлиги қўл остига ўтиб ўtroқлашиши ва феодал муносабатларнинг аста-секин ривожланиши билан *аталык, беглербеги, мехрем, кадкуда* сингари терминлар ишлатила бошланди. Кундалик турмуш, ижтимоий-сиёсий муносабатларининг барқарорлашуви сабабли қорақалпоқларгагина хос бўлган *кўнликши (мардикор, иккинчи маъносида ёлланма қул), сўтине (бой томонидан қарз берилиши маъносида), майына (вақтинча соғинини бериб туриш маъносида), ярымши (арендачи маъносида)* каби қатор ижтимоий-сиёсий терминлар майдонга келди [Нурмухаммедов. 4].

Демак, ижтимоий-сиёсий терминларнинг пайдо бўлиши ва тилда барқарорлашишини ўрганиш тарихимиз саҳифаларини чуқурок билишда ва тил тарихи билан боғлиқ лисоний материалларни таҳлил қилишда муҳим манба вазифасини ўтайди.

Адабиётлар

1. Дадабаев Х.А. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. - Ташкент, 1991.
2. Рассадин В.И. Монгольско-бурятские заимствования в сибирских тюркских языках. -М.: Наука. 1980.
3. Щербак А.М. Огуз-наме. Мухаббат-наме. -М.: 1959.
4. Нурмухаммедов М.К. ва бошқалар. Каракалпаки. –Ташкент, 1971.

BOSHLANG‘ICH SINF “O‘QISH” DARSLARIDA O‘QUVCHI KOMPETENTSIYASINI SHAKLLANTIRUVCHI METODLAR

Yusupova Gulshiraxon Zinatdinovna- Qoraqalpog‘iston RespubliKasi XTXQTMOI “Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim” kafedrası Katta o‘qituvchisi

Yevropaning rivojlangan mamlakatlari hamda mamlakatimizda chet tillari bo‘yicha uzliksiz ta’lim tizimining DTS va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish tajribasidan kelib chiqib, umumta’lim fanlari bo‘yicha kompetentsiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan majburiy ta’limning Davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlari loyihalari tayyorlandi va tajriba-tadqiqotdan o‘tkazilmoqda. Jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligiga qarashli beshta joyda: Nukus shahar 2, 19, 21-sonli va Xojayli tumani 62-sonli, Amudaryo tumani 40-sonli umumta’lim maktablarida tajriba tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

2016-2017 o‘quv yilida o‘quv dasturida mavzularni o‘zlashtirish jarayonida fanga oid shaxsiy va tayanch kompetentsiyalarni shakllantirish imkoniyatining mavjudligi uchun ilg‘or metod va usullarini jamlab tajriba-sinov ishlarini olib borish eksperimentator o‘qituvchilarga yuklatildi. Tajriba-tadqiqot jarayonida eksperimentator o‘qituvchilar tavsiya etilgan metod va texnologiyalarni darslarida qo‘llash borasida bir qancha qiyinchiliklarga dush kelishdi.

- O‘qituvchilar ko‘pchilik metod va texnologiyalarni yaxshi bilmasliklari;
- Ushbu metod va texnologiyalar haqida ma’lumotga ega bo‘lsalar ham ularni darsda qo‘llay olish ko‘nikmalariga ega emasliklari;

Bu bo‘yicha har bir maktabga berkitilgan ilmiy rahbarlar har chorak mobaynida seminar-treninglar o‘tkazib, o‘zlarining tavsiya va maslahatlarini berib kelmoqda.

Ushbu ma'suliyatli vazifalarni bajarishda boshlang'ich sinf eksperimentator o'qituvchilarining 1-4-sinflarda ona tili va o'qish fanlaridan o'quvchilarga tayanch va fanga oid shaxsiy kompetentsiyalarni shakllantirish interfaol metod va texnologiyalarni qo'llash haqidagi ko'nikma va malakalari asta sekin oshib kelmoqda. Ushbu ayrim metod va texnologiyalar ko'zlangan maqsadlaridan kelib chiqilib quyidagi turkumlarga bo'linadi. Masalan:

- Matn bilan ishlashga yo'naltirilgan interfaol metod va usullar:

“Zinama-zina”, “Bumerang”, “Insert”, “Keys-stadi”

- Ijodiy faoliyat va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan interaktiv metodlar:

“Idrok xaritasi”, “Esse”, “FSMU”, “Klaster”, “Guruhlarda ishlash”

- O'quv jarayonida muammolar va muammoli vaziyatlarni echishga yo'naltirilgan interfaol metodlar:

“SWOT-universal tahlil”, “Debat”, “Muammoli vaziyat yaratish”, “Rezyume”

- “Organayzer”:

Har xil chizmalar,

jadvallari yordamida amalga oshiriladigan interfaol metodlar:

“T-chizmasi”, “Venn diagrammasi”, “Baliqskeleti”

- O'quvchilarning BKMlarini o'z-

o'zini baholashga yo'naltirilgan interfaol metodlar:

“Blits-so'rov”, “Tushunchalar tahlili”, “Charxpalak”, “Assesment”,

“BBBusuli” metodlari

Matn bilan ishlashga yo'naltirilgan interfaol metod va usullar turkumi g'akiruvchi [“Zinama-zina” texnologiyasi o'quvchilarni o'tilgan yoki o'tilishi kerak bo'lgan mavzu bo'yicha yakka va kichik jamoa bo'lib fikrlash hamda o'zlashtirilgan bilimlarni yodga tushirib, to'plangan fikrlarni umumlashtira olish va ularni yozma, rasm, chizma ko'rinishida ifodalay olishga o'rgatadi. Bu texnologiya o'quvchilar bilan bir guruh ichida yakka holda yoki guruhlarga ajratilgan holda yozma ravishda o'tkaziladi va taqdimot qilinadi]

Bu texnologiya 3-sinf o'qish darsligining [“Keldi bahor – gulbahor” bo'limidagi “Erta bahor”, “Varrak”, “Navro'z – bahor bayrami”] mavzularini o'tishda juda qulay texnologiya hisoblanadi. 4-sinf “Oqish” darsligidagi “Yashasin tinchlik, bor bo'lsin do'stlik” bo'limidagi Shukur Sadullaning qalamiga tegishli “Tinchlik qushi haqida men o'qigan she'r” mavzusida she'rni o'tishda, darsning mustahkamlash bosqichida o'quvchilarni beshta kichik guruhga bo'lib, har bir guruhga bittadan to'rtlikni berib, ularga ushbu to'rtlikning mazmunini o'z so'zlari bilan A3 format qog'ozga marker bilan yozishni topshiriladi.

O'quvchilarni topshiriqni bajarishga tayinlangan shaklida doskaga ilib taqdimot qilinadi.

Bu

jarayonda o'quvchilarning mavzuni yanada mustahkamlaydilar. Bundan tashqari bir qancha mavzularni o'tishda foydalansalardayanch va fanga oid shaxsiy kompetentsiyalar ancha shakllanib boradi.

O'quv jarayonida muammolar va muammoli vaziyatlarni echishga yo'naltirilgan interfaol metodlar turkumi g'akiruvchi “SWOT-universal tahlil” metodini o'qish darslaridan a'rsayoki qahromonlar haqida o'tiladigan mavzularni o'tishda juda qo'll keladi. Masalan, 3-sinfda [O'tmishni o'rganish burchimiz bo'limidagi Tohir Malikning “Kitob”, “Ulug'lardan o'rganmoq – oqillik” bo'limidagi “Zahridin Muxammad Bobur”,

“Zehniotkir bola], ayniqsa 4-sinf o‘qishdarsligidagi [“Vatanimiz o‘tmishidan” bo‘lmidagi G‘.Gulomning “Shum bola”] mavzusida foydalanish juda qulay.

SWOT - ingliz tilidan olingan quyidagi so‘zlarning qisqachanombosib, lib,

[**S** - **Strengths** – kuchli tomonlar, **W** - **Weaknesses** – kuchsiz, **O** - **Opportunities** – imkoniyatlar, **T** - **Threats** – xavf-xatarlar]. Bu metodo‘quvchilarni o‘tilgan materialdagi narsa yoki qahromonlarni o‘rt tomonlamatahlil qiladivamaterialni chuquro‘rganib olishiga undaydi. Quyida “Shum bola” asariga SWOT –tahlil metodidan foydalanishni namunaqilib keltiramiz.

Shum bola

S	-Botirligi; - Xotirasining kuchliligi;	W	-O‘yinqoroqligi; -Qashshoqligi; -
O	-Hozirjavobliligi; -Vaziyatdanchiqalishi; -	T	-Yolg‘onchiligi; -Savodsizligi; -

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joyiz, boshlang‘ich sinf “oqish” darslarida o‘quvchilar d kompetentsiyalarni ishakllantirishda yuqorida ko‘rsatilgan interfaol metod va texnologiyalarni samarali qo‘llansagina o‘quvchilarda tayanch kompetentsiyalar: kommunikativ, axborot bilan ishlash, umummadaniy va hako zolar, fanga oid xususiy kompetentsiyalar diqqat bilan o‘qiy olish, o‘z galar fikrini hurmat bilan tinglash, o‘z fikrini ayta olish va himoya qilish kabi komponentlar asta sekin shakllanib boradi. Bu esa bizning farzandlarimiz rivojlangan davlatlarning bolalari kabi intellectual va sog‘lom bo‘lishining omili hisoblanadi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Ishmuxamedov R, Abdiquodirov A, “Ta’limda innovatsiyon texnologiyalar” T., 2008
2. M.Umarova, X.Hamroqulova, R.Tojiboeva, 3-sinf uchun “Oqish” kitobi. T. 2012
3. S.Matjanov, A.Shojalilov, X.G‘ulomovava h. 4-sinf “O‘qish” kitobi. T. 2013

6-SINFDA “QADIMIY VA NAVQIRON SHAHARLAR” MAVZUSINI O‘RGANISH (TALIM BOSHQA TILLARDAGI MAKTABLAR UCHUN)

Xalmuratova D - Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nukus shahar 38-sonli maktabning Ona tili va adabiyoti o‘qituvchisi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi ta’lim a’lochisi

Jumamuratova S. - O‘zbek tili va adabiyoti 1 kurs talabasi

Sinf: 6

Fan nomi : O‘zbek tili

Darsning mavzusi: Qadimiy va navqiron shaharlar. Ozaytirma darajadagi sifat larning qo‘llanishi. 1-dars.

Maqsad :

a) ta’limiy maqsad: o‘quvchilarga sintaktik usulda sifat larning ozaytirma darajasini hosil qilish haqida ma’lumot berish, sifat larning ozaytirma darajasini nutqda to‘g‘ri qo‘llash malakasini shakllantirish;

b) tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarda istiqlo l tufayli respublikamiz viloyatlari, shahar va qishloqlarida yuz bergan katta o‘zgarishlar bilan faxrlanishga, o‘z yurtiga, ona-vataniga muhabbatini oshirish, buyuk bobolarimiz bilan faxrlanish, tarixni asrash, milliy qadriyat larni e’zozlash ruhida tarbiyalash

s) rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarning og'zaki va yozma bog'lanishli nutqini shakllantirish, to'g'ri, chiroyli yozish ko'nikmalarini rivojlantirish;

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Dars metodi: aralash, test, savol-javob, guruhda ishlash, lug'at diktant

Darsda foydalaniladigan jihozlar: "O'zbek tili" darsligi, rangli rasmlar, videolavha, proyektor, slaydlar, badiiy kitoblar, testlar, lug'at uchun qog'oz.

Jarayon:

I.Tashkiliy qism Jihozlarni tayyorlagach, yo'qlama qilinadi.

II.Uyga vazifani so'rash: 8 daqiqa. Takrorlash. Kitob o'qishning hikmati. Matn ustida, lug'at ustida ishlash . Matndan gumon olmoshlari qatnashgan gaplarni aniqlab daftaringizga yozing.

Savol-javob o'tkazish.

1.Matn nima haqida?

2. Ibn Sino kim?

3. Matnning asosiy mazmuni qanday?

4.Matnda qanday gumon olmoshlari qatnashgan?

III.Yangi mavzu bayoni. 10 daqiqa.

1-topshiriq. Savollar asosida o'zaro suhbatlashing.

-Rasm qaysi tarixiy obida tasvirlangan?

-U qaysi shaharda joylashgan? Siz bu shaharga borganmisiz?

-Yana qaysi qadimiy shaharlarni bilasiz?-

-Siz yashaydigan shaharda qanday qadimiy me'moriy obidalar bor?

1-mashq. Matnni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga e'tibor bering.

Samarqand

Samarqand jahondagi eng qadimiy shaharlardan biridir. Arxeologlar Samarqandning salkam 3ming yillik tarixga egaligini aniqlashgan.U qadimda Marokand, Afrosiyob nomlari bilan atalgan. Samarqandning dunyoga tanilishida bobomiz Amir Temurning xizmatlari katta bo'lgan. Ular Samarqandda juda ko'p madrasalar,maqbaralar qurdirganlar, boglar barpo etganlar. Ayniqsa,Registon maydonidagi bir-biridan salobatliroq madrasalar, ko'kish gumbazlar, sarg'ish, qizg'ish ranglar bilan sirlangan serhasham ustunlar barchani o'ziga maftun etadi. Jahonning biror mamlakatida qadimiy obidalar jamlangan bunday go'zal maydon yo'q.



Lug‘at
Salkam-
Gumbaz-
Ustun-
Tanilmoq-
Ko‘kish-
Maftun et(moq)-
Jamlangan –

Slayd namoyishi. 8 daqiqa

Bilib oling!

Sifatlarning ozaytirma darajasi –mtir, -imtir, -ish qo‘shimchalarini qo‘shish orqali hosil qilinadi va belgining kamligi, kuchsizligini bildiradi. Masalan: qoramtir, ko‘kimtir, sarg‘imtir, oqish, ko‘kish, sarg‘ish kabi. Ushbu qo‘shimchalar qo‘shilganda, ayrim tovush o‘zgarishlari yuz berishi mumkin. Shuningdek, -roq qo‘shimchasi ham belgini ozaytirib ifodalaydi. Masalan: sariq+ish=sarg‘ish, qizil+ish=qizg‘ish kabi.

Belgi bildiruvchi so‘zlarning darajalanishi yodda tuting!

Oddiy daraja		Ozaytirma daraja
Qizil	qizilroq	qizg‘ish
Katta	kattaroq	
Qora	qoraroq	qoramtir
Pushti	pushtiroq	
Kichik	kichikroq	
Nordon	nordonroq	

IV. Mustahkamlash. 17 daqiqa.

Lug‘at diktant.

Sariqroq, ko‘kimtir, oqish, sarg‘ish, qizg‘ish.

Diktant dars jarayonida tekshirilib natijasi e‘lon qilinadi.

3-mashq. Nuqtalar o‘rniga mos sifatlar qo‘yib, so‘z birikmalari tuzing. Har bir ustun alohida har qatorga beriladi.

... minora	... bino	... shahar
... osmon	... qal‘a	... ko‘cha
... obida	... qasr	... madrasa
... maydon	... maqbara	... mehmonxona

2-topshiriq. Foydalanish uchun berilgan so‘zlar yordamida savol-javob o‘tkazish. O‘quvchilar 2 guruhga bo‘linadi.

1-guruh “Xiva”, 2-guruh “Buxoro”, 3-guruh “Samarqand” deb nomlanadi.

Har bir guruhga bittadan buklet beriladi. Bukletdagi rasmlar asosida uchtadan gap tuzishlari lozim.

1. Registon maydonidagi madrasalar qanday nomlanadi?

2. Mirzo Ulug‘bek qaysi madrasani qurdirgan?

3. Ushbu madrasalarda kimlar tahsil olgan?

V. Darsni yakunlash. 2 daqiqa

Faol qatnashgan o'quvchilarning bilimini baholash va rag'batlantirish.

Uyga vazifa.

1. **“Qadimiy va zamonaviy Samarqand” mavzusida matn tuzing.**
2. **Qadimiy shaharlardan Xiva va Buxoro haqida gazeta va jurnallardan ma'lumot to'plash.**
3. **Qadimiy shaharlarning rasmlasridan namunalar chizish.**

Eslatma: Agar vaqt ortib qolsa, beshta savoldan iborat test olish mumkin.

Test

1. Qadimiy shaharlar berilgan qatorni belgilang.
 - A. Toshkent, Amudaryo, Nukus
 - B. Xiva, Buxoro, Samarqand
 - C. Shaxrisabz, Qo'qon, Andijon
 - D. Namangan, Xorazm, Farg'ona
2. Ozaytirma darajadagi sifatlarni hosil qiluvchi qo'shimchalarni toping
 - A. –imtir, -dir
 - B. –ish, -g'ish
 - S. – imtir, -ish
 - D. – roq, -g'ish
3. Mirzo Ulug'bek qaysi tarixiy obidani qurdirgan?
 - A. Bibixonim
 - B. Sherdor
 - S. Tillakori
 - D. Rasadxona
4. Qaysi so'zga –ish yoki –imtir qo'shimchasini qo'shish mumkin emas?
 - A. Oq
 - B. Yashil
 - S. Qizil
 - D. Ko'k
5. Gumon olmoshlari hosil qiluvchi vositalar berilgan qatorni ko'rsating.

A. har, hech	B. alla, -dir
S. narsa, bir	D. alla, har

Foydalangan adabiyotlar

1. I.A. Karimov. “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch”. Toshkent, 2008
2. N. Sayidahmedov. “Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya”. Toshkent, 2003.
3. A. Nurmonov, I. Ikramov, F. Boynazarov. “Yangi pedagogik texnologiya asoslari” (Interfaol darslar). Toshkent, 2007.
4. B. To'xliiev, M. Shamsiyeva, T. Ziyodova. “O'zbek tili metodikasi” Toshkent, 2006.
5. X.S. Muxitdinova, Ya.I. Avlakulov, D.A. Nuriddinova. O'zbek tili. 6-sinf uchun darslik. Toshkent, “Yangiyo'l poligraf servis”, 2013.

BIR YIL TUT EKKAN KISHI, YUZ YIL GAVHAR TERADI

Xalmuratova D - Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Nukus shahar 38-sonli maktabning Ona tili va adabiyoti o‘qituvchisi,

Qoraqalpog‘iston Respublikasi ta’lim a’lochisi

Jumamuratova S.- O‘zbek tili va adabiyoti 1 kurs talabasi

Sinf: 6

Fan nomi : Ona tili

Darsning mavzusi: Son so‘z turkumi yuzasidan mustahkamlash darsi. 2-dars.

Darsning shiori: Bir yil tut ekan kishi, yuz yil gavhar teradi.

Maqsad :

a) ta’limiy maqsad: o‘quvchilarga son haqida, ma’no guruhlar haqida mavjud bilimlarini mustahkamlash, boshqa so‘z turkumlaridan farqlash;

b) tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarni komil inson ruhida tarbiyalash, tabiatga muhabbat tuyg‘usini uyg‘otish;

s) rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga, o‘rganganlaridan xulosa chiqara olishga o‘rgatish, amaliy ishlarni bajartirish orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlash faoliyatlarini rivojlantirish;

Dars turi: o‘quvchilar egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarni tahlil qiluvchi

Dars uslubi: an’anaviy (mustaqil ishlashga yo‘naltirilgan)

Darsda foydalaniladigan jihozlar: darslik, qo‘shimcha adabiyotlar, mavzuga oid jadvallar. Al-Xorazmiyning rangli rasmlari.

Dars texnologiyasi

Dars elementlari		I	II	V		I
Davomiyligi		5	5	0		

Texnologik xarita

Mavzu	Son so‘z turkumi yuzasidan mustahkamlash darsi. 2-dars.
Maqsad va vazifalar	O‘qituvchi: Mavzuni atroflicha yoritish, darsni o‘quvchilar bilan hamkorlikda olib borish, to‘liq o‘zlashtirishga erishish.
Dars jarayonining borishi	1.Tashkiliy qism. 2.Uy vazifasini tekshirish, tarqatma materiallar bilan ishlash. 3. Yangi mavzu ustida ishlash. 4.Topshiriq va savollar bilan ishlash. 5.Umumlashtirish va xulosalash. 6.Baholash va rag‘batlantirish 7.Uy vazifasini berish.
O‘quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	Uslub: jadval, aqliy hujum, bu so‘z uniki, Shakl: frontal, yakka. Vosita: darslik, tarqatmalar, Nazorat: frontal, yakka kuzatish.

	Baholash: javoblardan kelib chiqib 5 balli tizim.	
Kutilayotgan natijalar	O'qituvchi: o'quvchilarning ijodiy fikrlay olishlariga, o'rganganlaridan xulosa chiqara bilishlariga erishadi.	O'quvchi: qiyosiy tahlillar yordamida ona tilidan qoidalarni xotirada uzoq saqlaydi, ingliz tilini puxta egallaydi. Darsga faol qatnashadi, ijodiy fikrlaydi, xulosa chiqara biladi.
Kelgusi rejalar	O'qituvchi: o'tilgan darsni tanqidiy tahlil qiladi, o'z ustida ishlaydi.	O'quvchi: uy vazifasini bajaradi, mavzuni puxta o'rganadi.

Darsning borishi:

I.Darsni tashkil etish. Jihozlarni tayyorlagach, davomat aniqlanadi.

II.O'tilgan mavzu yuzasidan ishlash.

1. O'tilganlarni takrorlash.
2. 4-topshiriq. Ikkitadan, beshovi, minglab, to'qqizinchi, o'n beshta so'zlari ishtirokida gaplar tuzing. Sonlarga izoh bering. 155-bet.

Savollar yozilgan qirqma qog'ozlar tarqatiladi. Bunda har bir o'quvchining imkoniyatidan kelib chiqib savollar saviyasi belgilanadi. (Sinfda nechta o'quvchi bo'lsa hammasiga savol berish lozim).

1. Son deb nimaga aytiladi?
2. Sonlar qanday yoziladi?
3. Miqdor va tartib sonlarning o'zaro farqini ayting. Miqdor sonlar qanday turlarga bo'linadi?
4. Sanoq sonlar nimani bildiradi va ular qanday ifodalanadi?
5. Dona sonlarning yasalihi haqida gapiring .
6. Chama sonlarni hosil qiluvchi vositalar haqida gapirib bering.
7. Jamlovchi sonlar qanday yasaladi? Ular nima uchun shunday nomlanadi?
8. Jamlovchi son yasovchi qo'shimchalar qaysi son asoslariga qo'shilganda ular tarkibida o'zgarish yuz beradi?
9. Taqsim sonlar qanday gap bo'lagi vazifasini bajaradi?
10. Kasr sonlar nimani ifodalaydi?
11. Kasr sonlarni ifodalovchi so'zlarni ayting.
12. Qanday so'zlar hisob so'zlari deyiladi?
13. Asosga qachon –inchi, qachon –nchi qo'shimchalari qo'shiladi?
14. Tartib sonlar nimani anglatadi?

Topshiriq. “Men buni bilaman” metodi. Sinfga umumiy savol beriladi. Qaysi qatorda sonlar berilgan? Buning uchun soʻzlar tarjima qilinadi.

- 1.Book, flower, mother, desk.
- 2.Read,listen,walk, write
- 3.Red, yellow, long, good, big
- 4.One, second, five,nine.

III.Yangi mavzu bayoni. Bunda slaydlar namoyish qilinib, oʻquvchidan yordam soʻraladi. Oʻtilganlarni oʻquvchiga aytiriladi, yangi maʼlumotlarni esa oʻqituvchi oʻzi taʼkidlab aytadi.

1-slayd

Son predmetlatning aniq sanogʻini, tartibini bildiradi.

Sanaladigan predmet nomini anglatuvchi ot bilan qoʻllanmagan sonlar matematik son maʼnosini ifodalab, mavhum maʼnoda boʻladi. Masalan: bir, ikki, oʻn besh

2-slayd

Son soʻzlar sonning nomini bildirganda matematik atama sanaladi, raqamlar – son turkumiga mansub soʻzlarning

3-slayd.

Sonlar narsalar, belgi-xususiyatlar, harakat-holatlarining miqdor yoki tartibini bildiradi.

4-slayd

Miqdor sonlar qanday miqdorni bildirishiga kora:

1. Sanoq sonlar: besh, oʻn, yigirma besh
2. Dona sonlar: beshta, oʻnta
3. Chama sonlar: yuzlab, minglab, uch-toʻrt
4. Taqsim sonlar: ikkitadan, oʻntadan
5. Jamlovchi sonlar: ikkovi, toʻrtalasi
6. Kasr sonlar: sakkizdan bir, beshdan uch

5-slayd.

Arab raqamlari aslida Hindistonda kashf etilgan bo'lsa-da, arab Sharqiga buyuk o'zbek olimi Muhammad Xorazmning arab tilida yozilgan "Arifmetika" asari orqali kirib kelgan, bu asar lotin tiliga tarjima qilinib, Evropada tarqalgan. Hindistonda yuzaga kelgan bu raqamlarning "arab raqamlari" deb nomlanishida bobomiz Muhammad Xorazmning ulkan xizmati bor.

6-slayd.

Rim raqamlari – qadimgi rimliklar ishlatgan raqamlar. Bu raqamlar miloddan oldingi 500-yillarda kashf qilingan. Ular belgilardan tashkil topgan. Masalan: I –bir , V-besh, X-o'n, L-ellik. C-vuz. M-ming. D-besh vuz

belgilaridan biridir.

Masalan: yuz metr, bir soat, uch tanga

8-slayd

Sonlar deyarli soʻz yasovchi qoʻshimchalarni qabul qilmaydi. Boshqa soʻz turkumlaridan son yasalmaydi. Sondan esa turli turkumlariga oid soʻzlar yasalishi mumkin. Masalan: uchlik, ikkilanmoq.

“Menga soʻz bering” metodi. Bunda oʻquvchilar uch qator boʻlib oʻtirgan boʻlsa, 5-7-8-topshiriqlar har bir qatorga bittadan beriladi

5-topshiriq. Gaplarni oʻqing. Sonlarga qavs ichida berilgan qoʻshimchalardan mosini qoʻyib koʻchiring. Sonning maʼno turlarini aniqlang. 1.Bitta-yarim...(-tadan,-ta, -tacha) soʻqmoqdan boshqa yoʻli yoʻq.

2.Ikki...(-ovi,-tacha, alasi) jim qolib oʻyga botdilar.

3.Uch yuz...(-inchi,-ta, -tacha)navkarni qalʼaga qoʻriqchilik qilish uchun qoldirdi.

4.Qumri ikki...(--dan, -inchi, -nchi) chopiqdan soʻng ishga chiqmay qoʻydi.

5.Hindistonda ming...(-tacha, -lab,-larcha)-millionlab gektar yerga paxta ekilar ekan.Paxta maydonining koʻpligi jihatidan u dunyoda uch(-ta, -tadan, -inchi) oʻrinda turadi.

7-topshiriq. Nuqtalar o‘rniga quyida berilgan sonlardan mosini qo‘yib ko‘chiring. Sonlarning gapdagi vazifasini tushuntiring.

- 1.Uning oldidagi ... nok va behi daraxtlari hozir oppoq bo‘lib gullab turibdi.
- 2.Rasul samolyot derazasidan kaftdek ko‘rinib turgan bu dashtni ... marta ko‘rayotgani yo‘q.
- 3.Odam hayotda iz qoldirib ... ga kirsas, yoshlikdagi kayfiyat, gayrat turaverar ekan.
- 4.Bir mahal qovun poliziga kelib qolibmiz. Abdullajon... qirqmani uzib chiqdi.

So‘zlar: besh-oltita, oltmish, birinchi.

8-topshiriq. Sonlar bilan birgalikda ishlatilgan hisob so‘zlarini toping va ularga izoh bering. Barcha o‘quvchilar bajaradi.

- 1.Faqat bir-ikki tilim handalak yediyu, uch-to‘rt piyola choy ichdi.
- 2.Uch-to‘rt qadam narida yotgan aravani endi ko‘rdi.
3. Hali o‘ngga, hali so‘lga burilib, ikki soat uch soat yo‘l yurdik.
- 4.Olti sotix maydonda 2500 tup pomidor bo‘ladi.
5. Abdulla qovunchiga o‘sha va‘da qilingan 50 gektar yer berildi.

“Bu so‘z uniki” metodi. 6-topshiriq bajariladi. Quyidagi sonlarni jadvalga joylashtiring va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Mingtacha, ellik, beshtadan, yuzlab, qirqta, yigirma, besh, uchdan bir, beshdan ikki, o‘ttiztacha, to‘qqiztadan, beshovi, uchalasi, o‘ntadan, sakkiz, yettita, yetmishta, to‘qqiz, minglab, minglarcha, o‘n sakkiz, yarim.

Sanoq	Dona	Chama	Jamlovchi	Taqsim	Kasr

IV.Umumlashtirish va xulosalash. **Slayd namoyish qilinadi. Topshiriq. Matndan sonlarni toping.**V.Baholash. O‘qituvchi bugungi dars haqida gapirib, o‘quvchilarning darsda qatnashganiga ko‘ra baholaydi va kundaliklariga qo‘yib, rag‘batlantirib, izoh beradi.

VI. Uyga vazifa.

1.9-topshiriq. 156-bet. “Biz ham kichkina tadbirkormiz” mavzusida matn tuzing. Matnda ishlatilgan sonlarni izohlang.

3.Sonlar ishtirok qilgan xalq maqollari va hikmatli so‘zlar topib yozish kelish.

Foydalangan adabiyotlar

- 1.I.A.Karimov. “O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li”. Toshkent, 1992, 71-72-bet.
- 2.“O‘zbekiston Respublikasining Qonuni” “Ta‘lim to‘g‘risida”. Toshkent, 1997.
- 3.N.Mahmudov, A.Nurmatov, A.Sobirov, D.Nabiyeva. Ona tili. 6-sinf uchun darslik. Toshkent, “Tasvir”, 2013.

4.I.P.Po'latov, S.Odilov. "Umumiy o'rta ta'lim maktablarining ona tili darslarida innovatsion o'yinlar". Toshkent, 2005.

“АРАБ ТИЛИДА ЖИНС КАТЕГОРИЯСИ” МОДУЛИНИ ЎҚИТИШГА ДОИР ИННОВАЦИЯЛАР ВА ИЛҒОР ХОРИЖИЙ ТАЖРИБАЛАР

И. Давлатмуродов – НДПИ ўқитувчи

Олий таълимда бошқа фанлар қаторида “Шарқ тиллари (Араб тили)” курсини ўқитишда ҳам инновацион таълим технологиялари асосида ишлаш даврининг асосий талаби, ҳаётнинг зарурияти бўлиб қолмоқда. Инновацияларнинг кўринишлари: янги ғоялар; тизим ёки фаолият йўналишини ўзгатиришга қаратилган аниқ мақсадлар; ноанъанавий ёндашувлар; одатий бўлмаган ташаббуслар; илғор иш услубларидир. Таълим тизимида ёки ўқув фаолиятида инновацияларни қўллашда сарфланган маблағ ва кучдан имкон қадар энг юқори натижани олиш мақсади кўзланади. Инновацияларнинг ҳар қандай янгиликдан фарқи шундаки, у бошқариш ва назорат қилишга имкон берадиган ўзгарувчан механизмга эга бўлиши зарур. Барча соҳаларда бўлгани каби таълимда ҳам “новация”, “инновация” ҳамда уларнинг моҳиятини ифодаловчи фаолият тўғрисида сўз юритилади.

Агар фаолият қисқа муддатли, яхлит тизим хусусиятига эга бўлиб, фақатгина тизимдаги айрим элементларни ўзгартиришга хизмат қилса у новация (янгилик) деб юритилади. Борди-ю, фаолият маълум концептуал ёндашув асосида амалга оширилиб, унинг натижаси муайян тизимнинг ривожланишига ёки уни тубдан ўзгартиришга хизмат қилса, у ҳолда у инновация (янгилик киритиш) деб аталади.

Бугунги кунда педагогларнинг инновацион фаолият кўникма, малакаларига эга бўлишлари муҳим аҳамиятга эга. Педагоглар томонидан инновацион фаолият кўникма, малакаларини ўзлаштира олишларида уларнинг инновацион ёндашувга эга бўлишлари талаб этилади. Ўз моҳиятига кўра педагоглар томонидан инновацион фаолият кўникма, малакаларининг ўзлаштирилиши уларда инновацион ёндашувни қарор топиши асосида кечади. Қуйида Араб тили дарсларида фойдаланилган ва ўз самарасини берган интерфаол усуллари хусусида қисқача тўхталамиз.

“Чалкаштирилган мантикий занжирлар кетма-кетлиги” интерфаол методи.

Масалан, “Жинс категорияси” мавзуси бўйича амалий машғулот ўтказилаёпти, дейлик. Дастлаб ўқитувчи доскага музаккар ва муаннас жинсларга оид сўзларни, шунингдек, ҳар иккала жинс учун умумий бўлган сўзларни чалкаштирилган ҳолда ёзиб қўяди. Сўнгра, улардан мазкур сўзларни қайси жинсга тегишлилигига қараб, оғзаки, кўргазмали ва амалий методларга таснифлашни таклиф этади.

Шоир (шаир.ун), Муаллим (муаллим.ун), Ҳамза (Ҳамза.атун), Талаба (толибатун), Қуёш (шамс.ун), Қўл (йад.ун), Боғдод (Багдаду), Бозор (савқун)

Навбатда амалиётимизда синовдан ўтказган айрим кейсларимиздан намуна келтирамиз:

КЕЙС: Биринчи курс талабаси И. Раҳимов Араб тили дарсида “Жинс категориялари” мавзусини мустаҳкамлаш юзасидан ўқитувчининг барча

талабаларга берилган топшириғи бўйича тузган (Халифа ўз замонасининг энг билимдон аёлларидан бири эди.) жумласини ўқиб эшиттиргач, гуруҳда гала-говур бошланди. Орқа қатордаги ўриндиқлардан бирида ўтирган талаба О. Саидова “Аёллардан ҳам халифа чиққами? ”,-деб кескин оҳангда гапирди. И.Раҳимовнинг жавоби:..

Юқорида келтириб ўтилган вазиятни таҳлил этинг. Сиз И. Раҳимовнинг ўрнида бўлганингизда қандай йўл тутган бўлар эдингиз? О. Саидованинг эътирози ўринлими?

Кейсинг ечимини топиш учун саволлар:Араб тилида отларда жинс категориялари қандай фарқланади?

Муаннас жинсининг асосий грамматик белгиси қандай? Тарихдан халифалардан кимларни биласиз? Та марбута билан тугаган сўзларнинг ҳаммаси ҳам муаннас жинс ҳисобланадими?

Талаба И. Раҳимовнинг жавоби: Ўтилган мавзудаги қоидаларга мувофиқ халифа сўзи та марбута билан тугаганлиги учун муаннас жинс деб ҳисоблаганлигини айтди.

Ўқитувчининг жавоби: Араб тилида шундай сўзлар борки, уларнинг жинси грамматик белгисига эмас, шу сўзнинг мазмунига қараб белгиланади. Та марбута билан тугаган сўз эркак кишини билдирса ёки эркак кишига қўйилган исм бўлса, бу сўз музаккар ҳисобланади.

Қуйида дарс жараёнида қўлланилган ва самарали натижа берган айрим тестлардан намуналар келтирамиз:

СТАНДАРТ ТЕСТЛАР1. Муаннас жинсдаги отларнинг асосий грамматик белгиси қайси жавобда тўғри кўрсатилган?

1. ن, B. ى, C. و, D. ة 2. . صالحون. A. صالح, B. لحو, C. لحو, D. صالح

НОСТАНДАРТ ТЕСТЛАР1. Тушириб қолдирилган сўзларни ёзинг.

1. Сўзнинг охирига та марбута белгиси қўйилса _____ дейлади.

2. Қаратқич ва қаралмиш муносабатидаги иккита отнинг “Ал” артикли ёрдамида боғланиши _____ дейлади. (Жавоби)

1. Сўзнинг охирига та марбута белгиси қўйилса муаннас жинс дейлади.

2. Қаратқич ва қаралмиш муносабатидаги иккита отнинг “Ал” артикли ёрдамида боғланиши изофа дейлади.

2. Қуйидаги бериладиган фикрларнинг қайсилари тўғри бўлса “ха”, нотўғри бўлса “йўқ” сўзларини қўйинг.

А. Араб тилида музаккар жинсдаги отларнинг охирида та марбута белгиси бўлади.

Б. Араб тилида унлилар сон 8 тани ташкил қилади.

С. Сўз ўзаклари фақат унлилардан иборат бўлиши мумкин

Жавоб:Б Д Жавоб: А В С ҳа йўқ ҳа

“Араб тилида жинс категорияси” модулини ўқитиш фанни чуқурроқ ўрганиш, кейинги мавзуларни тушуниш, осонроқ ўзлаштиришга имкон яратиши билан бирга тилимизга араб тилидан ўзлашган айрим сўзларни тўғри талқин қилишга ёрдам беради деб ҳисоблаш масадга мувофиқ:дир.

Араб тилини мукамал ўрганиш “Қадимги туркий тил”, “Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси”, “Ўзбек адабий тили тарихи”, “Ўзбек адабиёти тарихи” каби қатор фанларни чуқур ўрганишга замин яратади.

АДАБИЁТЛАР

1. Азизхўжаева Н.Н. Ўқитувчи тайёрлашнинг педагогик технологияси. – Т.: ТДПУ, 2000.
3. Бегимқулов У.Ш. Педагогик таълим жараёнларини ахборотлаштиришни ташкил этиш ва бошқариш назарияси ва амалиёти: Педагогика фанлари доктори. ... дисс. – Т., 2007. – 305 б.
- 8, Венгер А.Л., Десятникова Ю.М. Групповая работа со старшеклассниками, направленная на их адаптацию к новым социальным условиям//Вопросы психологии, 1995. № 1. – С. 25-32.
- Ibrohimov N., Yusupov T. Arab tili grammatikasi. 1-, 2-jildlar. –Т., 1998, 2003.
4. El-Said Badawi. al-Kitab al-asasi: A Basic Course for Teaching Arabic to Non-Native Speakers: 10. Volume. The American University in Cairo Press, 2009.

ЎЗБЕК ТИЛИ ДАРСЛАРИДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ НУТҚИЙ МАЛАКАЛАРИНИ ЎСТИРИШ УСУЛЛАРИ

М.Т.Худаярова -Нукус ДПИ Ўзбек тили кафедраси катта ўқитувчиси

Тилнинг хусусан, она тилининг шахс камолотидаги ўрнини ҳеч нарса билан қиёслаб бўлмайди. Биринчи Президентимиз И.А.Каримов таъкидлаганидек, «Она тили – бу миллатнинг руҳидир. Ўз тилини йўқотган ҳар қандай миллат ўзлигидан жудо бўлиши муқаррар»¹³.

Нутқ – киши фаолиятининг тури, тил воситалари (сўз, сўз бирикмаси, гап) асосида тафаккурни ишга солишдир. Нутқ ўзаро алоқа ва хабар функциясини, ўзаро фикрни ҳис-ҳаяжон билан ифодалаш ва бошқаларга таъсир этиш вазифасини бажаради.

Яхши ривожланган нутқ жамиятда киши фаолиятининг муҳим воситаларидан бири сифатида хизмат қилади. Ўқувчи учун эса нутқ мактабда мувафакқиятли таълим олиш куралидир.

Ўқувчиларнинг оғзаки ва ёзма нутқини ўстиришда самарали усулларни ишлаб чиқиш ҳозирги вақтда ўзбек тилини ўқитиш методикаси олдида турган энг муҳим вазифалардан биридир. Чунки ижтимоий ҳаётдан ўрин олиш учун тўғри ёзиш, ўз фикрини эркин баён этиш каби кўникма ва малакалар зарур.

Ўзбек тилига давлат тили мақоми берилиши, таълим ўзбек тилида олиб борилмайдиган мактабларда бу тилни асосий фан сифатида ўқитиш имкониятини кенгайтириб, унга бўлган масъулият ҳиссини кучайтирди.

Ўзбек тили машғулотлари олдида бош мақсад қилиб нутқий кўникма ҳосил қилиш қўйилган ва унга эришувнинг асосий омили дарсда нутқ мавзуси талаби даражасида нутқий вазифаларни бажариш, шунга қаратилган нутқ вазиятларидан мунтазам фойдаланиш ҳисобланади. Шундагина туркийзабон синф ўқувчилари ўзбек тилида эркин мулоқотга кириша олиш малакасини қийинчиликсиз эгаллайдилар.

Тўғри, ўзбек тили туркий тилларнинг бири бўлганлиги боис, русийзабон синф ўқувчиларига нисбатан туркийзабон синф ўқувчилари учун ўзбек тилини ўзлаштириш ва ниҳоят, ўзбекча эркин мулоқот малакасини эгаллаш, бадий

¹³ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б.83.

матннинг мазмунини тушунишлари қийин эмас. Аммо, таълим қорақалпоқ тилида олиб бориладиган мактабларда "Ўзбек тили" ўқув фанини пухта ўзлаштирилганлиги қорақалпоқ ва ўзбек тиллари орасидаги фарқларни билиш даражаси; ўқувчиларнинг ўзбекча матнларни тез, раво, тўғри ва ифодали ўқиш малакаси; ўзгалар фикри ва матн мазмунини англаш малакаси; фикрни оғзаки ва ёзма равишда баён қилиш малакаси, қорақалпоқча матнни ўзбек тилига, ўзбекча матнни қорақалпоқ тилига ўгириш даражаси; ўқувчиларнинг гап тузиш малакалари; иш қўғозларидан фойдаланиш даражаси сингари меъёрлар билан белгиланади.

Матн устида ишлаш, матн яратиш ўзбек тили машғулотларининг таркибий қисмига айланмоғи, ўқувчилар кузатган, эшитган, ўқиган, билган, тасаввур қилган нарса, воқеа-ҳодисаларни оғзаки ва ёзма шаклларда мақсадга мувофиқ равишда тўғри, ихчам, мазмундор ва бадиий тасвирлай олишлари ёки ҳикоя қила олишлари зарур.

Ўқувчилар нутқий малакаларининг аҳволини ўрганиш ва улар устида ишлаш ўзбек тили ўқитувчиларидан катта масъулият талаб этади. Ўқувчиларнинг ўзбек тилини амалий жиҳатдан билишларини назарда тутиб, уларга мураккаброқ топшириқлар бериш тавсия қилинади.

Фойдаланилган адабиётлар

1.Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008.

2.Маҳмудов Н. Ўқитувчи нутқ маданияти. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – 188 б.

3.Ғуломов А., Неъматов Ҳ. Она тили таълими мазмуни. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.

4.Ғуломов А., Қобилова Б. Нутқ ўстириш машғулоти. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILI VA O‘QISH DARSLARINI INTEGRATSIYALASHNING O‘ZIGA XOS USULLARI

Salieva Perdexan Alimbetovna-

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti katta o‘qituvchisi.

Yusupova Nargiza Baxtiyarovna-

To‘rtko‘l tumani 2 - sonli maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Integratsiya – predmetli bilimlar chegarasida yangi tasavvurlarni qabul qilish vositasi ekanligi hammamizga ma’lum. Integratsiya avvalo tabaqalashtirilgan bilimlar orasida bilmagan joylarni to‘ldirish, ular orasidagi aloqani o‘rnatilishidan iborat. D.Lokning fikricha integratsiya: «Ta’lim mazmunini aniqlashda bir fan boshqa fanlar elementlari va faktlari bilan to‘ldirilishi kerak».

Fanlararo integratsiyadan foydalanish o‘quvchilarga mujassam bilim berish orqali yanada ko‘proq, umumiy bilim berishimizda alohida ahamiyat kasb etadi. Ona tili va o‘qish darslarini o‘zaro bog‘lashimiz, o‘quvchilarda fanlarning o‘zaro uyg‘unligini, oson tushunishlariga imkon yaratadi. O‘quvchilarni bir butun ma’lumotga ega bo‘lishlarini ta’minlashga xizmat qiladi.

Ona tili va o‘qish darslarining borishi besh qism: tashkiliy qism, o‘tgan mavzuni takrorlash, yangi mavzu bayoni, mustahkamlash, uyga vazifa berish bosqichlaridan tashkil topadi.

Ona tili va o'qish darslarida induktiv, deduktiv, analiz-sintaez, suhbat, mustaqil ish, bayon qilish metodlaridan foydalanilinish maqsadga muvofiqdir.

Ona tili va o'qish fanlari o'quvchilarning nutqini rivojlantirishga xizmat qilishi bilan o'zaro yaqindir. Ona tilimizga xos barcha xususiyatlar, hodisalar, talaffuz qilish, gap tuzish, gapirish, qayta hikoya tuzish va boshqalar bu fanlarning umumiy xususiyatlaridir. Ona tili va o'qish fanlarining farqli tomoni shundaki, ona tili darslarida o'quvchilarning yozish malakalarini ham rivojlantirilib boriladi. Ona tili va o'qish darslari integratsiyasining tarbiyaviy ahamiyati shundaki, bu ikki fanning tarbiyaviy jihatlarining uyg'unlashishidadir.

Ona tili va o'qish darslari jarayoni ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirishga qaratilgandir. Ona tili va o'qish darslarida har bir kishi uchun zarur bo'lgan saranjom-sarishtalik, mustaqillik, tashabbuskorlik sifatlarini tarbiyalanadi. Ona tili va o'qish darslari o'quvchilar ongini o'stirishga, ularga g'oyaviy-siyosiy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasini berishga yo'naltirilgan. Ona tili va o'qish darslarida o'zbek tiliga muhabbat va so'zga ehtiyotkorlik bilan munosabatni tarbiyalashga katta ahamiyat beriladi.

Faol aqliy faoliyatga yordam beruvchi omillar – integratsiyalash uchun fanlarning maqbul birlashuvi, o'quvchi va o'qituvchi harakatlarining mos kelishi, bolalarning yosh imkoniyatlarini hisobga olgan holda mazmun, metod, usullarni tanlashdan iborat vazifalar o'quv predmetlarini integratsiyalash jarayonida amalga oshiriladi.

Integratsiyalashgan darslarni tashkil etishda albatta, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ona tili va o'qish darslarini integratsiyalashda interfaol metodlardan foydalanish muhimdir. Interfaol metodlar mavzuga mos keluvchi turli grafikli organayzerlardan, «Akvarium», «Bumerang», «Rezyume», SWOT-tahlil», «Skarabey» kabi strategiyalarni o'quvchilarni yoshiga mos holda foydalanib mavzuni o'quvchilarga yetkazishda ahamiyatlidir. Bu metodlar ta'lim jarayonini jadallashtirishga, o'quvchilarda: mustaqil va ijodiy fikrlash, jamoa bilan ishlash, muloqatga erkin kirisha olish, o'z-o'zini baholash, xushfe'llik, tanqidiy fikrlash, oqilona qarorlar qabul qilish, egallangan bilimlarni amalda qo'llash kabi sifatlarni qaror toptirishga ko'maklashadi; o'qituvchi uchun esa o'quvchilarni barchasi baholash hamda vaqtdan unumli foydalanish imkonini yaratib berishga, dars sifatini oshirib, o'quvchilarni bilimli bo'lishlari uchun xizmat qiladi.

Ona tili va o'qish darslarni integratsiyalashda modulli texnologiyadan foydalanish ham naqsadga muvofiqdir. Aniq maqsad ko'zlangan o'quv faoliyati elementlarida topshiriq va ko'rsatmalarni ma'lum bir vaqt ichida amalga oshirilishi bu modulli texnologiyadir. Bu jarayonda o'rganiladigan mavzu yuzasidan o'quvchilar biroz bo'lsa ham ma'lumotga ega bo'lishlari talab etiladi. O'quv faoliyati elementlari galma-gal bog'langan predmetlarga jalb qilinishi lozim. O'quv faoliyati elementlari soni eng kamida 5 ta, ko'pi bilan 12 ta bo'lishi talab etiladi. Har bir o'quv faoliyati elementida ikkala predmetni o'zaro bog'lab o'rganilishi mumkin. Bu holat o'qituvchining ijodiy izlanishiga, integratsiyalanayotgan mavzuning murakkab yoxud osonligiga bog'liq bo'ladi. Modulning to'g'ri tuzilishi o'quvchilarni qisqa vaqt ichida ikki mavzuni to'la, tez va aniq, mustahkam o'zlashtirishiga imkoniyat yaratib beradi. O'qituvchi shu darsni o'zida barcha o'quvchilarni baholashga ulgurishi va uyga vazifa berishga hojat ham qolmasligi modul texnologiyasining avzalligidir.

Ona tili va o'qish darslarini integratsiyalashda qisman muammoli ta'lim texnologiyalaridan ham foydalanish lozim. Muammoli ta'lim texnologiyasida darsning barcha qismlari muammolardan tashkil topishini inobatga olgan holda, ona tili va o'qish darslarini integratsiyalashda to'la mavhumlik qilish, o'quvchilarni ikkala mavzuni ham tushunmaslikka olib kelishi mumkinligini esdan chiqarmaslik lozim. Muammoli ta'lim texnologiyasida o'rgatilayotgan mavzuning eng kuliminatsion nuqtasini muammoli vaziyat sifatida tashlansa, shu muammoning yechimini o'quvchilar o'zlari o'ylab topishlari, mavzuni umrbodlikka o'zlashtirish, mustaqil va mantiqiy fikrlash, o'z fikrlarni erkin bayon etish kabi sifatlarni shakllantirishga yordam beradi.

Xulosa o'rnida quyidagilarni aytish lozimki: ta'lim maqsadiga ko'ra nutq malakalari va tilshunoslik ma'lumotlari o'rganiladi. Ona tili va o'qish darslarini integratsiyalashda avvalo ona tili va o'qishning o'qitish maqsadlarini birlashtirish katta ahamiyatga egadir.

ONA TILI TA'LIMI VA ISH DAFTARLARI

Urazbayeva Dilnoza Alimbayevna – o'zbek tili va adabiyoti magistratura mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar – p.f.n. Yuldasheva Shahlo Shukurlayevna

O'zbekistonda ish daftarlarining foydalanila boshlaganiga ko'p bo'lmadi: asosan chet tillarni o'qitish jarayoniga tatbiq qilinmoqda.

Ish daftari – tayyor andozalar bilan ishlashga mo'ljallangan bosma o'quv qo'llanmasidir. O'quv material hajmining, ayniqsa amaliy faoliyatning ortishiga bog'liq ravishda o'quvchilar faoliyatining bir turi, o'qitishning bir shakli sifatida qo'llanadi.

Ish daftarining qo'llanilishi o'qitish sifatini, ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi, o'qitishni individuallashtirish, istiqbolli ilg'or pedagogik usullarni tatbiq etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ish daftarlaridan foydalanishning dolzarbligi shundaki, bunday daftarlar o'quvchilarning axborotlar bilan ishlay olish ko'nikmalari va aqliy faoliyatini shakllantirishni uyg'unlashtiradi.

Odatda ish daftarlari o'qituvchi tomonidan kundalik nazoratlarni amalga oshirish jarayonida o'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini baholashda foydalaniladi.

Rossiyada A.N. Mansurov, S.A. Chandaeva, A.A. Shapovalov, shuningdek, Moskva davlat pedagogika instituti va Blagoveshensk davlat pedagogika institutining bir guruh olimlari tomonidan, I.N. Vereshagina va V.I. Sirotin kabi mualliflar ish daftarlarining bosma nashrlarini yaratish bo'yicha izlanishlar olib borishgan [1,2,3,4,5].

Rossiyada yaratilgan ish daftarlarini o'rganish natijasida ularga qo'yiladigan talablarni aniqlashtirish zarurligi ma'lum bo'ladi:

Rossiyalik 70 % pedagoglar ish daftarlarining o'quvchilarni shaxs sifatida yo'naltirishga yordam berishiga ahamiyat qaratish zarur deb hisoblaydilar.

Ayrim pedagoglar ish daftarlarini yaratishning didaktik shart-sharoitlarini hisobga olishga e'tibor qaratishsa, boshqalar ish daftaridan foydalanish bo'yicha o'qituvchiga mo'ljallangan metodik tavsiyalar yaratilishi zarurligini ta'kidlashadi. Aksariyat pedagoglar turli tayyorgarlik darajadagi va har xil rivojlanish bosqichidagi

o'quvchilar foydalanish uchun mo'ljallangan ish daftarlari yaratilishini ma'qul ko'rishadi.

Ish daftarlari uchun quyidagi guruhdagi savol va topshiriqlar taqozo qilinadi:

- O'rganilgan mavzuni takrorlashga qaratilgan bo'lishi;
- Tafakkurni rivojlanatirishga yordam berishi;
- Nazariy ma'lumotlarni amaliy o'rganishga mo'ljallanishi;
- Topshiriqlarning har xil murakkablikda taqdim qilinishi;
- Mustaqil bajarish uchun maxsus bo'sh joy qoldirish.

Ish daftarlardagi topshiriqlarda rasm, sxema, jadvallar ko'rinishida taqdim qilinadi va mustaqil bajarish uchun ko'rsatmalar keltiriladi.

Ish daftarida topshiriqlarni bajarish ketma-ketligi ko'rsatilishi zarur. Topshiriqlar yechimi uchun yetarli bo'sh joy qoldirish taqozo qilinadi.

Umumiy sanitar-gigienik talablar: shrift kattaligi, ranglar uyg'unligiga e'tibor qaratilish taqozo qilinadi.

Ish daftarlarning tuzilishi va mundarijasida quyidagilar e'tiborga olinishi zarur:

1. Har bir mavzu uchun kichik hajmli nazariy ma'umot, topshiriqlarni bajarish ketma-ketligiga amal qilish.

2. O'quvchilarning mustaqil ishi uchun ijodiy mashq va topshiriqlarning keltirilishi.

3. Har bir mavzu bo'yicha ilova, test savollari, nazorat savollari, adabiyotlar ro'yxati berilishi.

Ish daftaridan foydalanib dars tashkil qilish metodikasi har xil bo'lishi mumkin:

1. Yangi mavzuni o'rganish va mustahkamlash uchun foydalaniladi. Bunda ish daftarining nazariy ma'lumot qismiga asoslaniladi.

2. O'rganilgan mavzuni takrorlash va umumlashtirish uchun foydalaniladi. Bunda ish daftaridagi mashq va topshiriqlar, mustaqil ish topshiriqlariga asosiy e'tibor qaratiladi.

3. Ish daftari yordamida yangi mavzuni mustaqil o'rganish uchun alohida mashg'ulot tashkil qilish mumkin. Bunda o'quvchilarni tadqiqotchilik faoliyatiga jalb qilish maqsad qilinadi.

Umuman, ish daftarida ham darslikni to'ldiruvchi nazariy qism, ham amaliy qism o'rin oladi.

Ish daftarlarning afzalliklari sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

- topshiriqlarni murakkablik darajasiga ko'ra saralash;
- o'quvchilarning topshiriqlarni bajarish uchun sarflaydigan vaqtlarini tejash;
- ko'p miqdordagi topshiriqlarni bajarish imkoniyatining mavjudligi kabilar.

Xulosa o'rnida aytib o'tish o'rinliki, xorijda ish daftarlarni mukammallashtirish jarayoni davom etmoqda.

O'quv jarayoniga ish daftarlarni tatbiq qilish ta'lim jarayonini tashkil qilishning yangi usuli hisoblanadi. Albatta, uning ijobiy jihatlari mutaxassislar tomonidan e'tirof qilinmoqda: o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini aniqlashning yengillashishi, ularning fanga qiziqishlarining ortishi, topshiriqlarni bajarish jarayonida yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf qilib borish imkoniyatining mavjudligi kabilar.

Xullas, ta'lim jarayoniga yangi metod va usullar, texnologiyalarni olib kirish, ta'lim vositalarining ham takomillashishiga, yangi ta'lim vositalarining ixtiro qilinishiga keng imkoniyat yaratmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Аксенова, О. В. Рабочая тетрадь по информатике для первого класса. На правах рукописи. – Барнаул, 1997-1998.
2. Актуальные вопросы формирования интереса в обучении. /Под ред. Г.И. Щукиной, – М., 1984. – 176 с.
3. Щукина, Г.И. Активизация познавательной деятельности учащихся в учебном процессе. – М., 1979. – 160 с.
4. Чешков Р.О., Оболдина Т.А. Создание и использование рабочей тетради. shgpi.edu.ru/files/faculties/f11/publication/conf_2010/data/cheshkov.doc
<http://gdzlol.org/russkij-yazyk-4-klass-kanakina-rabochaya-tetrad.html>

O'QUVCHI PORTFOLIOSI VA UNING TIL TA'LIMI UCHUN AHAMIYATI

Karimova Sayyora Olimjon qizi – o'zbek tili va adabiyoti bakalavr ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar – p.f.n. Yuldasheva Shahlo Shukurlayevna

“Portfolio” – tushunchasi XV – XVI asrlarda G'arbiy Yevropadan kirib kelgan bo'lib, uyg'onish davrida arxitektorlar o'z buyurtmachilariga qurilish loyihalarini tayyor va xomaki variantlarini "portfolio" deb nomlangan alohida papkada taqdim etishgan. Ushbu papkada taqdim etilgan hujjatlar talabgorda qurilish loyihasi haqida taassurot hosil qilgan. Hozirgi vaqtda esa biznes olamida portfolio firmaning yutuqlarini ko'rsatish, fotosuratchi va fotomodellar sohasida esa suratlar albomi sifatida ishlatiladi.

Portfolioni ta'lim sohasida qo'llash g'oyasi, 80-yillarning o'rtalarida AQSHda paydo bo'lgan. AQSH va Kanadadan so'ng portfolio g'oyasi Yevropa va Yaponiyada ommalashgan, XXI asrning boshlarida esa bu g'oya Rossiyada keng tarqala boshlagan va hozirgi kunda O'zbekistonda ham keng yoyilmoqda.

Portfolio yaratilishiga qo'yiladigan maxsus talablar ham mavjud. Yevropa kengashida “Yevropa tillar portfoliosi” Bolonya jarayoni yo'nalishlariga muvofiq yaratiladi. Ko'pgina xorijiy mamlakatlarda o'qishga qabul qilishda talabgorning portfoliosi baholanadi.

Portfolio texnologiyasining ta'lim sohasidagi imkoniyatlari va undan foydalanish masalalari bo'yicha rus pedagoglari tomonidan qator tadqiqotlar olib borilgan. Zachesova E.V., Karamzina A.G., Silnova S.V., Velikanova A.V., Peyp S.J., Choshanov M. kabi mutaxassislarning maqola va qo'llanmalarida potrfolioni o'quv materialini o'zlashtirish va mustahkamlash vositasi sifatida foydalanish bo'yicha tadqiqotlar natijalari bayon qilingan [1,2,3,4].

O'zbekistonda portfolio texnologiyasi haqida 2000-yillardan buyon olib borilayotgan tadqiqotlarda R.Jo'rayev, A.Zunnunov, B.Farberman, N.Sayidaxmedov, R.Ishmuxammedov, A.Abduqodirov, A.Pardayev, U.Tolipov, L.V.Golish, D.Fayzullayeva, M.Usmonboyevlar tomonidan zamonaviy va innovatsion ta'lim texnologiyalari qatorida asosan o'qituvchi va talaba portfoliosining o'ziga xosligi yoritib berilgan [5,6,7,8]. O'quvchilar portfoliosini ta'lim samaradorligi omili sifatida tadqiq qilish bo'yicha tadqiqotlar olib borish jarayoni endi faollashmoqda.

Portfolio texnologiyasi ta'lim jarayonida o'quvchining shaxsiy natijalarini aks ettiruvchi ma'lumotlarni qayd etib borish imkonini beradi. U o'quvchining barcha faoliyatini, ya'ni o'quv, ijodiy, ijtimoiy, kommunikativ qobiliyatlarini qamrab oladi. Biroq u o'quvchi ishlari to'plangan oddiy papka emas.

Adabiyotlarda portfolio texnologiyasi bir qancha pedagogik vazifalarni hal qilishga yordam berishi ta'kidlanadi:

- 1) o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan ehtiyojini kuchaytiradi.
- 2) o'quvchini o'z oldiga maqsad qo'yish, ishlarini rejalashtirish, mustaqil ta'lim olishni o'zi tashkil qilishga undaydi.
- 3) faollik va mustaqilligini rag'batlantirish, mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish omili bo'la oladi.
- 4) o'quvchilarni o'z-o'zini baholashga, o'zining ijobiy o'sishlarini ko'ra olish va aniqlay olishga o'rgatadi.
- 5) kasb tanlashga yo'naltiradi va kasbga tayyorlaydi.

Rossiya o'quvchilarining portfoliolarini o'rganib chiqish shuni ko'rsatdiki, bu texnologiya til o'qitish jarayonida til va adabiyot o'qituvchisining eng yaqin yordamchisiga aylanishi mumkin ekan. Chunki portfoliada joylashtiriladigan ma'lumotlar, hujjatlar asosan o'quvchining o'zi tomonidan tayyorlanadi, portfoliadan o'quvchining ijodiy ishlari o'rin oladi. Demak, o'quvchi ona tili va adabiyot o'qituvchilari bilan hamkorlikda ishlaydi, ma'lumotlarni tahrirlash uchun o'qituvchining rahbarligi zarur, shuningdek, yozma nutqdagi imloviy va punktuatsion xatolar, uslubiy xatolarni bartaraf qilish bo'yicha o'quvchiga o'qituvchilar tomonidan maslahatlar berilishi taqozo qilinadi. Albatta, o'qituvchining boshqaruvchilik faoliyati portfolioning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Shularni nazarda tutgan holda ona tili o'qituvchilariga portfolio yaratish bo'yicha ilmiy-nazariy va amaliy ko'rsatmalar tayyorlash alohida ahamiyat kasb etadi.

O'quvchi portfolicida tarjimayi hol, psixologik tashxis, shaxsiy ma'lumotlar keltiriladi. Bu o'quvchining shaxsiy xarakterini baholashga yordam beradi. Bu qism orqali o'quvchi o'zining rejalari va qiziqishlariga ko'ra faoliyatini yil oxirida tahlil qiladi.

O'quvchining ijodiy fikrlashi, yozma hamda o'g'zaki nutqining rivojlanishida portfolio ona tili va adabiyot o'qituvchisi uchun ta'lim metodi bo'lishi mumkin. Boisi o'qituvchi rahbarligida o'quvchilar tasviriy, muhokama matnlarni, esse va insholarni yozib boradilar. Ular ham portfoliadan joy oladi.

Masalan, muhokama insho ijodiy ishning o'ziga xos turi bo'lib, u bolalardan qiyoslashni, ma'lum bir voqea-hodisaga baho berishni, o'z nuqtayi nazarini himoya qilishni, o'zining haqligini isbotlashni talab qiladi. Ijodiy ishning bu turi, ayniqsa, bugungi kunda o'quvchini ta'lim jarayonining ijodiy fikrlovchi faol ishtirokchisiga aylantirishga, bahs va munozaralar jarayonida o'zining haqligini himoya qilishga o'rgatishga qaratilgan.

Tavsifiy insholar ham muhokama inshoning bir ko'rinishi bo'lib, o'qilgan badiiy asar, ko'rilgan kinofilm qahramonlari haqida shaxsiy fikr-mulohazalarni bayon etish nazarda tutiladi.

O'quvchilarning ona tili va adabiyot fanlaridan muayyan mavzular bo'yicha adabiy, adabiy-ijodiy, erkin mavzudagi insholari, shuningdek aniq va tabiiy fanlardan ilmiy insholari, turli ko'rik-tanlovlar uchun yozgan yozma ishlari ("Yosh ijodkorlar", "Kamalak yulduzlari", "Bilimni buyuk, hunarni ulug' bil") portfolioga joylanadi. Insholarini tahrirlash jarayonida o'quvchi yozma nutqidagi imloviy va punktuatsion

xatolar, uslubiy xatolarni bartaraf qilish bo'yicha o'quvchilarning mustaqil ishlari tashkil qilinadi.

Portfolioda ayniqsa tarjimai hol yozilishi jarayoni juda muhim. Binobarin, o'quvchida qaysidir ish qog'ozini yozishga ehtiyoj paydo qilish tufayli rasmiy-idoraviy uslub bo'yicha ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga erishish borasida kutilgan natijaga erishish mumkin.

Portfolio bir vaqtning o'zida o'quvchining fanlarga bo'lgan qiziqishini uyg'otadi, shu bilan birga savodxonligini oshirishga xizmat qiladi. Shuning uchun portfolioni til ta'limida alohida metod sifatida qarash mumkin.

Demak, potrfolioning asosiy vazifasi ta'lim jarayonida o'quvchining shaxsiy natijalarini aks ettiruvchi ma'lumotlarni qayd etib borish sanalsa, ya'ni o'quvchining barcha faoliyatini: o'quv, ijodiy, ijtimoiy, kommunikativ qobiliyatlarini qamrab olsa, potrfolio yaratilishi jarayoni til ta'limi uchun alohida qimmatga egadir.

Portfolioning foydasi ota-onalar uchun ham beqiyos: boshlang'ich sinf o'quvchisining portfoliosini har bir ota-ona o'zi to'ldirib boradi. Bolasi haqidagi ma'lumotlarni: bolaning birinchi qadam qo'yishi, birinchi jilmayishi, birinchi aytgan so'zlari, birinchi sinfga qadam qo'yishi, olimpiada va tanlovlarda erishgan yutuqlari, bolaning qiziqishlari haqidagi ma'lumotlar portfolioni o'quvchining ikkinchi kundaligiga aylantiradi. Ota-onalarning savodxonligi ham farzandi portfoliosida namoyon bo'ladi. Demak, o'quvchi portfoliosi butun jamiyatga zarur bo'lgan muhim vositaga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

9. Зачесова Е.В. Образовательная технология "Портфолио" и возможность ее применения в обучении. <http://doob-054.narod.ru/portfolio.html>
10. Анастасия Геннадьевна Карамзина, Светлана Валерьевна Сильнова. Технология портфолио как метод усвоения и закрепления учебного материала ФГБОУ ВПО Уфимский государственный авиационный технический университет, <http://ugatu.ac.ru>; Cuberleninka.ru
11. Великанова А.В. и др. Технология развития критического мышления через чтение и письмо. Дебаты. Портфолио / Сер. «Компетентностно-ориентированный подход к образованию: образовательные технологии». Вып. 2. Самара: Профи, 2002. 92 с.
12. С. Дж. Пейп, М. Чошанов. Учебные портфолио – новая форма контроля и оценки достижений учащихся // Директор школы. 2000. № 1. С. 75–82. URL: <http://ecsocman.edu.ru/direktor/msg/177456.html>
13. Фарберман Б.Л., Мусина Р.Г. и др. Инструменты развития критического мышления. – Т.: Минвуз, 2002.
14. Ишмухамедов Р., Абдукодиров А., Пардаев А. Таълимда инновацион технологиялар. – Т., 2008
15. Толипов Ў., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбикий асослари. – Т., 2006.
16. Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O'quv uslubiy qo'llanma. Innovatsion ta'lim texnologiyasi seriyasi. – T.: "Iqtisodiyot" 2012.

2-СЕКЦИЯ

ЎЗБЕК АДАБИЁТШУНОСЛИГИ: ЎҚИТИШ НАЗАРИЯСИ ВА МЕТОДИКАСИ

БАДИЙ АДАБИЁТДА МАЪНАВИЙ ЕТУКЛИК ВА ТУБАНЛИК ИНКИФОШИ.

(Ч.Айтматовнинг “Кассандра тамғаси” романи мисолида)

К.Ташанов - Нукус ДПИ Ўзбек адабиёти кафедраси ўқитувчиси, ф. ф. н.

Бадиий адабиёт инсон - ижтимоий ҳаёт ва аксинча, ижтимоий ҳаёт - инсон муаммосини бадиий-эстетик тадқиқ этишда беқиёс кенгликларни очмоқда. Адабиёт асрлар уммонида ҳамиша инсонга, унинг манфаатларига хизмат қилиб, қалб туғёну кечинмаларини, руҳонияти, табиат ва жамиятдаги ўрнини бадиий таҳлил этиб келмоқда. Шу маънода, ижодкор адиб инсон кечинмаларини, орзу-истакларию ҳис-туйғуларини, муаммоларини қаламга олиб, мақомига етказиб тасвир-ифодаласа, ижодкор яратган бадиий ижод намунаси эл эътиборига тушиб шуҳрат қозонади.

Шоир Муҳаммад Али адабиётшунос олима Л.Аҳророва билан суҳбатда: “Ҳар қандай асар, хоҳ у шеър бўлсин, хоҳ роман, ўз-ўзича яралмайди, балки **замон зарурияти, давр талаби** билан ёзилади, **вақт талаби** билан қоғозга тушади. Буни ижоднинг ёзилмаган қонуни дейиш мумкин.

Ҳар қандай **асар** ёзилганда ўз жанрини, шаклини, ифода воситаларини ўзи белгилайди. Бўлмаса, у табиий чиқмайди. Масалан, маълум фикр, мавзу шеърга тушади, бошқаси - ҳикояга, эссега. Бу - аксиома”, - деган эди. [3.2]

Демак, ижодкор асари **замон зарурияти, давр талаби, вақт талаби** билан яратилар экан, унда **замон** ўзгаришлари ва **давр** муаммолари акс этар экан, **вақтни** эса ижодкор илҳоми белгилайди. Шу маънода Ч.Айтматовнинг “Кассандра тамғаси” романи **давр ва вақт талаби** билан яратилиб, **замон зарурияти** ила жаҳон адабиётидан муносиб ўрин олди. Бу романни ўзбек тилига Суюн Қораев “Охирзамон нишонлари” (Кассандра тамғаси) номи билан таржима қилган. Роман таржимасининг номига И.Ғаниев ва Р.Ибрагимовлар “Ч.Айтматов ва ХХІ аср” китобида эътироз билдириб: “Бизнинг назаримизда, профессор Суюн Қораев романн “Кассандра тамғаси” номини сақлаб қолганда, романга қизиқиш янада ортарди. Чунки юнон мифологиясидаги Троя подшосининг қизи, соҳиббашорат Кассандрани ҳамма билавермайди, табиийки, одамзод башоратга ўч”. [4.253.] Агар табиаттан “одамзод башоратга ўч бўлса” бизнинг наздимизда “Охирзамон нишонлари” номи айнан роман йўналиши ва ғояси нуқтаи назаридан мос. Чунки “башоратга ўч” одам, айниқса, ҳозирги даврда охирзамон аломатларига ҳам қизиқади.

“Кассандра тамғаси” романида Ч.Айтматов умумбашарий муаммоларни, бугунги кунда табиат-инсон, ҳаёт-инсон ҳамда аксинча, муаммоларни кўтариб, инсон табиатидаги юксаклик ва тубанликни теран бадиий таҳлил этади.

Асарнинг бош қаҳрамонлари олим Андрей Крильцов, аёли Евгения, маҳкума Руна, Роберт Берк ва хотини Жесси...

Андрей Крильцов қамоқхонада маҳкума аёлларда ирсий тажрибалар ўтказди. Унинг ўтказаётган тажрибаларига қарши аёли Евгения, маҳкума Руна бош кўтарадилар. Руна ўзини ҳалок қилади. Аёли Евгения уни ташлаб кетади.

Оқибатда у ёлғиз қолади ва исмини Филофей деб ўзгартириб коинотга космонавтлар билан учиб, орбитал станцияда қолади. “Мени ҳеч ким сочимни қирқиб роҳибликка қабул қилган эмас, мен шунчаки, бошқача айтганда, шартли самовий роҳибман ва исмимни ҳам шартли танлаб, ўзимни Филофей деб атаганман, қадимги Русда шундай исмли роҳиблар бўлишган. Фазовий ҳужрада дарвишона яшашни ўзим танлаганман. Бизнинг халқаро экипажимиз— америкалик, япон ва мен (яқин вақтгача совет олими ва космик лабораториянинг илмий раҳбари) ўз дастуримизни тугатиб, Ерга қайтишимиз керак эди, мен орбитал станцияни ташлаб, кўп марта фойдаланиладиган фазовий космик кемага ўтишдан бош тортдим. Мен бу ҳақда баёнот бердим ва мени тинч қўйишларини талаб қилдим. Ўткир устарани томоғимга қадаб, шерикларимни мени ўз ҳолимга қўйишга мажбур қилдим. Ва ўз сўзимни ўтказдим...” [2.21.]

Эътибор қилсак, бир вақтлар одам генетикаси устида чиркин ва ифлос, инсон номига доғ туширадиган тажрибалар ўтказган Андрей Крильцов тавбасига таяниб, қилган гуноҳлари, айблари учун Аллоҳга илтижо қилмоқда. Унинг қарашларидаги бундай бурилишни қандай тушуниш мумкин? Ч.Айтматов романда ана шу саволга жавоб излайди. Инсондаги маънавий етуклик ва тубанликнинг моҳиятини излайди.

Ч.Айтматовнинг “Охирзамон нишонлари (Касандра тамғаси)” романи фалсафий-интеллектуал роман. Чунки унда барча фанларнинг энг сўнгги кашфиётлардан тортиб, табиат ва жамиятнинг, инсоният ва муҳитнинг, жамики тирик мавжудотларнинг ривожланиш ҳамда таназзулининг фалсафий ифодалари мужассам этилиб синтизлаштирилган.

Хуллас, Ч.Айтматовнинг “Охирзамон нишонлари (Касандра тамғаси)” романидаги инсоннинг маънавий етуклиги ва тубанлиги муаммоси, бугунги кунда глобаль дунёда рўй бераётган воқеа-ҳодисалар бадиий инкишоф этилган.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. –Т.: Маънавият. 2008.
2. Айтматов Ч. Охирзамон нишонлари. Касандра тамғаси. [www. Ziyouz.com](http://www.Ziyouz.com)
3. Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърияти. (Тамойиллар, тажрибалар, сабоқлар). –Т.: Фан. 2007.
4. Ғаниев И., Ибрагимов Р. Чингиз Айтматов ва XXI аср. -Т.: Akademnashr. 2013.

ГЕРАДОТНИНГ «ТАРИХ» КИТОБИДА САҚЛАНИБ ҚОЛГАН СКИФЛАР ТЎҒРИСИДАГИ АФСОНАЛАР ҲАҚИДА

Ҳамза Алламбергенов- Нукус давлат педагогика институти Ўзбек адабиёти кафедраси ўқитувчиси

Маълумки, Геродотнинг «Тарих» китоби Ўрта Осиё халқлари маданий тафаккурининг муайян босқичи хусусида маълумот берувчи комусий манбадир. Китобда бу ерда истиқомат қилаётган халқларнинг оғзаки ижоди, дунёқараши, бадиий тафаккур тарзи ҳақида кенг маълумот берилади. Ҳикоя қилинишича, Геракл чорвасини ҳайдаб, ўша пайтда инсон оёғи етмаган юртга бориб қолган экан. (Ҳозир у ерларда скифлар яшайдилар.) Герион Понтадан узоқда – Океан оролида, Геракл Устунлари ортидаги Гадирда истиқомат қиларди (бу оролни эллинлар Эрития деб айтишади).

Эллинлар фикрича, Кун чиқишдан бошлаб, бутун Ер шари бўйлаб океан оқар экан. Лекин уларнинг ўзлари ҳам буни аниқ исботлай олмайдилар. Шундай қилиб, Геракл ҳозирда Скифлар мамлакати деб айтиладиган жойга ўша ёқдан келиб қолган экан. У ерда Геракл бўрон, совуққа деч келиб қолибди. У отларини ўтлатгани қўйиб юборибди ва ўзи *тўнғиз терисига* (таъкид бизники – Ҳ.А.) ўраниб ухлаб қолибди. Бу пайтда унинг отлари сирли равишда ғойиб бўлибди.

Геракл уйғониб, отларини излашга тушибди ва бутун мамлакатларни кезиб чиқибди. Ниҳоят, Гилай деган юртга келибди. У ерда бир ғор бор экан. Ғорда у *ярми аёл, ярми илон бўлган* (таъкид бизники – Ҳ.А.) аллақандай жонзотга дуч келибди. У жонзотнинг сағрисидан юқори қисми – аёлга, пастки қисми – илонга ўхшар экан...

Бундан кейинги воқеалар маълум: Геракл ўша жонзотнинг талабига кўра, унга уйланади ва ундан учта ўғил туғилади. Энг кичигининг исми Скиф бўлиб, Геракл қўйган шартни бажаради – унинг камонини тортади, камарини боғлайди ва Скифия шоҳи бўлади.

Гарчи Геродот скифларнинг пайдо бўлиши ҳақидаги учта афсонадан иккитасига (жумладан, бу афсонага ҳам) ишонмаслигини, фақат скифларнинг Ўрта Осиёдан келиб чиққани тўғрисидаги ривоятга (бу ривоят кўпроқ тарихийлик тамойилларига асосланган бўлиб, барча воқеалар маълум аниқ географик шароитда ва аниқ тарихий қавмлар ўртасида юз беради) ишонишини асарида айтиб ўтган бўлса ҳам, биз учун мазкур афсонадаги ярми илон ва ярми одам бўлган жонзот тимсоли диққатга сазовор. Бундай жонзот ибтидоий тафаккур босқичи учун характерли ҳодиса. Бу тасвири шундай талқин қилиш мумкин: ибтидоий инсон ҳайвонот олами билан қариндош эканига қатъий ишонар эди-ю, бу мавзудаги ҳамма «сюжет»ни ҳам ижоднинг мифик даври билан боғлайвермас эди, яъни инсоният мифик даврни ҳам одатдаги ҳол деб қараган. Чунки шундай тасаввурга эга бўлган инсон ибтидоий жамоанинг оддий аъзоси бўлган эди. Шу боис у жонзот билан қариндошлик алоқасига киради ва шу орқали уруғга асос солинади.

Худди шу хусусият болаларнинг ўйинлари жараёнида ўз ифодасини топади. Ўғил болалар ўз тасаввурида ёғоч отлар, стул ёки бирон ёғоч буюмлар воситасида қандайдир жонзотни ҳаракатга келтиради. Болаларнинг тасаввуридаги бу жараён илк мифологик даврни гавдалантиради. Ёки қиз болаларнинг қўғирчоқларини ҳам шунга мисол қилиб келтиришимиз мумкин. Қўғирчоқни болалар ўзларининг қиёфадоши сифатида тасаввур қиладилар, уларни ўзлари каби жонли деб, ўзларининг хатти-ҳаракатларини кўчирадилар (аллалаб, «ухлатадилар», овқат берадилар, қўғирчоқнинг «хафалигига», «шодлигига» шерик бўладилар).

Юқоридаги афсонада келтирилган ярми илон, ярми жонзот тимсоли билан боғлиқ анъана фақат Геродот келтирган афсоналардагина мавжуд эмас, балки шу мазмундаги туркий қавмлар яратган афсоналар ҳам бор. Бу ҳақда Н.Раҳмоновнинг ишларида айрим жиҳатлари айтиб ўтилган. У скифлар билан қадимги туркийларнинг уч қаватли олам модели ҳақида сўз юритиб, ҳар иккала халқнинг дунёқараши, оламни англаш мезонларидаги умумийликларнинг ибтидосини аниқлашга ҳаракат қилган ва бундан бошқа бир қатор омиллар орқали ҳар иккаласининг келиб чиқишини топишга эришган [Раҳмонов: 45-46].

Умуман олганда, ғайритабиий тимсоллар ва мифология ўзаро зич боғланган, бири иккинчисисиз бўлиши мумкин эмас. Шу боис мифологик образлар билан ғайритабиий тимсоллар ўртасига тенглик аломатини қўйиш мумкин. Мифологик образлар шуниси билан диққатга сазоворки, уларда ибтидоий фикрлашнинг ҳар қандай тури – мантиқий фикрлаш ҳам, бадиий фикрлар ҳам, аниқ ва мавҳум фикрлаш ҳам акс этади. Ибтидоий фикрлаш босқичи эса, ўз навбатида, ибтидоий инсоннинг дунёқарашидан иборат. «Ибтидоий инсон ҳам ўзини табиий оламдан ажратиб олмаган, инсоний хусусиятларни табиий объектларга кўчирган, уларга ўз ҳаётини, инсон ҳис-туйғуларини, онгли, маълум бир мақсадга йўналтирилган фаолиятини сингдирган» [Мелетинский: 164-165]. Бу дегани – инсон атроф-муҳитни шахслаштирган деганидир. Атроф-муҳитни «шахслаштириш» орқали ибтидоий инонч-этиқодлар – фетешизм, анимизм, тотемизм каби этиқод ва қарашлар шаклланади, бу эса ғайритабиийликсиз бўлиши мумкин эмас. Ибтидоий даврда «одат»даги ҳолат бугунги кунда ғайритабиийлик касб этади.

Адабиётлар:

1. Геродот. История. Москва: Ладомир, 1993.
2. Мелетинский Е.М. Поэтика мифа. – Главная редакция восточной литературы. Москва, 1976.
3. Раҳмонов Н.А. Орхоно-енисейские памятники и тюркские эпосы. АДД, с.1991.

ISTIHFOM SAN'ATINING IJODKORLAR IJODIYOTIDAGI TALQINI

G.Pashieva -*Nukus DPI O'zbek adabiyoti kafedrası o'qituvchisi*

E.Axtamova - *Nukus DPI O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 2-kurs talabasi*

Adabiyot shunday bir kuchki, u hayot haqiqatini badiiy haqiqatga, badiiy haqiqatni hayot haqiqatiga aylantira oladi. Bu jarayonda albatta bosh rollarni albatta shoir, yozuvchi va ijodakorlar ijro etdilar.

Har bir shoir, har bir yozuvchi o'zining yaratgan asarlari orqali insonning ma'naviy ruhiyatiga chinakam ta'sir ko'rsata olsagina bu sharaflı va ma'suliyatli vazifani ado eta olgan hisoblanadi. Masalan ijodkor she'r yozadi. Sher esa shoir hissiyotining moddiylashuvi, qalb iztiroblarining su'rati, anglab yetilgan haqiqat, ijodkor tuyg'usining teranligi. She'r yurakka hayajon yuqtiradigan borliq manzarasi. She'r qalblarga ma'naviy dalda beradi, his-tuyg'ulari va tug'yonlariga yo'l ochadi. She'r o'qiganda inson o'zida qandaydir estetik zavqlanish yoki hissiy ta'sir kuchini sezishi lozim. Shoir she'rining go'zal ma'noli va jozibador chiqishi uchun she'riy san'at turlari va vositalaridan foydalanadi.

Azal-azaldan, adabiyotimizda shakillangan, shoirlarimiz tomonidan unumli foydalanilgan va bugungi adabiyotimizda ham mavjud bo'lgan, tadqiq va tahlil qilinayotgan she'riy san'at turlaridan biri **istihfom san'atidir**. "So'ramoq" ma'nosini anglatuvchi bu usul she'riy asarlarda lirik qahramonning ichki olami, qalbida mavjlanayotgan tuyg'ulari, ichki kechinmalari, pokiza orzularini kimgadir yoki nimagadir murojaat etib so'rash orqali, savollar vositasida aks ettirishni nazarda tutadi.

A.Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonidan olingan, Shirinning Farhodga yozgan maktubida:

Chekardin g'am tog'in holing nechukdir?
Bu yukdin jismi chun noling nechukdur?
Qattiq g'urbat aro holing ne erkin?
Achchiq furqatda ahvoling ne erkin?
Firoq ichra nechukdur jismi zoring?
Ne yang'lig' to'lg'anur o't ichra toring?

Bu yerda Shirinning Farhodga bergan savoli uning ahvolidan xavotirda ekanligini, uning ruhiy va jismoniy azoblarini Shirinning Farhodga bergan savoli orqali uning ahvolidan xavotirda ekanligini, uning ruhiy va jismoniy azoblarini Shirin ich-ichidan his qilib, unga achinib, ko'zlari yposhga to'lganligi ifodalangan.

Boburning:

Charxning men ko'rmagan jabru jafosi qoldimu?
Xasta ko'nglum chekmagan dardu balosi qoldimu?

yoki:

Ishqingda ko'ngul xarobdur, men ne qilay?
Hajringda ko'zim purobdur, men ne qilay?
Jismim aro pech-u tobdur, men ne qilay?
Jonimda ko'p iztirobdur, men ne qilay?

Muhammad Rahimxon Feruzning:

Gulshan ichra sarv yoxud ul qaddi mavzunmudur?
Nargis erkanmu va yo ul chashmi purafsunmudur?

Munis ijodidan:

Istading ey dil, ko'zin, joning kerakmasmu sanga?
Kufri zulfin sevdning, imoning kerakmasmu sanga?

yoki:

Qaysi gulning men kibi bir andalibi zoru bor?
Qaysi bulbulning seningdek bir guli bexori bor?

Barcha misollarda ko'rinib turganidek, lirik qahramon savol berish orqali bir muommoni yoki shikoyatni aniqlashni emas, balki, o'z dil izhorlarini, qalb kechinmalarini, azob-u iztiroblarini, his-tuyg'ularini shu tarzda bayon etish maqsadini ko'zlaydi.

Istihfom san'atida his hayajon asosiy o'rinni egallaydi. Istihfom san'ati shoir va ijodkorlarning ijodiy fantaziya kuchidan mohirona foydalanishini taqazo etadi. Istihfom san'ati she'rlarda qo'llanilganda savollar har qysi banda takrorlanib, asar g'oyasini qayta-qayta ta'kidlashga xizmat qiladi. Bu san'at turida musiqiylik, ohang so'roq ta'kid kuchaytiruv muhim ahamiyatga ega. Ijodkorning ijodiy faoliyatini shakillantirish bilan birga uni chiroyli fusunkor so'zlardan foydalanib asar yaratishga chorlaydi. Bu omillar va usullar har bir asarning yoki she'rning mukammal chiqishi uchun xizmat qildi.

Muhammad Aminxo'ja Muqumiyning :

Ul tag'ofulpeshag'a holi xarobim kim desun?

Hajrida mundog' meni ko'rgan azobim, kim desun?

Yani: u beparvoga mening xarob ahvolimni kim borib aytadi? Hajrida bunchalik mening ko'rgan azoblarimni kim borib aytadi?

Shoir bu yerda biror kimga yoki biror nimaga murojaat qilmasdan balki, o'z holidan xabar bermoqda va bu yerda lirik qahramonning Olohga murojaati o'z-o'zidan ma'lumdir.

Bir qancha yetuk va taniqli adiblarimiz qadimdan bu san'at turidan foydalanib, g'oyat ta'sirchan va go'zal asarlar yaratganlar. Ulardan: Mashrab, Ogahiy, Fuzuliy, Munis, Gadoiy, Atoiy, Hofiz Xorazmiy, Lutfiy, Husayniy kabi buyuk adiblarimizning o'chmas va nodir asarlari ajralib turadi.

Mumtoz adabiyotimizda istihfom san'atiga o'xshash yana bir san'at turi bor. Bu **savol-javob usulidir**. Buni istihfom san'ti bilan aralashtirmaslik lozim.

Savol-javob usulida ikki kishining o'zaro dialog asosidagi savol-javobi aks ettiriladi. Savol-javob usulida bir kishi savol beradi, ikkinchi kishi esa javob beradi, yani bu jarayonda ham savol, ham javob ishtirok etadi.

Masalan: Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida keltirilgan Xusrav va Farhod munozarasida:

Dedi: qaydin sen ey majnuni gumrah?

Dedi: majnun vatandir qayda ogoh?

Dedi: nedur sanga olamda pasha?

Dedi: ishq ichra majnunliq hamisha

yoki: Maxtumluli va Durdi shoirning savoli-javob munozarasini olaylik:

U nimadir, qizil va ko'k o'sadi?

U nimadir, oyog'i yoq bosadi?

U nimadir, yeti daryo kezadi?

Shoir bo'lsang shundan bizga xabar ber.

U ekindir, qizil va ko'k o'sadi,

U ilondir, oyog'i yoq bosadi,

U baliqdir, yeti daryo kezadi

Bizdan salom bo'lsin javobimiz shu.

Istihfom san'atida faqat bir kishi, ya'ni lirik qahramon ishtirok etadi va faqat savol beradi. Mana shu xususiyati bilan bu san'at farqlanadi.

ADABIYOTLAR:

1. A.Xojiaxmedov. She'riy san'atlar va mumtoz kofiya Toshkent, 1998
2. Alisher Navoiy. Asarlar. 15 tomlik. 15-tom. T. 1967.
3. A.Xojiaxmedov Mumtoz badiiyat maloxati T. 1999
4. A. Xojiaxmedov. O'zbek aruzi lugati. 199
5. Orzibekov R. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent -2006
6. O'zbekiston milliy ensklopediyasi.
7. Ziyonet electron kutubxonasi

MUHAMMAD YUSUF'S CREATIVE SPIRITUAL REVIEW

Matyakupov Sa'dulla- dotsent

Hafizova Mukhlisa- student

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

As we entered the world of poetry in which a variety of views, we feel a special philosophy of life that is hard to understand through the power of the word, we found the answer. The spiritual world, the feeling in the formation of the art of literature, in particular the role of poetry pieces. After all, the first president of the Republic of Uzbekistan Islam Karimov noted: "Today our children the spiritual world, in the spirit of national and universal values remains the most urgent task for us". [I. 37]

As it is known, based

on the poetry of human emotion, feelings, impressions of nature and society events reflect the results of the screen. Thus, the human spiritual world through literature and rich imagination, aesthetic taste will be formed. As we look at the creativity of the nation's prominent poet Muhammad Yusuf spiritual enrichment of its service, you can see a few poems. "So," let's pay attention to the following lines of poetry.

Меҳр юракларда қолса ичикиб,
Оқибат ҳам бўлғай анқо уруғи.
Элнинг кичигини ғажир кичиги
Улуғини эса улуғи... [М.Юсуф 64]

Writer, what would you say, if a person does not love, can not be found sitting on the search result, the age-old does not respect each other, because they do not love love. Fiction spirituality of human waste, where there is magic power to change the whole spiritual world, a person can re-education. Nation, there are poems written by famous poet Muhammad Yusuf, I'm excited to read the road, simply by looking at the common words and understanding the truth of life, and begin to look deep. Let's pay attention to the following lines of poetry:

Андиша деган бир боғ бўлар вайрон,
Гўё бу чамандан ялмоғиз ўтган.
Оналар қизларин танитай ҳайрон,
Қизлар оналарин исмин унутган.[М.Юсуф 64]

His "humility", like how beautiful the word that describes a person is not the end, destroyed the garden of humility. Parents recognize their culture, and their daughters, because they reinforce the children, the parents, the mother does not know the value of the land, even forgetting the names of their parents. The writer of "disgrace", the poem he lines:

Қорашиқда порлаган ўша,
Иқболига чорлаган ўша.
Дунёни тор айлаган ўша
Меҳр қолур, муҳаббат қолур. [М.Юсуф 13]

Indeed, "based on the literary works of aesthetic analysis, spiritual classes, spiritual development of young people to educate the people, both physically and mentally, energetic, strong, complete one of the leading persons of the literary education. [M.Mirqosimova 12]

Has praised the values of all mankind, who sing to the wishes of the man and his dreams for the future, not only religious literature, but also for all walks of life.

Muhammad Yusuf, head coach of the Ozod Sharafiddinov remembers: "The event was seldom born with the talent to be a quality rarely found repulsive - the glory of contemplative modest man. He was walking in the pursuit of his fame is not fame. [M.Yusuf "selected" 7]

The result is that today's world of poetry to think of us, that the world is a good heart to feel for him. Humble and noble word artist, the works of the famous poet M.Yusuf our youth spiritual food, human emotions apart, will undoubtedly play an important role in shaping national values.

LITERATURE:

1. Каримов И. Баркамол авлод – келажакимиз таянчи . Тошкент, “Маънавият”, 2010.

2. Мухаммад Юсуф. Сайланма. Тошкент, “Шарқ”, 2007.

3. Мирқосимова М. Адабий асар таҳлили. Тошкент, “Маънавият”, 2007.

AKADEMIK LITSEYLARDA ERKIN VOHIDOV IJODINI MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARIDA O'RGATISHNING SAMARALI USULLARI

Sa'dulla Matyakupov f.f.n. dots. -O'zbek adabiyoti kafedrası.

Qudanova Zebo -O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi 1- kurs magistranti.

Badiiy adabiyot inson ruhiyatiga, ichki olamiga bevosita ta'sir qilishi hamda o'quvchining ruhiy dunyosini boyitib, ma'naviy kamol toptirishi nuqtayi nazaridan boshqa fan sohalaridan ajralib turadi. Insonning go'zallikka intilish, yovuzlikka nisbatan nafrat, do'stlik va mehr-muhabbatga moyillik kabi tuyg'ularni his etishida adabiyotning o'rni beqiyosdir. Zero, adabiyot insonni ma'nan komillikka yetaklovchi vosita sanaladi. Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov aytganlaridek, „Inson va uning ma'naviy olamini kashf etadigan yana bir qudratli vosita borki, u ham bo'lsa, so'z san'ati, badiiy adabiyotdir. Adabiyotning insonshunoslik deb, shoir va yozuvchilarning esa inson ruhining muhandislari, deb ta'riflanishi bejiz emas albatta“ [Karimov: 136].¹⁴

Mustaqillik davri o'zbek adabiyotining zabardast vakillaridan biri bo'lgan Erkin Vohidov she'riyatning deyarli barcha vaznlarida birdek yuksak saviyada qalam tebratgan va oddiy so'zlar orqali xalq qalbini badiiy tadqiq etolgan ijodkordir. Shoir o'quvchi qalbini larzaga soluvchi she'r-u g'azallari, ezgulikka chorlovchi dostonlari, qator komediyalari bilan xalqimiz qalbidan chuqur joy egalladi.

Erkin Vohidov she'rlarining ko'pchiligida inson fe'l-atvori, tabiati, shijoati, mehnati, ko'ngil oynasining serqirra tomonlari ham o'z ifodasini topgan. Bu borada „O'zbek Navoiyni o'qimay qo'ysa“ she'ri alohida e'tiborga molik. Bilamizki, Alisher Navoiy adabiyotimiz tarixida butun bir davrni tashkil etadigan hamda o'z xalqi ma'naviy yuksalishida beqiyos darajada xizmat qilgan buyuk ijodkordir. Mana, besh yarim asrdan oshsa hamki, bu ulug' ijodkor qalamiga mansub adabiyot durdonalari hali ham qimmatini yo'qotgan emas.

Erkin Vohidov ham shu kabi jihatlarni nazarda tutgan holda „O'zbek Navoiyni o'qimay qo'ysa“ she'rini shunday satrlar bilan boshlaydi:

O'zbek Navoiyni o'qimay qo'ysa,

Oltin boshning kalla bo'lgani shudir.

Bedil qolib Demyan Bedniyni suysa,

Qora sochning malla bo'lgani shudir. [To'xliyev va b.: 378]

Har bir xalq o'z tarixini bilmay turib buguni va kelajagini mustahkamlay olmaydi. Shoir o'quvchilarni tarixni bilishga, ajdodlarimizni tanishga va shu orqali o'zligini anglashga chaqiradi.

Tilimizda bosh va kalla so'zlarining o'ziga xos ishlatilish doirasi mavjud. Odatda, bosh so'zi uslubiy betaraflik ma'nosida inson tana a'zosiga va ko'chma ma'noda aql-hush, miyaga nisbatan ishlatiladi. Kalla so'zi esa „O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati“da ta'kidlanganidek, „ko'p hollarda salbiy ottenkada“ hamda hayvonlarga nisbatan qo'llanadi. Erkin Vohidov Navoiy ijodini anglamaslikni,

¹⁴ Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T., „Ma'naviyat“, 2008, 136- b.

uning avlodlarga qoldirgan boy ma'naviy merosidan oziq ola bilmaslikni „oltin boshning kalla bo'lgani“ga chiroyli o'xshatish orqali ko'rsatib beradi.

Yuqoridagi misralarda Bedil hamda Demyan Bedniy kabi buyuk ijodkorlarning nomlarini yonma-yon keltirish orqali Sharq va G'arb adabiyoti haqida so'z yuritadi. Ma'lumki, Bedil Sharq xalqlari adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo'lsa, Demyan Bedniy G'arb adabiyoti vakilidir. Shoir „qora sochning malla bo'lgani shudir“ deyish borasida har bir xalq o'z tarixi, urf-odatlarini, buyuk namoyandalari bilan xalq ekanligini aytish asnosida yoshlarni o'zligidan kechmaslikka ham da'vat etadi.

Ma'lumki, Sharq adabiyotida pand-nasihat ruhidagi asarlar ko'pchilikni tashkil etadi. Shoir quyidagi misralarida shunga ishora qiladi:

O'zbek Navoiyni o'qimay qo'ysa,
Dod demoqqa palla bo'lgani shudir.
Ma'rifatdan ayru o'ynasa, kulsa,
Aza chog'i yalla bo'lgani shudir.

O'zbek Navoiyni o'qimay qo'ysa,
Aldangani, alla bo'lgani shudir.
Yulg'ich aziz bo'lib, bilgich xor bo'lsa,
Paytavaning salla bo'lgani shudir. [To'xliyev va b.: 378]

Alla insonning ilk bor eshitadigan, onaning mehri bilan sug'orilgan qo'shiqdir.

Lekin:

O'zbek o'zligini anglasa bekam,
Uning „Barakalla“ bo'lgani shudir.
Olamga Navoiy nasliman degan
Ovozi baralla bo'lgani shudir. [To'xliyev va b.: 378]

Qizig'i shundaki, ushbu she'r akademik litseylarning „Adabiyot“ dasrlik majmuasida 1971-2000- yillarda yozilganligi ko'rsatilgan. Demak, shoir ko'nglida xalqimizning Navoiyni anglashga bo'lgan intilishini tasvirlash haqidagi mulohazalari uzoq yillardan buyon kurtak otib kelayotganligini ko'rsatadi

Mazkur she'rning akademik litseylarning uchinchi bosqichida berilishi ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Zero, uchinchi bosqich o'quvchilari deyarli katta hayot bo'sag'asidagi yoshlar bo'lib, aksariyati keyinchalik oliy ta'lim muassasalarida o'qishni davom ettiradilar. Shu ma'noda, mazkur she'r ularda ajdodlarga bo'lgan hurmat, xalqparvarlik hissini tarbiyalash bilan bir qatorda ota-ona, ustozlar hamda xalqimiz oldidagi xizmat va vazifalarini ham belgilab beradi.

Magistrlik dissertatsiyamiz mavzusiga ko'ra ilmiy-tadqiqot ishimizning tajriba sinov jarayonida (Nukus DPI qoshidagi 3- sonli Amudaryo) akademik litseyning uchinchi bosqichida mazkur she'rni o'rganish barobarida shoir ijodini keng targ'ib qilish maqsadida o'quvchilarga „O'zbek Navoiyni o'qimay qo'ysa“ she'ri sarlavhasining har bir harfiga Erkin Vohidov asarlaridan namunalar topib yozishni topshirdik. Bu topshiriq rejaga muvofiq mustaqil ish sifatida berildi hamda „Nido“ dostoni sarlavhasi misolida tushuntirildi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'rganilishi nazarda tutilgan mavzu yuzasidan berilgan bu kabi ijodiy topshiriqlar o'quvchilarning chuqurroq fikrlay olish qobiliyatini oshiradi, mustaqil fikrlash malakasini, izlanuvchilik xususiyatlarini shakllantiradi. Zero, „adabiyotdan mustaqil ishlar o'quvchilarning badiiy asarni o'qish, his qilish, tushunish va g'oyaviy-estetik mazmunini o'zlashtirish bo'yicha dars jarayonida orttirgan ko'nikma va malakalarini

mustahkamlashi, o‘stirishi, dunyoqarashini boyitishi, shu tariqa ma’rifiy, axloqiy, estetik jihatdan tarbiyalashiga ko‘ra ijodiy, ta’limiy, tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi“ [Safo Matjon: 9].

Shoir adabiy merosiga bag‘ishlangan navbatdagi darsda o‘quvchilar mustaqil ish sifatida bir-birini takrorlagan holda topshiriqni quyidagicha shaklda tayyorlab keldilar:

O‘ – „O‘zbekim“ qasidasi.

Z – „Zamin sayyorasi“ she’ri.

B – „Buloq“ she’ri.

E – „Ey kabutar“ she’ri

K – „Kamtarlik haqida“she’ri.

N – „Nido“ dostoni.

A – „Arslon o‘rgatuvchi“ she’ri.

V – „Vatan istagi“ she’ri.

O – „Orzu chashmasi“ dostoni.

I – „Iztirob“ she’riy to‘plami.

Y – „Yurak va aql“ she’riy to‘plam.

N – „Nega yapon yuz yil yashar“ she’ri.

I – „Istanbul fojiasi“ dostoni.

O‘ – „O‘lmas edi balki odamzod“ she’ri.

Q – „Qo‘shiqlarim sizga“ she’riy to‘plami.

I – „Inson“ qasidasi.

M – „Manfaat falsafasi“ she’riy to‘plami.

A – „Aytib bo‘ldim so‘nggi qo‘shiqni“ she’ri.

Y – „Yuragingda makon tutgan qul“ adabiy-falsafiy to‘plami.

Q – „Quyosh maskani“ dostoni.

O‘ – „O‘zbekiston“ faxriyasi.

Y – „Yoshlik devoni“ she’riy to‘plami.

S – „Sevgi“ she’ri.

A– „Ararat cho‘qqisi“ she’ri

Shu taxlit har bir o‘quvchi ijodkorning har xil asarlaridan iborat bo‘lgan mustaqil ish bajarib keldilar. O‘quv xonasida o‘quvchilar bilan ularning mustaqil ishlarini umumlashtirgan holda mazkur mavzu bo‘yicha keyingi mustaqil ishga har bir o‘quvchi bajargan topshirig‘ini o‘z partadoshi bilan almashgan holda tuzilgan asarlar nomlarini janrlarga hamda g‘oyaviy-mavzuviy jihatlariga ko‘ra ajratib kelishni vazifa qilib berdik.

Ta’kidlash kerakki, bunday topshiriqlar ustida mustaqil ishlash jarayoni o‘quvchilarda ijodkorlik qobiliyatini shakllantiradi hamda badiiy asarlarni tahlil qilish yuzasidan bilim, ko‘nikma va malakalarini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, akademik litseylarda Erkin Vohidov ijodini mustaqil ta’lim mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning ijodiy o‘shini ta’minlashga qaratilgan turli xil metod va usullardan foydalanib o‘rgatish o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Zero Erkin Vohidov she’riyatining o‘zi tom ma’noda tarbiyaga, Vatanni sevishga, unga munosib farzand bo‘lishga yo‘naltirilgandir.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, „Ma'naviyat“, 2008.
2. To'xliyev B., Isayeva Sh., Shermurodov T. Adabiyot. Akademik litseylarning uchinchi bosqich o'quvchilari uchun majmua. III kitob. Toshkent, Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012.
3. Safo Matjon. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar. Toshkent, „O'qituvchi“, 1996.

AFSONA VA MAQOLLARNING BADIY ASARDAGI O'RNI (AHMAD A'ZAM QISSALARI MISOLIDA)

L. Xayitova- ToshDO'TAU magistranti

Folklor namunalaridan foydalanish zamonaviy o'zbek nasrida an'anaga aylanib ulgurgan. Buni ko'plab yozuvchilar qatori A. A'zam ijodida ham kuzatish mumkin. Ahmad A'zamning „Asqartog' tomonlarda“ qissasida ovchi yigit va ayiq haqida afsona uchraydi. „Afsona- o'zbek xalq og'zaki ijodining eng qadimiy, an'anaviy va keng tarqalgan janrlaridan biri. Hayotiy voqelikni xayoliy uydirmalar orqali bayon etadigan, biror ma'lumot haqida tinglovchiga xabar berish maqsadida hikoya qilinadigan og'zaki nasriy asarlar afsona deyiladi.“¹⁵ Yozuvchi o'z asariga folklor namunasini kiritishdan muayyan maqsadni ko'zlaydi. Xususan, qissa va romanlar tarkibida ko'proq uchraydigan afsonalar asar ta'sirchanligini oshirish, qahramonning psixologik holatini tasvirlashga yoki biror g'oyani ifodalashga xizmat qiladi. Ma'lumki, badiiy asar tarkibidagi folklor namunasi folklorizm deb yuritiladi. B. Sarimsoqov yozadi: „Biror ijodkor asariga biror maqsad bilan kiritilgan folklorga xos barcha materialni folklor deb emas, balki folklorizm atamasi bilan yuritish lozim, chunki unga ijodkor tomonidan muayyan „ishlov“ berilgan bo'ladi.“¹⁶ Shuningdek, B. Sarimsoqov folklorizmlarning tuzilishiga ko'ra ikki turini farqlaydi: sodda va murakkab. Afsonalar murakkab folklorizm sanaladi. Folklorizm asar g'oyasini ifodalashga yoki qahramon xarakterini ochishga va psixologik holatini tasvirlashga xizmat qiladi. „Asqartog' tomonlarda“ qissasidagi afsonadan kelib chiqadigan asosiy xulosa shu afsonani aytib bergan qahramon Shodi aka tilidan aytiladi: „Ana shunaqa, jo'ralar, sizga yomonlik qilmaganga hargiz yomonlik qilmang- o'zingizga qaytadi...“¹⁷. Ammo kursdoshlar davrasidagi odatiy gurunglarda aytilgan bu afsonaning mohiyati shu bilan chegaralanib qolmaydi. Afsona tarkibidagi har bir element sirli tuyuladi. Balki bunda bosh qahramonni ko'p o'ylantirgan azaliy masalataqdirga ishora bordir? Demak, yozuvchi bu afsonani qissaga shunchaki qiziqarli syujeti uchun olib kirmaydi. Adabiyotimizda ayiq haqidagi afsona qatnashgan yana bitta qissa mavjud. Gulnoza Ernazarovanning „Tiyramoh tushlari“ qissasidagi afsona qahramon ruhiyatida kechgan o'zgarishni ortiqcha ta'rif, tafsilotsiz ham o'quvchi ko'z oldida yorqin namoyon bo'lishiga sabab bo'ladi va qissadan kelib chiqadigan asosiy xulosani ifodalashga xizmat qiladi. „Asqartog' tomonlarda“ qissasida esa xulosalardan birini ochishga xizmat qilgan, deyish mumkin. Chunki bu afsona va uni qissa bilan bog'liqligi masalasida har bir o'quvchi o'z tabiati, dunyoqarashi va saviyasiga ko'ra turlicha fikr va xulosalarga kelishi mumkin.

¹⁵ Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. T.: Musiq, 2010.178-b

¹⁶ Sarimsoqov B. Folklorizm tipologiyasi masalasiga doir. „O'zbek tili va adabiyoti“ 1980, 4-son

¹⁷ A. A'zam. Asqartog' tomonlarda. T.: „Yosh gvardiya“ 1989, 43-b

Asosiy qahramonlari ayiq bo'lgan bu afsonalarning bajarayotgan funksiyasi, ko'targan yuki qissalarning mazmun-mohiyati va ko'lami bilan bog'liq. Qizig'i, ayiq haqidagi bu ikki afsonaning syujetida ham ma'lum o'xshashliklar mavjud. Afsonalarning har ikkalasida ayiq qiz bola qahramonni olib qochadi. "Asqartog' tomonlarda" qissasida ayiqning kelin bo'layotgan qizni olib qochishi kuyovning gunohi va bu gunohga berilayotgan jazo sifatida talqin qilinsa, "Tiyramoh tushlarida"gi olib qochish ayol ruhiyatidagi tabiiy jarayon- taqdiriga bitilgan insonning qanday bo'lishidan qat'iy nazar ayol uchun qadrlı bo'lishi va oilaning muqaddasligiga urg'u berishga qaratilgan.

Ahmad A'zam o'z qissalarida folklor namunalaridan faqat afsonadan emas, qator maqollardan ham foydalanadi. "Quroq" nomli qissasida "Mard bo'lsang, Eski Juvada hangra", "Eshak eti go'sht bo'lmas, savdogar hech do'st bo'lmas", "Eshak minganning oyog'i tinmas, ikki xotinlikning qulog'i", "Eshak baxshi bo'lmas, yomon yaxshi bo'lmas" singari maqollar uchraydi. Ko'rinadiki, qissaga eshak obrazi mavjud maqollar kiritilgan. Aynan eshak obrazi ishtirok etgan maqollarning tanlanishi bejizga emas. Chunki, "Quroq" qissasida eshak muhim ramziy obraz hisoblanadi. Muallif bolaligini xotirlar ekan, bu xotiralarning hammasi bir uchi bilan eshakka borib taqalaveradi. Eshak bir o'rinda befarosat, madaniyatsiz, fe'li tor odamlarning ramzi bo'lsa, boshqa o'rinda o'z mansabini suiste'mol qilayotgan mansabdorlarning, yoki har narsadan o'z manfaatini ustun qo'yadigan noinsof savdogarlarning timsoli bo'lib keladi. Yozuvchi yon atofidagi turli xarakterga, tabiatga ega shaxslarga, hayotdagi har xil vaziyatlarga munosabatini maqol vositasida ifodalaydi. Bosh qahramonning lug'at titish jarayonida go'yoki tasodifan ko'zi tushib qolayotgan maqollarning har birida aslida muallif aytmoqchi bo'lgan eng asosiy fikrlar o'z aksini topadi. Muallif har bir maqol vositasida odamlar tabiatidagi qandaydir illatga ishora qiladi va shu bilan bog'liq qiziqarli voqealarni bayon qilib boradi. Natijada maqollar qahramon xarakteri, ruhiyati tasvirida eng muhim vositalardan biriga aylanadi. O'zbekiston xalq shoiri E. Vohidov maqolga quyidagicha ta'rif bergan edi: "Yo'l yurib ketayotgan insofli odam bexosdan chuqurlikka toyib ketsa, o'rnidan turib etak qoqib ketavermaydi. Men yiqildim, boshqalar yiqilmasin, deb chuqurni tekislab qo'yadi, yo bo'lmasa, biror tayoqni suqib belgi qo'yib ketadi. Bu ey, yo'lovchi, ehtiyot bo'l, bu yerda chuqur bor, ko'zingga qara, degan ishora bo'ladi. Bobolar hikmati ana o'sha tayoqdir".¹⁸ Aytish mumkinki, A. A'zamning "Quroq" qissasida bu xosiyatli "tayoq" o'ziga yuklangan vazifani to'la ado etolgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, A. A'zam qissalaridagi folklor namunalari o'quvchi diqqatini o'ziga tortishi, qissalarning o'qishlilikini oshirishi va asar falsafasini ochishda alohida o'ringa egaligi bilan ahamiyatli.

Foydalanilgan adabiyotlar:

4. A. A'zam. Asqartog' tomonlarda. T.: "Yosh gvardiya", 1989
5. A. A'zam. Quroq. "Yoshlik" 2013, 1-son
6. B. Sarimsoqov. Folklorizm tipologiyasi masalasiga doir. "O'zbek tili va adabiyoti" 1980, 4-son

¹⁸Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. "Hikmatnoma". – T., 1990. 5-b

“JIMJITLIK” VA “IKKI ESHIK ORASI” ROMANLARIDA QAHRAMONLAR RUHIYATIDAGI MUTANOSIBLIK

Ilmiy rahbar – S.Matyakupov

Sh. Mirhoshimova – Nukus DPI O`zbek tili va adabiyoti fakulteti 2-kurs talabasi

Deraza ortidan tashqariga nazar tashlasangiz koʻchadan kun davomida turli qiyofa va chehradagi insonlar oʻtishadi. Bu insonlarning ayrimlari yuzlarida quvonch boʻlsa, ayrimlari yuzida gʻam-qaygʻu, turli oʻy va xayollar ogʻushida boʻlishadi. Baʼzilar nimagadir shoshilsa, baʼzilar hamma narsaga beparvodek tuyiladi, yaʼni “Dunyoni suv bossa toʻpigʻiga chiqmaydi”gan insonlar hisoblanishadi. Bu – insonlarning taqdir va xarakter xususiyatlari bir-birlariga oʻxshash emasligi dan dalolatmi? Yoʻq, aksincha, barcha insonlarning qaysidir bir jihati boshqa bir inson jihatiga toʻgʻri kelishi yoki oʻxshash boʻlishi mumkin, albatta. Muhtaram Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning “Bir soʻz bilan aytganda, inson oʻz timsolida ham moddiy, ham maʼnaviy xususiyat alomatlarini mujassam etgan noyob hilqat, Yaratganning buyuk sirli moʻjizasidir. Shuning uchun ham uning ichki dunyosi, unga ato etilgan fazilat va xislatlarni oxirigacha anglash, tushunishning oʻzi oʻta murakkab bir masala” [1.42] - deb aytganlaridek, insonning ichki olamini anglash, tushunish juda qiyin. Inson ichida nimalarni oʻylayapti, nimalarni orzu qilyapti barchasi chetda oʻtirgan odamga qorongʻu. Buni bilish uchun esa qancha fikrlash, qancha oʻylash va qancha vaqt kerak boʻladi. Xalqimizning buyuk va isteʼdodli adiblari yaratgan oʻzbek xalqining qon-qoni va jon-joniga singib ketgan asarlar boʻlmish Said Ahmadning “Jimjitlik” va Oʻtkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanlarida qahramonlar ruhiyatidagi mutanosiblik va xarakter xususiyatlarini koʻrishimiz mumkin.

Oʻtkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanida oʻtmishdagi eng ogʻir kunlar tasviri aks ettirilgan. Bu roman orqali kimlarning mol-dunyoga oʻchligi, boylik uchun, qandaydir bir aldovlar evaziga guldek qoʻrgʻon, goʻzal bir oilaning buzulib ketish holatlarini koʻrish mumkin. Romanda ayollik shaʼnini yoʻqotmagan holda jang maydoniga Robiyaning chiqib kelishi, qoʻrqmasdan dadillik bilan hammani zir titratadigan Umar Zakunchidan yer olib fermerlik faoliyatini tuzishi, yerga jonini fido qilib ishlashi holatlari inson koʻnglini bir lahzaga soladi. “Bugun egarga birinchi marta oʻtirdim. Bashor opa bilan emas, bir oʻzim. Motor gurillaydi. Dudburondan tutun koʻtariladi. Poʻstak tashlangan temir egarga minib olib, MTSning qor bosgan hovlisida traktor haydab ketyapman. Devdek mashina u yoqqa bursam u yoqqa buriladi, bu yoqqa bursam- bu yoqqa! [2.192]. Robiya aqilli oʻz kuchiga ishonuvchan. U shunday ogʻir paytlarda biror bir chora topib vaziyatni yengillshtirishga harakat qilgan. Umar Zakunchi oʻzining xudbinligi, nafsga oʻchligi tufayli xalqning nafratiga uchraydi. Biror bir erkak kishi yoʻq. Borlari ham yoshlari katta jang qilishga kuchi yetmaydi. Shuning uchun erkaklar bajaradigan ishlarni ayollar bajarishga toʻgʻri keladi. Agar ular yerda yaxshi mehnat qilib, hosillarni moʻl yetishtirishsa bu narsalar front ortiga oʻzlarining yaqin insonlari isteʼmol qilishlari mumkinliklaridan xursand boʻlib, mehnat qilishadi. Yozuvchi shunday tasvirlaydi: “Raykom hammasini biladi. “Qizil dehqon”chilar frontga plandan tashqari oʻn tonna quruq meva yuborganini, yuz ming soʻmlik zayom olganini, jangchilarimizga issiq kiyim joʻnatganini- hammasini bilamiz. Dushman Moskva ostonalarida yengildi.

Sharmandasi chiqib qochyapti. Bunda sizlarning ham ulushlaring bor” [2.198].

Said Ahmadning “Jimjitlik” romani ham personajlar hayotining og‘ir va notinch davrlarini, kishilar hayotining rangin jihatlarini ko‘rsatib beradi. Asarda inson taqdiri, uning kelajagi haqida fikrlar, boylik va mansab ortidan quvish orqali o‘ziga munosib mukofotlanish, kimningdir hayotini buzib, biror bir natijaga buzg‘unchilik asosida ega bo‘lish oson ish emasligi tasvirlanar. Romanda uydan olislarga ketib, necha yillardan buyon o‘z uyiga kelmasdan uzoqlarda yurib oxirida yana qaytib kelgan, Tolibjon qismati yorqin ochiladi. Uning ketib qolishga nima majbur qilgan? O‘sha davrdagi holatmi? Yoki jarayonmi? Yoki ahvolning qiyinligimi? Bu kishini o‘ylantirishi tabiiy hol, albatta. Birinchi bo‘lib ko‘z o‘ngimizga o‘sha davrdagi ahvolning og‘irligi kelishi mumkin. Ammo buning sababi oddiy. “Tolibjon olti yoshligida onasi o‘lgan. Dadasi, bolam onasiz o‘smasin, deb xotining yilini o‘tkazib, to‘rt yashar qizi bilan qolgan bir beva xotinga uylangan edi. O‘sh beva xotin mana shu kampir, qizi shu Zaynab edi. Birga o‘tib katta bo‘lgan singlisiga Tolibjon uylanishga aslo rozi emasdi. Ana shu gap bo‘lgandan keyin qishloqdan ketib qolgan” [3.8].

Bu ikkala

asar bo‘yicha bir-biriga o‘xshash va farqli jihatlar bor bo‘lgan personajlar hayotiga nazar tashlasak. Har ikki asarda ham o‘xshash jihatlar ko‘p.

Said

Ahmadning “Jimjitlik” romanida Mirvalining xarakter xususiyatlari haqida, mulohaza yuritsak. Shunday bir paytlar kelar ekan, inson nima ishlar qilayotganini ham bilmay qoladi. Boshi berk ko‘chaga kirib, yo‘ldan ozayotganligini sezmaydi. Umri davomida inson qo‘lidan kelmaydigan badbaxtliklarni qiladi. Bu ishni qilishga majbur qilgan shunday bir jasorat, qodirlik kelganligini bilmay ham qoladi. Agar ana shunday balandparvozlikdan yerga tushgandagina esa biroz muddat o‘zini osmonda sayr etgandek o‘zini bexush his qilib, keyin qilgan ishlari, xunrezliklari ko‘z oldida gavdalanadi. “Azizbek miltiq tepkisini bosdi. Yong‘oqzorda xazon titib yurgan bir gala qarg‘a qag‘-qag‘ qilib osmonga ko‘tarildi. Oraliqlar, yonbag‘irlar uzoq vaqtgacha qaldirab turdi. Mirvali yigirma metrcha pastlikning o‘rtaga qoziqdek chiqib turgan archaning qurigan ildiziga osilib qolgan edi” [3.331]. Mirvali umri davomida qilgan barcha gunohlari uchun shunday jazoga muqarrar edi.

O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanida Umar Zakunchi obrazi bilan qiyoslab uning ruhiy va xarakter xususiyatlari jihatdan mos ekanligi, ularning xalqqa bergan jabr-u zulmi, xalqni yolg‘onlari bilan ishontirishlari bilan izohlash mumkin.

Said Ahmadning “Jimjitlik” romanida Bodomgulning qilmishlari bilan, O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanida Ra‘noning qilgan ishlari ikkala personajlarning xarakter va hayotiy jihatlarini bilan yaqindir. Har ikki obraz ham aldanib oilasi va farzandini tashlab qochib ketadi. Bu obrazlarning farqli jihati oxirida birining vafot etishi, ikkinchisining qochib ketishi bilan izohlanadi. “Mirvali Toshkentda nima qilishimizni bilmay oldingizga keldim. Bodomgul o‘zini osib qo‘yibdi”. [3.167]. “Qiziq, singan o‘roq haliyam qo‘limda ekanini endi bildim. Bir qo‘limda bola, bir qo‘limda o‘roq bilan o‘sha tomonga yugurdim. Zakunchi allaqachon Alvasti ko‘priikka olib boradigan so‘qmoqqa chiqib olgan, Ra‘no sochlari yoyilgancha uning ketidan chopar” [2.367].

Said Ahmadning “Jimjitlik romanida Azizbek, O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanida Muzaffar bu ikkala obrazning yaqin xususiyatlari ikkisi ham onasidan ayrilgan. Lekin ikkisining farqli jihatlari Azizbekning ko‘zida to‘la nafrat, qasos egallab turgan bo‘lsa, Muzaffarning ko‘zi muhabbatga to‘la. Azizbek qasos olib o‘zini tetik va baxtli his etsa, Muzaffar Munavvarga bo‘lgan ishq tufayli hayotga bo‘lgan qiziqishlari ortadi.

Said

Amadning “Jimjitlik” romanida Tolibjon, O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanida Shomurodning bir-biriga yaqin jihatlardan biri, har ikkisi ham rafiqasidan ajraladi.

Inson umri davomida

boshiga neki ish tushsa uni taqdirga yo‘yib, qismatimda shu bor ekan deb qo‘yadi. Lekin aslida ana shu taqdirning yaralishiga sababchi ekanligini anglamaydi. Shunday ekan bu asarlar qahramonlari ham o‘z taqdirlarini ana shunday yaratishgan va shunday bo‘lishiga o‘zlari sababchi bo‘lishgan.

ADABIYOTLAR:

1. Karimov.I.A “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. –T.:Ma’naviyat, 2008.
2. Hoshimov.O‘ Ikki eshik orasi. –T.: 2015
3. Ahmad S. Jimjitlik. –T.: 2016
4. www.kutubxona.uz.

NAVOIY ASARLARI MATNIDA ISHLASH

Allamberganova N.- O‘zbek adabiyoti kafedrasasi assistenti

Saburova M.- NDPI 2-kurs talabasi

Bugungi kunda Navoiy asarlari, lirikasi bo‘yicha ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Uning ijodini o‘rganish o‘z davridan boshlangan bo‘lib, istiqbolga erishganimizdan so‘ng yanada jadal sur‘atda o‘sib bordi. Asarlari, hayotiy faoliyati bo‘yicha doktorlik, nomzodlik dissertatsiyalari yoqlandi. Navoiy merosining kam o‘rganilgan qirralari keng tekshirilib, bu sohada anchagina ilmiy va ilmiy-ommabop asarlar yaratildiki, bunda adabiyotshunoslardan N.Komilov, I.Haqqulov, R.Vohidov, S.Olimov, N.Jumayev, S.G‘aniyeva, M.Muhiddinov, Sh.Sirojiddinov, D.Salohiy va boshqalarning munosib hissalar bor. Navoiy merosini o‘rganish va yoritishda o‘zbek adabiyotshunoslari bilan birga rus olimlari hamda ozarbayjon, tojik, qozoq, turkman va boshqa xalqlar olimlari ham unumli ish olib borgan. Asarlarini o‘z tillariga tarjima qilganlar. Navoiy asarlari faqat boshqa tillargagina emas, balki hozirgi o‘zbek tiliga ham tarjima qilinayotganini kuzatishimiz mumkin. Ular hozirgi o‘zbek tiliga tabdillar orqali ilova qilinmoqda.

Tabdil atama-istilohini mumtoz matnning janrini saqlagan yoki o‘zgargan holda hozirgi o‘zbek tilida mazmunini ifodalash, talqin etish deb tushunamiz.[1.33-bet] Bunday tabdillar orqali tushunilishi qiyin bo‘lgan mumtoz asarlarimizdagi murakkabliklarni ilg‘ab olishimiz mumkin. Chunki tabdilda asar tili sodda, mazmun saqlab qolingani va hozirgi adabiy tilimizda taqdim etiladi. Buni filologiya fanlari nomzodi Vahob Rahmonning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari tabdilini asliyatdagi va tabdil matnini bir-biriga qiyoslash orqali ko‘rishimiz mumkin.

Asliyatda:

“Takallum ahli xirmanining xo‘sha chini va so‘z, durri samini mahzanining amini va nazm gulistonining andalibi nag‘ma saroyi, ya’ni Alisher almutaxallas bin

Navoiy... mundoq arz qilurkim, so‘z durredurkim, aning daryosi ko‘ngul va ko‘ngul mazharedurkim, jomii maoniyi juzv va kuldur.

Tabdili (tarjimasi):

“So‘z san‘ati ahlining boshqochisi va so‘z qiymatbaho gavhari xazinasining g‘aznaboni va nazm gulistonining sayroq bulbuli, ya‘ni gunohlari mag‘rifat qilinishi va ayblari yopilishini istaydigan Alisher, taxallusi Navoiy bunday arz qiladiki: so‘z shunday gavharki, uning daryosi ko‘ngildur va ko‘ngil shundayki, u idrokning barcha ma’nolarini o‘zida jamlovchidir”.

Bu misolda ko‘rish mumkinki, asar tarjima qilinar ekan, o‘zida barcha ma‘noni saqlab qolgan holda, sodda, tushunarli tarzda bayon qilingan. Tabdilni to‘liq o‘qir ekansiz, hech qanday qiyinchiliksiz asar mazmunini to‘liq anglab yetasiz. Buni “Lison ut-tayr” ning nasriy tarjimasida ham kuzatishimiz mumkin.

Asliyatda:

“Jon qushi chun mantiqi roz aylagay,
Tengri hamdi birla og‘oz aylagay.
Ulki maxluqot xalloqidir ul,
Ondin o‘zga foni-yu boqiydur ul”

Tabdili (tarjimasi):

“Jon qushi o‘z sirlarini bayon qilishga kirishar ekan, uni Allohga madhiya o‘qish bilan boshlaydi. Chunki Alloh barcha mavjudotlarning yaratuvchisidir. U mangu barhayot bo‘lib, undan boshqa hamma narsalar o‘tkinchidir”.

Navoiy ijodini mana shunday tabdillar orqali o‘qitish va o‘rganish, men o‘ylaymanki, Navoiyni anglashga bo‘lgan qiziqishni, ta‘lim tizimidagi samarani yanada oshiradi. Vahob Rahmon “Muhokamat ul-lug‘atayn” tabdili xususida so‘z yuritib: “Kamina filologiya fakultetlaridagi o‘z mashg‘ulotlarim va til tarixidan saboq beruvchi hamkasblarning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari ta‘limi yuzasidan chekayotgan qiyinchiliklarini kuzatar, bilar va uni tabdil qilish haqida uzoq yillar o‘ylar edim”**[2. 33-bet]**,-deya tabdillarga sezilayotgan ehtiyojlarni ko‘rsatib o‘tgan. Tabdillarning afzallik tomoni shundaki, o‘quv qo‘llanmalaridagi ixcham bayonlar singari maktab yoki oliy o‘quv yurtlaridagi talabalar uchungina xos bo‘lmasdan, turli saviyadagi keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallanganligidadir.

Xulosa qilib aytganda, bunday tabdillarni o‘quv tizimlariga kiritish, ularni o‘rganish orqali ajdodlarimizning buyuk merosidan bahra olib, uni chuqur o‘rganishga, avlodlarga yetkazmoqchi bo‘lgan qimmatli fikrlari bilan tanishishga keng yo‘l ochiladi. Zero, muhtaram Birinchi Prezidentimiz I.Karimov aytib o‘tganlaridek: “Inson qalbining quvonch-u qayg‘usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi. Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg‘usi bizning ong-u shuurimiz, yuragimizga, avvalo, Navoiy asarlari bilan kirib keladi. Biz bu bebaho merosdan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik ko‘p bahramand etsak, milliy ma‘naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda shunchalik qudratli ma‘rifiy qurolga ega bo‘lamiz.” **[3. 44-bet]**

ADABIYOTLAR

1. **[1]** Karimov. I. “Yuksak ma‘naviyat-yengilmas kuch”. T. “Ma‘naviyat”, 2008.
2. **[2,3]** “Til va adabiyot ta‘limi” jurnali. 2014-yil. 1,2-son.
3. A.Navoiy. “Muhokamat ul-lug‘atayn”. www.ziyouz.com kutubxonasi
4. A.Navoiy. “Lison ut-tayr”. www.ziyouz.com kutubxonasi

SAID AHMAD IJODIDA “AVLODLAR MOJAROSI” TALQINI

Aldasheva Sh -Ilmiy rahbar

Sultanova S - Nukus DPI O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi

O‘zbek adabiyoti tarixini kuzatar ekanmiz o‘z asarlari bilan xalq e’tiborini, muhabbati va xalq e’tiqodini qozona olgan bir qancha yozuvchi va shoirlarni ko‘rishimiz mumkin. Said Ahmad adabiyotimizning benazir iste’dod egasi bo‘lgan ustunlaridan biri edi. Adib ayni paytda noyob shaxsiy fazilatlar - o‘ziga xos o‘tkir nigoh, fuqarolik tuyg‘usi, qat’iyat, iroda-bardosh, haqgo‘ylik, halollik va shijoat tufayli zamona talotumlariga bardosh berdi. Said Ahmad butun vujudi, tani-joni adabiy iste’dod ziyosi bilan yo‘g‘rilgan, faqat adabiyot, ijod uchun tug‘ilgan, botiniy dunyosi o‘zida ham fojeiy, ham quvnoq, hayotbaxsh hazil-mutoiba, xalqona kulgini mujassam etgan adib edi. Uning bunday insoniy fazilatlarini badiiy asarlarida ham seziladi. Said Ahmad ijodida badiiy adabiyotning azaliy muammosi – avlodlar silsilasi, ota-bola mavzusi alohida o‘rin tutadi. Ya’ni an’anaga aylangan “avlodlar mojarosi” talqini adib asarlarida o‘ziga xos tarzda goh kulgili-komik, goh keskin drammatik, fojeiy yo‘nalishda davom ettiriladi. “Kelinlar qo‘zg‘oloni” dagi ona va o‘g‘illar, qaynona va kelinlar; “Kuyov” komediyasidagi ota va qizlar orasidagi hazil-mutoyibalar, jo‘shqin va quvnoq, bir oz mubolag‘ador xalqona yumor bilan yo‘g‘rilgan ziddiyatlar ifodasi XX asr o‘zbek oilaviy-maishiy turmushining betakror bir ko‘zgudagi aksi sifatida talqin etiladi. “Ufq”dagi ota va o‘g‘il - Ikromjon va Tursunboy, Inoyat oqsoqol va Nizomjon ziddiyatlari esa bu yirik asarning fojeiy pafosini tashkil etadi. Agar avlodlar mojarosi muallif komediyalarida ko‘proq kundalik oilaviy-maishiy turmush tashvishlari, ikir-chikirlari doirasida namoyon bo‘lsa, “Ufq”da ota va o‘g‘il orasidagi insoniy burch, or-nomus axloqiy tusdagi keskin ziddiyatlar bilan bog‘liq holda talqin etiladi. Adibning keyingi hikoyalarida esa ijtimoiy ruh yanada keskin va yorqin bir tarzda namoyon bo‘ladi. “Qorako‘z Majnun”, “Sarob” hikoyalarida ona va farzand, ota va o‘g‘illar o‘rtasidagi keskin munosabatlar ildizi asr fojiasi, mustabid tuzum siyosati, mafkurasi, axloqiy aqidalariga borib tutashadi; jamiki ko‘rguliklar fojialar mash’um siyosatning mudhish oqibati tarzida ko‘rsatiladi. E’tibor berilsa, “Qorako‘z Majnun” hikoyasida imon-e’tiqodli, go‘zal inson, Alomat onaxonning bu yorug‘dunyodan armon, alam-o‘kinchlar bilan vidolashuviga sabab bo‘lgan oqpadar o‘g‘il milliy-axloqiy qadriyatlarimizni toptashga qaratilgan mudhish siyosatning ham jirkanch mahsuli, ham ayanchli qurbonidir.

“Sarob” hikoyasida bu fojeiy g‘oya yanada keskinroq va birmuncha oshkora tarzda ifodalanadi. Asardagi fojeiy voqea - o‘g‘il bilan ota orasidagi mudhish munosabatlar bu yorug‘dunyoning naq do‘zahi ichida – mustabid tuzum qurbonlari – mahbuslar jam bo‘lgan Jezqo‘rg‘on lagerlaridan birida o‘z intihosiga yetadi. Bunday mudhish hodisalar, fojeiy qismatlar haqida yozish oson emas, albatta. Darvoqe, “Sarob” adibning lager hayotidan olib yozgan ilk asari. Hikoyadagi roviy-mahbus rassom yozuvchining o‘zi. Adib o‘tgan asrning 50-yillar boshida ayni hikoyada tasvir etilgan lagerda bo‘lganligi uchun, bu hayotni ichdan biladi. Shunday bo‘la turib, u nega bu haqda uzoq yillar yozmadi. Ehtimol, qo‘rquv bunga yo‘l bermagandir; ehtimol, mudhish hodisalar haqida yozish azobi-iztirobi uni cho‘chitgandir. Har ikkala taxminda ham asos bor,

faqat mustaqillik yillaridagina vujudidagi “qo‘rquv saltanati” chekinib, lager hayotidan dadil so‘z ochishga jur‘at eta oldi, o‘zi uchun qanchalik azob bo‘lmasin, lager hayotiga oid xotiralarni, o‘sha mudhish hodisalarni qog‘ozga tushirishga jazm etdi. “Borsa kelmas darvozasi”, “Taqdir, taqdir, muncha shafqatsizsan?”, “Oftob oyim” kabi turkum hikoyalari shu tariqa yuzaga keldi.

Xullas, deyarli har bir hikoyada o‘zligini, qalbidagi imon-e‘tiqod, ona-yurt, o‘zgalarga himmat, muruvvat tuyg‘usini yo‘qotmagan matonatli insonlarga duch kelamiz. Buning boisi, asarlardagi hikoyachi-roviy obrazining o‘zi ana shunday siymodir.

Ko‘rinadiki, biz kuzatgan asarlarda Said Ahmad avlodlar orasida yuzaga kelayotgan turli xil mavzu hamda muammolarni badiiy ifoda qilishda eng asosiy masalani inson taqdiri talqiniga qaratadi. Ushbu muammoni tasvirlashda adabiyotning turli janrlari hamda ifoda usullaridan mohirona foydalanadi.

ADABIYOTLAR:

1. B.To‘xliyev, Sh.Isayev, T.Shermurodov, Adabiyot majmua. Akademik litseylarning uchinchi bosqich o‘quvchilari uchun. Toshkent “Cho‘lpon” 2012. 332-339-betlar.
2. Said Ahmad. “Qorako‘z Majnun”, Toshkent, “O‘zbekiston”, 2001.
3. Said Ahmad. “Ufq”, Toshkent, “Adabiyot va san‘at”, 1979.

„NAVOIY LIRIKASINING O‘ZIGA XOSLIGI VA JANR XUSUSIYATLARI”

Matyakupov S - O‘zbek adabiyoti kafedrasi dotsenti, f.f.n.

Mavlonova N- Nukus DPI O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 2-kurs talabasi

Bugungi avlodning barkamol insonlar sifatida kamolga yetishishida mumtoz adabiyotimiz, xususan, Alisher Navoiy ijodining o‘rni beqiyos. Birinchi Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek: “Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, mumtoz adabiyotimizning tengsiz namoyondasi, millatimizning g‘ururi, shon-u sharafini dunyoga tarannum qilgan o‘lmas so‘z san‘atkori. Ta’bir joiz bo‘lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so‘zlovchi biron-bir inson yo‘qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e‘tiqod bilan qaramasa”[1;47]. Darhaqiqat, inson qalbining quvonch-u qaygusini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi. Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg‘usi ong-u shuurimizga, Navoiy asarlari bilan kirib keladi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu bebaho meros xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz ma’naviyatini yuksaltirishda, ularda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda qudratli ma’rifiy vositadir. Alisher Navoiy ijodiga nazar tashlar ekanmiz, janriy rang-barangligi hamda g‘oyaviy yuksakligi bilangina emas, balki ilg‘or fikr-g‘oyalarning o‘ziga xos ifodasi bilan ham jahon adabiyotida yuksak mavqega va shuhratga ega ekanligining guvohi bolamiz.

Navoiyning lirik janrlar doirasini kengaytirish va poetik jihatdan rivojlantirish, ularning ijtimoiy mohiyatini oshirish borasidagi tashabbuslari yuksak g‘oyalarning mukammal badiiy shaklda ifodalanishi uchun imkon beradigan poetik vositalar topib, ijod jarayoniga keng joriy etish yuzasidan olib borgan jiddiy izlanishlari bilan bevosita qo‘shilib ketgan. Binobarin, Navoiy lirikasining g‘oyaviy-badiiy qimmatini, shoir san‘atkorligining o‘ziga xos qirralari uning poetik tasvir vositalari doirasi,

shuningdek, ularni qo'llash usullarida yanada aniq namoyon bo'ladi. Jumladan, birgina "Xazoyin ul-maoniy" devonida ma'naviy, lafziy va mushtarak san'atlarning yuzdan ortiq turi mavjud bo'lib, ular turli o'rinlarda va xilma-xil ma'nolarda ishlatilgan.

Navoiyning lirik asarlari jamlangan «Xazoyin ul-maoniy» devonida ikki yarim mingdan ortiq ga'zal bor. Sharq adabiyotida birorta shoirga bunchalik ko'p g'azal yozish nasib bo'lmagan. Ammo gap faqat sonda emas. Navoiy qalbidan quyilib chiqqan ga'zallarning har biri daho ijodkorning benazir san'ati va teran tafakkuridan guvohlik beradigan mo'jizadir. Bu badiiy miniaturalarning yaratilganiga besh asrdan oshdi, lekin kecha yozilganday hamon ruhimiz, shuurimizni g'alayonga solib, dillarga halovat bag'ishlaydi, baytlar qatidagi sehrli va sirli ma'nolarni teranroq, to'laroq anglashga intilamiz. Buyuk o'zbek shoiri salaflari ijod-xonasida kamolga yetgan ko'hna janrning imkoniyatlarini istifoda etib, bemisl mahorat ko'rsatish, xazoya bilmas she'riy gulshanlar yaratish barobarida o'zi mustaqil ravishda yangi ifoda usullari-yu uslublar kashf qildi, ijodiy tajribalar, ulkan izlanishlar yo'lidan borib, g'azal inkishofini baland cho'qqilarga olib chiqdi. Yaxlit ma'noli, voqeaband g'azallar yaratish ulug' Navoiyning shunday uslubiy ixtirolaridandir. Maqsud Shayxzoda birinchi bo'lib bunga e'tiborimizni qaratgan edi. Avvalgi shoirlarda ahyon-ahyon uchrab turadigan bu xususiyat Navoiy ijodida izchillik tusini oladi, muayyan raviya, badiiy ifoda tarziga aylanadi. Turfa insoniy holatlar, voqea-hodisalar tasviriga bag'ishlangan turkum g'azallar shundan dalolat beradi. Xususan, uning "G'aroyib us-sig'ar" devoniga mansub "El komin ravo ayla" g'azalida ushbu fikrlar tasdig'ini ko'ramiz:

Ko'ngillar nolasi zulfung kamandin nogahon ko'rgach,
Erur andoqki, qushlar qichqirishqaylar yilon ko'rgach.

Ko'ngul chokin ko'zumda ashki rangin elga fosh etdi, Balig'
zaxmini fahm aylarlar el daryoda qon ko'rgach.

Ko'zum qon yosh to'kar, netib ko'ngil zaxmin yashuray
Toparlar yerda zaxmin sayd qonidin nishon ko'rgach.

G'azalning ilk baytida ko'ngillar zulfig xalqasini ko'rgach, go'yoki ilon oldida turgan qushlarning qichqirganlariday nolalar aylashi nazarda tutilgan. Ya'ni, inson ko'ngli dunyoning beqarorligidan azob chekadi, uning tuzoqlarida esa nola qilishi tasvirlangan. Ikkinchi baytda esa hajr ko'nglini parchalagani, buni shoirning ko'zidan oqqan rangin yoshlardan ham bilish mumkinligi, ko'zlarning fosh etib qo'yishi, hattoki daryo yuzida qonli suvni ko'rgan kishilar baliqning jarohatini tezda anglab yetishlari namoyon bo'lgan. Keyingi baytlarda yerda qoni qolgan saydlar, kuz fasli kelganda bog'dagi barglarning qizara boshlashi, qush uyasidan polaponlarni olayotgan bolalar, karvonni ko'rganda yuzini yashirib olgan sahroyi qaroqchilar, tun-kechada hamma yoqni yutib ketgan gulxan, olovlar, ularning har qadamda uchrashi, bizning bunga shohid bo'lishimiz, zavqlanishimiz, hayratga tushib ta'sirlanishimiz kabilar aks ettirilgan.

Umuman Navoiy lirikasi o'zining janriy o'ziga xosligi, shuningdek yuksak badiiyligi bilan necha asrlardan buyon insoniyat qalbini larzaga solib kelmoqda. Buyuk mutafakkir ijodini o'rganish hamda uning sehr jozibasini keng targ'ib qilish biz yoshlarning eng asosiy vazifalarimizdan biridir.

ADABIYOTLAR:

1.Karimov I.A Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch– T.: Ma'naviyat 2008.

- 2.Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent.: O‘zbekiston, 2011.
- 3.Hayitmetov A. Navoiyxonlik suhbatlari. –T.: O‘qituvchi, 1993. Ma’naviyat, 2008.
4. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. – T.: Sharq, 1999.
- 5.Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 tomlik, 1- tom. Xazoyin ulmaoniy, Badoyi’ ul-bidoya. – T.: Fan, 1987.

ILHOM ZOYIR NASRINING O‘ZIGA XOSLIGI

Matyakupov S- O‘zbek adabiyoti kafedrası dotsenti

Yuldasheva A., Hayitniyazova S -NDPI talabasi

Har qanday millat borki, uning adabiy merosi, o‘ziga xos urf-odatları shu xalqning ma’naviy ehtiyojlarini qondirishga hamda saviyasini oshirishga xizmat qiladi. Zero, Birinchi Prezidentimiz o‘zlarining “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” asarlarida bejizga: “ Insonni, uning ma’naviy olamini kashf etadigan yana bir qudratli vosita borki, u ham bo‘lsa, so‘z san‘ati, badiiy adabiyotdir. Badiiy adabiyotning insonshunoslik, deb, shoir va yozuvchilarning esa inson ruhining muhandislari, deb ta’riflanishi bejiz emas, albatta”[1. 86],- deb ta’kidlamaganlar.

Ilhom Zoyir dilbar hikoyalari, ichakuzdi hajviyalari, hayotiy romanlari bilan o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Ilhom Zoyirning qissa va romanlaridagi ma’no ko‘lamdorligi, ifodalanayotgan fikrlarning mantiqiy izchilligi, ifodaning qisqa va lo‘ndaligi, jumla jarangdorligi e’tiborni tortadi. Qahramon ruhiyatini, sa’y–harakatini aniq ifodalashda, asoslashda yozuvchi zarur ibora, so‘zni qo‘llay biladi. U kishi tuyg‘ulari, emotsiyalarini his qildirishga, bunda unga muvofiq ohangni ham tanlashga erishadi. Ilhom Zoyir nasriy asarlaridagi uslub, pafos, milliy ruh mushtarakligi kabi poetik hodisalarni o‘rganish hozirgi o‘zbek adabiyotshunosligi uchun ham, nasr poetikasiga doir nazariy qarashlarni rivojlantirish uchun ham dolzarblik kasb etadi.

Adabiyotshunos olim Q.Yo‘ldoshev: "So‘z odamdir, so‘z qismatdir, so‘z millatdir”[2 ,256],– deya ta’riflaydi. Ilhom Zoyirning so‘z qo‘llash mahorati uslubidagi betakrorlikni, asosan ohangdorlig-u jo‘shqinlikni namoyon qilibgina qolmay, balki shaxs, davr, zamon yaxlit manzarasini aks ettirishga qaratiladi.

Adabiyotda xalqning turmush tarzi urf-odatları ham aks etadi. Xususan, "Qismat o‘chi" romanidagi Faridaning xarakteri, qahramonlar taqdiri ham urf-odatlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Ana shu urf-odatlar va marosimlar xalqning hayoti mehnati va kurashi jarayonida kechadi. Qahramon ham ana shularga bog‘liq bo‘ladi ana shu odat va ko‘nikmalarga ma’lum darajada rioya qiladi. Personajlar xarakterida ham xalqning turmush tarzi urf-odatları ko‘nikmalari aks etadi. "Qismat o‘chi" romanining bosh qahramonlari Farida va Ilyos o‘rtasidagi ilk uchrashuvdayoq ularning xarakteri, dunyoqarashi va ko‘ngil dunyosi ayon bo‘ladi. Sho‘x va shaddotgina Gulguna Ilyosga Faridani tanishtirarkan “Bizda ham chiroyli qizlar bor. Ana shu qizga bir qarang, oydan qayeri kam? Yoki u ham sizga xunuklik qiladimi?” [3. 17] deya qo‘lini bigiz qilib Fardani ko‘rsatganida Farida yuragiga nishtar sanchilganday ijirg‘anib, shart burildida, paykal oralab ketadi. Shu tasvirning o‘ziyoq o‘zbek qiziga xos ibo hayo kabi tushunchalarning naqadar qimmatli ekanida dalolat beradi. Bu kabi holatlar faqatgina o‘zbek milliy xarakteri uchun xosdir.

Yozuvchi ataylab milliy detallarni qidirib yurmaydi. Ular asarda tasvirlanayotgan hayot materiali bilan birgalikda yozuvchi tafakkuri orqali asarga

o‘z-o‘ziga kirib keladi. Milliylik, deb yozgan edi V.G.Belinskiy, "Yozuvchining xizmati emas balki ijodning shoir tomonidan uncha zo‘r berishni talab qilmaydigan zaruriy shartidir. Shuning uchun ham asar badiiy jihatdan qanchalik yuksak bo‘lsa u shunchalar milliydir, milliylik shoirni ulug‘ qilmaydi balki buyuk talant shoirni milliy qiladi.... agarda asar badiiy bo‘lsa, u o‘z-o‘zidan milliy bo‘ladi"[4.78] . Shunday ekan milliylik xalqning ruhiy olamini chuqur tasvirlashdadir. Xalq ruhini, psixologiyasini, milliy xarakterini ochish milliylikning muhim xususiyatidir. Biroq milliy xarakter qotib qolgan narsa emas. U sharoit o‘zgarishi bilan o‘zgarib rivojlanib, takomillashib boradi. Shuning uchun bir davrini tasvirlovchi asar qahramonlari xakteri milliy xususiyatlari uchun ham to‘la muvofiq kelmasligi mumkin.

Yozuvchi "Tarsaki" da qahramonlarining o‘ziga xos muomala madaniyatini, ularning boshqa vohadagi kishilar muomala madaniyatidan farqli tomonlarini ko‘rsatishga erishgan. Hikoya qahramonlari munosabatda dag‘allik, qo‘pollik, gapni cho‘rt kesib aytish holati kuchli. Bu, bir qaraganda, o‘quvchiga erish tuyulishi, hatto hikoya qahramonlarini oddiy so‘zlashuv madaniyatidan yiroq kishilar, deb o‘ylashi ham mumkin. Lekin, mahalliy ruh nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak, yozuvchi tasivni berish bilan tog‘liklarning sertakalluflikni, shirin kalomlikni yoqtirmasliklarini, ular gapning po‘stkallasini aytish, qo‘pol, dag‘al, xatto hayratomuz hazillarni ham ko‘tarilishlarini ishonarli tasvirlarda ko‘rsatadi.

Borliqdagi narsalar in‘ikosi badiiy asarda tabiiy, ta’sirli ifodalanishi kitobxonga estetik zavq bag‘ishlaydi. Voqelikni sezgi, hissiz anglash qiyin, shu sababli ijodkor asar badiiy– estetik jihatlariga ahamiyat qaratadi. Bu o‘z navbatida asar ma’no– mohiyatini anglash, ijodkor fojiiyaviy–badiiy niyatini tushunish, qahramon ruhiy– ma’naviy dunyosini tasavvur qilishga yordam beradi.

"Atrof oltin rangda tovlanar, daraxt yaproqlari quyoshning childirmasiga kift qoqib, tabiat bazmini qizdirmoqda edi. Kunning tafti qaytgan, qizigan havo odamning hovurini kesaman deydi"[5. 32].

Hayot haqiqatiga real ijodiy yondashish, axloqiy fazilatlarni ulug‘lash, shular bilan birga ijtimoiy turmushdagi mavjud kamchiliklarni badiiy tadqiq etish I. Zoyir ijodida o‘ziga xos ifodasini topgan. Tabiat hodisalardan umuminsoniy g‘oyalarni ifodalashda foydalanish jahon adabiyotida an‘ana sifatida tobora rivojlanyapti. Ch.Aytmatovning Gursara, Ona bug‘u, Qoranor kabi hayvonlar obrazlari Tanoboy, Mo‘min, Edigey kabi ijodiy qahramonlarning insoniy sifatlarini, xarakter va qiyofalarini chuqurroq izohlaydilar. O‘zbek adabiyotida bu usuldan foydalanib obraz yaratayotgan Ilhom Zoyir jonivorlar vositasida axloqiy muammolarni o‘rtaga tashlash prinsipi muvaffaqiyatli kelgani ko‘rinadi. Uning, ayniqsa, ertak-qissalarida jonivorlar orqali o‘z maqsadini, badiiy niyatini kitobxonga yetkazishga uringanini ko‘rishimiz mumkin.

"Sehrli qalam", "Atirgul mo‘jizasi", "Sichqoncha Tabuning sarguzashtlari", "Quvnoq quyoncha", "Oltin tojli xo‘razcha" kabi ertak-qissalarining qatiga singdirib yuborilgan majoziy fikrlar bir qarashda hayvonlar va tabiat haqidagi oddiy sarguzashtlardek tuyulishi mumkin. Ammo sinchiklab o‘qigan kitobxon yizuvchi aytmoqchi bo‘lgan fikrlarni tezda ilg‘aydi. Obrazla orqali ijodkor kitobxon qalbiga o‘z g‘oyasini singdirib boradi.

I.Zoyir bunday obrazlarni tantanavor sharoitda emas, oddiy, kundalik voqealarda ko‘rsatadi va ular xarakterining qirralari bunday vaziyatda ochiqdan-ochiq ko‘zga tashlanadi.

Inson tanasining unsurlari o'rtasidagi aloqalar tizimi mukammal yaralgan. Tana tarkibi, a'zolar joylashuvdagi aniqlik aqlni lol qoldiradi. Har bir a'zoning o'z vazifasi bo'lib, bir maromda, to'g'ri, uzluksiz bajarilishi kishi salomatligi garovidir. Badiiy asar ham misoli tirik mavjudot. Unda kichik detal yo biron tasvirga ham g'oyani ochishda ma'lum bir vazifa yuklatiladi. Matndagi yaxlitlik, qismlar uzviyligi strukturada namoyon bo'ladi. Badiiy asar tahliliga yangicha talqinda yondashish, ijodkor qarashlaridagi nozik o'rinlarni, so'z ostidagi ma'no qatlamlarini o'zlashtirib borish asl mohiyatni tushunish, asar kalitini topish imkonini beradi.

Adabiy ijodini mustaqillikdan keyinboshlagan Ilhom Zoyir o'zining ilk qadamlaridanoq kitobxonga iste'dodli hikoyanavis sifatida topilgan edi. Yozuvchi ko'p yillik ijodiy mehnati natijasida tasvir yo'lining "ilk, eng to'g'ri va samarali", bosqichlari sifatida "ko'raman, eshitaman va sezaman" prinsipi asosida ijod qilish kerak degan xulosaga keladi. Bunda I.Zoyir har qanday ijodkor o'zi ko'rgan, bilgan o'ziga yaqin, tanish voqelik haqida yozsagina realistik tasvir prinsiplarini o'zlashtirish uchun qadam tashlagan bo'ladi deb hisoblaydi. Bu esa yozuvchi asarlarining tabiiy, hayotiy chiqishini ta'minlaydi. Ilhom Zoyir asarlarida tasvirlangan hayot materiali o'ziga yaqin, qahramonlari o'zi tug'ilib o'sgan tog', dasht, qishloq odamlaridir. Bu odamlar xarakteridagi o'ziga xos xususiyatlar ularning kundalik turmush tarzidagi oddiy voqealar orqali ko'rsatiladi.

ADABIYOTLAR:

1. I.Karimov. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". T.: "Ma'naviyat", 2008.- B.86
2. Q.Yuldashev "Yoniq so'z" – T.: Fan, 2006. – B.256.
3. Zoirov.I "Qismat o'chi" – T.: G'ofur G'ulom, 2011. – B.17,32
4. Beleniskiy.V.T. "Adabiy orzular".-T.: G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashiryoti, 1977.-B.78

„KUNTUG‘MISH“ DOSTONIDA TARBIYAVIY-AXLOQIY MASALALAR TALQINI

Allambergenov H - Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI O'zbek adabiyoti kafedrası o'qituvchisi.

Qo'shayeva N - O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi.

Yosh avlod tarbiyasi hamisha va har bir davrda eng dolzarb masalalardan bo'lib kelgan. Chunki xoh oila bo'lsin, xoh mahalla yoki maktab bo'lsin, bolalar bizning ertangi kelajagimiz, yurtimiz farovonligining, tinchligining ta'minotchisidir. Bu borada adabiyot darslari muhim vazifani bajarashi so'zsiz. Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimovning ta'kidlaganlaridek, „Xalqning madaniy qadriyatlari, ma'naviy merosi ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbayi bo'lib xizmat qilgan. Uzoq vaqt davom etgan qattiq mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O'zbekiston xalqi avloddan-avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga xos an'alarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi“ [Karimov: 137].

Albatta, xalqimizning boy ma'naviy merosidan samarali foydalanish o'z natijasini bermasdan qolmaydi. Jumladan, ta'lim bosqichlarida tavsiya etilgan „Ravshan“, „Kuntug'mish“, „Alpomish“, „Rustamxon“ kabi dostonlardan berilgan parchalar o'quvchilar dunyoqarashini kengaytirishda, xalq og'zaki ijodiga bo'lgan muhabbat tuyg'usining oshishida, ularning ma'nan va aqlan tarbiyalanishida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. „O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi“ kitobida

ta'kidlanganidek, „doston o'zbek folklorining keng tarqalgan va yirik janrlaridan biridir. Uning yaratilishi xalqimizning ma'naviy-maishiy qiyofasi, ijtimoiy-siyosiy kurashlari, axloqiy-estetik qarashlari, adolat va haqqoniyat, ozodlik va tenglik, qahramonlik va vatanparvarlik haqidagi ideallari bilan chambarchas bog'liqdir“ [Razzoqov va b.: 187]. Darhaqiqat, dostonlarda xalqimizning tarixi, ma'naviy qadriyati, urf-odatlar aks etadi. Shuning uchun ham ushbu badiiy adabiyot durdonalarini o'tmishni yorqin bo'yoqlarda aks ettiruvchi va kelajakni belgilab beruvchi misoli bir ko'zgu sifatida baholash mumkin.

Yosh avlodni xalqparvarlik, mardlik, jasurlik, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda mazkur janr namunalarining, xususan, „Kuntug'mish“ dostonining ham tarbiyaviy ahamiyati beqiyos. Umumta'lim maktablarining 8- sinf o'quvchilari uchun „Adabiyot“ darslik-majmuasida berilgan parcha asosida mulohazalarimizni bayon etadigan bo'lsak, ushbu parchada, Kuntug'mishning mardligi, jasurligi, Vatanga sadoqati o'ziga xos yo'sinda aks ettirilgan. Shu bois dostonda o'quvchilarga o'rnak bo'la oladigan o'rinlar juda ko'pdir.

Doston o'quvchilarga hayotda do'st tanlashda adashmaslik kerakligini, sadoqatli do'stlar orttirish hamda munofiq do'stdan saqlanish, ular bilan qanday aloqada bo'lish lozimligini o'rgatadi. Shuningdek, boshiga tashvish tushgan insonning uni sabr-qanoat bilan yengishi lozimligi, odamlarga qo'ldan kelguniga qadar yordam berish va bu yaxshilikning, albatta, bir kun kelib o'ziga ham yaxshilik bo'lib qaytishi aks ettiriladi.

Dostonda ezgulikning yovuzlik ustidan g'alabasini ham alohida ta'kidlash mumkin. Yomonning, albatta, jazosini olishi, Azbarxo'janing Kuntug'mishga qilgan yomonligi o'zining boshiga yetishi misolida ochib berilgan.

O'quvchilar Kuntug'mish obrazida har bir yigit havas qilsa arziydigan xususiyatlarga duch keladi. Ushbu qahramon parchada zukko, aqlli, mard, jasur, so'zida tura oladigan, mehr-oqibatli, yordamini hech kimdan ayamaydigan, har bir ishda chaqqon inson sifatida gavdalanadi. Xolbeka obrazida esa, aqlli, zukko, chiroyli, chaqqon, so'zida tura oladigan, mehr-oqibatli, yordamini hech kimdan ayamaydigan o'zbek qizi timsoli namoyon bo'ladi.



„Kuntug‘mish“ dostonini o‘rgatishga bag‘ishlangan darslardan birida yuqoridagi kabi klaster usulidan foydalangan holda o‘quvchilar bilan dostonida namoyon bo‘lgan insoniy xususiyatlarni sanab, har biriga misollar topish orqali asarning tarbiyaviy kuchini yanada oshirish ham mumkin.

Xulosa qilib aytganda, „Kuntug‘mish“ dostoni o‘quvchilarni bir-biriga nisbatan do‘st, sadoqatli hamda mehr-u oqibatli qilib tarbiyalashda, ertangi kunimizning munosib davomchilari bo‘lib yetishishida muhim pog‘ona bo‘lib qolaveradi.

ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent, „O‘zbekiston“, 1997.
2. Razzoqov H., Mirzayev T., Sobirov O., Imomov K. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. Toshkent, „O‘qituvchi“, 1980.
3. Yo‘ldoshev Q., Qosimov D., Qodirov Z., Yo‘ldoshibekov J. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8- sinfi uchun darslik-majmua. I qism. Toshkent, „Sharq“, 2014.

“ИККИ ЭШИК ОРАСИ” АСАРИДА ФОЖЕА ВА ФОЖЕАВИЙЛИК ТАЛҚИНИ

Ташанов К - Нукус ДПИ ўзбек адабиёти кафедраси катта ўқитувчиси, ф.ф.н.,
Қурамбоева Н- Нукус ДПИ Ўзбек тили ва адабиёти факультети 2-курс талабаси

Одатда фожиавийлик деганда инсон ҳаётида рўй берган мудҳиш воқеа тасаввурланади. Лекин фожиавийлик фақат инсон ҳаётида рўй берган берган

мудҳиш воқеа эмас. Фожиавийлик аслида инсон руҳониятини кемирувчи куч бўлиб, инсон маънавий юксаклиги туфайлигина бу кучдан устун туради. Тўғрироғи, маънавий етуклиги боис уни енгади. Платон «Зиёфат» асарида: «Рухиятда ғазаб, кўрқув, лаззат, азоб-укубат ва ҳасаднинг турли эҳтиросли иштиёқларнинг ҳукм суришини мен умуман адолатсизлик деб биламан», - деб ёзади. [3.283.] «Бу, шубҳасиз, теран фикр. Лекин гап фожиавийлик масаласига бориб тақалар экан, бу ҳақиқатнинг ҳам нисбийлиги аён бўлиб қолади. Чунки фожиа – одатдаги мўътадил (аниқроқ айтганда, нормал) ҳаётнинг инкоридир, ечимига ақл-идрок ҳам ожиз қолган, инсон борлиғини зиддиятли эҳтирослар чулғаб олган, улар бор кучи билан оёққа қалққан ҳолатдир», - таъкидлайди адабиётшунос олим М.Олимов. [2.10.] Демак, бир маромда кечаётган ҳаётнинг инкори юзага келганда “ечимига ақл-идрок ҳам ожиз қолган, инсон борлиғини зиддиятли эҳтирослар чулғаб олган, улар бор кучи билан оёққа қалққан ҳолат”да инсоннинг энг юксак туйғулари, маънавий олами ёки энг тубан, паскашлик, худбин, чиркин ҳолатлари рўёланади. Инсон руҳониятидаги ва ҳатти-ҳаракатларидаги, зоҳиридаги ва ботинидаги туйғу-кечинмаларнинг хос кўринишларини Ў.Ҳошимов "Икки эшик ораси" романида қаҳрамонлар тақдирида чуқур бадиий далолатлайди.

Ўткир Ҳошимовнинг ҳар бир роман, қисса, ҳикояларида сўз санъатининг азалий муаммоси - инсон тақдири ва қалби омукталаб бадиий таҳлил татимининг тафтини, қувватини оширади. У инсон қалбининг энг нозик торларини таҳлиллаш муаммосига ечим излайди. Муаллиф долзарб ижтимоий муаммолар талқини билан ёндош ҳолда қаҳрамонлар руҳиятидаги, қалбидаги ғоят нафис жараёнларни санъаткорона инкишофлайди. Ўткир Ҳошимов асарларида нафосат туйғуси беҳад кучли. Ҳатто у алданган одамнинг маънавий инкирози, фожеаси, ҳалокати тасвирида ҳам унинг маънавиятидаги юксакликни сақлаб қолади. Айниқса, у олийжаноб, маънавий баркамол инсонлар қалби таҳлилида ўзини ниҳоятда эркин ҳис этади. Унинг ижобий қаҳрамонлари аксарияти гўдакдай беғубор, нафосат туйғусига бой, ҳиссиётли, ўта таъсирчан одамлардир. Бу нарса "Икки эшик ораси" романида айниқса, равшан кўринади.

"Икки эшик ораси" романидаги ёзувчи далолатлари инсон руҳияти ва қалб кечинмаларини титратиб, инсонни ўйлаш ва фикрлашга чорлайди.

Албатта, инсон дунёга келар экан, мақсади умрни бахтли ўтказиш ва қўзлаган, олдиға қўйган мақсадларига етиш, савоб ишлар қилишни ният этади. Ҳуллас, шунчаки туғилиб, шунчаки ўлиб кетишни эмас! Дунёга келдингми бор имкониятдан фойдалан, интил, излан, ўйла, фикрла, асосийси, тўхтама. Бу ҳаёт қонунияти. Муҳтарам Биринчи Президентимиз И.А.Каримов: “Бу дунёда табиатда ҳам, жамиятда ҳам бўшлиқ бўлмайди, қаердадир бўшлиқ пайдо бўлдимми, ҳеч шубҳасиз, уни албатта кимдир тўлдиришга ҳаракат қилади”, - деганларида ҳақ эдилар. [1.8.]

Инсоннинг умрнинг узунлиги аҳамиятли эмас, муҳими унинг мазмун-моҳиятида. “Одамзот юз йил умр кўрадими, минг йилми - барибир ўлгиси келмайди. Минг йил яшаган бир саҳоба “Эсиз-эсиз, у эшикдан кирдим-у бу эшикдан чиқиб кетяпман” деган экан. Шунақа... Ҳеч ким ўлишни ўйламайди. Аммо Худо одамзотга умрни ўлчаб беради... Бир хил одамлар бор: у эшикдан кириб, бу эшикдан чиқиб кетаётганда қўлидан келганча савобли иш қилади. Ҳаёт деган иморатга ақалли бир ғишт қўйиб кетади. Яна бир хиллари бор ўша иморатдан ақалли битта ғиштни ўғирлаб кетгиси келади. Ўғирлабку ҳеч қаёққа

боролмайди, нариги эшикка борганида бари бир ташлаб кетади. Икки орада иморатни бузгани қолади” [4.526.]

Асарда ҳам зоҳиран, ҳам ботинан маънан юксакликка эришган Оқсоқолни, Робия, Қора амма, Шомурод, Кимсанларнинг тақдири ва руҳониятидаги фожиавийликни ёзувчи чуқур тафтишлайди, унинг тафт манбаларини излайди. Оқсоқол бува Оқсоқолман деб гердайган одам эмас. У фақат ўз халқини ризқи учун, пешона тери учун жон-жаҳди билан адолатли бошқарувда. Бу инсоннинг фақатгина мансабидаги олийжаноблиги эмас, балки унинг чин инсонийлиги ҳам таҳсинга сазовор. Ўғилларидан қора хат келганда ҳам хотинига сиқилади деб билдирмай, унга ўғилларинг яхши юрган экан, хавотирланма, дейди. Ҳали Худо хоҳласа “гирой” бўлиб қайтиб келишади, дейди. Қаранг! Қандай буюк жасорат. Жигарбандларини ўлганини била туриб ҳам, бутун дардини ичига ютиб, хотинини ранжитмайди. Чунки биладада бу дардни она кўтара олмаслигини. Бу ҳам етмагандай эртаси куни хотиним янада ишонч ҳосил қилсин деб қўшни хотинга хотинимни табриклаб келинг, ўғилларингиз тирик экан-ку, хат келибди-ку табриклаймиз деб айтиб келгани юборишичи? Бунинг ўзи ахир фронт ортидаги бир қаҳрамонлик эмасми? Бир тарафдан қараганда бу инсонни ҳақиқий қаҳрамон деймиз-у, лекин аслида бу ҳолат инсоннинг фожеаси эмасми? Дилбандингдан айрилиш чинакамига фожеа, била туриб умр йўлдошига, фарзанднинг онасига билдирмаслик, бутун дардни ичига ютиш фожеавийликдир. Негаки, Оқсоқол бува зиддиятлар куршовида ҳам ожизлик, ҳам мардонаворлик этиб, тўлғовлар ихтилофида онаизорга билдирмаслик ечимига келади.

Қора амма фронтдаги ўғлини кутмоқда. Ўлганини юраги сезса ҳам, қалбан ҳис қилса ҳам ўғлини кутади. Ҳали кузда, ҳали баҳорда келади деб ўғлини кутади. Кимсан ўлган деган гаплар ҳатто Қора амманинг қулоғига ҳам кирмайди. У ишонади, ўзини ишонтиради. Жигарбандини болалардек ҳаёллар билан кутиб, фақат шу ҳаёл билан яшайди, фақат шу тахайюл билан тирик. Тўйи учун сарполар йиғади. Робияни келин қилиб Кимсан билан бахтли кўришни ният қилади. Ҳаттоки, Робияни Шомуродга узатишганида ҳам Кимсан келса нима дейман дея виждон азобида қийналади. Жигаргўшаси Кимсани кутади. Уни келади деб ишонади. Қора амма тақдиридаги фожеа жигаргўшасининг ҳаётига зомин бўлган уруш бўлса, фожеавийлиги ўғлининг тирикчилигига, қайтиб келишига илинжда.

Ё мансаб курсисига ўтирган шахсиятпараст Умар закунчини олсак. Раҳбарлик мени қўлимда деб “одиллик, закунчилик” қилади. Урушга кетган Шомуроднинг хотини Раънони йўлдан уруши, айшини суриши, халқ очликда қийналаётганда унинг базм-у жамшид қилиши, моддий ва руҳан эзилган одамларни баттар жисмонан эзғилаши, одамлар меҳнатини қадрламаслик, хўрлаш жараёнлари маънавий тубанлик фожеаси. Халқни алдагани етмагандай, Шомуродни урушдан жароҳатланиб келганини била туриб, чақалоқи бор Раънога яна чанг солиши, ҳали турмушга чиқмаган ёш қиз Робияга ҳам тегижоклиш қилиши, буларнинг бари қанчалик чиркин ҳолатлар. Қанчалик чиркин бўлса, шунчалик жирканчли. Бу ватанга, миллатга хиёнат. Урушда асирга тушиб душман қўлида хор-зор бўлганлар эмас, аслида мансабпараст, шуҳратпараст Умар закунчилар ватан хоини, инсонлар қотили. Бундай кимсаларнинг жамиятда мавжудлиги, жамият бундай “қотил” инсонларга мансаб берганинг ўзи фожеадир. Буларнинг бари ўша даврда ҳукм сурган

мухит фожеасидир. Миллионлаб инсонларнинг умрига зомин бўлган уруш бу фожеанинг асосий сабабкоридир.

Хулоса қилиб айтганда, Ўткир Ҳошимов "Икки эшик ораси" романида қаламга олинган даврда ҳукм сурган ижтимоий мухит фожеасини қаҳрамонлар руҳонияти, кечималарида очиб берди. Асарда уруш туфайли инсонлар ҳаётида бўй берган таназулар, фожеавий тақдирлар билан бирга одоб-ахлоқ, юксак маънавият, миллий қадриятлар рангин бадиий бўёқларда тасвирланиб, қаҳрамонлар тақдиридаги фожеавийлик уларнинг руҳониятида истефодаланган.

АДАБИЁТЛАР:

1. Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. –Т.: Маънавият. 2008.
2. Олимов М. Ҳозирги ўзбек адабиётида пафос муаммоси. -Т., 1995.
3. Платон. Пир. Соч. в 4-х томах. Т. 3. Ч.2 -М.: Мысль. 1972.
4. Ҳошимов Ў. Икки эшик ораси. Роман. –Т: 2015.

„KUNTUG‘MISH“ DOSTONINI O‘RGATISHDA MULTIMEDIYA VOSITALARINING AHAMIYATI

Allambergenov H - Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
O‘zbek adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi

Bidashev B - O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi talabasi

O‘zbek xalq dostonlari ma’naviyatimizning o‘chmas gulshani hisoblanadi. Ushbu ma’naviy xazina kishilarni insonga, Ona Vatanga muhabbat, shafqat hamda sadoqat ruhida tarbiyalashda muhim, bebaho manba vazifasini o‘tab keladi. Biz so‘z yuritmoqchi bo‘layotgan „Kuntug‘mish“ dostoni ham ana shunday noyob ma’naviy xazinalardan biri hisoblanadi. Dostonning yozib olingan va ijro etilgan variantlari juda ko‘p. Uning xilma-xil ko‘rinishdagi variantlari ko‘pligining boisi shundaki, ilgari baxshilarning iste’dodiga ushbu dostonni qanday aytishiga qarab baho berilgan, natijada barcha baxshilarimiz “Kuntug‘mish” dostonini to‘la o‘zlashtirishga intilganlar“ [Olimov va b.: 10].

Bugungi kunda „Kuntug‘mish“ dostonini umumta’lim maktablarida o‘rganish jarayonida sinfdan tashqari mashg‘ulotlardan foydalanish, shuningdek, o‘quvchilarning doston yuzasidan olgan bilim, ko‘nikma va malakalarini sinash va mustahkamlash maqsadida turli tadbirlar ham o‘tkazish ham mumkin. Bunday tadbirlar o‘quvchilarning xalq og‘zaki ijodi namunalari bo‘yicha olgan bilimlarini yanada kengaytiradi va qiziqishlarini orttiradi, ma’naviyatini yuksaltiradi. Ayniqsa, umumta’lim maktablarida so‘z yuritilayotgan doston haqida multimediya vositalaridan samarali foydalanish o‘quvchilarning badiiy asar haqidagi bilimlarini oshirishga, tasavvurlarining uzoq vaqt saqlanib qolishiga yordam beradi.

„Multimediya – bu matn, tovush va kompyuter grafikasi yordamida harakatsiz tasvirlarning animatsiyalash hamda harakatdagi videotasvirlar bilan ishlashni ta’minlab beruvchi interfaol tizimdir“ [Karimov: 3]. Bunday usulda (albatta, dars mavzusidan kelib chiqqan holda) rejada nazarda tutilgan ma’lumotlar qulay va tushunarli tarzda o‘quvchilarga yetkaziladi, ularning tushunish va eslab qolish jarayonlari osonlashadi. Shu ma’noda „Kuntug‘mish“ dostonini o‘rgatishda multimediya vositalaridan foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xo‘sh,

umumta'lim maktablarida ushbu dostonni o'rgatishda adabiyot o'qituvchisi qanday multimediya vositalaridan foydalanishi mumkin?

1. youtube.com saytining <https://www.youtube.com/watch?v=eJ8LIFZIJ9g> sahifasida berilgan Qahhor baxshi Raximov ijrosidagi „O'zbekiston“ telekanalida namoyish etilgan „Kuntug'mish“ dostonining parchasini o'quvchilar e'tiboriga havola qilish.

2. Dostonning 8- sinf „Adabiyot“ darsligida berilgan parcha asosida chizilgan suratlar va baxshilar rasmlarini videolavha shaklida qayta ishlab taqdim etish.

3. „Kuntug'mish“ dostoni mazmunini aks ettiruvchi taqdimot tayyorlash orqali.

Ushbu vositalardan samarali foydalanish, albatta, o'quvchining doston haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi, uning ma'naviy bilimlarining yanada kamol topishiga muhim hissa bo'lib qo'shiladi. Jumladan, Qahhor baxshi Raximov ijrosidagi doston parchasi 6 daqiqa 22 soniya vaqt davomida namoyish etilgan. Bu holat dars jarayonida ko'p vaqt talab qilmaydi. Asosiysi, haqiqiy baxshi ijrosidagi lavha o'quvchining nafaqat doston, balki uning milliy qadriyatlarimizdan biriga aylangan ijro qilinish jarayoni haqida ham muayyan tasavvur uyg'otadi.

„Kuntug'mish“ dostoni bo'yicha videolavha tayyorlash jarayonida dostonning 8- sinf „Adabiyot“ darsligida berilgan parchasi asosida chizilgan suratlar va baxshilar rasmlari muhim vazifa bajaradi. Videolavhani mavjud „Videostudio“ yoki „Movie maker“ kabi kompyuter programmalari yordamida o'qituvchining o'zi ishlay olishi ham mumkin. Bunday lavhani tayyorlashda quyidagi kabi rasmlardan va dostonning mp3 formatidagi namunasidan foydalanish mumkin:



Asosiysi, yuqoridagi kabi suratlardan foydalangan holda tayyorlangan taqdimot ishi o'quvchilar xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi. Bu o'rinda taqdimot – prezentatsiyaning ham multimediya vositasi ekanligini unutmasligimiz lozim.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim sohasida pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalardan, internet axborot ta'lim resurslaridan hamda konferensiya usulidan foydalanish o'quvchilarining olayotgan bilimlari yuqori saviyada bo'lishiga samarali yordam beradi va ularning kelgusida malakali mutaxassislar bo'lib chiqishiga imkoniyat yaratadi. Bu borada darsliklarimizda berilgan xalq dostonlari qatori „Kuntug'mish“ dostoni ham muhim uslubiy vazifa bajaradi. Zero, doston – yosh avlod qalbida ajdodlar qoldirgan adabiy meros bilan haqli ravishda faxrlanish tuyg'usini kuchaytiradi.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I.M. Zamonaviy interfaol va multimediya vositalaridan foydalanish. Toshkent, O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2013.

2. Olimov S., Ahmedov A., Qo'chqorov R. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8- sinfi uchun darslik-majmua. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2014.

CH.AYTMATOVNING “ASRGA TATIGULIK KUN” ROMANINI ADABIYOT DARSLARIDA O'QITISH USULLARI

K.Tashanov f.f.n., O'zbek adabiyoti kafedrasida katta o'qituvchisi

I.Yusufova O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 4-kurs talabasi

Chingiz To'raqulovich Aytmatov XX asr qirg'iz adabiyotining eng iste'dodli va jahonga tanilgan yirik namoyondalaridan biri. Chingiz Aytmatov va uning “Asrga tatigulik kun” asari 9-sinf(IV chorak) adabiyotida berilgan. Chingiz Aytmatovning “Asrga tatigulik kun” romani uchun DTS da 3 soat ajratilgan. Bu asarni o'qitishda “Bumerang”, “Harflar tilga kirganda” kabi usullarni qo'llash mumkin.

Bu usullar o'quvchilarda shoirning hayot yo'li va yaratgan asarlarning nomi, yillarini yaxshi eslab qolish ko'nikmasini shakllantiradi hamda matematika, ona tili kabi fanlar bilan bevosita aloqadorlikni ta'minlaydi.

Fan: Adabiyot

Sinf: 9-sinf IV chorak

Mavzu: Chingiz Aytmatovning “Asrga tatigulik kun” romani

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy maqsad: O'quvchilarni “Asrga tatigulik kun” asarining mazmuni tanishtirish, asar qahramonlarini tavsiflash va tahlil qilish malakasini shakllantirish;

b) tarbiyaviy maqsad: O'quvchilarni badiiy asardagi nafosatni his etishga o'rgatish, ularni sadoqatli bo'lishga, insoniy tuyg'ularni qadrlashga chorlash;

d) rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilarda mustaqil xulosa chiqarish va o'z fikrini asoslash, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish;

Dars turi: Bilim beruvchi.

Dars usuli: “Hayot va ijod”, “Bumerang”, “Harflar tilga kirganda”

Dars jihozi: proyektor, kompyuter, adib asrlari, darslik, adib surati, slaydlar , tarqatma materiallar, kartochka va markerlar;

Dars shiori: “Adabiyot o‘tkir yurak kirlarini yuvadurg‘on toza ma‘rifat suvi, xiralashgan oynalarimizni yorug‘ va ravshan qiladurg‘on, chang va tuproqlar to‘lgan ko‘zlarimizni artib tozalaydigan buloq suvi bo‘lganlikdan bizga g‘oyat kerakdur” (Cho‘lpon)

Fanlararo aloqadorlik: Ona tili, musiqa, matematika;

Dars rejasi:

tashkiliy qism: 2 daqiqa

o‘tilgan mavzuni so‘rash: 10 daqiqa

yangi mavzu bayoni: 13 daqiqa

yangi mavzuni mustahkamlash: 15 daqiqa

baholash va rag‘batlantirish: 3 daqiqa

uyga vazifa berish: 2 daqiqa

Darsning borishi:

a) Tashkiliy qism: O‘qituvchi o‘quvchilar bilan salomlashadi, davomat aniqlanadi. O‘quvchilar va sinf xonasining darsga tayyorligi tekshiriladi. Sinf xonasida ijodiy iqlim yaratiladi va o‘quvchilar 4 guruhga bo‘linadi.

b) O‘tilgan mavzuni so‘rash:

O‘tilgan mavzu “Hayot va ijod ” usuli orqali so‘raladi. Bu usul shartiga ko‘ra, guruhlariga matematik boshqotirmalar yozilgan plakatlari beriladi..O‘quvchilar matematik boshqotirmalarni yechadi va to‘g‘ri chiqqan javobda aynan shu yili shoir hayoti va ijodiga doir nima bo‘lganligini yozishi kerak bo‘ladi.

1-guruh uchun boshqotirma: $1945-7+10=???$

(javob: 1928= bu yili Chingiz Aytmatov tug‘ilgan yildir)

2-guruh uchun boshqotirma: $68 \times 18 + 718 = ???$

(javob: 1942= bu yilda Chingiz Aytmatov 14 yoshda bo‘lishiga qaramay qishloq kengashi kotibi qilib tayinlanadi)

3-guruh uchun boshqotirma: $3922:2=???$

(javob: 1961= bu yilda Chingiz Aytmatov “Pravda” gazetasining O‘rta Osiyo va Qozog‘iston bo‘yicha maxsus muxbiri bo‘lib ishladi)

4-guruh uchun boshqotirma: $654 \times 3 = ???$

(javob: 1962=bu yilda adib Qirg‘iziston kinomatografiya kengashi raisi bo‘ladi) Ma‘lumotlarni to‘g‘ri yozgan guruh o‘quvchilariga rag‘bat kartochkasi beriladi. Shundan so‘ng Chingiz Aytmatov haqida tayyorlangan slaydlar ko‘rsatiladi va o‘tgan mavzu xulosalanadi

Yangi mavzu bayoni:

Chingiz Aytmatovning “Asrga tatigulik kun” asari birinchi romani hisoblanadi. Asarda muallif hayot haqidagi kuzatishlarini kattakon oqquyruq kalxat timsolida bayon qilgan. Romanda o‘tmishni eslay olmaslik uchun insonni xotirasidan umrbod mahrum qilishdek qabih jiyonatga qo‘l urish haqida hikoya qilingan. Asar markazida chinakam halol mehnatkash,o‘z zamonasining chin o‘g‘loni sanalmish Edigey Bo‘ronli turadi. Roman voqealari asosan bir kunda bo‘lib o‘tadi. Temir yo‘l bekati xizmatchisi Edigeyning qadrdon do‘sti Kazangap qazo qiladi. Kazangap do‘sti Edigeydan o‘zini Ona Bayit qabristoniga dafn etishni vasiyat qilgan. Edigey do‘sti

vasiyatini amalga oshirishga kirishadi. Biroq bu oliyjanob xatti-harakat ketma-ket xilma-xil to‘siqlarga duch keladi. Ana shu iztirobli daqiqalarda o‘zining do‘sti bilan o‘tkazgan mashaqqatli umr yo‘li, xilma-xil voqealar ko‘z oldidan o‘tadi. Qadrdon hamrohi Qoronor tuya hangomasi, Ona Bayit qabristoni bilan bog‘liq rivoyat va yana ko‘plab hodisalar hikoya qilinadi. Ayniqsa, rivoyat yo‘sinida yaratilgan o‘tmishni unutgan, hissiz, buyruqni bajarishdan boshqa ishga yaramaydigan **manqurt** obrazi el orasida mashhur bo‘lib ketadi. Kazangapni dafn etish jarayoni, Edigeyning do‘sti bilan so‘nggi vidolashuv onlari, Allohga munojati tasviri romanning eng hayojonli o‘rinlaridir. Shu tariqa, o‘sha alam-armonlar, o‘y-mushohadalar, xilma-xil xotiralarga to‘la bu kun mohiyat-mazmuniga ko‘ra chindan-da asrga tatigulik kun bo‘lib chiqadi.

O‘qituvchi “Bumerang” usuli orqali darslikdagi asardan berilgan parchani o‘quvchilar o‘qib o‘rganadilar. Asarga doir rasmlar ko‘rsatiladi.

Yangi mavzuni mustahkamlash:

Shundan keyin “Harflar tilga kirganda” usuli orqali insoniy fazilatlar va yomon xislatlar tahlil qilinadi. Ya‘ni har bir guruhga raqamlar beriladi. O‘quvchilar raqamlar ostida qanday so‘zlar yashiringanini aniqlashadi va o‘sha qahramonga ta‘rif berishadi.

1-guruh uchun: 18-14-2-8-19-9-14-13

(javob: Sobitjon- bu Kazangapning o‘g‘li, bemehr o‘g‘il sifatida tasvirlangan)

2-guruh uchun: 4-3-8-6-4-23

(javob: Edigey= bu qahramon juda mehnatkash, halol, zaminni yelkasida tutib turadigan, o‘z zamonasining chin o‘g‘loni sanaladi.)

3-guruh uchun: 13-1-23-12-1-13 14-13-1

(javob: Nayman ona= bu qahramon haqida afsona berilgan... Bu obraz ayol bo‘lishiga qaramasdan haqiqiy mard va jasur onadir, farzandi uchun hech qanday to‘siqlardan qo‘rqmasligi jasoratdir.)

4-guruh uchun: 10-1-24-1-13-6-1-15

(javob: Kazangap= bu qahramon oliyjanob shaxsdir. Xalq uchun astoydil xizmat qilgan obrazdir.)

To‘g‘ri javob bergan har bir guruh o‘quvchilariga rag‘bat kartochkalari beriladi.

Baholash va rag‘batlantirish:

3 tadan rag‘bat kartochkasiga ega bo‘lgan o‘quvchiga 5 bahosi qo‘yiladi. Dars o‘qituvchi tamonidan xulosalanadi.

Uyga vazifa:

“Asrga tatigulik kun” asarini o‘qib kelish

Xullas, o‘qituvchi Ch. Aytmatovning “Asrga tatigulik kun” romanini 9-sinfda o‘qitishda asardagi qahramonlar misolida undagi g‘oyalar olamini o‘quvchilarga yetkazib, ularning ma‘naviy olamini boyitishga, yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirishga asosiy e‘tiborni aratishi lozim.

Foydalangan adabiyotlar:

1. I.A.Karimov “Yuksak ma‘naviyat yengilmas kuch” asari
Toshkent 2008

2. 9-sinf adabiyot darsligi Toshkent 2015

3. Ch.Aytmatovning “Asrga tatigulik kun” asari Toshkent 2016

НАҚЛЛАРДА МИЛЛИЙИКНИНГ АКС ЭТИШИ

Бекчанова Сайёра Базарбаевна- Нукус ДПИ Ўзбек адабиёти кафедраси ўқитувчиси

Дунёдаги барча одамлар турли миллатга мансуб. Ҳар бир миллатнинг ўзига хос томонлари мавжуд. Улар бир-бирларидан қайсидир жиҳатлари билан ажралиб туради. Миллатнинг ўзига хослигининг асосий белгилари тили, урф-одати, анъаналари, кийиниш маданияти, қадриятларида ўз аксини топади. Миллийлик — фақат ташқи белги эмас, у ички ҳолатдир.

Фольклор асарлари – халқ маънавияти, миллат руҳияти кўзгуси ҳисобланади. Ҳоҳлаган бир фольклор йўналишидаги жанр бу халқ руҳиятидан келиб чиқади ва унинг ўзини тарбиялаш билан шуғулланади.

Халқ оғзаки ижодининг бошқа жанрларида бўлгани каби нақлларда ҳам миллий рух тўлалигича намоён бўлганлигини кузатишимиз мумкин. “Дафтар ҳошиясидаги битиклар” китобида “Бадий ижод шундай дарахтки, шохида умуминсоний мевалар етилади, илдизи эса миллий заминда ётади”[2. 109] деб ёзганида Ўткир Ҳошимов тамомила ҳақ эди. Умуминсоний фазилатлар акс эттирилган фольклор жанрларини чуқур таҳлил қилсак, унда миллатга хос хусусиятларнинг акс эттирилганлигини кузатамиз.

Халқ нақлларда ўз қаҳрамонларини яратар экан, уни миллийликка хос туйғулар асосида шакллантиради, миллатга хос характерларни очиб беради. Ҳар бир нақлда ўзига хос миллий рух акс этиб туради. Масалан, “Қари билганни Пари билмас”[3.162] нақлида ўз отасини жонини гаровга қўйиб, подшо ҳукмидан асраб қолган фарзанд матонати тасвирланади. Охир оқибатда фарзанднинг отага қилган меҳрибончилиги мукофотланади. Отага бўлган муҳаббат нафақат ўзини балки бутун халқини асраб қолади. Нақлда ота ва ўғил ўртасидаги нозик муносабатлар, миллатимизга хос бўлган қадрият улуғланади. “Қари билганни Пари билмас”[3.162] нақлининг иккинчи вариантида эса воқеа қуйидагича тасвирланади. “Кунлардан бир куни подшо сафарга чиқмоқчи бўлиб, ўз вилоятидаги ҳамма ёш йигитларни чақиртирибди. Подшога қарашли бир қишлоқда саксон ёшли камбағал чол ёлғиз ўғли билан яшар экан. Бу йигит нима қилишини билмай, отасини ҳам ўзи билан бирга сандиққа солиб, олиб кетишга мажбур бўлибди. Подшо билан унинг сипоҳлари йўлда учраган тўсиқларни айнан йигитнинг отаси туфайли енгиб ўтадилар. “..Бу воқеаларни кўрган подшо йигитни ўз ёнига чақиртирибди ва бундай қийин муаммоларга қандай қилиб йўл топганлигини сўрайди. Йигит эса қуйидагича жавоб қайтаради:

-Мен қишлоқда қари отам билан яшар эдим. Сафарга чиқаётганимда кекса отамни ёлғиз ташлаб кетишга кўнглим бўлмай, уни сандиққа солиб, олиб юрибман. Бу маслаҳатларни менга отам берган эди, - дебди йигит. Подшо чолни олиб келишни буюрибди. Йигитлар уни олиб келишибди. Подшо чолга раҳматлар айтиб ўз ёнига ўтказибди.” Отасининг зукколиги ва айниқса, йигитнинг отасига нисбатан ҳурмати юксак баҳоланиб уни ўлимлардан сақлаб қолади. Ушбу нақлда ота – ўғил ўртасидаги меҳр муҳаббат устиворлиги тўлалигича кўринади.

“Эрни эр қиладиган ҳам қора ер қиладиган ҳам хотин”[1.20] нақлида эса оилавий анъаналаримиз бутун бўйи баста билан намоён бўлади. Биринчидан, бунда асосан ака-укаларнинг аҳиллигига аёлларнинг кўпроқ ҳиссаси бўлиши кўрсатилади. “Катта ака хотинига мақтаниб “Мана, қара хотин, биз ака-укалар қандай аҳилмиз, яхши тарбия кўрганмизда,” - дебди. Шунда хотин айтибди: “Тўғри, сиз ака-укалар яхши тарбия кўргансиз, лекин бу аҳиллигингиз сабабчиси кўпроқ биз овсинлармиз, чунки сизларнинг онангиз, яъни бизнинг қайнонамиз биз келинларга кўп яхши ўғитлар бериб, бизларни шундай тарбиялаганлар ва мени ўринларига она қилиб сайлаб кетганлар. Биз аҳилмиз, сизлар аҳилсиз. Агар бизлар орамизга шайтон ораласа, унда Оллоҳ асрасин”. “Бу гапинг нотўғри. Хотинлар кўлидан ҳеч нарса келмайди,” - дебди катта ака. Хотини пинҳона бир кулибди-ю, лекин индамабди. Охир оқибатда хотинлари эрларига ўз тазийқини ўтказибдилар. Воқеалар шу даражага етиб борибдики, натижада ака укаларидан совий бошлабди. Охир –оқибат хотини: “Шуларнинг ҳаммасини мендан чиққан, овсинлар билан маслаҳатлашиб қилдик. Келинг, эртадан яна биз ўз ролимизга, яъни вафодор хотин ролига қайтамиз. Тез кунда илгаригидан ҳам иноқ бўлиб кетасиз. Хотин қанча пасткаш, молпараст бўлса, эрни молга, уйни молхонага айлантиради”, -деган экан.

Иккинчидан, бу нақлда алоҳида кўрсатиладиган яна бир жиҳат ака-укалар бир қўйни сўйишиб, ҳар доим уни тенг тақсимлаб бўлишадиган анънаси жуда юксак қадрланадиган ҳолатдир. Айниқса, катта акаларига ҳар доим серғўшт деб унинг орқа сонини беришарлари оиладаги катта акага нисбатан юксак ҳурмат эътиром белгиси ҳисобланади.

Оиладаги тотувлик, оға-инилар ўртасидаги иноқлик, фарзандлар орасидаги меҳр, умуман олганда, кўпгина нарсалар аёлларнинг зукколиги, ишбилармонлиги ва ақлий салоҳиятига боғлиқдир.

Ҳеч иккиланмай, хулоса қилиб айтиш мумкинки, нақлларда ўзбек халқининг миллий кадриятлари ҳақиқий маънода ўзининг бадиий ифодасини топган.

Адабиётлар.

- 1.Муҳаммад Камол. Ҳикматлар ва ибратлар. Тошкент. ”Истиқлол”.2005 20-бет
2. Ҳошимов Ў. Дафтар ҳошиясидаги битиклар. – Тошкент: Шарқ, 2009. 109 – бет.
3. Хоразм эртаклари. Нашрга тайёрловчи Фаттоҳ Абдуллаев. – Тошкент: Фан, 1961. – Б.162.

O‘ZBEK XALQ OG‘ZAKI IJODI NAMUNALARINING O‘RTA ASR JAHON ADABIYOTI NAMUNALARI BILAN O‘XSHASHLIKLARI

Ruzimov Sherali - Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat Pedagogika instituti ingliz tili va adabiyoti kafedrası assistenti

Muxammadiyarov Aydos - Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat Pedagogika instituti Chet tillari fakulteti 1-kurs talabasi

O‘rta asr adabiyoti antik quldorlik jamiyati o‘rnida vujudga kelgan yangi ijtimoiy tuzum – feodalizm negizida shakllanadi.

Ibtidoiy jamoa tuzumi sharoitida yashagan german qabilalarining xiyla rivojlangan og‘zaki adabiyoti bo‘lganligi haqida Yuliy Sezar, Tatsit va boshqa tarixchilarning asarlarida ma‘lumotlar bor.

Qadimgi german eposi “Xildebrant haqida qo‘shiq” VIII asrda yozib olingan. [1. 11]

Unda xalqlarning ko‘chmanchilik davridagi kurashlari tasvirlangan. “Qo‘shiq”dagi fojia ota bilan bola to‘qnashuviga sabab bo‘lgan kutilmagan voqeadagina emas, balki qahramonning murakkab ichki kechinmalarida va harbiy burch bilan otalik hissi o‘rtasidagi ziddiyatda ham namoyon bo‘ladi.

“Qo‘shiq”ning oxiri saqlanmagan lekin shunga qaramay voqealarning mantiqi hamda xalq eposi an‘analariga binoan, masalan, sharq adabiyotida Firdavsiyning “Shohnoma”sidagi Rustam bilan uning o‘g‘li Suxrob, rus eposidagi Ilya Muromes bilan Sokolnik, kelt eposidagi Kuxulun bilan Konlayx o‘rtasidagi to‘qnashuvlarning barchasida ota anchadan beri ko‘rmagan o‘g‘liga duch kelib uni tanimay o‘ldirib qo‘ygani kabi bu asarda ham o‘g‘il Xodubrantning fojiali o‘limi bilan tugaganligini taxmin qilish mumkin. [1.12].

Irlandiya qadimgi kelt madaniyatining markazi edi. Irland eposining eng qadimgi qismi ulad siklidagi qissalardir.

«Kualngendan buqa o‘g‘irlash».

Konnaxr qirolichasi Medb uladlarning zo‘r bir buqasini tortib olish bahonasida ularga hujum qiladi. Bu vaqtda butun ulad sehrli dardga chalingan edi. Faqat Kuxulin, go‘yo ilohiy avlodga mansub bo‘lganidan, kasal bo‘lmaydi. Shuning uchun yolg‘iz Kuxulinning o‘zi butun Irlandiyani uch oy davomida dushman xujumidan himoya qiladi.

Bu epos o‘z mazmuni bilan yunon eposi Ilyadaga o‘xshaydi. Lekin urush ayol tufayli emas buqa tufayli yuzaga kelishi bilan farq qiladi. [1.17].

Kelt qissalarida qahramonlarning kuch qudratini ifodalashda mubolag‘adan keng foydalanilgan. Masalan, Kuxulinda “jangovar g‘azab” tug‘ilganda butunlay o‘zgarib daxshatli tusga kiradi, bo‘g‘inlari titraydi, tovon va tizzalari buralib suyaklari o‘z o‘rnidan qo‘zg‘aladi. Muskullari mushtumday bo‘rtib chiqadi. Bir ko‘zi ichkariga botib ikkinchisi esa tashqariga chaqchayib chiqib ketar edi ... [2.340-341]. “Kuxulinning Ferdiad bilan jangi” qissasidagi mazkur tasvir o‘zbek xalq qahramonlik eposi “Alpomish”dagi qalmoq pahlavonlarining tasviridagi mubolag‘ani eslatadi.

Kuxulindagi zaiflarga yordam berish, va‘daga vafo qilish, ko‘pchilik manfaatini himoya qilish kabi xususiyatlar uning oliyjanobligidan dalolat beradi. Kuxulin kuch-qudrati, aql zakovati, jasur va chaqqonligi, dushmanga shafqatsiz,

do'stlarga sadoqatli hamda adolatli bo'lishi bilan o'zbek eposining qahramoni Alpomishni eslatadi. [1. 19].

Qadimgi nemis adabiyotining yodgorliklari shu davrning mahsuli bo'lib, bu yodgorliklarda yuzaga kelayotgan feodal jamiyatdagi hayot va kurashlar o'z ifodasini topgan.

"Nibelunglar haqida qo'shiq" feodal istibdodini fosh etuvchi buyuk yodgorlikdir. Poemaning realizmi va xalqchilik elementlari diqqatga sazovor.

"Qo'shiq" bilan o'zbek eposi - "Alpomish" dostoni o'rtasida ba'zi o'xshashliklar bor. Dastlabki o'xshashlik bosh qahramonlarning xulq atvori, qudrati, abjirligida ko'rinadi. O'zbek dostonining qahramoni Alpomish "o'tga solsa kuymas, qilich solsa o'tmas" bahodir sifatida gavdalanadi. Zigfrid ham shunday qahramon, lekin yuqorida takidlanganidek, uning o'q o'tadigan zaif joyi bor. Bryunxilda bilan Barchinning o'z oshiq-lari oldiga qo'ygan sinov-shartlarida ham o'xshashliklar mavjudligini payqash mumkin. Lekin Alpomish Barchinning

sinovlaridan halollik bilan o'tadi. Nemis eposida esa sohibjamol Bryunxildaning sinovlarini bajarishga qirol Gunterning qurbi etmaydi, shu sababli ham u Zigfridning ko'magiga muhtoj bo'ladi. Gunterning soxta qahramonligi ularni fojiali halokatga olib boradi. [1. 45-46].

Fransuz adabiyotida keng tarqalgan fablio tipidagi hikoyalar sharq adabiyoti, shuningdek, o'zbek adabiyotida ham mavjuddir. O'zbek xalq ijodining asosiy turlaridan hisoblangan ertak janri demokratik ruhi, realistik xarakteri bilan ajralib turadi. Ularda shohlarning zulmi, boylarning adolatsizliklari, qozi va ulamolarning ochko'z va maishiy buzuvchiliklari ochib tashlanadi.

Shtrikkerning "Pop Amis" hajviy hikoyalar to'plami markazida epichil va masxaraboz pop turadi. Muallif bu hikoyalarda XIII asr Evropa hayotining turli manzaralarini aks ettiradi. Shoir katolik cherkovi ruhoniylarining ochko'zligi, feodal dvoryanlarning takabburlikni fosh qiladi va o'rta asr diniy e'tiqodlarini satira orqali ifodalaydi.

Episkop pop Amisning katta boylik orttirganini bilgach, undan bir qismini qo'lga kiritish, popni esa o'ziga bo'ysundirishni ko'zlaydi. Amisga og'ir savollar berib uni lol qoldirmoqchi bo'ladi. Lekin pop hamma savollarga donolik bilan javob qaytaradi. Nihoyat, episkop unga eshakning savodini chiqarishni topshiradi. Pop tavrot sahifalariga suli sohib qo'yib, eshakni o'sha erdan ovqatlanishga o'rgatadi. [1.75].

O'zbek xalq og'zaki ijodidan.

Podshoh Afandini chaqirib unga bir eshakni savodli qilib berishni topshiradi. Afandi ikki yuz tanga pul va ikki oy muxlat so'raydi.

Podshohning muhlati o'tgach, eshakni etaklab oldiga keladi va topshiriqni bajrganini aytadi.

Podshoh xursand bo'lib, Afandiga yana ikki yuz tanga in'om qiladi va undan eshakni qanday qilib mulla qilganini so'raydi. Afandi uyida kitobning orasiga arpa sohib, eshakning oldiga qo'yganini aytadi. [3. 201].

Qahramonlik eposlari xususida gap ketganda G'arb va Sharq xalqlari ijodi o'rtasida ba'zi bir yaqinlik va o'xshash syujetlar mavjudligini o'sha davr xalqlarining

ma'lum bir taraqqiyot bosqichida yashab, kelajak baxtli kunlar haqidagi yaxshi istak orzularining mushtarakligi bilan izohlashimiz mumkin.

Adabiyotlar:

1. О. Қаюмов “Чет эл адабиёти тарихи”. “Ўқитувчи”. Тошкент. 1979.
2. “Ирландские саги”. Москва. 1956.
3. “Афанди латифалари”. Ўзбек халқ оғзаки ижоди. Тошкент. 1990.

ТАРИЙХ САБАҚЛАРЫНДА «БУМЕРАНГ» ТЕХНОЛОГИЯСЫНАН ПАЙДАЛАНЫЎ

А.Шразов - ҚРХБХҚТхҚАИ аға оқытыўшысы

Бүгинги күнде билимлендириў мекемелериниң оқыў-тәрбиялық процесинде педагогикалық технологиялардан пайдаланыўға айрықша итибар берилип, бир қанша интерактив методлар ҳәм технологиялар оқытыўшылар тәрәпинен қолланылмақта. Бул метод ҳәм технологиялар оқыўшылардың сабақлықта берилген материалларды жақсы өзлестириўине, пәнге болған қызығыўшылығының артыўына себепши болмақта.

Дурыс таңланған методлар сабақтың алдына қойған мақсетине ерисиўине тийкар болады. Сонлықтан да ҳәр бир оқытыўшы қайсы класста ямаса қайсы темада қандай интерактив метод ҳәм технологияларды таңлаў кереклиги ҳаққында алдын-ала ойлаўы, оған таярлық көриўи لازым. Биз булл мақаламызда тарийх сабақларында «Бумеранг» технологиясы ҳәм оннан тарийх сабақларында пайдаланыў усулларын көрсетип өтемиз.

«Бумеранг» технологиясы

Технологияның әҳмийети – усы технология оқыўшыларды сабақ процесинде, сабақтан тысқарыда түрли әдебиятлар, лекциялар менен ислеў, үйренилген материалларды ядында сақлап қалыў, сөйлеп бериў, пикирди еркин ҳалда баян ете алыў, қысқа ўақыт ишинде көп мағлыўматқа ийе болыў ҳәмде сабақ даўамында оқытыўшы тәрәпинен ҳәмме оқыўшыларды баҳалай алыўға қаратылған.

Технологияның мақсети – оқыў процесси даўамында тарқатылған материалларды оқыўшылар тәрәпинен жеке ҳәм топар ҳалатында өзлестирип алыўлары ҳәмде сәўбетлесиў, түрли сораўлар арқалы тарқатпа материаллардағы текстлер қай дәрежеде өзлестирилгенлигин қадағалаў ҳәм баҳалаў. Оқыў процесси даўамында ҳәр бир оқыўшы тәрәпинен өз баҳаларын алыўға имканият жаратыў.

Технологияның қолланыўы – әмелий шынығыўлар, семинар яки лаборатория шынығыўлары ҳәмде сәўбетлесиў формасындағы сабақларда жеке тәртипте, киши топар ҳәм жәмәат формасында пайдаланыўы мүмкин.

Сабақта қолланылатуғын қураллар –оқыўшы оқыў процесинде өз бетинше оқыўлары, үйрениўлери ҳәм өзлестирип алыўлары ушын мөлшерленген тарқатпа материаллар (өтилген тема яки таза тема бойынша қысқа лекциялар, суўретлер, мағлыўматлар).

Технологияны өткерий тәртиби: бул технология бир неше басқышта өткериледи.

- оқыўшыларды киши топарларға бөлий.
- оқыўшылар сабақтың мақсети ҳәм тәртиби менен таныстырылады
- оқыўшыларға өз бетинше үйрениў ушын тема бойынша лекция текстлер тарқатылады

- берилген лекция текстлери оқыўшылар тәрәпинен белгиленген ўақыт ишинде жеке тәртипте өз бетинше үйрениледі.

- хәр бир топар ағзаларынан жаңа топар шөлкемлестириледі (еслетпе: оқытыўшы хәр бир топардың алдына барып, хәр бир оқыўшыға реңлер ямаса санлар жазылған карточкаларды тарқатады хәм сол тийкарда жаңа топар дүзиледи, мысалы: 1 санын алғанлар 1-топар, 2 санын алғанлар 2-топар)

- жаңа топар ағзаларының хәр бир топар ишинде нәўбет пенен өз бетинше үйренген лекция тестлери менен хабар алмасады, яғный бир-бирине сөйлеп береди, мағлыўматты өзлестирип алыўға ериседи.

- берилген мағлыўматларды өзлестиргенлик дәрежесин анықлаў ушын топар ишинде ишки қадағалаў өткизиледи, яғный топар ағзалары бир-бири менен сораў-жуўап қылады.

- жаңа топар ағзалары дәслепки ҳалындағы топарларға қайтады

- сабақтың қалған процессинде оқыўшылардың билимлерин баҳалаў яки топланған балларын есаплап барыў ушын хәр бир топарда «топар есапшысы» тайынланады

- оқыўшылар тәрәпинен тарқатпа материалда берилген мағлыўматларды қай дәрежеде өзлестирилгенлигин анықлаў мақсетинде оқытыўшы (яки оппонент топар) оқыўшыларға сораўлар менен мўрәжәт етеди, аўызеки сораў өткизеди

- сораўларға берилген жуўаплар тийкарында топарлардың топлаған улыўма баллары анықланады

- хәр бир топар ағзасы тәрәпинен топардағы тарқатпа материалда берилген мағлыўматлардан бир сораўдан дүзиледи

- топарлар тәрәпинен таярланған сораўлар арқалы сораў-жуўап шөлкемлестириледі (« топар есапшылары» берилген жуўаплар бойынша балларды есаплап барады)

- топар ағзалары тәрәпинен топланған улыўма баллар жыйындысы анықланады

- топарлар топлаған улыўма баллар топар ағзалары ортасында тең бөлинеди

Түсиник: оқытыўшы сабақты усы тәртипте тамамлаўы яки оқыў материалларын оқыўшылар тәрәпинен жеке тәртипте қандай өзлестирилгенлиги және бир мәрте өз-өзине баҳа бериў тәртибинде қадағалаў ушын «шархпалак» технологиясынан пайдаланған ҳалда оқылған хәм өзлестирилген лекциялар тийкарында таярланған тарқатпа материалларды оқыўшыларға тарқатып, өз билимлерин тексерип алыўларына имканият жаратыўы мүмкин.

- сабақ (шынығыў) ды тамамлаў, үйге тапсырма бериў

Бул технологияны тарийх сабақларында қолланыў ушын төмендеги тема мысалында үлги көрсетемиз.

Үлги:

Тема:Ерте орта әсир мәмлекетлери (7-класс Өзбекистан тарийхы)

Булл тема тийкарында топарларға оқытыўшы тәрәпинен таярланған материаллар тарқатылады. Тарқатпа материаллардың үлгиси төмендегише болыўы мүмкин:

1. – топарға –Хорезм мәмлекетиниң дүзилиўи

2. – топарға – Хионийлер мәмлекети

3. – топарға – Кидарийлер мәмлекети

4. – топарға- Эфталлар мәмлекети

ADABIYOT DARSLARIDA MILLATLARARO ALOQA

Bekchanova Sayyora – Nukus DPI katta o‘qituvchisi

Qurayozova Go‘zal– Nukus DPI talabasi

«Adabiyot» tushunchasining ma’nosini to‘laligi bilan ochib berish uchun, avvalo, adabiyotning bir necha muhim, eng ko‘zga tashlanadigan va hamma tomonidan tan olingan xususiyatlarini ko‘zdan kechirish lozim. Bu xususiyatlar uchta bo‘lib, V.G. Belinskiy tomonidan «adabiyot» terminini talqin etish munosabati bilan «Adabiyot so‘zining umumiy ma’nosi» nomli maqolasida ta’riflangan. V. G. Belinskiy ta’rificha, «adabiyot» doimo ommaviylikka suyanadi, o‘z tasdiqini jamiyat fikridan oladi», u «faqat bilimdonlarning yoki mumtoz havaskorlarning kichik doirasi e’tiboridan emas, balki butun xalqdan, eng kamida xalqning ma’rifatli sinflarining e’tiboridan madad oladi. Adabiyot butun jamiyatning mulkidir». Bu maqolada Belinskiy «ommaviylik» terminini omma ongini in’ikos eta biluvchilik ma’nosida ishlatadi.

Adabiyotga e’tibor – ma’naviyatga, kelajakka e’tibor! Barchamizga a’yonki, XXI asr intellektual salohiyat, tafakkur va ma’naviyat asri sifatida insoniyat oldida yangi-yangi ufqlar ochish bilan birga, biz ilgari ko‘rmagan, duch kelmagan keskin muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Bugungi murakkab va tahlikali zamonda yozuvchining bashariyatning ertangi kunini o‘ylab, odamlarni ezgulikka, insofdiyonat, mehr-oqibat va bag‘rikenglikka da’vat etishga qaratilgan haroratli so‘zi har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.[1.247.]

Adabiyot darslarida millatlararo aloqaning o‘rni muhim hisoblanadi. Adabiyot darslari millatlararo uyg‘unlik bilan chambarchas bog‘liqliklarda olib boriladi. Til faqat ayrim shaxslarning aloqa vositasi bo‘libgina qolmasdan, millatlararo aloqa quroli to‘plangan tajriba va bilimlarni kelajak avlodga yetkazish hisoblanadi. Millatlararo aloqa jamiyatimiz ravnaqiga xizmat qilmoqda. Mustaqillik xalqimiz hayotiga so‘z va fikrning erkinligini, shu bilan birga ilgari ta’qiqlab kelingan ko‘pgina milliy iftixor, milliy g‘urur kabi tushunchalar o‘zining haqiqiy mazmuniga ega bo‘lmoqda. Asrlar davomida shakllanib kelgan va sobiq ittifoq davrida yo‘qolib borayotgan milliy qadriyat va milliy g‘ururimiz qaytadan tiklanmoqda. Shunday ekan, adabiyot darslarida o‘quvchilarga milliy g‘ururimizni, millatlararo aloqamizni ularning ongiga singdirib borish lozim. Xalqaro tillarni ko‘p millatli davlat ichida qo‘llanuvchi, millatlararo aloqa vositasi hisoblanuvchi tillardan farqlash kerak. Ba’zi tillar ham xalqaro, ham millatlararo til sifatida qo‘llanishi mumkin (masalan, rus va xitoy tillari).

Adabiyoti taraqqiy topgan har bir Xalqning yutuqlari tezda butun jahon miqyosiga chiqadi, hamma mamlakatlar va xalqlar tomonidan eng keng miqyosda qabul etiladi. «Keling, Alisher Navoiydek shoir bo‘lgani uchun quvonaylik. Bizga shunday shoirni armug‘on qilgan o‘zbek xalqiga katta rahmat aytaylik,— degan akademik N. I. Konrad. Navoiyni faqat o‘rganmasdan, tadqiq etmasdan, o‘qib ham yuraylik. Faqat o‘qibgina qolmasdan, uning haqida o‘ylab ham yuraylik». Navoiyning “Xamsa” dostonida millatlararo aloqa o‘ziga xos ko‘rinishda ifodalangan. Ikkinchi dostoni “Farhod va Shirin” dostonini olib qaraylik. Bu doston turkiy xalqlar adabiyotlarida an’anaviy mazmunga ega bo‘lgan va bir necha

ijodkorlar tomonidan qalamga olingan ishqiy dostonlardan birining nomidir. Navoiy bu dostonida millatlararo aloqani chambarchas holda bog'lagan. Dostonda Farhod Chin mamlakatidan bo'ladi. Go'zal Shirin esa Arman yurtidan bo'ladi. Unga yetishish uchun turli mashaqqatlarni boshidan kechiradi. U Arman elida Shirin uchun qazilayotgan ariqni bitkazish ishlarida o'zining nimalarga qodir ekanini ko'rsatadi. "Xamsa" dostonida shu kabi boshqa millatlar vakillari bor. Navoiy barcha asarlarida millatlararo aloqaning o'rni va ahamiyatini ko'rsatib bergan.

Zokirjon Furqatning ma'rifatparvarlik ruhidagi asarlarida davrning bosh masalalaridan biri Rossiyaga, rus xalqiga munosabatlari o'lkaning Rossiya sostaviga qo'shib olinishini baholash masalasi, chuqur xalqchilik pozitsiyasidan g'oyaviy yetuklik va katta zakovat bilan hal etiladi. Reaksion guruhlar, feodal tuzumi maddoxlari, din Xomiylariga zid o'laroq, demokratik shoir Rossiyaga qo'shib olinishni ma'qulladi, uning chorizm va rus burjuaziyasi ish-ixtiyoridan tashqari bo'lsin, obyektiv ijobiy oqibatlarini ko'rди, faxm etdi, o'zbek xalqining kelajagi, taqdiri, zamonaviy taraqqiyotga erishuvi faqat Rossiya va rus xalqi bilan hamkorlik va do'stlashuvda ekanligini o'z davrining ilg'or farzandi sifatida tushundi. Shubhasiz, shoir bunda ma'lum evolyutsiya jarayonini bosib o'tdi. Bunga aniq ishorani "Furqatnoma" ning quyidagi jumllarida ham ko'ramiz: Ho'qand va Marg'ilonda ekan vaqtimda, Rusiya rasmlarini mutlaqo bilmas erdim. Ul vaqtlarda Rusiya xalqidin baroq odamni bozorda ko'rsam, qochib yiroqdin o'tib ketar edim. Hatto o'ris bilan so'zlashgan odamni yomon ko'rar erdim. Toshkent shahriga kelib, bir necha vaqt turib, Rusiya xalqining odamlari bilan tanishib, oshno bo'lib, alarning ko'p rasmlarini ko'rdim va ko'rmaganimni so'rdim..." Furqatning ma'rifatparvarlik ruhidagi asarlaridan birinchisi – "Gimnaziya" rus-yevropa ta'lim-tarbiya, o'qituv sistemasiga madhiya sifatida jaranglaydi. Ayni zamonda, "Gimnaziya" obyektiv ravishda eski usuldagi maktablar ahvoliga tanqidiy nazar bilan qarash, yangi tartiblarni orzu qilish ruhi bilan sug'orilgan. Asar eski maktabning qotib qolgan chalasavod domlalariga qarshi qaratilgan tanqid sifatida ham ahamiyatlidir.

Adabiyot darsliklaridan turli millat vakillari o'rin olgan. Bulardan Abay, Janni Rodari, Chingiz Aytmatov, Ibroyim Yusupov, Mahtumquli, Pushkin va boshqalarning asarlari o'rgatiladi. Ularning asarlarini o'quvchilarga o'rgatishda millatlararo aloqa bilan bog'lagan holda olib borsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Millatlarararo aloqa adabiyot darslarining yetakchi xususiyati hisoblanadi. Shunday ekan, adabiyot darslarini o'qitishda millatlararo aloqaning o'rni va ahamiyatini alohida e'tiborga olib o'qitish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov. I. Vatanimizni bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash – bizning oliy maqsadimiz, Karimov Islom, T., 2009, 247-b
2. Boboyev To'xta Adabiyotshunoslik asoslari, T., "O'zbekiston" - 2002
3. www.ziyounet.uz

JA'HON ADABIYOTI NAMUNALARIDA G'OYA VA OBRAZ TALQINI

N. Allambergenova- Nukus DPI o'zbek adabiyoti kafedrası o'qituvchisi,

L. Abdullayeva- o'zbek tili va adabiyoti fakulteti 3- kurs talabasi

Amerikaning yetuk yozuvchisi Ernest Hemingueyning ijodida, asosan, maqsadga intilish, hayotga bo'lgan muhabbat, tirishqoqlilik kabi g'oyalarni uchratishimiz mumkin. Mazkur g'oyalar yuksak badiiy obrazlar vositasida ochib beriladi. T. Boboyevning "Adabiyotshunoslik asoslari" kitobida "Obraz – san'at

asardagi inson tasviri. Obraz atamasi haqidagi ilk fikrlarni mashhur yunon faylasufi Aristotelning estetik qarashlaridayoq uchratish mumkin". G'oya haqida esa "G'oya – asarda qo'yilgan va yoritilgan masalalarning mohiyatidan, xarakterlar talqinidan mantiqiy ravishda kelib chiqadigan xulosa". Shu kitobda N.G.Chernishevskiyning ham g'oya haqida bildirgan fikrlari keltirib o'tilgan." San'atning tasvir obyekti ustidan chiqargan "hukmi" – uning g'oyasidir", deyilgan. [1.102]

E. Hemingueyning "Chol va dengiz" qissasi g'oyasini Amerika adabiyotining yana bir vakili Jek Londonning "Hayotga muhabbat" hikoyasining g'oyasi bilan o'xshash tomonlarini ko'rishimiz mumkin. "Hayotga muhabbat"da yashashga bo'lgan tashnalik, o'z jonini saqlab qolish, maqsadga erishish singari g'oyalar talqin qilingan:

"U tez-tez egilib, rangsiz botqoq mevalarini uzib og'ziga solar va chaynab yutib borardi... Bu mevalar qorin to'yg'izmasligini u bilardi, shunday bo'lsa ham ularni sabr bilan chaynar...". [3.2]

"Chol va dengiz" qissasida ham ikkala mazmun jamlangan bo'lib, unda bir tomondan, oldiga qo'ygan maqsadga erishish bo'lsa, ikkinchi tomondan, yashashga bo'lgan ishtiyoq, tirik qolish orqali maqsadga erishish kabi mazmun ifodalangan:

"... chol uni chap qo'lga oldida, suyaklarigacha qo'ymay mijib, paq-paqqos yeb bitirdi...". [2.27]

Demak, ikkala asarda ham o'z maqsadiga erishishda hech narsadan tap-tortmaslik va qanday bo'lmasin qorinlarini to'ydirishga harakat qilish singari g'oyalar hamda vatanparvarlik, sabr-qanoat kabi tuyg'ulari tasvirlangan.

Bu ikki asarning yana bir o'xshash tomoni shundaki, asar qahramonlarining o'z jonlarini saqlab qolish uchun hatto och qolgan paytlarda xom baliqlarni iste'mol qilishdek voqealar tizimida ham o'xshashlik sezamiz:

"U, baliqlarni xomligicha og'ziga solib, hafsala bilan chaynay boshladi. Ishtahasi bo'lmasa ham, ovqat yeyishga o'zini majbur qildi, chunki yashamoq uchun ovqat yeyish zarurligini yaxshi bilardi". [3.3]

"U baliqning bir bo'lagini olib, og'ziga soldi, va ohista chaynay boshladi. Mazasi u qadar ko'ngil aynitar darajada emas edi". [2.17]

Bu ikki asar qahramoni ham oldilariga qo'ygan maqsadlariga erishadi va bu orqali o'zlarining sabr- bardoshli va kuchli ekanliklarini isbotlashadi.

Shu asarlardagi yana bir mutanosiblik ulardagi ikkita baliq va bo'ri obrazlarini qiyoslab o'tsak:

"Bo'ri uning qo'lini tishlari orasiga olib kuchining boricha qisdi, keyin u shuncha vaqtdan kutgan g'animatiga qattiqroq botiraverdi. Lekin odam ham shu paytni sabrsizlik bilan kutgandi, uning tishlangan qo'llari bo'rining jag'ini qisdi. Bo'ri bazo'r o'zini himoya qilardi". [3.6]

"Biroq ikki soat o'tibdi hamki, baliq hamon qayiq atrofida imillab aylangani aylangan edi. Chol qora terga botgan, charchaganidan burni yerga tekkuday bo'lgan edi. To'g'ri, baliq aylanayotgan doira anchayin qisqarib qolgan, bundan tashqari, chilvirning suvga tushib borishidan baliqning borgan sari

yuqoriga ko'tarilib kelayotganligi ko'rinib turardi... Baliq qayta-qayta simga zarb urar va har gal chol bosh chayqab, chilvir bo'shatar edi". [2.27]

Bu ikki obrazlar ham jonlarini saqlab qolishga intilmoqda, kurashmoqda, ana shu tasvirlar orqali ham asarlar o'rtasidagi mutanosiblikni sezishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, "Chol va dengiz" hamda "Hayotga muhabbat" asarlari g'oyasida maqsad tomon olg'a intilish, jonning shu daraja shirinligi, qanday

qiyinchilik, mashaqqat bo‘lmasin, inson barchasining uddasidan chiqishi va maqsadga erisha olish tuyg‘ulari mujassamlashgan asarlardir.

Adabiyotlar:

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – “O‘zbekiston” nashriyoti. Toshkent – 2001.
2. E. Heminguey “Chol va dengiz”. Ibrohim G‘afurov tarjimasi. “Yosh gvardiya” nashriyoti. Toshkent - 1986.
3. Jek London “Hayotga muhabbat” WWW.ziyouz.com

МУҲАММАД ЮСУФ ШЕЪРИЯТИДА ТАШБЕҲ САНЪАТИ

Н.Алламбергенова –Нукус ДПИ ўзбек адабиёти кафедраси ўқитувчиси

Қўзибоева Маҳлиё –Нукус ДПИ Ўзбек тили ва адабиёти факультети

3 -гуруҳ талабаси

Ҳар бир халқнинг кўзга кўринган санъат арбоблари, туғма талант соҳиблари бўлади. Бундай инсонлар ўзларининг иқтидори халқ олдидаги ҳолисона меҳнатлари сабаб бу ёруғ оламни тарқ этсалар-да, одамлар қалбида мангу яшаб қолади. Ана шундай зотлардан бири ўзбекнинг асл фарзанди, тўқсон икки томирида истеъдод барқ урган, ўзининг халқона оҳангга йўғрилган асарлари билан китобхонлар муҳаббатига сазовор бўлган шоир Муҳаммад Юсуфдир. Ўзбекистон Қаҳрамони Абдулла Орипов шоир ҳақида шундай деган эди: “Чинакам шоирнинг қалбида аллақандай соҳир қуш доимо сайраб туради, деган гапни кўп бора эшитгандик. Ўша қуш айнан Муҳаммаджоннинг, Муҳаммад Юсуфнинг, юрагида ошён қурганига мен астойдил ишонаман. Муҳаммаднинг кўзлари ҳам, чехраси ҳам ҳамиша латиф бир куйни хониш қилгандай эди”.

Муҳаммад

Юсуф ўз асарларида Ватан, она, табиат, севиқли ёрни юқори авж пардаларида куйлайди. Шоир ўз шеърларида ғоя-фикрнинг таъсир кучини оширишда шеърий санъатлардан, жумладан, ташбەҳ санъатидан ўринли фойдалана олган. “Ташбەҳ-Шарқ адабиётида кенг тарқалган санъатлардан бири бўлиб, луғатда “ўхшатиш” маъносини ифодалайди. Ташбەҳ икки нарса ёки тушунча орасидаги ҳақиқий ёки мажозий, моддий ёхуд маънавий ўхшашликлар ва муносабатлар асосида юзага келади” [1.255]. Муҳаммад Юсуф ташбەҳ санъатидан фойдаланган ҳолда гўзал лавҳалар яратади.

Шоирнинг “Онамдан хат” шеърида онанинг ўз фарзандига бўлган чексиз муҳаббати акс этган. Шоир онаси қалбидан ўтган изтиробларини ҳис этиб, унинг тилидан соғинчли шеърини битади. Бунда она ўзининг фарзандисиз қандай ғариб ҳолда эканини ифодалаш учун ўзини чакка ўтган эски томга, кўзёшларини эса ёмғирга қиёслайди ва ўз ўғлининг йўлига интизорлигини таъкидлайди:

Чакки ўтган эски томга ўхшайман,

Кўзимдан ёмғирлар тўкилар тинмай.

Бу ёруғ дунёда борми билмайман,

Ўз ўғли йўлига интизор

мендай... [2.94].

Муҳаммад Юсуф лирикасининг асосий мавзусини ишқ-муҳаббат ташкил қилади. Шоирнинг бу мавзуда яратилган ижод намуналарида фарзанднинг оилага, Ватанга, ошиқнинг эса маъшуқага бўлган самимий ва пок муҳаббати ўз ифодасини топган. Хусусан, “Сув пари” сарлавҳали шеърида ошиқ шоир қалбини ўғирлаган ва ишқ оловини ёққан севикли маҳбубасига бўлган чексиз муҳаббатини шундай ифода қилади:

кўкдаги ҳарир кўлак, ҳур-пари,

Сен

Кўк

кўлдаги тиниб қолган сув пари.

Муҳаммаднинг кўнглидаги дилбари,

Сени ҳеч ким севолмайди менингдек. [2.6].

Муҳаммад Юсуфнинг айрим шеърлари борки, улар бошдан охир ташбеҳлар билан зийнатланган. Буни шоирнинг “Ўксимагин, о юрак” шеърида ҳам кўришимиз мумкин. Бунда шоир отасини оқтеракка, онасини эса мажнунтолга қиёслайди:

Ўксимагин, о юрак,

Бўлма хомуш, бўлма лол:

Менинг отам **оқтерак,**

Менинг онам **мажнунтол.** [2.24].

Шоир “Ота” номли шеърида ҳам бадий-тасвир воситаларидан ўринли фойдалана билган. Бу асарда бетоб ётган отасини кўришга вақт тополмай, ижодга шўнғиб юрган шоир ўғилнинг изтироблари ифодаланган. Шоир ўзининг эътиборсизлигидан нолийди. Отасидан айро бу дунё шоир учун гўёки тўполон дарёнинг ўзи:

Кейин сиз кетдингиз. Бу ёруғ дунё-

Тўполон дарёни менга қолдириб.

Сўнгги ўтинчингиз айладим бажо,

Кўзларимни тўсган сочимни олдириб. [2.26].

Муҳаммад Юсуф ҳар бир фикрини ўқувчи китобхонларга образли тарзда етказишга ҳаракат қилган. У инсон қалбидаги энг самимий туйғу-севгини энг баланд шохдаги олмага қиёслайди ва унга етиша олмаганидан изтироб чекади. Изтиробда қолган ошиқ маъшуқасига бахт тилаб қолмоқда. Ҳақиқий ошиқгина ўзига насиб қилмаган севиклисига ҳам бахт тилаб, унинг бахтидан қувониб яшай олади:

Илк севги-**энг баланд шохдаги олма,**

Мен унга интилдим, етмади кўлим.

Сенга бахт тилайман, майли, ким бўлма,

Кунларинг хайрли бўлсин севгилим. [2.36].

Шоир

“Дунё бу” шеърида ҳам ташбеҳга жуда кўп мурожаат қилган. У дунёни подшоҳга, ирмоққа, дарёга, қулун, бола, момо, кўпкари ва сабога ўхшатади:

Бир қарасанг, **қулундайин** ўйноки,

Бўшатишган бўйнида бўйинбоғи.

Бир қарасанг, тизза тўла титроғи,

Бир кун **бола**, бир кун **момо** дунё бу... [2.172].

Шоир

бир қатор шеърларида, хусусан, “Онажоним”, “Онажон”, “Онаизор”, “Онамдан

хат”, “Бешинчи ўғил”, “Рафиқамга”, “Ўзбекнинг аёллари”, “Бор бўлсин” номли шеърларида опа-сингилларини, вафодор ёрини, меҳрибон онажонисини-бутун ўзбек аёлларини мадҳ қилар экан, ташбеҳ санъатидан моҳирона фойдаланган ҳолда гўзал бадиий лавҳалар яратади, инсоннинг инжа ҳис-туйғуларини сўзлар воситасида моҳирона тасвирлайди.

Адабиётлар:

1. Ф.Салаев, Г.Қурбониезов. Адабиётшунослик атамаларининг изохли сўзлиги. Т.: “Янги аср авлоди”, 2010.
2. Муҳаммад Юсуф. “Ёлғончи ёр”. Тошкент-2015.

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA FE’L SO‘Z TURKUMINI QIYOSIY O‘RGANISH

Shahnoza Safarboyeva-O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi
Hamza Allambergenov- Ilmiy rahbar

Hozirga kunda mamlakatimizda chet tillarini o‘rganish masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda. Mustaqillik yillarida chet tillarini o‘rgatish metodikasi tubdan qayta ishlab chiqildi va hozirgi kunda ham bu borada bir qator samarali tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, ingliz tilini o‘rganishga juda katta e’tibor qaratilayotgani hech kimga sir emas. Ta’limning qaysi bosqichida bo‘lmasin, bu tilni o‘rganishda tahlilning tipologik usulidan foydalangan holda o‘zbek tili bilan qiyosiy o‘rganish samarali uslub hisoblanadi. Ayniqsa, o‘zbek tilida ham, ingliz tilida ham lotin yozuvidan foydalanilishi til o‘rganish tizimini yanada osonlashtiradi.

Ingliz tilidagi „Irregular verbs“ deb nomlanuvchi noto‘g‘ri fe’llar o‘zbek tili nazariy grammatikasida berilmaydi. Zamon qo‘shimchalarining asosga qo‘shilishi esa ikkita tilga ham xos bo‘lgan umumiy belgilardir: Tom phoned me yesterday – Tom kecha menga qo‘ng‘iroq qildi. Ingliz tilida o‘n oltita zamon turi bo‘lishiga qaramasdan uning ma’nolarini o‘zbek tilidagi mavjud uchta zamon orqali yuzaga chiqarish mumkin. Bu esa ingliz tilini oson o‘rganishni ta’minlaydi.

Ingliz va o‘zbek tillarida fe’lning majhul nisbat shakli ham bir qator o‘ziga xos belgilarga ega. Majhul nisbat bajaruvchisi noma’lum bo‘lgan harakatni ifodalovchi fe’l shaklidir. O‘zbek tilida majhul nisbat shakli fe’lga maxsus -(i)l, -(i)n qo‘shimchalarini qo‘shish yo‘li bilan hosil qilinsa, ingliz tilida fe’lning oldiga tegishli yordamchi fe’llarni qo‘yish bilan yasaladi. Masalan, „The paper was cut with a knife – Qog‘oz pichoq bilan kesildi“ [G‘apporov: 106] Bu yerda „was cut“ fe’li o‘zbek tilidagi -il qo‘shimchasi ifodalagan mazmunni bildirmoqda.

Fe’lning nisbatida kuzatiladigan farq orttirma nisbat shaklida ham uchraydi. Bajaruvchining ta’siri bilan boshqa shaxs tomonidan bajarilgan harakatni bildiruvchi fe’l shakllari orttirma nisbat hisoblanadi. Orttirma nisbat shaklining yasaliş yo‘llari ikkila tilda bir xil emas.

O‘zbek tilida orttirma nisbat shakli -t, -dir (-tir), -giz, -gaz, -ir, -ar kabi qo‘shimchalar yordamida hosil qilinadi. Ingliz tilida orttirma nisbat shakli „have (or get) something done“ shaklida kerakli zamon va ko‘rinishda ish-harakat amalga oshirilgan qo‘shma fe’lning o‘rtasida joylashadi. Bunday tartib esa diqqat markazidagi narsaning aniqlanishini osonlashtiradi. Masalan: „Jill had the roof

repaired yesterday“ [Raymond Murphy: 92] – Jill kecha tomini tamirlatdi. Bu yerda -t orttirma nisbati qo‘shimchasi ifodalagan ma‘no „**had** the roof **repaired**“ shakli orqali yuzaga chiqmoqda.

Fe‘lning sifatdosh shakli ingliz tilida „Participle“ nomi bilan o‘rganiladi. Sifatdosh fe‘lning sifatga xoslangan shakli bo‘lib, gapda aniqlovchi vazifasini bajaradi va sifatning savollariga javob bo‘ladi. Har ikkala tilda sifatdosh shakllari zamon turlarining oz-ko‘pligi bilan ham farqlanadi. O‘zbek tilida sifatdoshning uchta, ingliz tilida esa beshta turi mavjud.

O‘zbek tilida sifatdosh fe‘lga -gan, -ar, -ayotgan, -vchi kabi qo‘shimchalarni qo‘shish orqali hosil qilinadi. Ingliz tilida esa fe‘l so‘z turkumiga -ing va -ed qo‘shimchalarini qo‘shish hamda yordamchi fe‘llar orqali yasaladi. Masalan: „A broken cup lay on the table – Singan piyola stolda yotardi“ [G‘apporov: 62]. Shuni alohida ta‘kidlash joizki, ingliz tilida sifatdoshlarning o‘rganilish doirasi birmuncha kengroq. Bu fe‘l shaklining har bir turi alohida mavzu sifatida o‘rganiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Raymond Murphy. English grammar in use, „ART FLEX“, Publishing House, 2013.
2. G‘apporov M., Qosimova R. Ingliz tili grammatikasi. Toshkent „TURON-IQBOL“, 2010.

ALISHER NAVOIY IJODI JAHON OLIMLARI NIGOHIDA

Sobirova Dildora -NDPI 2-“B” kurs talabasi

Allamberganova Nodira - Ilmiy rahbari:

Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov aytganidek: Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi, millatimizning g‘ururi, sha‘n–u sharafini dunyoga tarannum qilgan o‘lmas so‘z san‘atkoridir. Ta‘bir joiz bo‘lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so‘zlovchi biron-bir inson yo‘qki, Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e‘tiqod bilan qaramasa. [1. 47]

So‘z mulkining sultoni buyuk mutafakkir Alisher Navoiy bobomizning asarlari nafaqat o‘zbek xalqining balki, butun insoniyatning ma‘naviy me‘rosidir.

Navoiy asarlari dunyoning turli tillariga tarjima qilinib o‘rganilgan, shu jumladan, Navoiy ijodiga bo‘lgan qiziqish fransuz olimlari e‘tiborini ham chetda qoldirmadi. XIX asrning o‘rtalariga kelib, Navoiy ijodini keng tadqiq qilish, asarlarini tarjima va tahlil etish fransuz sharqshunosligida ham yuqori pog‘onaga ko‘tarildi. Navoiy g‘azallari Fransiyaning “Orohee La Difference” nashriyoti tomonidan chop etildi. “Gazels et autres poems” nomli ushbu kitobda Alisher Navoiy hayoti va ijodi haqida qisqacha ma‘lumot hamda asarlari, bibliografiyasi keltirilgan. Bundan tashqari, o‘sha vaqtlarda Fransuza – Alfons Belen (1817-1877) yirik tadqiqotlar yaratdi. Fransua Belen Misrga sayohati vaqtida Navoiy “Kulliyot”ini qo‘lga kiritdi. Mazkur “Kulliyot” 1649-yili Mashhadda ko‘chirilgan bo‘lib, Belenning ta‘kidlashicha hozirda bu “Kulliyot” Parijdagi milliy kutubxonada saqlanmoqda. 1900- yili nashr etilgan Sh.Sheferning “Arab, fors, va turkiy tillardagi qo‘lyozmalar majmuasi katalogida Alisher Navoiy qalamiga mansub asarlarining 16

ta qo'lyozma nusxasi keltirib o'tilgan bo'lsa, E.Bloshening "Milliy kutubxonada saqlanayotgan turkiy qo'lyozmalar katalogida esa 35 ta qo'lyozma nusxasi keltirib o'tilgan. Yana bir buyuk adib fransuz shoiri Jan – P'er Bal'f hazrat Navoiy she'riyatidan qilgan tarjimalari mundarijasini yanada kengaytirib, shoir tavalludining 550 yilligiga katta sovg'a tayyorladi. Parijdagi nufuzli nashriyotlardan sanalmish "La Diferans" kitob uyi 1991-yili Navoiy she'riyati majmuasi "G'azallar va boshqa poemalar" nomi bilan chop etdi. Shu qatorda mustaqillik yillarida O'zbekistonning Fransiya bilan aloqasi barcha jabhalarda keng rivojlandi, adabiyot va san'at sohasidagi hamkorlik yangi pag'onaga ko'tarildi.

Alisher Navoiy ijodi jahon jamoatchiligi olimlari tadqiqotchilari, adabiyotshunoslar tomonidan katta qiziqish va e'tibor bilan o'rganilib kelinar ekan, bu qiziqish va e'tibor Germaniya ijodkorlarini ham chetlab o'tmadi. Buni Germaniyadagi yirik ilmiy markazlardan biri – Berlin davlat kutubxonasida buyuk o'zbek shoiri va murafakkiri Alisher Navoiy tavalludining 575 yilligiga bag'ishlab "Alisher Navoiy va uning jahon adabiyoti hamda madaniyatiga qo'shgan hissasi" mavzusida xalqaro konferensiya ham dalolat beradi.

Ushbu tadbir mamlakatimizning Germaniya Federativ Respublikasidagi elchixonasi tomonidan Gumboldt nomidagi Berlin universiteti va Berlin davlat kutubxonasi bilan hamkorlikda tashkil etildi. Unda Germaniyaning yuzdan ziyod rasmiy ijtimoiy- madaniy, ilmiy – akademik, ekspertlar va madaniy doiralari vakillari, jurnalistlar hamda O'zbekiston, AQSH, Fransiya, Vengriya, XXR singari davlatlardan sharqshunos olimlar, navoiyshunoslar qatnashdi.

Jumladan, Berlin erkin universiteti professori Klaus –Piter Xaaze Navoiyning ijodiy me'rosiga bag'ishlangan mazkur xalqaro konferensiya Germaniya poytaxtining ilmiy va madaniy hayotida muhim voqea bo'lganini ta'kidaydi. Nemis olimi dunyodagi yirik madaniy markazlardan biri sifatida O'zbekiston o'zining buyuk ajdodari –shoirilar, olimlar, rassomlar va davlat arboblari behad e'zozlashini yuqori baholaydi. Taniqli nemis olimi Barbara Kellner –Xaynkele shunday deydi mazkur tadbir navoiyshunos olimlar ishtirokida yuqori darajada, taqdim qilingan ma'ruzalar, jumladan, o'zbekistonlik olimlarning chiqishlari axbortlarga juda boy va mazmunli bo'ldi. Taqdimotlar chog'ida Navoiy ijodining turli qirralari yuzasidan qator yangi fikr – mulohazalar, baholar va qarashlar bildirildi.

Qarang, dunyoning qay joyiga bormaylik O'zbekiston, o'zbek, deya hayrat nigohi bilan boqishadi. O'zbekiston Milliy universiteti professori Aftondil Erkinov ta'kidlaganidek, Alisher Navoiy tavalludining 575 yilligiga bag'ishlangan xalqaro konferensiyaning Germaniya poytaxtida o'tkazilishi jahon adabiyoti va madaniyati ravnaqiga bebaho hissa qo'shgan buyuk bobokalonimiz ijodiga nisbatan G'arbda katta e'tibor mavjudligidan dalolat beradi. Shunisi quvonarliki, Alisher Navoiy tavalludining nishonlanishi nafaqat O'zbekistonda, balki dunyo bo'ylab, jumladan, Germaniyada bunday katta konferensiyaning o'tkazilishi ham Navoiyga bo'lgan e'tibor naqadar kuchliligini yana bir bor isbotlaydi.

Navoiyga bo'lgan qiziqishning chet ellarda o'rganilishini unga atab qad rostlagan haykallar misolida ham ko'rishimiz mumkin. Shanxay universitetida Xitoy va O'zbekiston o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilganligini 25 yillik munosabati bilan buyuk o'zbek shoiri Alisher Navoiyning haykali ochildi. Shanghai

Dailyning xabar berishicha, bronza haykalining balandligi 3.6 metr, postament (haykal oʻrnatilgan maxsus supa) esa 1.8 metrga teng. Haykal loyihasi oʻzbek haykaltaroshi Ravshan Mirtojiyev tomonidan ishlab chiqilgan boʻlib, u bevosita xitoylik haykaltarosh tomonidan yaratildi.

Buyuk bobomiz Alisher Navoiy ijodi boshqa mamlakatlarda ham juda keng miqyosda oʻrganilmoqda. Xususan, uning asarlari jahondagi barcha tillarga tarjima qilinmoqda. Navoiy tavallud topgan kun, nafaqat, Oʻzbekistonda, balki chet davlatlarda ham keng miqyosda nishonlanishi har birimizni quvontiradigan holat. Jumladan, Navoiy bobomizga atab Tokio, Moskva, Boku kabi yirik shaharlarda haykallarning qad rostlashi ham unga boʻlgan eʼtiborning yuksakligidan dalolat beradi. Shunday ekan, har birimiz Navoiy asarlarini chuqur oʻrganishimiz, asrab avaylashimiz va bizdan keyingi avlodlarga yetkazish uchun xizmat qilishimiz darkor.

Adabiyotlar:

1. I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” Ma’naviyat Toshkent 2010
2. www.daryo.uz
3. www.uzbekiston.com

RIVOYATLARDA NAVOIY TIMSOLI

Hamza Allambergenov-Nukus davlat pedagogika instituti

Oʻzbek adabiyoti kafedrası oʻqituvchisi

Shahlo Tojiboyeva-Oʻzbek tili va adabiyoti taʼlim yoʻnalishi talabasi

Rivoyatlar muayyan xalqning tarixi haqida xabar beruvchi ogʻzaki ijod namunalaridir. Barcha davrlarda ulugʻ insonlar yoki tarixda boʻlib oʻtgan voqea va hodisalar haqida xalq tomonidan rivoyatlar yaratilib kelingan. XX asrda xalq rivoyatlarini toʻplash, tahrir qilish borasida tizimli ishlar yoʻlga qoʻyildi. Ana shunday ishlar samarasi sifatida 1991- yilda Mamatqul Joʻrayev tomonidan toʻplangan va Chori Avaz muharrirligida nashr ettirilgan „El desa Navoiyni“ nomli xalq yaratgan rivoyatlardan iborat kitobni koʻrsatish mumkin. Navoiy tavalludining 550 yilligiga hamda mustaqilligimizga toʻyona sifatida bunyodga kelgan ushbu majmua „Alisher bilan bulbul“ deb nomlangan oʻzbek xalq rivoyatlari, „Hozirjavob Mirali“ deb nomlangan turkman xalq rivoyatlari va Xondamir qalamiga mansub „Makorim ul-axloq“ („Yaxshi xulqlar“) asaridagi hikoyatlarini jamlagan „Saodatli Amirning sifatleri“ deb nomlangan 3 qismdan iborat.

Mazkur kitobda buyuk mutafakkir hayoti va faoliyati bilan bogʻliq turfa xil qiziqarli voqea-hodisalarni oʻz ichiga jamlagan rivoyatlarni uchratamiz. Bu rivoyatlarda Alisher Navoiy xalqning suyangan togʻi, xalq manfaatlarini har narsadan ustun qoʻyuvchi hamda himoya qiluvchi jonkuyar davlat arbobi, saxiy va koʻngli ochiq, donishmand inson sifatida gavdalanadi. Chunki „rivoyat va hikoyatda ulugʻ kishilarning hayoti va faoliyati bilan bogʻliq boʻlgan muhim voqea-hodisalar bayon etiladi, ularning shaxsiy sifat, xislat va fazilatleri taʼrif-tavsif qilinadi. Real voqelik zaminida vujudga kelgan rivoyat va hikoyatda tarixiy haqiqat fantaziya va ijodiy toʻqima bilan birgalikda yoʻgʻriladi. [Mallayev: 300]. Shu maʼnoda, mazkur janr turining afsonadan koʻra hayot haqiqatiga nisbatan yaqinligini ham unutmashlik kerak. „Agar afsonalar toʻlaligicha ajdodlarimiz tomonidan oʻylab topilgan toʻqima

hikoyatlardan iborat bo'lsa, rivoyatlar hayotda ro'y bergan qandaydir tarixiy voqealarga asoslanadi". [Madayev: 53]

Darhaqiqat, „El desa Navoiyni“ kitobidagi rivoyatlarda xalq orzu qilgan Navoiy timsoli ostida, haqiqatdan ham, real hayotga yaqin bo'lgan voqealarga duch kelamiz. Mazkur rivoyatlarni katta-yu kichik yoshdagi barcha kitobxonlar qiziqib mutolaa qiladigan kitob namunasi sifatida tavsiya qilish mumkin. Kitobxon rivoyatlardagi bosh qahramonning atrofdagi insonlar uchun qilgan yaxshiliklari-yu, amalga oshirgan xayrli ishlarini o'qib, kerakli xulosalar chiqaradi. Jumladan, „Sharaflı burch“ deb nomlangan rivoyatda keltirilishicha, mavlono Alisher Navoiy bir kuni mulozimlari bilan tog' sayridan qaytayotgan ekan. Qabrıston yoniga kelganda yuz qadamcha berida otdan tushib, boshini quyi solib sekin yura boshlabdi. Mulozimlar ham otdan tushib unga ergashibdilar. Qabrıstondan uzoqlashgandan keyin yana otga minib, yo'lda davom etadilar. Mulozimlaridan biri qiziqib, nima sababdan bunday qilganligini so'raydi. Shunda Navoiy ancha vaqt sukut saqlab turadi-da, keyin shunday javob beradi:

„Bu yerda xalqimizning jigargo'shalari, tabarruk padari buzrukvorlari mangu uyquga ketganlar. Bular yonidan ot choptirib, changitib o'tish insonlik sha'niga isnoddir, nahotki shuni ham bilmasalaring? Buni bilmaslik – tiriklikdagi o'liklikdir. Ota-bobolar hokini, xotirasini e'zozlamoq har bir kishning sharaflı burchidir“ [„El desa Navoiyni“: 26].

Ushbu rivoyatda ko'tarilayotgan masala, bizningcha, hech qachon davr tanlamaydi. Bu – ma'naviyat, ajdodlarga bo'lgan bo'lgan hurmat, oliy qadriyatlarimizning bir uchqunidir.

Yoki „Yaxshidan bog' qolar“ rivoyatiga e'tibor bering. Unda hikoya qilinishicha, bahor kunlarining birida Husayn Boyqaro saroyda yolg'iz o'zi zerikib, anchadan beri ko'rmagan do'sti Navoiydan xabar olay deb yo'lga o'tlanadi. Borib qarasa, Navoiy bog'da ko'chat ekayotgan ekan. Husayn do'sti bilan so'rashib, unga ta'na qiladi. Hozir ekilayotgan yong'oqlar qachon hosilga kiradi-yu, qachon meva berishini, undan ko'ra umr oxirida mana shu bog'dagi mevalarning boriga qanoat qilib, soya-salqında tinchgina g'azal bitib o'tiraverishi mumkinligini aytadi. Rivoyatda Husaynga berilgan javob g'oyat ibratli:

„Do'stim, yaxshidan bog' qoladi, degan naqlini eshitganmisiz? Men bu ko'chatlarni o'zim uchun emas, mana shu mahallamiz ko'chalarini changitib yurgan bolakaylar, balkim ularning ham bolalari uchun ekyapman. Bir kun kelib, shu ko'chatlarning har biri azim daraxt bo'lib, hosil bera boshlasa, odamlar uning mevasidan totib ko'rishganda, „Bu bog' Mir Alisherdan qolgan!“ – deyishsa, shuning o'zi menga har qanday ne'matdan lazatliroqdir“.

Do'stining saxovatiga qoyil qolgan Husayn Boyqaro Alisherga bir hamyon tilla hadya qiladi. Rivoyat so'ngi Navoiyning kichik yumorga yo'g'rilgan javobi bilan tugaydi: „Ana ko'rdingizmi, do'stim! Ekayotgan ko'chatlarim hozirdanoq hosil bera boshladi“.

Bu kabi rivoyatlar orqali Navoiyning qaysi fazilatları bilan xalq ardog'i va hurmatiga sazovor bo'lganligini yana bir bor anglaymiz. Demak, Alisher bizga faqat bebaho asarlarini emas, balki o'zining ajoyib insoniylik fazilatlarini ham meros qilib qoldirdi. Chunki xalq og'zaki ijodiga mansub bo'lgan ushbu rivoyat kitobxonni

mehnat qilishga, o'zidan kelajak avlod uchun yaxshi nom va ezgu narsalar qoldirishga, vaqtdan unumli foydalanishga undaydi.

Ayniqsa, kichik yoshdagi kitobxonlar tarbiyasida bu kabi rivoyatlarning o'rni juda katta. Negaki ular ertak va rivoyatlarni eshitishni, o'qish orqali o'zlarida bosh qahramonning ijobiy xislatlari mujassam bo'lishini xayol qiladilar va ularga aylanib qolgandek tasavvur qiladilar. Bu orqali bolalar tasavvurida Alisher Navoiy siymosi har jihatdan to'liqroq gavdalanadi. O'zlarida ijobiy xislatlarni, axloq va nafosat tarbiyasini, eng asosiysi, ma'naviy tarbiyani hosil qiladilar.

Adabiyotlar:

1. El desa Navoiyni. (Hazrat Mir Alisher Navoiy haqida rivoyatlar) To'plovchi va nashrga tayyorlovchi Jo'rayev M. Toshkent, „Cho'lpon“, 1991.

1. Madayev O., Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. Toshkent, „Sharq“, 2010.

2. Mallayev N. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1974.

SHAXS KAMOLOTIDA «ALPOMISH» DOSTONINING O'RNI

Allamberganova Nodira Gulmurzaevna-Nukus DPI O'zbek adabiyoti kafedrası o'qituvchisi

«Alpomish» dostonining turkiy xalqlar orasida keng tarqalgani barchamizga ayon. O'zbeklarda «Alpomish», qoraqalpoqlarda «Alpamis», qozoqlarda «Alpamis botir», oltoyliklarda «Alp Manash», qozon tatarlarida «Alpamsha», boshqirdlarda «Alpamsha va Barsin Hillu» [2-238] nomlari bilan mashhur bo'lgan mazkur asarlar qariyb bir asrdan buyon folklorshunoslik diqqatini o'ziga jalb qilib kelmoqda. Chunki «Alpomish» dostoni bizga vatanparvarlik fazilatlaridan saboq beradi, odil va haqgo'y bo'lishga, o'z yurtimizni, oilamiz qo'rg'onini qo'riqlashga, do'stu yorimizni, ornomusimizni, ota- bobolarimizning muqaddas mozorlarini himoya qilishga o'rgatadi» [1-33].

«Alpomish» dostoniga ilmiy munosabat o'zbek folklorshunosligida kattagina hajmga ega. Ta'kidlash joizki, dostoniga munosabat g'oyat xilma-xildir. Xalqimiz dardu intilishlari, orzulari ifodasi bilan yo'g'rilgan mazkur badiiy polotnoga ne-ne tuhmat toshlari otilmadi, asar qahramonlaridan tortib uni kuylagan baxshilar sha'niga ne-ne mag'zavalar to'kilmadi. Xalq ijodiyoti jonkuyarlari va millatparvar ziyolilar say'i harakatlari tufayligina doston sotsialistik qatog'on qilichidan asrab qolindi.

Qayd etish lozimki, XX asr folklorshunosligida «Alpomish» dostoniga bag'ishlangan o'nlab tadqiqotlar yaratildi: monografiya, risola va maqolalar e'lon qilindi; dissertatsiyalar yoqlandi. Bu jarayon bugungi kunda ham davom etmoqda. Mazkur tadqiqotlarda buyuk dostonning g'oyaviy-badiiy jihatlari, qahramonlar xarakteriga xos bo'lgan mardlik va vatanparvarlik, do'stlik va salbiy qahramonlarga xos bo'lmish illatli xususiyatlar ochib berilmoqda. Asarning xalq ma'naviyati tarixidagi o'rni va roli xususidagi mulohazalar o'rtaga tashlanmoqda. Doston u yoki bu jihatlari uzoq-yaqin xalqlar folkloriga mansub asarlar bilan chog'ishtirilib, muayyan xulosalar chiqarilmoqda. Ularning qariyb barchasida ta'kidlanayotgan bitta ilmiy haqiqat shuki, doston turkiy xalqlar tarixi bilan uzviy bog'liq bo'lib, uni o'qish va o'rganish avlodlar uchun ham ma'rifiy-tarbiyaviy, ham ma'naviy-estetik ahamiyat kasb etadi.

Shunday ekan, ushbu asarni umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'rganish tamoyillarini ishlab chiqish, dostonning umuminsoniy g'oyalarini o'quvchilarga etkazishning samarali usullarini tadqiq qilish zamonaviy adabiyot o'qitish metodikasining dolzarb masalalaridan sanaladi.

Alohida ta'kidlash o'rinliki, mamlakatimiz ko'pmillatli davlatdir. Respublikamiz maktablarida mamlakatda istiqomat qilayotgan 100 ga yaqin millat va elatlarga mansub bolalar bir ota-onalar farzandlaridek yonma-yon o'tirishib ta'lim olishmoqda. Ushbu do'stona vaziyatni yanada mustahkamlash, o'tmish va tarixiy qadriyatlarga o'zaro hurmatni shakllantirishda «Alpomish» dostoni juda muhim vazifa bajarishiga hech qanday shak-shubha yo'q. Chunki bu dostonlar har bir avlod alpomishlari kamolga keltirishida jiddiy ma'naviy omil bo'lib xizmat qilgan va shunday bo'lib qolaveradi.

Adabiyotlar:

1. Karimov.I.A.Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch.Tosh.2008.
- 2.O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 1-jild.
4. Alpomish. T.: "Sharq" 2010.
4. Alpamis. Nukus.: "Qoraqalpog'iston". 2007.

МУНДАРИЖА

СЎЗ БОШИ.....	3
---------------	---

1-СЕКЦИЯ

ЎЗБЕК ТИЛШУНОСЛИГИ: ТИЛ ЎҚИТИШ НАЗАРИЯСИ ВА МЕТОДИКАСИ

Ибрагимов Ю.М. Ўзбек тилшунослигида пресуппозиция ҳодисаси хусусида.....	5
Қурбаниязов Г.А. Соматик ибораларда партонимия.....	8
Юлдашева Ш.Ш. Филологик таълимда ақлни қўллашда меъёр масаласи.....	10
С.Жалилов. Терминлар аниқлиги ва адабий меъёр.....	13
Atiyazov S., Haytbayev.O. Nutq uslublari mavzusini o‘tish orqali talabalarda to‘g‘ri nutq tuzish ko‘nikmalarini rivojlantirish.....	15
Султанова А, Сапаева Ф Ўзбек ва қорақалпоқ тилларидаги грамматик терминларнинг ўзига хос хусусиятлари.....	17
Султанова А, Кабулова Д. Умумтаълим мактабларининг 5-9-синфлари учун ўзбек тилидан тузилган ўқув дастури бўйича мулоҳазалар.....	19
Atiyazov S, Jumamuratova S. Xalq dostonlarida shevaga xos fe‘l shakllarining qo‘llanishi.....	21
Bobojonov F, Kamalova G. O‘zbekona mulqotda tanishuv bosqichi.....	22
Мамбетова Г. – Қарақалпақстанның арқа районлары зоогидронимлери..	25
Шынназарова С, Султамуратов Ж. Кенимех қарақалпақларының тиллик өзгешеликлери ҳаққында мийнет.....	27
Адилова Г. Қарақалпақстан қазақлары тилиндеги жерлеў дәстүрине байланыслы этнографизмлер.....	28
Утемуратов Б. Баслаўыш тәлим ана тилин оқытыўда гүрриң методдынан нәтийжели пайдаланыў.....	31
Хайитова Л. Afsona va maqollarning badiiy asardagi o‘rni (Ahmad A‘zam qissalari misolida).....	33
Ibodullayeva I. Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalarida sof ko‘makchilarning qo‘llanilishi.....	34
Qudanova Z. Ona tili darslarida diktantlarni tashkil etishning zamonaviy usullari.....	36
Xudayarova M., Egamberganova G. Zoonimlarning badiiy asarlardagi talqini.....	37
Atajanova I, Ibragimov Yu.M. Nutq o‘stirishning ilmiy metodik asoslanishi.....	39
Jumaniyozova A, Ibragimov Yu.M. Maqollar, ularning sintaksisni o‘rganishdagi ilmiy va tarbiyaviy ahamiyati.....	41
Ibragimov Yu.M, Rajabova N. O‘zbek shevalarini o‘rganishning ilmiy ahamiyati.....	43
Ibragimov Yu.M, Saparboyeva M. Sifatlarda konversiya hodisasi.....	44
Ibragimov Yu.M, Saparova Y.J. Bo‘lishli- bo‘lishsizlik va uning tasdiq-inkordan farqi.....	46

Ibragimov Yu.M, Jumaniyozova G.M. Dialektal frazeologizmlar shakllanishining nazariy-amaliy asoslari.....	48
Ибрагимова З.Ю, Ўрозбоев П.З. Мақол-маталларнинг семантик-грамматик хусусиятлари.....	50
Ибрагимова У.Ю, Таълим жараёнида нутқ ўстиришнинг аҳамияти.....	53
Ibragimov Yu.M, Jumanova N.P. Yuklamalar mavzusini pedtexnologiyalar asosida o'rgatish.....	55
Atiyazov S, Ibrohimova D. Yuqori sinflarning ona tili darslaridamustaqil ishlarning o'rni.....	57
Xudayarova M, Aytbaeva G. Qoraqalpog'iston Respublikasi hududidagi ayrim oykonimlar.....	58
Atiyazov S, Xalmuratova D. O'quvchilarini kichik guruhlariga bo'lib o'qitishning afzalliklari.....	59
Yeshbayeva D. Alisher Navoiy va tibbiot.....	63
Yuldasheva Sh, Tursunova G. 8-sinfda Sodda yig'iq va sodda yoyiq gaplarni o'rgatish tajribasidan.....	65
Yuldasheva Sh, Gulmanova Q. Ona tili ta'limi uchun audodasturlar yaratish va foydalanish texnologiyalari.....	69
Yuldasheva Sh, Karimova S. O'quvchi portfoliosi va uning til ta'limi uchun ahamiyati.....	72
Yuldasheva Sh, Yuldasheva X. Til o'qitishda loyihali ta'limning afzalliklari.....	74
Yuldasheva Sh, Davletova M. Til ta'limi uchun o'rgatuvchi dasturlar.....	77
Davlatmurodov I, Husainova D. Hozirgi o'zbek tilining leksik qatlamida arab tilidan o'zlashgan "a" harfi bilan boshlanuvchi so'zlarning qo'llanilishi.....	79
Davlatmurodov I., Axmadova M. Boburning so'z qo'llash mahorati.....	80
Jalilov S., A.Xasanova. Алишер Навоийнинг "Муншаот" асарида умумхалқ тили лексемаларидан фойдаланиш.....	82
Jalilov S., Ibodul Sh. Qo'shma gaplarni yangicha yo'nalishda o'rganishning samarali usullari.....	83
Xudayarova M, Yakupova G. O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini shakllantirish.....	86
Yuldasheva Sh, Adilova Sh. Til ta'limida integrativ yondashuv.....	87
S.Atiyazov, O.Xaytbaev. Ona tili ta'limi jarayonida sathlararo bog'lashni rivojlantirish.....	89
Bekjanova M. O'zbek tilini o'qitishda elektron axborot-ta'lim vositalarining o'rni.....	92
Жалилов С, Сапарбаева Ю. Ўзбек ва қорақалпоқ тиллари ижтимоий-сиёсий терминлари тарихидан.....	96
Yusupova G .Boshlang'ich sinf "o'qish" darslarida o'quvchi kompetentsiyasini shakllantiruvchi metodlar.....	98

Xalmuratova D. ,Jumamuratova S. 6-sinfda “Qadimiy va navqiron shaharlar” mavzusini o‘rganish (Talim boshqa tillardagi maktablar uchun)....	100
Xalmuratova D. ,Jumamuratova S. Bir yil tut ekan kishi, yuz yil gavhar teradi.....	104
И. Давлатмуродов. “Араб тилида жинс категорияси” модулини ўқитишга доир инновациялар ва илғор хорижий тажрибалар.....	109
Худаярова М.Т. Ўзбек тили дарсларида ўқувчиларнинг нутқий малакаларини ўстириш усуллари.....	111
Salieva P., Boshlang‘ich sinflarda ona tili va o‘qish darslarini integratsiyalashning o‘ziga xos usullari.....	112
Urazbayeva D., Ona tili ta’limi va ish daftarlari.....	114
Karimova S., Yuldasheva Sh. O‘quvchi portfoliosi va uning til ta’limi uchun ahamiyati.....	116

2-СЕКЦИЯ

ЎЗБЕК АДАБИЁТШУНОСЛИГИ: ЎҚИТИШ НАЗАРИЯСИ ВА МЕТОДИКАСИ

К.Ташанов. Бадий адабиётда маънавий етуклик ва тубанлик инкифоши.....	119
Алламбергенов Ҳ. Герадотнинг «Тарих» китобида сақланиб қолган скифлар тўғрисидаги афсоналар ҳақида.....	120
G.Pashieva., E.Axtamova .Istihfom san’atining ijodkorlar ijodiyotidagi talqini.....	122
Matyakupov S., Hafizova M Muhammad yusuf’s creative spiritual review..	124
Matyakupov S., Qudanova Z. Akademik litseylarda erkin vohidov ijodini mustaqil ta’lim mashg‘ulotlarida o‘rgatishning samarali usullari.....	126
Xayitova L. Afsona va maqollarning badiiy asardagi o‘rni (Ahmad A’zam qissalari misolida)	129
Matyakupov S., Mirhoshimova Sh. “Jimjitlik” va “ikki eshik orasi” romanlarida qahramonlar ruhiyatidagi mutanosiblik.....	131
Allamberganova N., Saburova M. Navoiy asarlari matnida ishlash.....	133
Aldasheva Sh., Sultanova S. Said ahmad ijodida “avlodlar mojarosi” talqini.....	135
Matyakupov S., Mavlonova N. Navoiy lirikasining o‘ziga xosligi va janr xususiyatlari”	136
Matyakupov S., Yuldasheva A., Hayitniyazova S. Ilhom Zoyir nasrining o‘ziga xosligi.....	138
Allambergenov H., Qo‘shayeva N. „Kuntug‘mish“ dostonida tarbiyaviy-axloqiy masalalar talqini.....	140
К.Ташанов ., Қурамбоева Н. “Икки эшик ораси” асарида фожеа ва фожеавийлик талқини.....	142
llambergenov H., Bidashev. „Kuntug‘mish“ dostonini o‘rgatishda multimediya vositalarining ahamiyati.....	145

К.Ташанов ., Yusufova I. CH. Айтматовning “asrga tatigulik kun” romanini adabiyot darslarida o‘qitish usullari.....	147
Бекчанова С. Нақлларда миллийликнинг ақс этиши.....	150
Ruzimov Sh., Muxammadiyarov A. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalarining o‘rta asr jahon adabiyoti namunalari bilan o‘xshashliklari...	152
Шразов А. - Тарийх сабақларида «Бумеранг» технологияси пайдаланиў.....	154
Bekchanova S., Qurayozova G. Adabiyot darslarida millatlararo aloqa.....	156
Allambergenov N., Abdullayeva . Jahon adabiyoti namunalarida g‘oya va obraz talqini	157
Алламбергенова Н., Қўзибоева М. Муҳаммад юсуф шеърларида ташбеҳ санъати.....	159
Allamberganova N., Sobirova D. Alisher Navoiy ijodi jahon olimlari nigohida.....	151
Allambergenov H., Safarboyeva Sh., O‘zbek va ingliz tillarida fe‘l so‘z turkumini qiyosiy o‘rganish.....	152
Allambergenov H., Tojiboyeva Sh., Rivoyatlarda navoiy timsoli.....	164
Allamberganova N. Shaxs kamolotida «alpomish» dostonining o‘rni.....	166

2017 йил «Халқ билан мулоқот ва инсон манфаатлари» йили
Давлат дастури доирасида ўтказилаётган
«Ўзбек филологиясининг илмий-назарий масалалари ва ўқитиш технологиялари»
мавзусидаги
Республика илмий-назарий анжуман

МАТЕРИАЛЛАРИ

2017-жыл «Халық пенен пикирлесіў хәм инсан мәплери» жылы Мәмлекетлик бағдарламасы
шеңберинде өткерилетуғын «Өзбек филологиясының илимий-теориялық мәселелери хәм
оқытыў технологиялары» атамасындағы Республикалық илимий-теориялық конференция

МАТЕРИАЛЛАРЫ

Тўплам Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти Кенгашининг
2017-йил 21- апрель кунги навбатдан ташқари 8-сонли қарори билан нашр қилишга
тавсия қилинди

Техник редактор: О.Хайтбаев
Оператор: И.Мадияров

Ўжинияз атындағы НМПИ редакция-баспа бўлими

**Ўжинияз атындағы НМПИ баспаханасында басылган. 2017-ж.
Буйыртпа №0279. Нусқасы 100 дана. Форматы 60x84 Көлеми 10, б.т.7
230105, Нөкис қаласы, А.Досназаров көшеси, 104. Реестр №11-3084.**